



**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Namangan davlat pedagogika instituti Filologiya kafedrası
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrası
Namangan davlat chet tillari instituti
Ixtisoslashgan ta'lim muassasalari agentligi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Namangan viloyati boshqarmasi
bilan hamkorlikda o'tkazilgan**

**“YANGI O'ZBEKISTONDA O'ZBEK ADABIY TILINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR,
YECHIMLAR, TAVSIYALAR”**

mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami

NAMANGAN – 2025

УДК:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yundagi Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-289-son Qarorlari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil _____ qo‘shimcha o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar to‘g‘risidagi _____-sonli buyrug‘ida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida — “YANGI O‘ZBEKISTONDA O‘ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR, TAVSIYALAR” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Konferensiya materiallaridan pedagoglar, oliy ta’lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

| | |
|------------------------|---|
| S.Matchanov | – pedagogika fanlari doktori, professor (ChDPU); |
| K.M.Mavlanova | – filologiya fanlari doktori, professor (ToshDO‘TAU); |
| R.Zamilova | – pedagogika fanlari doktori, professor (NamDPI); |
| Sh.Ubaydullayev | – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (NamDPI); |

Tashkiliy qo‘mita:

M.Qodirxonov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;
J.Yuldashev – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;
M.Y.Sobirova – pedagogika fanlari doktori, professor;
R.T.Tillayeva – Filologiya kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent.
E.A.Abdulvohidov – p.f.f.d. (PhD), dotsent;
M.B.Ikramova – Filologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
A.I.Toshpo‘latov – Filologiya kafedrasini o‘qituvchisi;
S.M.Qozaqova – Filologiya kafedrasini o‘qituvchisi.

“YANGI O‘ZBEKISTONDA O‘ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR, TAVSIYALAR” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining _____ 2025-yildagi _____ sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № _____).

Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.

SO‘ZBOSHI

Til – bebaho ma’naviy boyluk, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, an’anaviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat, insoniylik jamiyatining asosi, milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri. Millat va uning tili bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Millat tarixi qancha uzoqqa borib taqalsa, til ham shuncha qadimiy. Qaysiki davrda millat taraqqiy etgan bo‘lsa, shu davrda uning tili ham taraqqiy etadi: uning mavqeyi, maqomi masalasi kun tartibiga chiqadi, ushbu tilda o‘lmas badiiy, ilmiy asarlar yuzaga keladi.

Jahon ta’lim tizimida islohotlarning o‘zgarishi pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuvlarni amaliyotga faol joriy etishni taqozo etmoqda. Ta’lim jarayonini zamonaviy yondashuv asosida talabalarga insonparvarlik tarbiyasini berish hamda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ta’lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari malakali ijodkor kadrlar tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Bu borada, Bolonya jarayoni doirasida o‘qitishning faol va interfaol shakllari variativligini ta’minlash, zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy pedagogik ijodkorligini rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda antroposentrik yo‘nalishni gumanitar fanlarning yangi asrdagi yetakchi yo‘nalishlaridan biri deb hisoblanib, jamiyatda insonning o‘rnini o‘rganish va buning markaziga insonni qo‘yishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, filologik fanlarni o‘rganish va o‘rgatishda ta’lim oluvchilarning kreativ kompetentligini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishning yangi metodlari mohiyatini ochib berishda zamonaviy yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta’limning yangi paradigmalari o‘tish nafaqat talabalarining o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishiga innovatsion yondashuvlarni, shu bilan birga, ayni jarayonni ta’minlashga imkon beruvchi metodologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Respublikamizda oliy ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta’lim mazmuni va metodikasiga, uning

samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo‘ymoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash ko‘rsatmasi bu boradagi ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko‘tarishga zamin hozirlaydi. Unda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonlari hamda boshqa ko‘plab qarorlari belgilangan ustuvor vazifalar mazmuni ta’lim sifatini ko‘tarish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, 3 pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, inson qadrini ulug‘lash, zamonaviy yondashuv tamoyillari va texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ona tili ta’limi jarayonida zamonaviy yondashuv asosida bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF- 6108-son, 2019-yil 21-oktabrdagi O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5850-son Farmonlari, shuningdek, davlat dasturi loyihalarida Ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili

sifatidagi nufuzini oshirish zarurligi alohida ta'kidlanganligi hamda mazkur mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur konferensiyalar muayyan darajada xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, huquqiy davlatchilikka asos solindi. Mustaqillikka ilk qadamlar tashlanayotgan davridayoq o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. Hozirgi kunda o'zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san'at sohaslarida faol qo'llanilmoqda, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, bugungi globallasuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Insoniyat tarixida tilga doimo katta e'tibor berib kelingan. Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgan oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur, degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi. Xalq taqdiri – ona tili taqdiriga bevosita bog'liq. Zero, ona tilini yo'qotmoq – millat ruhi, tarixini yo'qotmoqdir. Dunyo xalqlari bilan muloqotga kirishish, do'stlik rishtalarini bog'lash va tinchlikni saqlashda tilning o'rni beqiyos. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari tajribasini o'rganish, uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'qitish jarayonida ona tilining ahamiyati (interferensiya) kabi dolzarb masalalar, bu yo'nalishda ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari muhokama qilish dolzarbligi davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida 2012-yil 10-dekabrda PQ 1875-son qarorini bajarish hamda uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha 4 davlat ta'lim standarti, chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga bosqichma-bosqich amaliyotga joriy

etish natijasida hozirgi davr talabalarida ertangi kunda raqobatga chiday oladigan tillarni bilish qobiliyati shakllanmoqda.

So‘nggi to‘rt-besh yil o‘zbek tili tarixiy taraqqiyotida muhim davr sifatida tarixga kirdi, o‘zbek tilining yangi renessansi boshlandi desak, mubolag‘a qilmaymiz. Qisqa vaqt orasida jonajon ona tilimiz taqdiriga doir bir necha muhim huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qonun, farmon, qarorlar qabul qilinishi va ularning ijrosini ta‘minlashning kuchli mexanizmi ishlab chiqilishi, katta miqdordagi moliyalashtirish tizimi yaratilishi, ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan – Biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz, deya e‘tirof etilishi mamlakatimizda davlat tili rivojiga berilayotgan e‘tiborning amaldagi ifodasi bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-apreldagi O‘RQ-615-sonli qonuni bilan 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilanishi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi, 2020-yil 20- oktabrdagi PF-6084-son Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 989-son Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqidagi, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar til siyosati borasida olib borilayotgan ishlarning davomiyligini isbotlaydi. Ayniqsa, Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident farmoni hamda bu farmon asosida uchta muhim hujjat – 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til

siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi hamda 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarining tasdiqlanishi bu boradagi salmoqli ishlardandir. Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya ham an’anaviy konferensiyalardan farqli ravishda, keng jamoatchilikka zamonaviy axborot texnologiyalari orqali istalgan joydan virtual bahs-munozaraga kirishishi mumkin bo‘lgan onlayn shaklda amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbir o‘zbek tilining nufuzini oshirish, sohaga yangi innovatsion loyihalar kiritish singari ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Xusanov Bahodir Ergashevich,

Namangan davlat pedagogika instituti rektori

1-SHO‘BA: FILOLOGIK TA‘LIMDA SUN‘IY INTELLEKT: MUAMMO VA YECHIMLAR

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI

*Gulnoza Abdurahimova,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘zbek tilini o‘qitishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Sun‘iy intellekt o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, individual yondashuvni kuchaytirish va interaktivlikni ta‘minlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda AI asosidagi dastur va platformalarning ta‘lim samaradorligiga ta‘siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun‘iy intellekt, o‘zbek tili, ta‘lim, texnologiya, interaktivlik

Annotation: This thesis highlights the possibilities of using artificial intelligence technologies in teaching the Uzbek language. Artificial intelligence is considered as an important tool to improve efficiency, enhance individual approaches, and ensure interactivity in the learning process. The study examines the impact of AI-based programs and platforms on the effectiveness of education.

Keywords: artificial intelligence, Uzbek language, education, technology, interactivity

Аннотация: В данной тезисе рассматриваются возможности использования технологий искусственного интеллекта в преподавании узбекского языка. Искусственный интеллект рассматривается как важный инструмент для повышения эффективности, усиления индивидуального подхода и обеспечения интерактивности в учебном процессе. В исследовании анализируется влияние программ и платформ на основе ИИ на результативность обучения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, узбекский язык, образование, технология, интерактивность

Globalashuv jarayonida ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari til o'qitish jarayoniga tatbiq etilishi bilan yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Ta'lim jarayonining samaradorligi bevosita uning metodik asoslariga bog'liqdir. Metodika – bu nafaqat o'qitish jarayonida qo'llaniladigan usullar yig'indisi, balki ta'limni ilmiy asosda tashkil etish, maqsadga erishishning eng maqbul yo'llarini belgilovchi tizim hamdir [2.98]. Har bir fan, xususan, o'zbek tili o'qitish metodikasi, o'quvchiga bilim berish bilan birga, uning tafakkuri, nutqiy kompetensiyasi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini shakllantirishni ham ko'zda tutadi. Zamonaviy ta'lim tizimida metodika an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda innovatsion, interaktiv va texnologik imkoniyatlarga tayangan holda boyib bormoqda. Masalan, kommunikativ metodlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, sun'iy intellekt yondashuvlari o'zbek tili darslarida ham keng qo'llanilmoqda. Shunday ekan, metodika ta'lim tizimining ajralmas bo'lagi sifatida, nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, o'quvchilarni hayotga tayyorlashda ham muhim o'rin tutadi. Metodikani chuqur o'rganish va uni to'g'ri tatbiq etish orqali o'qituvchi darsni samarali, o'quvchi uchun esa qiziqarli va foydali tarzda tashkil eta oladi [1.59]. Shu sababdan metodika pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodika – bu o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish tizimi bo'lsa, sun'iy intellekt metodik jarayonning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiluvchi innovatsion vositadir. An'anaviy metodikada asosiy e'tibor darsning mazmuni, shakli va metodlariga qaratilsa, hozirgi kunda sun'iy intellekt bu jarayonni yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali qilish imkonini bermoqda. Sun'iy intellekt – bu inson tafakkurining ayrim funksiyalarini modellashtirish va avtomatlashtirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir. Ta'lim sohasida sun'iy o'quv jarayonini samarali tashkil etish, individual yondashuvni ta'minlash va interaktivlikni kuchaytirishda muhim vosita sifatida qaraladi [1.65]. O'zbek tilini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasiga

mos dars rejasi tuzish, test va mashqlarni avtomatik baholash, matnlarni tahlil qilish, tarjima va izoh berish hamda o'quvchilarning faoliyatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Bu imkoniyatlar o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qiladi, shuningdek, o'qituvchining ishini yengillashtiradi.

Sun'iy intellektning asosiy afzalliklari ta'lim jarayonining tezkorligi va samaradorligini oshirish, individual yondashuvni rivojlantirish va o'quvchining mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'zbek tilini o'qitishda quyidagi qo'shimcha foydalarni ham taqdim etadi. U o'quv jarayonini individualizatsiya qilish orqali har bir o'quvchining bilim darajasiga moslashtirilgan mashqlar va topshiriqlar yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga, multimediali vositalar, o'yinlar, virtual testlar yordamida o'quvchilarni darsga qiziqtiradi va faolligini oshiradi. Sun'iy intellekt til ko'nikmalarini rivojlantirishda, xususan, so'z boyligini oshirish, grammatikani mustahkamlash, talaffuz va yozma nutqni tekshirishda samarali vosita hisoblanadi.

1-jadval. Sun'iy intellektning o'zbek tilini o'qitishda yordamchi jihatlari

| /r | Yo'nalish | Sun'iy intellektning imkoniyatlari | O'quv jarayoniga ta'siri |
|----|--|---|--|
| 1 | Individual yondashuv | O'quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar yaratadi. | Har bir o'quvchi o'z bilim darajasida o'qiydi va samaradorlik oshadi |
| 2 | Baholash jarayoni | Test va mashqlarni avtomatik baholaydi. | O'qituvchining ishini yengillashtiradi, xolis natija beradi |
| 3 | Til ko'nikmalarini rivojlantirish | So'z boyligini oshirish, grammatikani tekshirish, talaffuzni o'rganish. | O'quvchilarning nutqiy malakalari yaxshilanadi |
| 4 | Matn bilan ishlash | Matnni avtomatik tahlil qilish, xatolarni aniqlash, tarjima va izoh berish. | O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantiradi |

Biz yuqorida ta'lim tizimida sun'iy intellektning bir qator afzalliklarini tahlil qildik. Biroq masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishda ayrim muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Avvalo, barcha ta'lim muassasalarida texnik jihozlarning yetarli emasligi va internet tarmog'ining sustligi bu jarayonni sekinlashtiradi. Shuningdek, o'qituvchilarning sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bo'yicha malakasi yetarli darajada shakllanmaganligi ham muammoli jihatlardan biridir. Bundan tashqari, sun'iy intellekt dasturlarining ko'pchiligi xalqaro tillarga yo'naltirilgani sababli o'zbek tilining fonetik, grammatik va semantik xususiyatlarini to'liq qamrab ola olmaydi. Bu esa o'quvchilarning javoblarini noto'g'ri baholash yoki ayrim xatolarni e'tibordan chetda qoldirish ehtimolini kuchaytiradi. Yana bir masala shundaki, o'quv jarayonida sun'iy intellektga ortiqcha tayanish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqotni kamaytirishi mumkin. Natijada, o'quvchilar ko'proq texnologiyaga bog'lanib qolish xavfi paydo bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sun'iy intellekt ta'lim jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etish, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va interaktiv muhit yaratishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni joriy etishda texnik va metodik muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, sun'iy intellektning o'zbek tilini o'qitishda qo'llanilishi ta'lim jarayonini innovatsion tarzda rivojlantirish va o'quvchilarning mustaqil, faol o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asilova G.A. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Lesson-Press, 2023. – 163 b.
2. Jurayev M.R. O'zbek tilini davlat tili sifatida o'rgatish metodikasining shakllanishi (oliy o'quv yurtlarida davlat tili ta'limi misolida): Ped. fan. nomzodi diss. – Toshkent, 2005. – 166 b.
3. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi. – Toshkent: Внешинвестпром, 2021. – 296 b.

4. Normamatov S.E. Jadid adiblarining o‘zbek lug‘atchiligi an‘analari rivojida o‘rni // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2020. – №3 (32). – B. 246–256.

5. Sodiqova Sh.B. O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari // XXI asr: fan va ta‘lim masalalari. – Toshkent, 2017. – №2.

SAVDO TERMINOLOGIYASIGA OID IKKI TILLI LUG‘AT TUZISHDA SUN‘IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

Bozorova Sevara Kamol qizi

aimatovas208.4@gmail.com

Qarshi davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada savdo/trade terminologiyasiga oid ikki tilli maxsus lug‘at yaratishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun‘iy intellektning katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash, parallel korpuslar asosida termin ekvivalentlarini aniqlash, ko‘p ma‘nolilikni kontekstual yechish va lug‘atni dinamik yangilashdagi afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, terminlarning standartlashmaganligi, madaniy-huquqiy tafovutlar va o‘zbek tilidagi iqtisodiy korpuslarning yetarli emasligi kabi muammolar yoritilib, ularga samarali yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: savdo terminologiyasi, ikki tilli lug‘at, sun‘iy intellekt, ekvivalent, parallel korpus, kontekstual tahlil, avtomatik tarjima, izohli lug‘at

Abstract. This article examines the potential of using artificial intelligence technologies in the creation of a bilingual specialized dictionary of trade terminology. The advantages of artificial intelligence in processing large-scale texts, identifying term equivalents through parallel corpora, resolving polysemy in context, and dynamically updating dictionaries are highlighted. At the same time, issues such as the lack of standardization of terms, cultural and legal differences, and the insufficiency of Uzbek economic corpora are discussed, and practical solutions to these challenges are proposed.

Keywords: trade terminology, bilingual dictionary, artificial intelligence, equivalent, parallel corpus, contextual analysis, automatic translation, explanatory dictionary

Global savdo jarayonlarining jadallashuvi va iqtisodiy aloqalarning kengayishi ikki tilli maxsus lugʻatlarga boʻlgan ehtiyojni keskin oshirdi. Xalqaro hamkorlik, import-eksport shartnomalari, elektron tijorat va moliyaviy hujjatlar samarali muloqotni taʼminlash uchun aniq va standartlashtirilgan terminologiyani talab etadi. Shu nuqtayi nazardan savdo/trade terminologiyasiga oid ikki tilli lugʻatlarni yaratish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Anʼanaviy lugʻat tuzish jarayoni koʻp vaqt va mehnat talab qiladi. Bu usulda mutaxassislar matnlarni tahlil qilib, terminlarni yigʻish, ularning ekvivalentlarini aniqlash va izoh berish orqali lugʻat tuzadilar. Ammo zamonaviy savdo sohasidagi tezkor oʻzgarishlar, yangi iqtisodiy tushunchalar va terminlarning paydo boʻlishi bunday yondashuvni samarasizlashtirib qoʻymoqda.

Soʻnggi yillarda sunʼiy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida yangi imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, katta hajmdagi matnlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, parallel matnlar asosida ekvivalent terminlarni aniqlash hamda kontekstual maʼnolarni farqlash jarayonida sunʼiy intellekt anʼanaviy metodlarga qaraganda yuqori samaradorlik koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, terminlarning standartlashmaganligi, madaniy-huquqiy tafovutlar va oʻzbek tilidagi sifatli korpuslarning yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud.

Mazkur maqolada savdo/trade terminologiyasiga oid ikki tilli maxsus lugʻat yaratishda sunʼiy intellektdan foydalanish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Savdo/trade terminologiyasiga oid ikki tilli maxsus lugʻat yaratishda sunʼiy intellekt texnologiyalaridan foydalanish anʼanaviy metodlarga nisbatan bir qator afzalliklarni beradi. Avvalo, sunʼiy intellekt katta hajmdagi matnlarni tezkor qayta ishlash imkoniyatiga ega. Masalan, iqtisodiy maqolalar, xalqaro shartnomalar va boshqa savdoga oid manbalarni qisqa vaqt ichida tahlil qilib, ularda eng koʻp

uchraydigan terminlarni ajratib oladi hamda ularning qo‘llanish chastotasini aniqlaydi.

Ikkinchi muhim imkoniyat – parallel matnlar asosida termin ekvivalentlarini aniqlashdir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ikki tilli korpuslardan foydalanish orqali sun’iy intellekt savdo terminlarining mos tarjima variantlarini topa oladi. Masalan, ingliz tilidagi “*equity*” yoki “*joint venture*” kabi tushunchalarga o‘zbek tilida qo‘llanadigan ekvivalentlar ancha aniqlik bilan belgilanadi.

Shuningdek, savdo terminologiyasida uchraydigan ko‘p ma’nodlilik masalasiga ham sun’iy intellekt samarali yechim taklif etadi. Terminlarning kontekstdagi qo‘llanishini hisobga olgan holda ularning ma’nosini aniqlab beradi. Masalan, “*margin*” atamasi bir matnda *foyda marjasi* ma’nosida, boshqa birida esa *moliyaviy kafolat* sifatida ishlatilishi mumkin.¹

Bundan tashqari, sun’iy intellekt leksik-semantik munosabatlarni aniqlashda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Terminlar o‘rtasidagi sinonimik, antonimik hamda giperonim-giponimik aloqalarni tahlil qilib, ularni tizimli ko‘rinishda xaritalash imkoniyatini beradi. Masalan, “*savdo*” umumiy tushunchasi ostida “*ulgurji savdo*”, “*chakana savdo*” yoki “*elektron savdo*” kabi kichik birliklar aniq ko‘rsatib beriladi.

Yana bir muhim afzallik shundaki, sun’iy intellekt yordamida lug‘atni dinamik tarzda yangilab borish mumkin. Savdo sohasi doimiy ravishda rivojlanib, yangi iqtisodiy tushunchalar va terminlar paydo bo‘lmoqda. An’anaviy lug‘atlar bunday tezkor o‘zgarishlarga moslasha olmaydi, natijada qisqa fursatda eskirib qoladi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan lug‘atlar esa yangi terminlarni avtomatik kuzatib, ularni o‘z tarkibiga qo‘shib borishi bilan ahamiyatlidir.

Sun’iy intellekt savdo/trade terminologiyasiga oid ikki tilli lug‘at yaratishda samarali vosita bo‘lsa-da, bu jarayonda bir qator muammolar ham yuzaga chiqadi. Birinchi navbatda, terminlarning standartlashmaganligi muammosini tilga olish lozim. O‘zbek tilidagi iqtisodiy va savdo terminlari ko‘plab manbalarda turlicha

¹ Cambridge Dictionary. – Cambridge University Press, 2025. – URL: <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/margin> (murojaat qilingan sana: 30.09.2025).

qo‘llanadi, ayrim hollarda esa bir so‘zning bir nechta variantlari mavjud. Sun‘iy intellekt bunday vaziyatda terminlarni yagona birlik sifatida tan olmay, chalkash natijalar berishi mumkin.

Ikkinchi muammo – madaniy va huquqiy tafovutlardir. Ingliz tilidagi ayrim savdo tushunchalarining o‘zbek tilida to‘liq ekvivalenti mavjud emas. Masalan, “*hedging*” yoki “*franchise*” kabi terminlar bevosita tarjima qilinmaydi, balki ularning mazmunini kengroq izohlash talab etiladi. Sun‘iy intellekt esa ko‘pincha bunday terminlarga oddiy, ba‘zan noto‘g‘ri tarjima beradi va bu lug‘at sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Yana bir muhim cheklov – o‘zbek tilidagi iqtisodiy korpuslarning yetarli emasligi. Ingliz tilida savdo sohasiga oid keng qamrovli, standartlashtirilgan ma‘lumotlar bazasi mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday resurslar cheklangan. Sun‘iy intellekt samarali ishlashi uchun katta hajmdagi sifatli matnlarga tayanishi lozim, resurs yetishmasligi esa natijalarni chegaralaydi.

Bundan tashqari, avtomatik tarjima jarayonida noaniqliklar yuz berishi tabiiy hol. Terminlar kontekstdan ajratib olinganda noto‘g‘ri ma‘no anglatishi yoki bir nechta ekvivalent variantlar orasida xato tanlov qilinishi mumkin. Bu esa foydalanuvchining lug‘atga bo‘lgan ishonchini yo‘qotishga olib keladi. Shuningdek, sun‘iy intellektning samaradorligi yuqori bo‘lsa-da, uning natijalari ustidan inson nazorati zarur. Mutaxassis filolog va iqtisodchilar tomonidan tekshirilmagan lug‘at ilmiy va amaliy jihatdan qimmatini yo‘qotishi mumkin.

Ushbu muammolarni samarali hal qilishda bir qator yechimlarga e‘tibor qaratish mumkin. Eng avvalo, terminlarning standartlashmaganligi masalasini maxsus terminologik komissiyalar faoliyatini kuchaytirish, iqtisodiy atamalarni yagona me‘yor asosida tasniflash hamda davlat miqyosida tasdiqlangan terminlar ro‘yxatini yaratish orqali hal etish zarur. Sun‘iy intellekt bunday jarayonda turli variantlarni tahlil qilib, eng ko‘p qo‘llanilayotgan shakllarni aniqlaydi va mutaxassislarga tavsiya sifatida taqdim etadi.

Madaniy va huquqiy tafovutlarni bartaraf etish uchun izohli va sharhli lug‘atlar tuzish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi “*hedging*” yoki

“franchise” kabi terminlarni to‘liq tushuntirish orqali o‘zbek tilidagi ekvivalentini aniqlash yoki yangi termin sifatida joriy qilish mumkin.

O‘zbek tilidagi iqtisodiy korpuslarning cheklanganligini bartaraf etish uchun esa yangi parallel matnlar bazasini yaratish lozim. Shu maqsadda xalqaro savdo shartnomalari, iqtisodiy tahlillar va bozor hisobotlari yig‘ilib, ikki tilli korpus shakllantirilishi mumkin. Sun‘iy intellekt bu jarayonni tezlashtiradi: u matnlardan terminlarni avtomatik ajratib oladi va ularning qo‘llanish chastotasini hisoblaydi.

Avtomatik tarjimalarda yuzaga keladigan noaniqliklarni kamaytirish uchun mashinaviy o‘rganishga asoslangan modellarni muntazam ravishda qayta o‘qitish zarur. Modelga yangi misollar, real savdo hujjatlari va kontekstual ma‘lumotlar kiritib borilsa, uning aniqlik darajasi oshadi. Shu bilan birga, inson va sun‘iy intellekt hamkorligi natijalarni yanada ishonchli qiladi.

Xalqaro tajribadan foydalanish ham muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda yaratilgan iqtisodiy terminologik bazalar va maxsus lug‘atlar o‘rganilib, ularning muvaffaqiyatli modellari o‘zbek tiliga moslashtirilishi mumkin.

Savdo/trade terminologiyasiga oid ikki tilli maxsus lug‘at yaratishda sun‘iy intellektdan foydalanish bugungi kunda dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sun‘iy intellektning katta hajmdagi matnlarni tezkor tahlil qilish, parallel manbalarda ekvivalent terminlarni aniqlash, ko‘p ma‘nolilikni kontekstual yechish, semantik aloqalarni xaritalash hamda lug‘atni dinamik tarzda yangilash imkoniyatlari an’anaviy yondashuvlarga qaraganda yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi.

Biroq bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud bo‘lib, terminlarning standartlashmaganligi, madaniy va huquqiy tafovutlar, o‘zbek tilidagi iqtisodiy korpuslarning yetarli emasligi hamda avtomatik tarjimalarda yuzaga keladigan noaniqliklar sun‘iy intellekt natijalarini cheklab qo‘yishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maxsus terminologik komissiyalar faoliyatini kuchaytirish, parallel korpuslar yaratish, mashinaviy o‘rganish modellarini

muntazam yangilab borish hamda filolog va iqtisodchi mutaxassislarning hamkorligini ta'minlash zarur.

Umuman olganda, sun'iy intellekt an'anaviy lug'at tuzish jarayonini butunlay almashtirmaydi, balki uni samarali qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Inson nazorati va sun'iy intellekt imkoniyatlari uyg'unlashgan holda yaratilgan ikki tilli savdo terminologiyasi lug'ati nafaqat tarjima jarayonini yengillashtiradi, balki ilmiy-lingvistik izlanishlar, xalqaro hamkorlik va iqtisodiy rivojlanishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cambridge Dictionary. – Cambridge University Press, 2025. – URL: <https://dictionary.cambridge.org>

2. Lew R. Dictionaries and lexicography in the AI era // Humanities and Social Sciences Communications. – 2024. – Vol. 11, № 426.

3. Rundell M. Automating the creation of dictionaries: are we nearly there? // Proceedings of ASIALEX 2023: Lexicography, Artificial Intelligence, and Dictionary Users. – Seoul, 2023. – P. 9-17.

4. Steurs F., Schoonheim T., Heylen K., Vandeghinste V. The Future of Academic Lexicography: A White Paper. – 2020. – URL: <https://ivdnt.org/wp-content/uploads/2021/02/The-Future-of-Academic-Lexicography-A-White-Paper.pdf>

5. Tono Y. Research into dictionary use in an era of e-lexicography // Proceedings of ASIALEX 2023: Lexicography, Artificial Intelligence, and Dictionary Users. – Seoul, 2023. – P. 28-33.

SUN'IY INTELLEKT VA TARJIMA TIZIMLARIDA O'ZBEK TILINING QO'LLANILISHI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi
Tashkent Perfect University
Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
gulshodashamsiyeva5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektga asoslangan tarjima tizimlarida (Google Translate, Yandex Translate, Paratranslator) o'zbek tilining qo'llanilishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, korpus lingvistikasi, neyron tarjima texnologiyalari hamda milliy dasturlar asosida o'zbek adabiy tilining global raqamli maydonda sifatli qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mashinali tarjima, Google Translate, Yandex Translate, Paratranslator, o'zbek adabiy tili, korpus lingvistikasi, neyron tarmoqlar.

Abstract. This article analyzes the use of the Uzbek language in artificial intelligence-based translation systems (Google Translate, Yandex Translate, Paratranslator), existing problems and ways to overcome them. In particular, the possibilities of qualitative use of the Uzbek literary language in the global digital space based on corpus linguistics, neural translation technologies and national programs are highlighted.

Keywords: artificial intelligence, machine translation, Google Translate, Yandex Translate, Paratranslator, Uzbek literary language, corpus linguistics, neural networks.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjimasini, tahriri, tahlili, elektron lug'atlar va tezauruslar fikrimiz tasdig'idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug'atlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Mashina tarjimasini bo'yicha ko'pgina olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar qilingan. Chunonchi, N.D. Andryev, I.A. Melchuk, I.I. Revzin², V.Y. Rozensveyg, Y.N. Marchuk³, R.G. Piotrovskiy⁴, Y.A. Motorin, K.B. Bektayev, A.N. Belyayev, I.K. Belskiy, A.V. Zubov, G.E. Miram, L.L. Nelyubin, V.I. Perebiynos, V.A.

² Ревзин И.И. Модели языка. – М., 1962.

³ Марчук Ю.Н. Проблемы машинного перевода. – Москва, 1983.

⁴ Мухамедов С.А., Пиотровский Г.Г., Мухамедов С.А. Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов. –Т.: Фан, 1986

Chijakovskiy, Ye.A.Shingarev, G.G.Belonogov, R.G.Kotov, Babushkina N.V, Z.Shalyapina, O.Y. Mansurova, A.S. Panina, A.A. Xoroshilov (Rossiya); A.But, R. Richans, J. Xatchins, J.Allen, P. Braun (AQSh); M. Nagao (Yaponiya); A.Vaxer (Estoniya); Fransiyada J.Astrouni; R.Sinha, A.Jain (Hindiston); B.Bleyzer, U.Shvol, A.Storrer (Germaniya) singari tadqiqotchilarning ishlari shular jumlasidandir⁵. Respublikamizda chet tilidagi matnni o‘zbek tiliga va aksincha o‘zbek tilidagi matnni chet tiliga tarjima qiluvchi dasturning lingvistik ta’minotini yaratishga qaratilgan tadqiqot N.Abdurahmonova tomonidan olib borilgan bo‘lib, olimo “Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti” nomli monografiyasida avtomatik tarjima uchun modellashtirish bosqichlari, formal til nazariyasi, ingliz va o‘zbek tillarining grammatik koordinatsiyasi, dasturiy ta’minot uchun algoritmlar tuzish nazariyasi va lingvistik bazani tuzishdagi muhim jihatlari haqida to‘xtalib o‘tadi.

Bugungi globallashtirish, integrallashtirish va bozor iqtisodiyoti davrida til texnologiyasida erishilgan ilmiy natijalardan unumli foydalanish, qolaversa, yangicha yondashuvlar, ayniqsa, kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish ilmiy muammolarni oson va tez hal qilishga yordam beradi.

Endilikda o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma’naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo‘llaridandir. Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochmoqda. O‘zbek tilini ham ona tili sifatida, ham xorijiy til sifatida o‘qitish borasida tilimizning yangi avlod darsliklarini yaratish uchun dunyo tajribasida sinalgan ilg‘or pedagogik metodlarni yaratish ham dolzarb vazifalardan biridir.

Til to‘siqlarini bartaraf etishda mashinali tarjima tizimlari, ayniqsa, sun‘iy intellekt asosidagi neyron tarjima texnologiyalari alohida o‘rin tutadi. Jahonda Google Translate, Yandex Translate, DeepL kabi yirik platformalar faoliyat

⁵ Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti. (Monografiya) – Toshkent, 2018.

yuritmoqda. O‘zbek tili ham ushbu tizimlarda joriy etilib, xalqaro muloqotda tobora keng qo‘llanmoqda. Shu bilan birga, tarjima sifatida ayrim kamchiliklar ham mavjud. Ushbu maqolada o‘zbek tilining sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarida ishlatilishi, muammolari va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Bugungi kunda o‘zbek tilining mashinali tarjima tizimlarida qo‘llanilishi tobora ortmoqda. Jumlada o‘zbek tili 2010-yillarda Google Translate tizimiga qo‘shildi va hozirda ingliz, rus, turk, koreys, yapon va boshqa ko‘plab tillar bilan o‘zaro tarjima imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari Yandex Translate platformasida ham o‘zbek tili, ayniqsa, rus tili bilan ko‘p ishlatiladi. Lekin grammatik me‘yorlar hamda terminlar tarjimasida kamchiliklar mavjud. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi tarjimalarda quyidagi xatoliklar kuzatiladi:

1. Grammatik xatolar. Bunda otli birikmalar, egalik qo‘shimchalari, fe‘l zamonlari va shaxs-son qo‘shimchalari tarjimasida xatolik kuzatiladi.

2. Leksik noaniqlik. Ko‘p ma’noli so‘zlar tarjimasida noaniqliklar kelib chiqadi. Masalan, “yo‘l” so‘zi “road” va “way” tarjimasida chalkashlik kelib chiqishi mumkin.

3. Iboralarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi. “ko‘z yummoq”, “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq” kabi iboralar odatda so‘zma-so‘z tarjima qilinadi.

4. Terminlarning tarjimasida bog‘liq xatoliklar: Texnika, ilm-fan, tibbiyot va huquqiy atamalar ko‘pincha noto‘g‘ri aks ettiriladi.

5. Adabiy uslub: Badiiy matnlar tarjimasida obrazlilik va milliy kolorit yo‘qolib ketadi.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish va o‘zbek tilining sun’iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarida qo‘llanish sifatini oshirish uchun quyidagilar talab etiladi:

1. Sifatli korpusning mavjudligi: Sifatli parallel matnlar bazasini shakllantirish.

2. Neyro tarmoqning mavjudligi: Tarjima tizimlari uchun korpus shakllantirishda turli janrlardagi matnlardan foydalanish.

3. Frazologik va terminologik bazalarni integratsiya qilish.

4. Ilmiy hamkorlik: Tilshunos olimlar, dasturchilar va tarjimonlar hamkorligida o‘zbek tilining raqamli resurslarini yaratish.

5. Milliy platformalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni xalqaro darajaga olib chiqish.

Shu kabi muammolarni bartaraf etish va milliy tarjima tizimimizga yaratish maqsadida “Paratranslator” platformasi ishlab chiqildi. Ushbu platforma kontekstga asoslangan tarjima texnologiyasini taklif etadi. Bu tizim nafaqat so‘z, balki butun matnning ma’nosini yaxlit tarzda tarjima qilish imkoniyatini beradi. Kontekstdan xabardor tarjima texnologiyasi tarjima qilinayotgan birlikning (so‘z, ibora yoki jumla) lug‘aviy ma’nosigagina emas, balki u topilgan kontekstda qanday qo‘llanishiga asoslanib tarjima qilish imkonini beruvchi ilg‘or yondashuvdir. Ushbu yondashuv, ayniqsa, polisemik birliklar, idiomatik iboralar, madaniy tushunchalar va frazeologizmlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun muhimdir. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, parallel korpus asosida “Paratranslator” deb nomlangan ko‘p tilli elektron kontekstli tarjima platformasi ishlab chiqildi. Platforma foydalanuvchilarga kontekstga asoslangan aniq, tegishli va real tarjimalarni taklif qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv so‘nggi yillarda hujjat darajasidagi tarjima sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan va til juftlari o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni saqlashga qaratilgan ierarxik diqqat modellariga tayanadi. “Paratranslator” platformasi hozirda operatsion bosqichda muvaffaqiyatli ishlamoqda. Foydalanuvchilar tomonidan ijobiy baholangan va yuqori talabga ega bo‘lgan ushbu tizim o‘zbek tili uchun zamonaviy raqamli tarjima infratuzilmasini shakllantirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, sun‘iy intellekt va tarjima tizimlari o‘zbek adabiy tilini xalqaro miqyosda keng qo‘llash, til to‘siqlarini bartaraf etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, grammatik, leksik va uslubiy muammolar mavjudligi sababli tarjima sifatini oshirish uchun lingvistik tadqiqotlar va texnologik yondashuvlar birgalikda amalga oshirilishi lozim. Kelajakda o‘zbek tilining neyron tarjima tizimlarida mukammal qo‘llanishi uchun

milliy korpuslar, parallel matn bazalari va sun'iy intellekt asosidagi innovatsion dasturlar yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta'minoti. (Monografiya) – Toshkent, 2018.
2. Ревзин И.И. Модели языка. – М., 1962.
3. Марчук Ю.Н. Проблемы машинного перевода. – Москва, 1983.
4. Мухамедов С.А., Пиотровский Г.Г., Мухамедов С.А. Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов. –Т.: Фан, 1986
5. Google Translate rasmiy sahifasi – <https://translate.google.com>
6. Yandex Translate – <https://translate.yandex.com>
7. Paratranslator platformasi – <https://paratranslator.uz>

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTNING QO'LLANILISHI

*Ablaqulov Kamoliddin Bahriddinovich,
Qarshi davlat texnika universiteti
e-mail: kamoliddin1987@umail.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi, ularning imkoniyatlari hamda ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt yordamida ta'lim sifatini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim tizimi, raqamli kompetensiya, innovatsion ta'lim, O'zbekiston, ta'lim texnologiyalari.

Annotation. This article analyzes the use of artificial intelligence technologies in the education system of Uzbekistan, their capabilities and impact on the educational process. The issues of improving the quality of education using

artificial intelligence, strengthening an individual approach and forming digital competencies are covered.

Keywords: artificial intelligence, education system, digital competence, innovative education, Uzbekistan, educational technologies.

Sun'iy intellekt hozirgi kunga kelib ta'lim sohasiga chuqur kirib borishi natijasida uning ta'lim tizimidagi roli benihoya beqiyosdir. Xususan, sun'iy intellekt ta'limdagi asosiy tadbirlarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Ayni paytda o'qituvchilar deyarli barcha turdagi bir nechta muqobil testlar, topshiriqlarni baholash hamda ularga o'zgartirishlar kiritish, bunda talabalar tomonidan bajarilgan vaziyfalarni baholash uchun qiyinchilik tug'durmaydi. Bunday holatda talabalar sun'iy intellekt o'qituvchilaridan qo'shimcha yordam olish imkoniyatiga ega. Ushbu dasturlar talabalarga topshiriqlarni bajarish tartibini o'rgatadi, lekin hozirgi davrdek talabalarga yuqori tartibli fikrlash va ijodiy fikrlashni o'rganishga xizmat qilish uchun ideal emas, bu haqiqiy dunyo o'qituvchilariga ishni osonlashtirish uchun zarur bo'lgan bir dasturdir [1].

Hozirgi kunda ta'lim sohasida raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektning qo'llanishi ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda Prezident qarorlarida sun'iy intellektni rivojlantirish va uni ta'limga tatbiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan [2]. Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitish, elektron nazorat, intellektual test tizimlari va shaxsiylashtirilgan ta'lim platformalari joriy etilmoqda [3-4].

O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi hali rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, katta istiqbollari mavjud. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish va zamonaviy ta'lim tizimini yaratishga xizmat qiladi [5]. O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt masofaviy ta'lim platformalari, talabalar faoliyatini monitoring qilish, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), virtual o'qituvchilar va chatbotlar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari,

innovatsion startaplar va loyihalar yo‘nalishlarida qo‘llanilmoqda. Uning qo‘llanilish yo‘nalishlari va bu boradagi ishlar 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1-jadval

O‘zbekiston ta‘lim tizimida sun‘iy intellektning qo‘llanilishi

| Yo‘nalish | Vazifasi | Dastur va texnik yechimlar | Tashkilotlar | Joriy holat va izohlar |
|---|---|---|---|---|
| Masofaviy ta‘lim platformalari | Onlayn o‘qish, individual yondashuv, o‘quv materiallarini moslashtirish | “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” (e-ta‘lim modullari), Moodle platformasi, Zoom integratsiyasi | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti va boshqa OTM | Faol rivojlanmoqda, sun‘iy intellekt yordamida talabalarni monitoring qilish va shaxsiy tavsiyalar berish amalga oshirilmoqda |
| Talabalar faoliyatini monitoring qilish | Akademik muvaffaqiyat va qiyinchiliklarni kuzatish, tahlil qilish | Talaba faoliyatini tahlil qiluvchi sun‘iy intellekt asosidagi platformalar, Learning Analytics vositalari | O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim vazirligi, Respublika axborot-kommunikatsiya markazi | Sinov bosqichida, ta‘lim sifatini oshirish uchun keng joriy etilishi rejalashtirilmoqda |
| Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) | O‘zbek tilida matnni tahlil qilish, nutqni tan olish, tarjima qilish | O‘zbek tilida nutqni tan olish (speech-to-text) va matnni tarjima qilish tizimlari, chatbotlar | Inha universiteti, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi | Dastlabki loyihalar amalga oshirilmoqda, tilni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish davom etmoqda |
| Virtual o‘qituvchilar va chatbotlar | Talabalarga savol-javob, individual yordam, motivatsiya | Virtual tutorlar, chatbotlar (Telegram va veb-platformalarda), interaktiv darsliklar | Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Mahalliy | Sinovdan o‘tkazilmoqda, ba‘zi oliy ta‘lim muassasalarida faol ishlatilmoqda |

| | berish | | startaplar | |
|--|--|--|---|---|
| Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari | Imtihon va test ishlarini avtomatik baholash | Avtomatik baholash tizimlari, plagiat tekshiruvchilar, yozma ishlarni baholash modullari | Respublika test markazi, O'zbekiston Milliy universiteti | Sinov va pilot loyihalar amalga oshirilmoqda, o'qituvchilarning ish yukini kamaytirishga qaratilgan |
| Innovatsion startaplar va loyihalar | Ta'lim sifatini oshirish, interaktiv o'quv materiallari yaratish | Sun'iy intellekt asosidagi o'quv platformalari, interaktiv darsliklar, adaptiv o'quv tizimlari | Startaplar (EduAI, SmartEdu), O'zbekiston Innovatsion rivojlanish agentligi | Rivojlanmoqda, davlat va xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda |

O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining amaliy qo'llanishi quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

1. Masofaviy ta'lim tizimlari – Ziyonet, Moodle va boshqa platformalarda avtomatlashtirilgan baholash va intellektual test tizimlari joriy qilinmoqda.

2. Til o'rganish jarayoni – Chatbotlar, ovoqli tarjimon dasturlari va sun'iy intellekt asosidagi ta'limiy ilovalar keng qo'llanilmoqda.

3. Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish – oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida "Sun'iy intellekt asoslari", "Ma'lumotlarni tahlil qilish" kabi fanlar o'qitilmoqda.

4. Ma'muriy boshqaruv – ta'lim jarayonini monitoring qilish, o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish va samaradorlikni oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilmoqda.

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos o'qitish; ta'limda samaradorlik va sifatni oshirish; katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish; masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish kabi natijalarni ta'minlaydi [6]

Sun'iy intellektni o'rganish tez rivojlanib borayotgan dunyoga hamnafas bo'lish va sun'iy intellekt kuchidan foydalanish uchun unga xos muhim ahamiyatga ega bo'lish darkor. Bu kelajakda talab qilinadigan ko'nikmalarni rivojlantirishga va o'quv jarayonida turli talabalar maqsadlariga erishish uchun texnologiyadan qanday samarali foydalanishni tushunishga yordam beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ta'lim sifatini oshirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayonni jadallashtirish uchun o'qituvchilar malakasini oshirish, infratuzilmani kengaytirish va milliy Sun'iy intellektni sun'iy intellekt ta'lim platformalarini yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov M.M., Raxmatov F.A., Nurmetov B.M. Kompyuter tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2012.

2. Ablaqulov K.B, Sun'iy intellektning ta'limdagi roli // “Ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash afzalliklari, muammolar va yechimlari” respublika ilmiy-nazariy anjuman. – Toshkent, 2025. – B. 425-430.

3. Jakbarov O., G'oyipov U. *Web dasturlash: O'quv qo'llanma*. Namangan: Iste'dod Ziyo Press, 2023.

4. Raqamli ta'lim platformalarining samarasi bo'yicha statistika (2025). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi.

5. Ablaqulov K.B, Sun'iy intellektning qo'llanilish sohalari // “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda fan va texnologiyalarning zamonaviy tendensiyalari hamda istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Toshkent, 2025. – B. 163-165.

6. Ablaqulov K.B, Sun'iy intellektni rivojlantirish yo'llari // Sun'iy Intellekt va Raqamli Iqtisodiyot (SIRI-2025) mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. University of Management and Future Technologies, – 2025. – B. 321-322.

**2-SHO‘BA:YANGI O‘ZBEKISTONDA TIL VA ADABIYOT
TARAQQIYOTI, YANGI ILMIY TADQIQOTLAR, FILOLOGIK
BILIMLARNI O‘QITISHNING SAMARALI YO‘LLARI**

**O‘QUVCHILARNI MATN USTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH
METODIKASI**

Safo Matchonov

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim
nazariyasi va amaliyoti kafedrasida
professori, pedagogika fanlari doktori
safomatchon213@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada badiiy matn ustida ishlash jarayonida so‘z vositasida o‘quvchilarning adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish usullari yoritilgan. Matn ustida ishlashga o‘rgatish yozuvchining o‘sha asarni yaratishdagi ijodiy yo‘lini qayta bosib o‘tish, fikr-mulohazalari, kechinmalari, hissiyot va xulosalariga sherik bo‘lishga tayyorlash asosida ma‘naviy yetuklikka erishish masalalari ilmiy-metodik jihatdan dalillangan.

Kalit so‘zlar: matn, tahlil, o‘qish, sharh, motiv, texnologiya, memuar, kirish mashg‘ulotlari.

Adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishi va bilimni to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘quv materialidagi asosiy va yetakchi jihatlarni ajrata olish ko‘nikmalarini shakllantirishda matn ustida ishlashga o‘rgatish usullari

muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, avvalo, matn tushunchasining o'zini izohlash zarur.

“Matn” atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “nutqning yozuvdagi ifodasi; tekst; yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat; bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi” tarzida ta’rif beriladi [3;557]. Shunga ko‘ra, matnlarni mazmunan badiiy, rasmiy, ilmiy, publisistik kabi turlarga bo‘lish mumkin. Ularning har biri janriy xususiyatlari, tuzilish va mazmuniga ko‘ra yondashishni taqozo etadi.

Matn ustida ishlash asarni o‘rganishning o‘ziga xos ko‘rinishi, asosiy shakli bo‘lib, ijodiy tadqiqot xarakteriga ega. Shu jihatdan matn ustida ishlash metodikasini adabiy ta’limning o‘zak masalalaridandeb baholash mumkin. U o‘quvchilarning asar mazmun-mohiyatini o‘zlashtirishlariga erishish hamda matn tahlili vositasida axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash kabi ikki maqsadni nazarda tutadi. Badiiy matnga, bir tomondan adabiyotshunoslik ilmi va pedagogik nuqtayi nazardan yondashilishi zarurati uni shaklan va mazmunan quyidagi bosqichlarda o‘rganishni taqozo etadi:

1. Badiiy matn ustida ishlashga oid kirish mashg‘ulotlari.
2. Badiiy asar mutolaasi.
3. Badiiy matn tahlili.
4. Badiiy matn ustida ishlashda yakunlovchi mashg‘ulotlar.

Matn ustida ishlash mohiyat e’tibori bilan asar mazmunini o‘zlashtirish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi. O‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligidagi bu faoliyat matnni ravon, to‘g‘ri, tez tushunib, ifodali, ijodiy o‘qish, qayta hikoya qilish, asar mazmuniga doir rasmlar chizish, ayrim lavhalarga sarlavhalar topish, epigraflar tanlash, reja tuzish, berilgan mavzu bo‘yicha badiiy asar, darslik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish (tezis tuzish, ko‘chirmalar olish, konspektlashtirish), yozuvchining o‘ziga xos ijodiy uslubini aniqlash, bayon, insho, taqriz, ma’ruza matni, referat yozish, ikki yoki undan ortiq asarlarni

mavzusiga ko'ra va g'oyaviy-badiiy jihatdan qiyosiy tahlil qilish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon etish, sahnalashtirilgan yoki ekranlashtirilgan asarlarning ijrochilari mahoratini baholash kabi g'oyat muhim masalalar doirasida ish ko'radi.

Badiiy matn boshqa turdagi, masalan, ilmiy, ilmiy-publtsistik matnlardan obrazlilik bilan farqlanadi. Ilmiy matnni tushunish uchun ma'lum darajada bilim, ko'nikma, malaka talab qilingani kabi badiiy matnning mag'zini chaqish ham jiddiy mehnattalab ishdir. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari, tarixiy-badiiy matnlarni o'qituvchilarning maxsus izohisiz tushuntirish mushkul. Chunki o'qituvchi matndagi so'z va iboralarni o'z tushunchasidagi mavjud so'z va iboralar orqali qabul qiladi. O'qimishli kishilarning lug'at boyligi o'rtacha o'n-o'n ikki ming so'zdan iborat bo'lishi nazarda tutilsa, o'quvchilar nutqining chegaralanganini sezish qiyin emas. Demak, ularning badiiy asardagi nafosatini his etishlari, idrok qilishlari, matn tagzaminidagi ma'noni anglashlari o'qituvchi yordamisiz qiyin kechadi. Bu esa o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatishda yozuvchilarning o'ziga xos hayot va ijod yo'li, asarlarining yaratilish tarixi, adabiyot taraqqiyotidagi o'rni, tarixiy qahramonlar taqdiri, joy nomlari haqidagi ma'lumotlardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Bunday ma'lumotlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa", Boburning "Boburnoma" singari mumtoz adabiyot namunalari ustida ishlashda ham, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Fitratning "Abulfayzxon", Abdullar Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va kunduz" kabi XX asr o'zbek adabiyoti asarlari bilan tanishishda ham, Sofoklning "Shoh Edip", Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" singari jahon adabiyoti durdonalarini o'rganish chog'ida ham yaxshi samara beradi.

O'qituvchi bu xildagi ma'lumotlarni yozuvchilarning asarlaridan, tarjimayi hollaridan, ular to'g'risidagi badialardan, tarixiy, ilmiy-ommabop asarlardan, maxsus albomlardan, zamondoshlari xotiralaridan olishi mumkin. Boburning "Boburnoma", Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Nasimxon

Rahmonning “Turk hoqonligi”, Xayriddin Sultonovning “Boburning tushlari”, Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”, “Abdulla Qodiriyning so‘nggi kunlari”, shuningdek, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda va boshqa yozuvchilarning zamondoshlari xotiralari ana shunday mo‘tabar manbalar sirasiga kiradi.

Matn ustida ishlash yuzasidan mashg‘ulotlarida, zarurat sezilganda, yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ma‘lumotlar berish muhim manba vazifasini o‘taydi. Chunonchi, yozuvchi tarjimai holi uning ijodiga xos yetakchi xususiyatlarini aniqlashda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi tarjimai holini o‘rganishda o‘quvchilarni uning o‘zi yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy hayot va tarixiy muhitga munosabati bilan tanishtirish ma‘rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro saltanatida, A.S.Pushkin va L.N.Tolstoyning Rossiya kibarlar jamiyatida, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va Hamzalarning asrimiz boshlaridagi milliy uyg‘onish harakatida tutgan mavqelari sharhlangandagina ularning ijodi chuqur o‘zlashtirilishi mumkin. Bunday sharhlar, ayniqsa, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad va Shukrullo kabi qatag‘onga uchragan yozuvchilarning hayoti va ijodini o‘rganishda katta naf keltiradi.

“Yozuvchini, – deb qayd etgan edi A.Qodiriy, – garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o‘qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g‘oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida o‘z tabiatini, ruhini tasvirlaydi [1;140]”.

Yozuvchi shaxsiyati, dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati esa uning ijodiy o‘ziga xosligida aks etadi. Negaki, bir qalamkashga mansub asarlar o‘zaro shakl va mazmun jihatdan farqlansa-da, ularni muallifning ijodiy o‘ziga xosligi birlashtirib turadi. Ijodiy o‘ziga xoslikni bir yozuvchining turli asarlarini o‘zaro taqqoslash orqali ham, boshqa yozuvchining asarlariga qiyoslash orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, Usmon Nosirning ijodiy yo‘li tahlil markaziga qo‘yilganda, uning o‘ziga xosligini “Yur, tog‘larga chiqaylik!”, “Yo‘lchi”,

“Yurak” she’rlarini o‘zaro chog‘ishtirish yoki Hamzaning “Yig‘la, Turkiston!” H.Olimjonning “Holbuki tun”, G‘afur G‘ulomning “Sen yetim emassan” she’rlariga taqqoslash yordamida tushuntirsa bo‘ladi. Ko‘rinadiki, o‘quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga tayyorlashda yozuvchilarning hayoti va ijodiy yo‘liga oid shu xildagi ma’lumotlar muhim yo‘llanma vazifasini o‘taydi.

Adabiyot o‘quv dasturlarida Boburning “Boburnoma” kabi memuar xarakteridagi asarlar ham borki, ularning janr xususiyatlarini tushuntirmasdan turib, matn ustida ishlash ko‘zlangan natijani bermaydi. Memuar janrida qalam tebratuvchi ijodkorlar, xususan, aktyorlar, davlat va jamoat arboblari, olimlar, tarixchilar, adabiyotchilar, harbiylar ko‘proq kundaliklar, har xil yozishmalar, gazeta-jurnal materiallari va boshqa hujjatlarga suyansalar, adiblar xotirasida qolgan voqea-hodisalarga badiiy tus beradilar. Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar”, Oybekning “Bolalik”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar” kabi asarlari badiiy o‘qimishli memuarlardan hisoblanadi.

Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyotidagi memuarlarning mumtoz namunasi. Unda Bobur siyosiy o‘quvchi ko‘z o‘ngida tarixchi olim, geografiya bilimdoni, zukko adabiyotchi, mohir sarkarda, realist yozuvchi, hassos lirik shoir sifatida gavdalanadi. Memuarlar xarakter xususiyatlariga ko‘ra tarixning bugungi kunimizga daxldor bo‘lgan, qayta jonlangan ibratli sahifalaridir. U tarix guvohnomasi, hujjatliligi, ayni choqda badiiyiligi bilan boshqa janrdagi asarlardan ajralib turadi. Lekin tarixiy haqiqat bilan memuar hamisha bir xil emas. Buni biz Ibn Arabshohning “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ayrim memuarlarda yozuvchining badiiy to‘qimasi alohida o‘rin tutadi. Bunday hollarda badiiy to‘qimaga keng o‘rin berilgani o‘sha asarlarning kamchiligi bo‘lmay, balki o‘ziga xos xususiyatidir. Chunki memuarlarda qahramonlarning shunchaki ko‘rgan-kechirganlari emas, balki taniqli so‘z san’atkorlarining o‘z o‘tmishlari vositasida hayotga, mavjud jamiyatga munosabatlari ifodasi bo‘lgani uchun turli yoshdagi kitobxonlarda qiziqish uyg‘otadi.

Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni o'rganish va idrok qilishda ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash muhim o'rin tutgani kabi ba'zi asarlar matnini o'rganishga oid kirish mashg'ulotlarida ularning yaratilish tarixiga doir ma'lumotlarni keltirish ham yaxshi samara beradi. Umumjahon adabiyotiga katta hissa qo'shgan Alisher Navoiy, Uilyam Shekspir, Jonatan Svift, Viktor Gyugo, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Ernest Xemenguey, Chingiz Aytmatov va boshqa so'z san'atkorlari ijodidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, I.S.Turgenev "Asya" qissasining yaratilish tarixi to'g'risida bunday hikoya qiladi:

"Reyn daryosi bo'yidagi chog'roqqina shaharchada to'xtadim. Qiladigan ishning tayini bo'lmagani sababli kechqurun qayiqda tomoshaga chiqdim. Oqshom fayzli edi. Qayiqda hech narsa haqida o'ylamasdan, yoqimli havodan to'yib-to'yib nafas olganча chor atrofni kuzata boshladim. Tashlandiq jar yoqasidan o'tayotib, uning yonginasidagi ikki qavatli mo'jaz uyga ko'zim tushdi. Uyning pastki qavat derazasidan bir kampir tashqarini kuzatar, yuqoridagi derazadan xushro'ygina qizning boshi ko'rinar edi. Menda to'satdan alohida bir kayfiyat tug'ildi. Qizning kimligi, qanaqaligi, nima uchun bu uychada turishi, kampirga nima aloqasi borligi haqida xayolga cho'mdim. Natijada shu yerda, qayiqning o'zidayoq qissaning fabulasi tayyor bo'ldi".

Bunday ma'lumotlar o'zbek adabiyoti namoyandalari tarjimayi hollarida ham ko'p uchraydi. Masalan, 10-sinfda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tarixiga doir quyidagi hikoya keltirilsa, o'quvchilarning asar sujeti va kompozitsiyasini tushunishlari osonlashadi:

"Qariyb yarim umrini xon zamonlarida yashagan, talay o'tmish voqealarining shohidi bo'lgan otam yoshligimda qiziq-qiziq xotiralarni so'zlab berardi. Bu xotiralar menda tarixga qiziqish uyg'otdi. So'ngra o'sha davrimiz tarixiga oid ancha kitoblar bilan ham tanishib chiqdim. Qo'lim qalamga xiyla kelib qolgach, menda ana shu o'tmishimizdan G'arb romanchiligi asosida kattaroq bir asar yaratish havasi tug'ildi. Tarixiy voqealar boshimda shu qadar ko'p ediki, go'yo qaynar, menga tinchlik bermas edilar. Ammo bu voqealarni qanday qilib bir ipga

tizishni, qog‘ozga tushirishni tasavvur qila olmasdim. Uzoq vaqt o‘ylab, izlab yurdim.

Kunlarning birida bog‘imizga, otamni ko‘rgani eshak minib shahardan bir chol mehmon bo‘lib chiqdi. Mehmonni men tanimasdim. U otamning eski qadrdoni ekan. Mehmon qildik. Otam shu choqlarda yuz yoshlarda bo‘lib, mehmon esa undan besh-o‘n yosh kichik ko‘rinar edi. Ular suhbat qilarkan, quloqlari og‘irlashib qolgani uchun bir-birining so‘zlarini yaxshi eshitolmas edi. Shu sababli menga ular o‘rtasida tilmoch bo‘lib choy quyib o‘tirishga to‘g‘ri keldi. Otam mehmondan so‘radi: “Andijondagi xotiningizdan nechta bolangiz bor?”. Ularning suhbatidan men angladimki, bu mehmon toshkentlik bo‘lib, uyli-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik chog‘larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u yerda uylanib, ko‘p yillar istiqomat qilgan, bola-chaqali bo‘lgan va keksaygach, o‘z shahriga qaytib kelgan ekan.

Mehmonning ana shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday bo‘ldi. Shu asosda boshimda voqeani asta-sekin kengaytira, rivojlantira boshladim. Besh-olti oylab xayol surishim natijasida romanim hozirgi shaklga keldi va qo‘limga qalam oldim” [2; 146].

Xulosa qilganda, matn ustida ishlashga oid kirish mashg‘ulotlari dars jarayonidagi mustaqil ishlarning ilk bosqichi hisoblanadi. U o‘z ichiga yozuvchilarning hayoti va ijodi, o‘z davriga munosabati, ijtimoiy, axloqiy-estetik qarashlari, adabiy-tarixiy muhit, o‘rganilyatgan asarning yaratilish davri, tarixi, adabiy qahramonlar taqdiri haqidagi ma’lumotlar bilan birga tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘z va iboralar, hikmatlar, tarixiy shaxslar, joy nomlari sharhi kabi masalalarni qamrab oladi. Bunday mashg‘ulotlarda beriladigan bilimlar badiiy asar matnidagi obrazlilikni his etish, anglash va chuqur tushunishga, ma’nosini o‘zlashtirishga yo‘l ochadi, fikr uyg‘otadi. Bu borada metodist olim A.Zunnunov ta’kidlaganidek, “mahorat bilan tashkil etilgan har bir kirish mashg‘uloti navbatdagi mashg‘ulotni muvaffaqiyatli o‘tkazishga zamin yaratadi, o‘quvchilarni asarni badiiy idrok etishga tayyorlash, ularni o‘rganilayotgan masalaga nisbatan qiziqish tuyg‘usini qo‘zg‘atish uchun ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi” [2;

134]. Zero, adabiy ta'lim samaradorligiga erishish ko'p jihatdan o'quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga bog'liq. Chunki chuqur tushunilgan, anglangan asargina kishini befarq qoldirmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 172 б.

2. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 329 б.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 672 б. www.ziyouz.com kutubxonasi.

MEDIASAVODXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

*Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna,
pedagogika fanlari doktori, professor.
Namangan davlat pedagogika instituti*

Annotatsiya. G'arb ilmiy adabiyotida va O'zbekistonda mediasavodxonlik tushunchasi, mediasavodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda axborot manbalarining xilma-xilligi, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda talabalarining mediasavodxonligini rivojlantirish, internet resurslaridan ilmiy-ta'limiy jarayonda foydalanishdagi metodik imkoniyat kabi masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, axborot madaniyati, axborot manbalari, pedagogning mediasavodxonligi, internet resurslari, ilmiy-ta'limiy jarayon, metodik imkoniyatlar.

Аннотация. В западной научной литературе и в Узбекистане анализируется понятие медиаграмотности, вопросы формирования и развития медиаграмотности, разнообразие информационных источников, развитие медиаграмотности у преподавателей и студентов вузов, а также

методические возможности использования интернет-ресурсов в учебно-научном процессе.

Ключевые слова: медиаграмотность, информационная культура, информационные источники, медиаграмотность педагога, интернет-ресурсы, учебно-научный процесс, методические возможности.

Abstract. In Western scientific literature and in Uzbekistan, the concept of media literacy is analyzed, along with issues of its formation and development, the diversity of information sources, the development of media literacy in university professors and students, and the methodological possibilities of using internet resources in the academic and scientific process.

Keywords: media literacy, information culture, information sources, media literacy of educators, internet resources, academic and scientific process, methodological possibilities.

Kirish. Mediasavodxonlik masalasi bilan g'arb ilmiy tadqiqotchilari ilk bor XX asr boshlarida shug'ullana boshladilar. Ayniqsa, matbuot (gazeta-jurnallar)-ning ta'siri kuchaygan bir davrda jamiyat a'zolarining media axborotlarini tanqidiy tahlil qilish lozimligi aniqlandi. Shu bilan birga, radiokommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib, televideniye paydo bo'lishi bilan turli axborot kanallaridan unumli, ongli ravishda foydalanish masalasi dolzarblashdi. Hozirgi kunda esa internet va raqamli vositalar ilgari surgan imkoniyatlar mediasavodxonlik tushunchasining yanada boyishiga, uning qamrov doirasi kengayishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili. Mediasavodxonlik tushunchasi ilmiy asosda birinchi bor Amerika Qo'shma Shtatlarida ilmiy bahslar markazida paydo bo'lganligi qayd etiladi. Xususan, XX asr o'rtalarida jamiyatda radio, televideniye kabi ommaviy axborot vositalarining ta'siri orta boshlaganligi mediasavodxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirdi.[1] Ayrim tadqiqotchilar mediasavodxonlikni avvalo telesavodxonlik sifatida tushunishgan, chunki televideniye audiovizual axborot uzatuvchisi sifatida eng katta ta'sir kuchiga ega edi. Keyinchalik radio, kino, matbuot kabi boshqa manbalar bilan birgalikda axborot ma'lumotlarini tanqidiy

tushunish, tahlil qilish, baholash kabi ko'nikmalar ham mediasavodxonlik doirasiga kiritila boshlanadi. G'arb ilmiy adabiyotida mediasavodxonlik tushunchasi turli ta'rif va yondashuvlar asosida sharhlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada, Kanadada hamda AQSHda mediasavodxonlikni rivojlantirish bo'yicha alohida ta'lim dasturlari yaratilgan. Shu jumladan, Kanadada 1980–1990-yillarda maktab ta'lim tizimida mediasavodxonlik bo'yicha fanlar joriy qilingan. Bu jarayonda ilk tadqiqotlar nega aynan o'quvchilarga axborotni tushunish, tahlil etish, tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini o'rgatish zarurligi bilan izohlanadi.[2] G'arbda mediasavodxonlik tushunchasi faqatgina axborotni tushunish yoki qabul qilish bilan bog'lanib qolmasdan, balki axborotni yaratish, tarqatish, undan axborot iste'molchisi sifatida to'g'ri foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi jahon miqyosida bir qator ilmiy izlanishlarda keng o'rganilgan. Jumladan, xorijiy tadqiqotchilardan D.Bakingem, L.Masterman, G. Jenkinz, R. Xobbs, U.J.Potter, M.Maklyuen, G.Reyngold, K.Lenkshir va M.Knobel, D.Fridman, J. Xartli[3] kabilar ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish, talabalarning media kontentdan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularda axborotni tanqidiy tahlil qilish madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ularning tahlillari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik nafaqat texnik yoki texnologik bilim va ko'nikmalarni, balki keng ma'nodagi axborot madaniyatini shakllantirish, jamiyatda axborot oqimlarini boshqarish, xususan, yosh avlodda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va axborotni tanqidiy baholash malakalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

MDH davlatlarida bu mavzudagi ilmiy qarashlar XX asr oxirlari va XXI asr boshlarida intensiv rivoj topa boshladi. Xususan, V.V.Davidov, P.I.Pidkasistiy, S.A.Smirnov, B.T.Lixachev, M.N.Skatkin, P.Y.Galperin[4] kabi yirik rus pedagog-psixolog olimlari tomonidan ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali talabalarda mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik kompetensiyalarini shakllantirish, talabalarda axborot madaniyatini yuksaltirishda media vositalarining

texnologik aspektlarini hisobga olish, axborotni ta'lim jarayonida maromi bilan taqdim etish, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida eskidan yangi axborot elementlarini ajratish kabi jarayonlarni metodik asoslash kerakligini ta'kidlashadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda internet va raqamli vositalar asosidagi imkoniyatlar mediasavodxonlik tushunchasining yanada boyishiga, uning qamrov doirasi kengayishiga sabab bo'lgani; G'arb ilmiy adabiyotida va O'zbekistonda mediasavodxonlik masalasi, mediasavodxonlikni shakllantirishda axborot manbalarining xilma-xilligi, Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish, internet resurslaridan ilmiy-ta'limiy jarayonda foydalanishdagi metodik yondashuvlar kabi masalalar tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar. Kuzatishlar, ish tajribalarimiz hamda tahlillar bugun mediasavodxonlik – bu shaxsning turli media resurslaridan samarali foydalanish, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlari majmui ekanligini ko'rsatmoqda.

Mediasavodxonlik tushunchasi bir qator ilmiy adabiyotlarda turlicha ifodalanadi. Shu bilan birga, umumiy tarzda qabul qilingan ta'rif shundayki, mediasavodxonlik – bu axborotni maqsadga muvofiq ravishda topish, saralash, baholash, tushunish va foydalana olish ko'nikmasidir. Yoshlar orasida bu ko'nikmalarni rivojlantirish, eng avvalo, ta'lim muassasalarida mediasavodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan dastur va loyihalarni ko'paytirish bilan bog'liq. Chunki bilim beruvchi tizim mediasavodxonlik asoslarini rang-barang trenajyorlar va amaliy seminarlar yordamida tushuntirishi lozim. Bu jarayonda malakali pedagoglar, axborot texnologiyalari mutaxassislari hamkorligi muhimdir. Shu tariqa jamiyatning har bir a'zosi turli axborot manbalari bilan muloqotda info-strategik yondashuvni amalga oshirish salohiyatiga ega bo'ladi.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, mediasavodxonlik axborot bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini nazarda tutsa,

ikkinchi tomondan, axborot madaniyati insonda axborotni axloqiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan qanday ishlatish lozimligini hamda uning xavfsizlik jihatlarini yoritib beradi. Axborot madaniyatili shaxs butun axborot makonida mas'uliyat bilan harakat qiladi, axborot qoidalarini buzmaslikka, yolg'on ma'lumot tarqatmaslikka, mualliflik huquqlarini buzmaslikka intiladi. Shu bois axborot madaniyati yuqori bo'lgan soha vakillari media maydonda ham natijadorlikka erishadi. Zero, har qanday axborotni qabul qilish yoki uni tarqatishda inson etika, huquq, axborot xavfsizligi qoidalariga amal qilish zaruratini chuqur anglaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy axborot jamiyatida talabalarni global raqobatbardoshlikka tayyorlash va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahonda talaba-yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, o'quv faoliyati va shaxsiy rivojida mediasavodxonlik hamda axborot madaniyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning keng tarqalishi talabalar ongida axborot oqimlarini tanqidiy qabul qilish, yolg'on va manipulyativ ma'lumotlardan himoyalanih, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Bu raqamli axborot makoni va yoshlarning ma'naviy immuniteti o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish hamda uni pedagogik jarayonga integratsiya qilish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bundan kelib chiqadiki, oliy ta'lim muassasalarida saboq beruvchi pedagogning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish – zamonaviy ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni axborotlashgan jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirishning muhim shartidir.

Dunyoda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar, xalqaro loyihalar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Avvalo, YUNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Media and Information Literacy" konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya yoshlarni mustaqil ravishda axborotni topish, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanishga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Yevropa Ittifoqida "Digital Education Action

Plan” dasturi doirasida talabalarning raqamli kompetensiyalarini, shu jumladan, mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha izchil siyosat olib borilmoqda. AQSHda “Center for Media Literacy” tashkiloti faoliyati doirasida o‘quvchilar va talabalar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilgan. Osiyo davlatlari, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada mediasavodxonlikni rivojlantirish milliy ta’lim siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Masalan, Janubiy Koreyada “Smart Media Education” dasturi orqali talabalar axborotni izlash va tekshirish ko‘nikmalariga o‘rgatilmoqda.

Mediasavodxonlik va axborot madaniyati bo‘yicha xorijiy izlanishlar keng ko‘lamli bo‘lib, ularni bir necha ilmiy maktablar doirasida ko‘rish mumkin. Amerikalik olim D.Kellner va J.Sheyr “Tanqidiy media savodxonligi: asosiy tushunchalar, bahslar, tashkilotlar va siyosat” asarida mediasavodxonlikni tanqidiy pedagogika bilan bog‘lab, talabalarni ommaviy axborot vositalaridagi mafkuraviy va manipulyativ xabarlarini tahlil qilishga o‘rgatish zarurligini ta’kidlaydilar. Kanadalik tadqiqotchi D.Buking ham “Media ta’limi: savodxonlik, o‘qish-o‘rganish va zamonaviy madaniyat” asarida yoshlarning media tajribasi va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Finlyandiyalik olim Si.Kotilainen “Finlyandiya media savodxonligi ta’limi” asarida oliy ta’lim muassasalarida mediasavodxonlikni mustaqil fan sifatida emas, balki barcha fanlar bo‘yicha integratsiyalashgan yondashuv orqali rivojlantirish samarali natija berishini ta’kidlaydi. Britaniyalik olim L.Masterman mediasavodxonlik pedagogikasi bo‘yicha klassik asar hisoblangan “Ommaviy axborot vositalari haqida ta’lim berish” kitobida oliy ta’limdagi o‘qituvchilar va talabalar uchun media ta’limning didaktik asoslarini ishlab chiqib, mediasavodxonlikni demokratik jamiyatning asosiy elementi sifatida talqin qiladi. Avstraliyalik tadqiqotchi K.Vardle so‘nggi yillarda feyk yangiliklar, dezinformatsiya va misinformatsiya masalalarini chuqur o‘rganib, “Soxta yangiliklar. Bu murakkab masala” nomli tadqiqotida talabalar va yoshlar orasida axborot madaniyatini rivojlantirishni global xavfsizlik bilan bog‘lab ko‘rsatadi.

Internet resurslaridan ilmiy-ta’lim jarayonida foydalanish uchun bir qancha

metodik imkoniyat va yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlarning har biri turli sharoitlar va maqsadlarga mos ravishda tanlanadi. Internet resurslari deganda faqatgina veb-saytlar emas, balki onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar bazasi, elektron jurnallar, o'quv video kurslari, vebinarlar, bloglar, forumlar, virtual laboratoriyalar kabi ko'plab turlar nazarda tutiladi.[5] Internet cheksiz axborot manbayi bo'lsa-da, unda turli yolg'on yoki ishonchsiz manbalar ham uchraydi. Shunga ko'ra, o'quvchilarga ishonchli manbalarni aniqlash (masalan, davlat tashkilotlari rasmiy sahifalari, ilmiy jurnallar saytlari, universitetlarning rasmiy veb-saytlari), kalit so'zlar bilan axborot izlash, manbalarni bir-biri bilan taqqoslash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bunda maxsus turli onlayn kurslar (Coursera, EdX kabi) yoki kutubxona portallaridan (Google Scholar, ResearchGate, JSTOR kabi) foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq. Pedagoglar esa ushbu jarayonni boshqarib, talabalar tomonidan olib kelinayotgan manbalarni ilmiy nuqtai nazardan baholab, ularni talabalar bilan birgalikda muhokama qilib borishi lozim.[6]

Bugungi kunda ko'plab ta'lim muassasalarida vebinarlar o'tkazish amaliyoti shakllangan. Bu jarayonda videoaloqa orqali bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar yoki talabalar bilan suhbatlasha olish imkoniyati mavjud. Masofaviy ta'limni joriy etayotgan muassasalar zamonaviy talablarni qondirish uchun maxsus platformalardan foydalanishi lozim. Vebinarlarni o'tkazishda metodik jihatdan oldindan rejalashtirish: tayyorlangan slaydlar, tartibli prezentativ materiallar, interaktiv savol-javoblar, guruhda ishlash elementlari hamda qayta aloqa (feedback) mavjud bo'lishi kerak. Mazkur jarayon xoh onlayn, xoh oflayn bo'lsin, ta'lim sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.[7]

Kundalik darsdan tashqari o'quvchilarga ma'lum bir soha bo'yicha elektron kurslardan foydalanish imkonini yaratish maqsadga muvofiq. Chunki global platformada o'quvchi mustaqil ravishda mavzularni o'rganishi, xorijiy mutaxassislar tajribasidan bahramand bo'lishi mumkin. Bu jarayonda pedagog o'quvchining qay darajada kursni puxta o'zlashtirayotgani, qaysi mashqlarni bajara olayotganini nazorat qilishi lozim. Shu bilan birga, o'quvchilardan elektron hisobot

taqdim etishni talab qilish, forumi orqali refleksiya tashkil qilish ham muhim. Internet resurslaridan yana bir umumli foydalanish usuli – bu tarmoqli loyihalar (network projects) tashkil qilishdir. Masalan, biror soha bo‘yicha ilmiy yoki amaliy loyiha yaratishda turli hududlarda yashayotgan talabalar onlayn rejimda birlashib ishlashlari mumkin.

Interaktiv uslublar esa ana shu nazariy bazani jonlantiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga chorlovchi metod sifatida juda ham zarur hisoblanadi. Multimedia vositalari esa zamonaviy ta‘lim texnologiyasining ajralmas qismi bo‘lib, nazariy bilimlarning aniq ko‘rgazmali misollar bilan birlashtirilishida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Metodik jihatdan esa pedagog uchun mediasavodxonlikni rivojlantirishda ilmiy tadqiqot usullari, keys-stadi, rol o‘yinlar (role-play), projekt asosida ta‘lim va elektron portfolio kabi zamonaviy yondashuvlar samarali hisoblanadi. Jumladan, keys-stadi usulida talabalar haqiqiy hayotdan olingan media situatsiyalar bilan tanishadi, muammoli vaziyatni tahlil qiladi, maqsadli guruhlar uchun axborotni qanday taqdim etish yoki tushunish kerakligi haqida bahs-munozara qiladi.

Projekt asosida ta‘limda esa talabalar bir necha hafta yoki oy davomida jamoaviy ravishda media loyihani rejalashtiradilar, media kontentni yaratish, tahrirlash va taqdim etish jarayonlarida qatnashadilar. Bu metodik yondashuvlar talabalarni media muhitda har tomonlama faol bo‘lishga, axborotni xolis ko‘rib chiqishga, tanqidiy fikr yuritishga o‘rgatadi.

Oliy ta‘lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish modellari, shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta‘minlash bilan ham chambarchas bog‘langan. Zamonaviy sharoitda turli kiberxavflar, soxta yangiliklar (feyklar), manipulyatsiyaviy axborotlar muntazam ravishda paydo bo‘layotgani bois, talabalarni ana shunday axborot tahdidlari oldida shunchaki yopilib olmasdan, aksincha ularni aniqlash, baholash va imkon qadar neytralizatsiya qilish ko‘nikmalari bilan qurollantirish lozim bo‘ladi.[8]

Bu esa mediasavodxonlik fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishni talab qiladi. Masalan, huquqiy fanlar bilan hamkorlikda ta‘lim jarayonini tashkil etish

axborot xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalar axborot huquqi va axborot axloqi bo'yicha ham tushunchalarga ega bo'lishi zarurdir.

Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish modellari ko'p qirrali, bir-biri bilan uzviy bog'langan hamda muntazam takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda dastlab pedagogning hamda undan saboq oluvchi talabalarning mavjud mediasavodxonlik darajasini aniqlash, maxsus fanlar yoki modullar orqali nazariy bilimlar berish, ularni amaliyot bilan bog'lash, kasbiy mediasavodxonlik ko'nikmasini shakllantirish, axborot xavfsizligi, etika va huquq bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun integratsiya qilish kabi bir qancha bosqichlar paydo bo'ladi.

Mediasavodxonlik tarbiyasida axborot makonida etika meyorlarini uzviy ravishda singdirish lozim. Falsafa axborot faoliyatida axloqiy tamoyillar, jamoaviy fikrlash, insoniylik qiymatlarini saqlashni ta'kidlaydi.

Xulosalar. Xorijiy manbalar va o'z tajribalarimizdan xulosa qilish mumkinki, mediasavodxonlikni rivojlantirishda siyosiy-huquqiy asoslar ham alohida o'rin tutadi. Yolg'on axborot tarqatganlik uchun jarimalar yoki soxta ma'lumotlar bilan ommani chalg'itganlik uchun jazo choralarini belgilash, axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus tuzilmalar tashkil etish kabi choralar ko'pgina mamlakatlarda qonun bilan mustahkamlangan. Axborotni tarqatish, sharhlash yoki qabul qilishda milliy, umuminsoniy, islomiy yoki boshqa dunyoqarash mezonlari va meyorlariga amal qilish talaba shaxsida axborot munosabatida mas'uliyatni kuchaytirib, jamiyatda axborot oqimining sog'lom bo'lishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Potter W. J. Media literacy. – Sage publications, 2018.
2. Buckingham D. Children and media: A cultural studies approach //The international handbook of children, media and culture. – 2008. – S. 219-236.
3. Buckingham V. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – P. 45. Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. –

Cambridge: The MIT Press, 2009. – P. 53.; Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks: Corwin, 2011. – P. 68.; Potter W.J. Media Literacy. – Los Angeles: SAGE Publications, 2016. – P. 110.; Rheingold H. Net Smart: How to Thrive Online. – Cambridge: The MIT Press, 2012. – P. 33.; Lankshear C. and Knobel M. New Literacies: Everyday Practices and Classroom Learning. – London: McGraw-Hill Education, 2011. – P. 75.; Freedman D. The Contradictions of Media Power. – London: Bloomsbury, 2014. – P. 67.; Hartley J. Digital Futures for Cultural and Media Studies. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. – P. 92.

4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – Москва: Просвещение, 2006. – С.37.; Пидкасистый П.И. Педагогика: Учебник для вузов. – Москва: Педагогика, 2006. – С.84.; Смирнов С.А. Педагогическая технология. – Москва: Академия, 2003. – С.119.; Лихачев Б.Т. Педагогика: Курс лекций. – Москва: Луч, 1998. – С.64.; Скаткин М.Н. Общие методические принципы обучения. – Москва: Просвещение, 2006. – С. 39.; Гальперин П.Я. Формирование умственных действий и понятий. – Москва: Академия, 2002. – С. 17.; Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. – Москва: Педагогика, 1998. – С. 203.

5. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>

6. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str. 98-105. Makhbuba Sobirova, Matlubakhon Karieva (2024). The Role of National values in Education.

<http://journal.nun.uz> Social sciences. O‘zbekiston milliy Universiteti xabarlarlari, 2024, [1/9] ISSN 2181-7324. B-178-180.

7. Sobirova, M.Y. (2024). Innovation-integration approach to the development of speaking competence of students <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/> ETHIDPIAN INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. Volume: 11, Issue 05, May-2024 SJIF 2019: 4.702 2020: 4.737 2021: 5.071 2022: 4.919 2023: 6.980 2024: 7,662

8. Sobirova, M.Y. (2024). Development of oral speech competence of students. <https://www.academicpublishers.org/> International journal of artificial intelligence (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 03, 2024. Published Date: - 04-06-2024. Sobirova, M.Y. (2024). Enhancing the mechanisms and factors of improving the literacy of upper school students based on an innovative approach. <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/810>. European journal of higher education and academic advancement. VOL.1NO.8(2024) 3 aug 2024, - B 21-28 ISSN: 3032-1123 (Global Impact factor).

TURIZM YO‘NALISHI TALABALARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Otamirzayeva Gulhayo Baxtiyor qizi
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, turizm yo‘nalishi talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Ta‘lim jarayonining turizm yo‘nalishi talabalarining kommunikativ, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda muloqat madaniyatini shakillantirishda kasbiy motivatsiyaning ahamiyati eksperimental o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: bilim, muloqot, kommunikatsion qobiliyat, turizm, talabalar, kommunikativ kompetensiya, axborot texnologiyalari.

Аннотация. В статье представлены психолого-педагогические особенности развития коммуникативной компетентности студентов туристского направления. Экспериментально изучено значение профессиональной мотивации в развитии коммуникативных, организационно-управленческих навыков студентов туристского направления в образовательном процессе, формировании у них культуры общения.

Ключевые слова: знания, общение, коммуникативная компетентность, туризм, студенты, коммуникативная компетентность, информационные технологии.

Abstract. This article presents the psychological and pedagogical aspects of developing communicative competence in tourism students. An experimental study examines the role of professional motivation in developing the communicative, organizational, and managerial skills of tourism students in the educational process, as well as in fostering a culture of communication.

Keywords: knowledge, communication, communicative competence, tourism, students, communicative competence, information technology.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi globallashuv jarayonining talablari asosida rivojlanib bormoqda. Bu jarayonda talabalarning nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularning muloqot ko'nikmalarini, ya'ni kommunikativ kompetensiyasini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki har bir mutaxassisning o'z kasbiy hamda shaxsiy faoliyati davomida muloqotchanlik qobiliyati yetarli darajada shakllangan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish ko'nikmasi har doim ko'plab izlanuvchi olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o'zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ xatti-harakatlarini nazariy o'rganishga e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda kommunikatsiya tushunchasiga nisbatan berilgan qator ta'riflar mavjud bo'lib, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir [1].

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy ta‘limning sifatini oshirish, jumladan turizm yo‘nalishi talabalarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini, o‘quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish, o‘qitishning samaradorligini oshirish usullarini kuchaytirish, ta‘limning har bir bosqichidagi maqsadni aniq belgilash, bilimlarni imkon darajasida to‘liq egallashning mexanizmlarini ishlab chiqishning asoslari tatbiq etilmoqda.

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot, fan va texnikaning ilgarilab ketishi natijasida deyarli barcha mamlakatda talabalar internet vositasida ta‘lim olmoqda. Bu bir tomondan ularning aqliy rivojlanishi, tafakkurining o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan esa ularni atrofdagilar, tengdoshlari bilan muloqot jarayoniga ko‘rinmas to‘siq qo‘yadi. Negaki, hozirda muloqotning yangi ko‘rinishi “onlayn muloqot” vujudga kelgan. “Onlayn muloqot”da esa turli xil tasvir va simvollardan keng foydalanishi natijasida jonli muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hissiyot, mimika, pantomimika, ta‘sirchanlik kabilar yuzaga chiqmaydi. Natijada esa talabalarda muloqotchanlik ko‘nikmasi juda sekin rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham talabalarni erkin va kreativ fikrlaydigan, atrofdagilar bilan qiynalmay muloqot qila oladigan, o‘z ona tilini sevadigan, o‘zligini anglaydigan, ma‘naviy yetuk, o‘tkir zehn egalari qilib tarbiyalash juda muhim. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun milliy o‘zligimiz timsoli, ma‘naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish, uni rivojlantirish, boyitish uchun aniq vazifalarni belgilab olish olish lozim.

Respublikamizda kompetensiya va kommunikativ kompetensiyani darslarda qo‘llash U.Begimqulov, O.Musurmanova, M.Irisqulov, K.Riskulova, U.Jumanazarov, G.Asilova, M.Gulyamova, M.Mirzayeva kabi pedagog olimlar tomonidan ilmiy o‘rganilgan.

Biz tadqiqotimizda dastavval kommunikatsiya va kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmuniga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur tushunchaning mohiyatini ochib berishda ko‘plab yondashuvlar mavjud.

Xususan, E.I.Litnevskayaning ta‘kidlashicha “ kommunikativ kompetensiya – nutq faoliyatining barcha turlarini og‘zaki va yozma nutq madaniyat elementlarini,

ma'lum bir yoshda muloqotning hayotiy sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy k'nikma va malakalarini o'zlashtirish"dir [].

Kommunikatsiya – bu o'zaro insonlar o'rtasida ma'lumot uzatish hisoblanadi, shuningdek, kommunikatsiya nafaqat ma'lumot yetkazish, balki uni yaratish funksiyasini hambajaradi degan fikrlar ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Demak, kommunikatsiyani o'zaro fikr almashishning o'ziga xos jarayoni sifatida qabul qilish mumkin, uning natijasida o'zaro yordam ko'rsatish hamda turli murakkablik darajalariga ega bo'lgan harakatlarning muvofiqligi ta'minlanadi. Shu bilan birgalikda kommunikativ kompetensiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, kommunikativ kompetensiya – bu samarali muloqot qila olish qobiliyatidir va u xabarlarni shakllantirish hamda tushunish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi [6].

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi [4].

Bizning fikrimizcha esa, kommunikativ kompetesiya – bu o'quvchilarning o'zgarar nutqini tushunishi, o'zining og'zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo'lishi, nutq vaziyatiga mos bo'lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi.

Xulosa. Turizm yo'nalishi talabalarining kommunikatsion qobiliyatlarini oshirish uchun bunday texnologiyalar an'anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi: o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o'qitish usullari. Ta'lim sohasidagi innovatsiyalar – ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga joriy etish bilan bog'liq barcha narsalar.

Zamonaviy ilm-fanda yetakchi o'rinni egallagan ta'lim jarayoni talabalarga bilim, ko'nikma va malaka berish, shaxs, fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga

qaratilgan. O'zgarishlar vaqt, ta'lim, rivojlanishga munosabatning o'zgarishi bilan belgilanadi.

Kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo'lishi mumkin. Insonparvar yo'nalgan o'qituvchi uchun kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish nafaqat o'zi uchun o'zini o'zi yaxshilashda, balki samarali o'zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo'lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o'ziga xosliklarini saqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Агафонова, И.Д. Педагогическая модель формирования коммуникативной компетенции менеджеров в системе дополнительного образования [Электронный ресурс]

2. Begmatova Dilnoza, & Alimova Laylo. (2024). "Talabalarning kommunikativkompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish" International Innovationand Researches, 1(2), 121-124.

3. Зорин, И. В. Теоретические основы формирования содержания профессионального туристского образования: дис. ... д-ра пед. наук / И. В. Зорин. – М., 2001. – 319 с.

4. Квартальнов, В. А. Теория и практика туризма / В. А. Квартальнов. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 672 с.

5. Кривцова, О. В. Формирование профессиональной коммуникативной компетентности студентов экономических специальностей: автореф. дис. ... канд. пед. наук / О. В. Кривцова. – М., 2008. – 24 с.

6. Кустов, В. Н. Развитие коммуникативной компетентности менеджеров коммерческих организаций по оптовым продажам: автореф. дис. ... канд. психолог. наук / В. Н. Кустов. – М., 2007. – 23 с.

ERTAKLARNI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Muxlisa Akmaljon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarining va ularning nomlanishi, o‘rganish bo‘yicha innovatsion metodlarni qo‘llash va dars samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq ertaklari, og‘zaki ijod, epik tur, metod, interfaol usul, bibliionim, FSMU texnologiyasi, “Tasvirli soat” va “Zinama-zina” metodlari. Xalq og‘zaki ijodining epik turiga mansub bo‘lgan ertak janri kundan kunga insonlar tafakkurida, zamon bilan hamnafas holda yashab, ravnaq topib kelmoqda. Qadimdan bor bo‘lgan ushbu janr ko‘plab asarlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Ular insonlarning paydo bo‘lishi, turmush tarzi, madaniyati va tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hodisalarda ko‘rinadi.

Ertak – xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; cho‘pchak.⁶ Hayot va xayol mujassamlashgan voqealar bilan boyitilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega og‘zaki hikoyalar ertak deb ataladi.

Ko‘pincha tildagi metafora (“Ajdar qush”, “Aldarko‘sa va boy”), metonimiya (“Oltin qo‘l”), sinekdoxa (“Oq bosh”), ironiya, toponimiya va gidronimiya (“Oq buloq”, “Jayhun”) kabi ma‘no ko‘chishi turlari orqali ertaklar yaratiladi va nomlanadi.

Har qanday asar nomlari bibliionimlar deb ataladi. Shu jumladan, bolalarga xos ertaknomlari ham bibliionimlar sirasiga kiradi. Bibliionim – muallifning o‘quvchiga qaratilgan mavzuni, muammoni, tasvirni, asar syujeti istiqbolini o‘zlashtirish uchun qo‘llaniladigan birinchi so‘z. U asarning ochqich kaliti desak ham adashmagan bo‘lamiz.

Ertak janrining xususiyatlari, uning ichidagi voqealar rivoji ertak sarlavhalarida o‘z ifodasini topadi.

Sarlavhalar asardagi voqea, qahromon, mazmunga ishora qiladi. Bolalar

⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston nashriyoti. – Toshkent, 2020.

adabiyoti maqol, topishmoq, tezaytish, o‘yin qo‘shiqlari, rivoyat va ertak kabi rang-barang janrlar kesimidan iborat. Ular orasida ertaklar o‘ziga xos alohidalik kasb etadi. Barcha zamonlarning o‘z ijodkorlari xalqning urf-odatlarini, maqsad-intilishlari, orzu-armonlarini ifodalab keladi.

Ertaklar, asosan, barcha uchun mo‘ljanlangan bo‘ladi. Lekin ko‘proq ertaklarning mazmun mohiyati bolalarga xos bo‘ladi. Bu xoslik ertak sarlavhasidan tortib, yakuniga qadar bola ruhiyati va psixologiyasiga yo‘naltiriladi. Qolaversa, bolalarning ham ma‘naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajaradi. Ertak – xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlaridan biri: to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar.

Birinchi marta ertak atamasi XI asrning yetuk tilshunos olimi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “etuk” shaklida uchraydi va bu hikoya qilish ma‘nosini beradi. Sehrli ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy-hayotiy ertaklar kabi tasniflanadi. Shuningdek, hayvonlar haqidagi ertaklar o‘z ichida etiologik ertaklar, sof hayvonlar haqidagi ertaklar va majoziy(allegorik) ertaklarni oladi

Ertak sarlavhasi bir yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin.

Buyruq, so‘roq, undov, kiritma, taqlid so‘zlardan tuzilgan ham bo‘ladi. Aksariyat ertaklar metoforik nomlangan: “*Tillakokil*”, “*Oltin tarvuz*”, “*Qilichbotir*”, “*Ajdarqush*”, “*Ilonpari*”, “*Sichqonqiz*”, “*Jonon payola*” kabi ertak sarlavhalarini keltirishimiz mumkin.

“*Jonon piyola*” sarlavhasidagi “jonon” ayollar sifatini, ya‘ni chiroyi, dunyoda tengi yo‘qligini ifodalash uchun qo‘llanuvchi so‘z piyolaga ko‘chganligi, ertakdagi bu buyumga *qorong‘ida tunni oy kabi yoritir edi deya* ta‘rif berilishi ham bolani o‘ziga jalb qiladi.

“*Oltin tarvuz*” ertagida ham aslida bunday tarvuzning o‘zi yo‘q, lekin bolalarga xos tasavvur bilan yangi bir kashfiyotni ifodalash uchun ertak shunday nomlangan.

Abstract. Gamification has emerged as a powerful pedagogical strategy in modern language education, aiming to transform traditional learning environments into interactive and engaging experiences. This article explores how gamification enhances student motivation and participation in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. Drawing upon recent empirical studies and classroom-based research, the paper examines how game-based elements such as points, badges, levels, and leaderboards can positively influence learners' intrinsic and extrinsic motivation. Findings indicate that gamification supports engagement, collaboration, and long-term language learning outcomes when integrated thoughtfully within communicative and task-based teaching approaches.

Keywords: Gamification, Motivation, EFL Learners, Language Teaching, Engagement, Digital Learning, Task-Based Learning

Annotatsiya

Gamifikatsiya zamonaviy til ta'limida kuchli pedagogik strategiya sifatida shakllanib, an'anaviy o'quv muhitini interaktiv va qiziqarli tajribaga aylantirishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada gamifikatsiyaning ingliz tili chet tili sifatida o'qitiladigan (EFL) darslarda o'quvchilarning motivatsiyasi va ishtirokini qanday oshirishi tahlil qilinadi. So'nggi empirik tadqiqotlar va sinf amaliyotlariga tayangan holda, maqolada ballar, nishonlar, darajalar va reyting jadvallari kabi

o‘yin elementlari o‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, gamifikatsiya kommunikativ va topshiriqqa asoslangan o‘qitish yondashuvlariga oqilona qo‘shilganda o‘quvchilarning faolligi, hamkorligi va uzoq muddatli til o‘rganish natijalarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Kalit so‘zlar: Gamifikatsiya, Motivatsiya, EFL o‘quvchilari, Til o‘qitish, Faollik, Raqamli ta‘lim, Topshiriqqa asoslangan o‘qitish

Аннотация. Геймификация стала мощной педагогической стратегией в современной системе языкового образования, направленной на преобразование традиционной учебной среды в интерактивный и увлекательный опыт. В данной статье рассматривается, как геймификация повышает мотивацию и участие студентов на занятиях по английскому языку как иностранному (EFL). Основываясь на современных эмпирических исследованиях и данных, полученных в учебных аудиториях, работа анализирует, каким образом игровые элементы – такие как баллы, значки, уровни и таблицы лидеров – могут положительно влиять на внутреннюю и внешнюю мотивацию учащихся. Результаты показывают, что геймификация способствует вовлечённости, сотрудничеству и устойчивым результатам обучения языку при её продуманной интеграции в коммуникативные и заданийно-ориентированные методы преподавания.

Ключевые слова: Геймификация, мотивация, учащиеся EFL, преподавание языков, вовлечённость, цифровое обучение, обучение на основе заданий

Introduction. In recent years, gamification – the use of game elements in non-game contexts – has gained significant attention in the field of education, particularly in language learning. The growing digitalization of education and the shift toward learner-centered approaches have made gamified environments more

accessible and effective. According to Deterding et al. (2011), gamification involves applying elements such as points, rewards, and competition to increase motivation and engagement. In the language classroom, these elements have the potential to make repetitive language tasks, such as vocabulary drills or grammar exercises, more enjoyable and purposeful.

Motivation plays a critical role in second language acquisition. Deci and Ryan's (2000) Self-Determination Theory (SDT) emphasizes the importance of intrinsic motivation, which drives learners to engage in tasks for personal satisfaction and interest. By integrating gamified features, teachers can create an atmosphere that fosters autonomy, competence, and relatedness – three key components of SDT –thereby increasing learner persistence and enthusiasm.

Methodology. This article is based on a qualitative synthesis of recent studies on gamification and motivation in EFL settings. Data were gathered from peer-reviewed journal articles published between 2015 and 2024. The sources include empirical studies conducted in secondary schools, universities, and online learning platforms. The analysis focuses on three main aspects: (1) types of gamification elements used in language teaching, (2) their influence on learners' motivation and performance, and (3) challenges faced by teachers in implementing gamification effectively.

Results and Discussion. The reviewed studies consistently demonstrate that gamification enhances both intrinsic and extrinsic motivation among language learners. For instance, Su and Cheng (2015) found that incorporating a digital badge system in vocabulary learning led to higher levels of learner participation and satisfaction. Similarly, Ibáñez et al. (2019) reported that students who engaged with gamified grammar exercises demonstrated improved retention and willingness to communicate in English.

Gamification works because it transforms learning into a challenge-based process. When learners earn points or unlock new levels after completing linguistic tasks, they experience a sense of achievement that reinforces continued participation (Werbach & Hunter, 2012). Additionally, social elements such as

team competitions and leaderboards encourage collaboration and peer support, creating a community of motivated learners (Hanus & Fox, 2015).

However, the effectiveness of gamification largely depends on pedagogical design. Overemphasis on extrinsic rewards (e.g., points, badges) can sometimes reduce intrinsic motivation if students focus only on winning rather than learning (Deci et al., 1999). To avoid this, gamified activities should be aligned with communicative goals and authentic language use. Integrating gamification with Task-Based Language Teaching (TBLT) ensures that learners use English meaningfully while enjoying the game-like context. For example, designing digital escape rooms or role-playing missions encourages learners to negotiate meaning, collaborate, and apply vocabulary in real contexts.

Another significant advantage of gamification is its potential to reduce language anxiety. According to Reinhardt and Sykes (2014), playful learning environments provide a “safe space” for experimentation, allowing learners to make mistakes without fear of judgment. This emotional comfort enhances confidence and willingness to communicate, particularly among shy or less proficient students.

Nonetheless, challenges remain. Some teachers struggle with technological limitations, lack of training, or the additional time required to design effective gamified lessons. Moreover, not all learners respond equally well to competition – some may feel pressured or discouraged if they fall behind. Therefore, educators should strive for balance by combining cooperative and competitive elements and offering diverse ways for students to succeed.

Conclusion. Gamification offers tremendous potential to increase motivation and engagement in language learning when implemented strategically. It supports both cognitive and affective aspects of learning by transforming mundane classroom routines into interactive, goal-oriented experiences. However, successful application requires thoughtful integration with pedagogical principles, focusing on intrinsic motivation, meaningful communication, and learner autonomy. As digital

tools become increasingly widespread, gamification will likely continue to evolve as a central feature of 21st-century language education.

REFERENCES:

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.
2. Deci, E. L., Koestner, R., & Ryan, R. M. (1999). A meta-analytic review of experiments examining the effects of extrinsic rewards on intrinsic motivation. *Psychological Bulletin*, 125(6), 627-668.
3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification. *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference*, 9-15.
4. Hanus, M. D., & Fox, J. (2015). Assessing the effects of gamification in the classroom: A longitudinal study on intrinsic motivation, social comparison, satisfaction, effort, and academic performance. *Computers & Education*, 80, 152-161.
5. Ibáñez, M. B., Di-Serio, Á., & Delgado-Kloos, C. (2019). Gamification for engaging computer science students in learning activities: A case study. *IEEE Transactions on Learning Technologies*, 12(1), 87-97.
6. Reinhardt, J., & Sykes, J. M. (2014). Digital game and play activity in L2 teaching and learning. *Language Learning & Technology*, 18(2), 2-8.
7. Su, C. H., & Cheng, C. H. (2015). A mobile gamification learning system for improving the learning motivation and achievements. *Journal of Computer Assisted Learning*, 31(3), 268-286.
8. Werbach, K., & Hunter, D. (2012). *For the win: How game thinking can revolutionize your business*. Wharton Digital Press.

ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMIY ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

X.G'ulomova

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ta'limiy organayzerlarining o'rni va uni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar, tashkil etish usullari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'limiy organayzerlar, mantiqiy tafakkur, mantiqiy tahlil, "Klaster", "Venn" diagrammasi, "T" grafik organayzeri, "Jadaval" grafik organayzeri, "Nima uchun?" organayzeri, "Baliq skeleti", "Chalakashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" organayzeri.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль организаторов образования в обучении учащихся логическому мышлению, требования к его развитию и методы организации.

Ключевые слова: образовательные организаторы, логическое мышление, логический анализ, «Кластер», диаграмма «Венна», графический органайзер «Т», «Таблица», «Почему?» органайзер, «Рыбий склет», органайзер «Последовательность запутенных логических цепочек».

Abstract. This article discusses the role of educational organizers in teaching students to think logically, the requirements for its development, and methods of organization.

Key words: educational organization, logical thinking, logical analysis, "Cluster", "Venna" diagram, graphic organizer "T", "Tablitsa", "Pochemu?" organizer, "Rybiy sklet", organizer "Posledovatelnost zaputennyx logicalheskix tsepochek".

Oliy ta'limda ona tili o'qitish metodikasining maqsadi – talabalarni umumiy o'rta ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayoniga tayyorlash, ya'ni kasbiy kompetentligini shakllantirishdir. Mazkur fan talabalarni ona tili ta'limining shakli, metod va vositalari bilan tanishtiradi va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga tayyorlaydi. Oliy ta'limda o'qitiladigan ona tili o'qitish metodikasi fani fan

asoslarini talabaga o'rgatish jarayonini va talabalarning o'rgatilganlarni maktab amaliyotiga tatbiq etish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ta'lim organayzerlari muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning grammatik tushunchalarni o'zlashtirishlarida, nutqiy qobiliyatini o'stirishda uning fikrlash qobiliyatini ishga solish talab qilinadi. Negaki, nutqni tafakkurdan ajratib rivojlantirish mumkin emas.

Hayotdagi narsa-predmetlarning nomi va ular haqida fikr bildirish uchun o'sha narsa-predmet anglanadi va unga munosabat bildiriladi. O'qituvchi nutq ustida ishlash bilan bir vaqtning o'zida o'quvchilarning tafakkuri ustida ishlaydi, ularda tushunarli, aniq, izchil va asoslangan fikrlashni tarbiyalaydi.

Ona tili darslarida grammatik va orfografik tushunchalarni egallash jarayonida muayyan fikrlash faoliyatining yuz berishi bevosita mantiqiy tafakkur tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Mantiqiy fikrlashning asosiy usullarini ona tili ta'limida grammatik tushunchalarni egallash usuli sifatida qo'llash mumkin. Grammatik tushuncha va qoidalarni mantiqning analiz va sintez, umumlashtirish, hodisaning o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash va taqqoslash, tasniflash va sistemalashtirish usullaridan foydalanmasdan anglab va egallab bo'lmaydi.

Mantiqiy fikrlashning dastlabki usuli tahlil. Til ta'limida tahlil bilan sintez chambarchas bog'langan bo'lsa-da, mashq matnlari tahlili asosida o'zlashtiriladigan bilimlarni umumlashtirish o'quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'diradi. Sintez ta'lim amaliyotida kam uchraydi. Chunki mantiqiy tahlil, odatda, alohida emas, balki boshqa o'quv-biluv faoliyatining (umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, xulosalarni shakllantirish) tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi. Tahlil va sintezning birlashtirilishi tushunchalarni ta'riflashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ona tili o'qitish ta'limida qo'llab kelayotgan ta'limiy organayzerlar⁷ o'quvchilarni mantiqiy va mustaqil fikrlashga undaydi, tahlil qilish va tarkiblash ko'nikmalarini o'stiradi, mavzuga doir ma'lumotlarni ongli

⁷ Organayzerga turli va bir xil tipdagi narsalarni saqlash uchun bo'linmalardan iborat konteyner yoki papka tarzida izoh beriladi. Organayzerlarga metod va ta'lim vositasi sifatida qarashlar mavjud.

o'zlashtirishlarini ta'minlaydi, xotirada saqlab qolishlariga yordam beradi. Organayzerlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tizimlashtiradi, sistemaga soladi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Organayzerlar tarmoqlashning bir turi, unda ochiq qolgan o'rinlar to'ldiriladi. Organayzerlarda birlamchi ma'lumotlarning ham, ikkilamchi ma'lumotlarning o'rni ham ochiq qoldirilishi mumkin. O'quvchi ochiq qolgan o'rinni to'ldiradi. O'quvchilar yozgan ma'lumotlarining to'g'riligini muhokama jarayonida yoki o'qituvchining ko'rsatgan slaydlar orqali aniqlab olishishadi. Masalan, "Klaster", "Venn" diagrammasi, "T" grafik organayzeri kabilar. O'quvchi topshiriq asosida ochiq qolgan qismni to'ldiradi. Ochiq qolgan joyning ma'lumotini topib to'ldirishda o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumot yordam beradi.

Ona tili darsliklarida berilgan chizmalarda ma'lumotlar to'liq yozib qo'yiladi. Bunday grafik organayzerlar fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etuvchi ta'lim vositasi sifatida xizmat qiladi. Organayzerlarni til hodisasini tushuntirishga, tasniflashga, umumlashtirishga, o'quvchilarning bilimini mustahkamlash va nazorat qilishga ko'ra tasniflash mumkin.

Ona tili darslarida quyidagi kabi o'rganayzerlardan foydalaniladi:

Ma'lumotlarni tarkiblash va tarkibiy qismlarga bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatishga doir o'rganayzerlar: klaster, toifalash, insert, B/B/B.

Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashga doir o'rganayzerlar: "T" – jadvali, Venn diagrammasi.

Ma'lumotlarni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish, rejalashtirishga doir o'rganayzerlar: Baliq skleti, piramida, nilufar guli sxemalari, ierarxik diagrammasi, "Kaskad" tarkibiy – mantiqiy sxema.

Mavzu yuzasidan o'quvchilarning bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini aniqlashda foydalaniladigan organayzerlarda ma'lumotlar uchun ochiq joylar qoldiriladi. O'quvchi qaysi tarmoq ochiq bo'lsa o'sha joyning ma'lumotini to'ldiradi. Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan yozilgan yo'llanmalar (topshiriqlar) asosida faoliyat olib boradi. Bu vazifalarni o'quvchilar

yakka tartibda yoki guruh bo‘lib bajaradilar. Masalan, so‘zning morfemik tarkibi yuzasidan o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash va mustahkamlash maqsadida professor A.G‘ulomov⁸, dotsent R. Ikromova, M.Hamroyevlar quyidagi “Jadval” grafik organayzerlarini tavsiya etgan:

| | So‘zlar | Asos | So‘z yasovchi morf. | Shakl yasovchi morfema | |
|--|-----------------------------|--------------|---------------------|------------------------|------------------------|
| | | | | Lug‘aviy sh.yas. | Sintaktik sh.yas. |
| | <i>Vatandoshlarimizning</i> | <i>Vatan</i> | <i>-dosh</i> | <i>-lar</i> | <i>-imiz -ning</i> |
| | ... | | | | |

(A.G‘ulomov)

| | | | | | |
|-----------------------------|-------|-------|------|-------|-----|
| <i>Vatandoshlarimizning</i> | vatan | -dosh | -lar | -imiz | nin |
| | | | | | |
| asos | | | | | |

(R.Ikromova.)

M.Hamroyev ona tilidan amaliy mashg‘ulotlar uchun tilshunoslikning barcha bo‘limlari yuzasidan tahlil qoliplarini ishlab chiqan⁹. Ular talabalarni mustaqil ishlashga yo‘llaydi, vaqtni tejaydi, har bir talabani baholash imkoniyatini beradi. Bu organayzerlardan ham maktabda to‘liq foydalanish mumkin.

Izlanishga asoslangan “**Jadval**” grafik organayzerini sintaksisni o‘rgatish jarayonida qo‘llash tayanch tushunchani, uning muhim xususiyatlarini ifodalash orqali mavzuning muhim tomonlarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Masalan, talaba 2-grafaga berilgan qolipga mos gap tuzib yozadi, ergash gapli qo‘shma gap haqidagi tushunchalarni 1-grafaga, shu gap ta’lifni 3-grafaga yozadi. Bu

⁸ G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012. 40- 60 –bet.

organayzer asosida o'quvchilarni mustaqil izlanish asosida xulosalar – ta'rif chiqarishga o'rgatadi.

| Tushuncha | Formula | Ta'rif |
|-----------------------|---|--------|
| (o'quvchi to'ldiradi) | <div style="border: 1px solid black; width: 60px; height: 20px; margin-bottom: 5px;"></div> -gach, <div style="border: 1px solid black; width: 60px; height: 20px; margin-left: 100px; margin-top: 10px;"></div> | |

Ko'makchilarning vazifasi va ular ifodalaydigan grammatik ma'nolarni formula asosida gap tuzish va uning tahlili orqali aniqlaydilar. Ko'makchilarning grammatik vazifasi va grammatik ma'nosini yozib, unga ta'rif beradilar.

| Tushuncha | Formula | Ta'rif |
|-----------------------|---|--------|
| (o'quvchi to'ldiradi) | Shaxs oti _____ bilan =====. Harakat nomi _____ bilan =====. Mavhum ot _____ bilan =====. | |

Ta'limiy organayzerlarning ochiq qolgan bo'lagini yakka, guruh-gurug bo'lib to'ldiriladi. Jamoaviy bo'lib bajarilgan ishni guruhlar o'zaro nazoratdan o'tkazadi va taqdimotga chiqadi. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar rangli bo'r yoki rangli qalamlar yordamida to'g'rilanadi. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatini nazorat qilib boradi.

Ierarxik (klasterlash) o'rganayzer funksional tashkiliy tuzilma bo'lib, uni ona tilini o'qitishga tatbiqi talabalarni mantiqiy fikrlashga undaydi, maktabda ona tilini o'qitishda bo'limlararo bog'liqlikka asoslanishlariga turtki beradi. Masalan, ona tili bo'limlari orasidagi bog'lanish:

Fonetik tushuncha----- orfografiya bilan (ong+la --- angla)

Fonetik tushuncha-----sintaksis bilan (ohang, to‘xtam)

Fonetik tushuncha -----orfoepiya bilan (to‘g‘ri talaffuz)

Fonetik tushuncha----- leksikologiya (so‘z ma’nosini farqlaydi) va hokazo.

Grammaik hodisalarni taqqoslash orqali umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlashtirishda **qismlari kesishgan organayzerlardan** foydalaniladi. Bunga Venn diagrammasini misol qilib keltirish mumkin.

“Venn diagrammasi” organayzeri (metod) ikki va uch hodisaning ayrim hamda umumiy xususiyatlarini solishtirish, taqqoslash, qarama-qarshi qo‘yish orqali yoritish va umumlshtirish, xulosalash imkoniyatiga ega. O‘qituvchining mavzuni tushuntirishida mazkur organayzer o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Venn diagrammasi asosida mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimi nazorat qilinishi ham mumkin. Bunda har bir to‘g‘ri fikrga qo‘yiladigan ball oldindan belgilab olinadi. Topshiriq bo‘yicha har bir guruh fikrlarini alohida ranglarda yozadi, shuningdek, har bir o‘quvchi ham fikrini alohida rangda yozishi mumkin. Bu har bir guruh yoki o‘quvchi o‘zining fikrini himoya qilish imkonini beradi. Masalan: doskaga ikki yoki uch qismdan iborat diagramma chiziladi, ular ichiga grammatik hodisa nomi yoziladi. Doskaga taqqoslanayotgan hodisalarning umumiy va xususiy belgilari raqamlar ostida yozilgan ma’lumotlar ilinadi. Har bir guruh tanlagan raqamlarini doiralar ichiga yozadi. Fikrlar nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi va talabalar hamkorligida to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar aniqlanadi.

To‘g‘ri javobga 3 ball qo‘yilgan bo‘lsa, noto‘g‘ri javob uchun 3 ball olib tashlanadi.

Venn diagrammasini quyidagi mavzularda qo‘llash mumkin:

1. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi mavzusini o‘rgatish va nazorat qilishda.
2. Sifat va ravish so‘z turkumlarini qiyoslash orqali farqlashga o‘rgatishda.
3. Ot va harakat nomining leksik va grammatik belgilarini qiyoslashda.

4. Son, so‘roq olmoshi va miqdor ravishlarini qiyoslash orqali farqlashga o‘rgatishda va hokazo.

T – grafik organayzeri yutug‘i vaqtni tejashga, yakka tarbibda o‘quvchi bilimni aniqlashga, fikrlash qobiliyatini oshirishga, mavzuni qaysi qismini o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirmaganini aniqlashda qo‘l keladi. Salbiy jihati shundagi, o‘quvchi nutqining rivojlantirmaydi, muloqotga kirishish imkoniyati bo‘lmaydi. Biroq yozma ifodalarni misollar bilan og‘zaki to‘ldirishi mumkin. Masalan, bir xil mavzudagi voqealarning (matnning) bayon qilish uslubidagi farqlarni yoritishda qiyosan yondashish imkonini beradi. Masalan: o‘quvchiga publisistik va ilmiy uslubdagi matn beriladi. O‘quvchilar matn tahlili orqali matnni qaysi uslubdaligini asoslaydi.

”Nima uchun?“ organayzeri. Bu organayzer o‘quvchilar o‘zlashtirgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumotlarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi, nutqiy jarayonda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, miqdor bildiruvchi so‘zlar (son, miqdor-daraja ravishlari, miqdorga ishora qiluvchi olmoshlar), yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi va yuklamalarning bog‘lash vazifasi hamda grammatik ma’nosini qiyoslab o‘rgatishda) yuzasidan tashkil etish mumkin. Bunda o‘quvchilarni erkin fikrlashga va dadil harakatga yo‘llash uchun quyidagi maslahatlar beriladi:

1. Aqlingizga nima kelsa shuni yozing.
2. Yozishda imlo va uslubiy xatolardan cho‘chimasdan yozing.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Xayolingizga boshqa g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.

Masalan, *qancha*, *necha* olmoshlari ifodalagan miqdor ma’nosini son ifodalagan miqdor ma’nosidagi farq va oxshashlikni, ular birga qo‘llanadigan so‘zlarni, gapdagi vazifasini (*necha kilogramm – o‘n kilogramm*; *nechta o‘quvchi – o‘nta o‘quvchi* – aniqlovchi) qiyosan tahlil qilish bilan bog‘liq fikrlarini, ularning hayotiy masalalar bilan bog‘lashi (sonlarlar ichida sehrli sonlar borligi), qaysi matnlarda (ertaklarda, dostonlarda) ko‘p qo‘llanishi sababini (3, 7, 20, 40, 90 marosimning nomini ifodalashi), voqealarni bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida

ishlatilishini (*3 kecha-yu 3 kunduz yo'l yurdi.*(Orada o'quvchi Uch og'a-ini botirlar rasmini chizishi mumkin...)).

"Baliq skeleti" organayzeri. Muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi. Bir varaq oq qog'ozda (vatmanga) baliq skeleti (boshi, kemirchagi, qovurg'alari) chiziladi .

Yuqoridagi qovurg'alarga muammolar yoziladi, pastidagi qovurg'alariga esa uyqoridagi muammoning mavjudligini yoki uni hal qilish yo'llari, (o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga qarab) isbotlovchi dalillar yoziladi.

Baliq skeleti modelining afzalligi shundaki, mazkur sxema muammolarning o'zaro bog'liqligi, ularning barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan:

Baliq skletining bosh qismiga: "Fonetika bo'limini o'rganish uchun zarurat bormi?"

Yuqoridagi qovurg'aga:

1-qovurg'a: Nutq o'rganlarini fonetika bo'limida o'rganishga insonda qanday ehtiyoj bo'lishi mumkin?

2-qovurg'a: Nutqiy bo'laklarni o'rganish so'zlovchiga "yordam beradi, yo'q, yordam bermaydi" deb ikki xil qarash asoslimi?

3-qovurg'a: Urg'uning fonetikada o'rganilishi qanday asosga ega?

4-qovurg'a: Unlilarning lablanish yoki lablanmasligi, hosil bo'lish usuliga ko'ra tasnifi, o'rniga ko'ra old qator va orqa qator tasniflashga qanday munosabatdasiz? Har ikkisi ham usul yoki o'rniga bog'liq emasmi?

5-qovurg'a: Undosh tovushlarni jarangli va jarangsiz tarzida tasniflashda nimaga asoslanish eng to'g'ri yondashuv bo'ladi?

6-qovurg'a: Urg'u tilshunoslikning qaysi bo'limining o'rganish ob'yekti bo'lishi kerak?

Sxemali va rasmlil organayzerlardan matn yaratishda foydalaniladi. Tilshunoslikka oid atamalar mavhum tushunchalarni ifoda etishini hisobga olgan holda mualliflar ona tili darsliklarida bunday organayzerlardan foydalanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Т.: 2022.
2. Umumiy o‘rta ta’limning MO‘D. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi. – Т.: 2020.
3. О.У.Авлаев, С.Н.Жўраева, С.Р.Мирзаева. Таълим методлари. –Т.: Наврўз нашриёти. О‘quv-uslubiy qo‘llanma. 2017.
4. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – Т: Fan va texnologiyalar, 2012.

TEACHING ENGLISH LEXICOGRAPHY AS A UNIVERSITY COURSE AT PHILOLOGICAL FACULTIES

Odilboyeva Umida Zafarjon qizi
Namangan State Pedagogical Institute
odilboyevaumida96@gmail.com

Abstract. Lexicography, as the science of dictionary-making and lexical description, occupies a central place in modern linguistics and English language education. This paper explores pedagogical approaches, curriculum design, and learning outcomes in teaching English Lexicography as a university course at philological faculties. Building on Odilboeva’s (2023) research on terminology and translation, the study highlights the importance of integrating theoretical and practical components of lexicography, including dictionary typology, structure, and digital lexicography. The results indicate that a practice-oriented and technology-enhanced approach significantly develops students’ linguistic competence, analytical thinking, and research skills

Keywords: lexicography, dictionary studies, English linguistics, philological education, digital dictionaries, language pedagogy, terminology translation.

Annotatsiya. **Leksikografiya** – lug‘at tuzish va leksik tavsiflash ilmi sifatida zamonaviy tilshunoslik hamda ingliz tili ta’limida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada filologiya fakultetlarida ingliz leksikografiyasini o‘qitishning pedagogik yondashuvlari, o‘quv dasturi tuzilishi va o‘quv natijalari tahlil qilinadi. Odilboeva (2023) tomonidan atamashunoslik va tarjima masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotga asoslanib, maqolada leksikografiyaning nazariy va amaliy jihatlarini, jumladan, lug‘at turlari, tuzilishi va raqamli leksikografiyani o‘zlashtirish zarurligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliy yo‘naltirilgan va texnologiyalarga asoslangan ta’lim yondashuvi talabalarining til kompetensiyasi, tahliliy tafakkuri hamda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, filologik ta’lim, lug‘atshunoslik, raqamli leksikografiya, atamashunoslik, til o‘qitish metodikasi

Аннотация: Лексикография как наука о составлении словарей и описании лексической системы занимает центральное место в современной лингвистике и преподавании английского языка. В статье рассматриваются педагогические подходы, структура учебной программы и результаты обучения по курсу английской лексикографии в филологических факультетах. Опираясь на исследование Одилбоевой (2023), посвящённое вопросам терминологии и перевода, подчёркивается необходимость интеграции теоретических основ и практических навыков, особенно в области типологии словарей, их структуры и цифровой лексикографии. Результаты исследования показывают, что практико-ориентированная и технологически обогащённая педагогическая модель способствует значительному развитию языковой компетенции, аналитического мышления и исследовательских навыков студентов.

Ключевые слова: лексикография, филологическое образование, словарное дело, цифровая лексикография, терминология перевода, методика преподавания языков

Lexicography is a fundamental branch of applied linguistics that focuses on the theory and practice of dictionary-making. Within philological faculties, teaching English Lexicography is indispensable for preparing future linguists, translators, and educators who can analyze lexical phenomena, comprehend dictionary structures, and apply lexicographic principles in their academic and professional work (Hartmann, 2001; Svensén, 2009).

Contemporary scholarship underscores the increasing importance of lexicographic competence in translation and terminology studies. In the context of digital transformation, dictionaries have evolved from static repositories of words into interactive tools that incorporate corpus-based, pragmatic, and cultural information (Kilgarriff & Rychlý, 2010). Consequently, lexicographic education must adapt to these changes by integrating digital technologies and interdisciplinary perspectives. The aim of this research is to identify effective strategies for teaching English Lexicography in philological faculties, with particular attention to curriculum design, pedagogical methods, and student learning outcomes. It also explores the interrelation between lexicographic education, translation studies, and terminology management.

This study employed a qualitative methodology to investigate pedagogical approaches to teaching English Lexicography within linguistics programs. The research was conducted in three phases: document analysis, instructor interviews, and student feedback collection. Firstly, syllabi and teaching materials from several philological faculties were analyzed to determine key topics, objectives, and expected outcomes. Secondly, six lecturers specializing in English Lexicography were interviewed to gather insights into their teaching practices, methodological challenges, and innovative strategies. Finally, reflections from forty-five students who had completed the course were examined to assess engagement, motivation, and perceived learning effectiveness.

The methodological framework follows Tarp's (2014) proposition that theoretical understanding should be combined with practical application in

lexicographic education. All qualitative data were thematically analyzed to identify recurring patterns, effective practices, and persistent challenges.

The analysis of university syllabi showed that English Lexicography courses generally combine theoretical and practical components. The theoretical dimension includes the historical development of lexicography (Béjoint, 2010), principles of dictionary typology and metalanguage, lexical semantics, word formation, and terminology in translation equivalence. The practical dimension, on the other hand, emphasizes the active use and critical evaluation of dictionaries, the compilation of bilingual and specialized glossaries, and the integration of digital lexicography through corpus-based analysis. Students also apply terminology theory to real-world dictionary creation. Such an integrated structure enables learners to gain both linguistic insight and applied expertise.

Effective teaching of lexicography relies on interactive and project-based learning methods supported by digital tools. Applications like Lexonomy and Sketch Engine provide students with the opportunity to compile small-scale dictionaries and analyze authentic corpus data (Kilgarriff & Rychlý, 2010). Instructors frequently encourage comparative analysis between printed and online dictionaries to help students recognize structural and functional distinctions (Atkins & Rundell, 2008).

Students who complete English Lexicography courses demonstrate a deep understanding of dictionary typology, structure, and function. They acquire the ability to define and translate lexical items with greater accuracy and gain familiarity with corpus tools and database management. Moreover, they develop a heightened awareness of the cultural and pragmatic factors influencing lexical meaning.

Despite the positive results, several challenges persist. Limited institutional access to corpus software restricts students' practical engagement with digital lexicography. Furthermore, insufficient integration of terminology translation within coursework sometimes reduces the interdisciplinary potential of the subject. Some programs also tend to prioritize theory over hands-on experience, while a

general lack of teacher training in computational lexicography remains a significant concern.

The findings confirm that effective teaching of English Lexicography requires an interdisciplinary and practice-oriented framework. The connection between lexicography, translation studies, and terminology enriches students' comprehension of lexical meaning, semantic equivalence, and cross-linguistic relationships. This integrative approach is particularly beneficial in philological faculties where many students intend to pursue careers in translation, lexicography, or language education.

As Hartmann (2001) and Tarp (2014) assert, lexicographic competence encompasses more than the technical aspects of dictionary-making. It involves critical evaluation, metalexigraphic inquiry, and the interpretation of linguistic and cultural data. The transition toward digital lexicography mirrors broader changes in how language is studied and used in the modern world (Kilgarriff & Rychlý, 2010). Embedding corpus-based and translation-focused projects into the curriculum fosters analytical and creative thinking. For instance, compiling a thematic glossary of tourism-related terminology allows students to apply translation theory in practice and strengthens their bilingual lexicographic skills.

Teaching English Lexicography as a university discipline plays a crucial role in developing students' linguistic, analytical, and technological abilities. The integration of translation and terminology studies, as illustrated by several researchers, enhances the course's practical and interdisciplinary relevance. To further advance this field, universities are encouraged to expand access to lexicographic and corpus-based tools, incorporate translation-oriented projects into coursework, and organize workshops on digital and specialized lexicography. Additionally, fostering collaborative research that bridges lexicography, translation, and corpus linguistics can deepen students' academic engagement.

Through such innovations, philological faculties can equip graduates with the skills and knowledge required to navigate the evolving landscape of language, technology, and lexicographic research.

REFERENCES:

1. Atkins, B. T. S., & Rundell, M. (2008). The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford University Press.
2. Béjoint, H. (2010). The Lexicography of English: From Origins to Present. Oxford University Press.
3. Hartmann, R. R. K. (2001). Teaching and Researching Lexicography. Longman.
4. Kilgarriff, A., & Rychlý, P. (2010). Lexical Computing and Corpora in Lexicography. *International Journal of Lexicography*, 23(1), 1–20.
5. Odilboeva, U. Z. (2023). Theoretical Problems of Translation of Tourism Terms. *International Interdisciplinary Research Journal*, 2(4). ISSN 2835-3013.
6. Svensén, B. (2009). A Handbook of Lexicography: The Theory and Practice of Dictionary-Making. Cambridge University Press.
7. Umarjon o'g'li H. R. et al. Technologies for Improving Composition and Drawing Skills Based on the Rules of Composition // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 765-767.
8. Odilboyeva, U. (2025). Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo 'nalishi talabalariga integrativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishning nazariy asoslari // *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 320-322.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDGA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

Ilmiy rahbar: Odilboyeva Umida Zafarjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Mahamadaliyeva MahliyoSohibjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar o'z atrofidagi dunyoni kashf etadilar va yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyor bo'ladilar. Ushbu bosqichda ingliz tilini o'qitish bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, muloqotga

kirishish qobiliyatini shakllantirish va global kommunikativ muhitda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yin, musiqiy faoliyat, vizual vositalar va raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga qo'shish o'quvchilarning tilni o'zlashtirish samaradorligini oshiradi (Karimova, 2020; Odilboeva, 2023). Shuningdek, o'qituvchining psixologik va metodik yondashuvi o'quvchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi (Urganch, 2019).

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ingliz tili, o'qitish metodikasi, o'yin orqali o'qitish, musiqa va qo'shiqlar, vizual materiallar, o'qituvchining roli, til ko'nikmalari, individual ehtiyojlar, innovatsion texnologiyalar.

Abstract. During the preschool stage, children explore the world around them and are naturally inclined to acquire new knowledge. Teaching English at this stage is essential for developing language skills, communication abilities, and intercultural competence. This article discusses methodological approaches to teaching English in preschool education, including game-based learning, songs and music, and the use of visual and digital materials. Integrating playful and interactive strategies fosters language acquisition and creativity among children (Karimova, 2020; Odilboeva, 2023). Furthermore, the teacher's role is crucial in maintaining motivation, addressing individual needs, and personalizing the learning process. The study concludes that effective English teaching in preschool enhances children's adaptability, linguistic awareness, and readiness for future education in a global context.

Keywords: preschool education, English language teaching, teaching methodology, game-based learning, songs and music, visual aids, teacher's role, language skills, digital learning, child-centered approach.

Аннотация. В период дошкольного образования дети активно познают окружающий мир и готовы усваивать новые знания. Преподавание английского языка на этом этапе играет важную роль в формировании языковых навыков, коммуникативной компетенции и культурного сознания. В статье рассматриваются методические подходы к обучению английскому

языку в дошкольных учреждениях, включая игровые формы обучения, использование музыки и песен, а также визуальных и цифровых материалов. Интеграция таких подходов способствует повышению мотивации и эффективности усвоения языка детьми (Каримова, 2020; Одилбоева, 2023). Кроме того, отмечается, что педагог, учитывая индивидуальные особенности ребёнка, является ключевой фигурой в процессе обучения и формирования познавательной активности.

Ключевые слова: дошкольное образование, преподавание английского языка, методика обучения, игровые методы, песни и музыка, визуальные материалы, роль педагога, языковые навыки, цифровое обучение, индивидуальный подход.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaning o‘rni juda muhim hisoblanib, hozirgi kun yoshlari jamiyat taraqqiyotini rivojlantirishida asosiy poydevor sifatida ko‘riladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirish ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday shaxsni shakllantirishga maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish muhim sanaladi. Ingliz tilini bolaning shaxsiy rivojlanishini, dunyoqarashini shakllantirish uchun asosiy vosita sifatida qaraladi. Ingliz tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko‘plab qo‘shimcha maktabgacha ta’lim muassasalarida ham ta’limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi.

Maktabgacha ta’lim – yoshlarimiz ta’limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanib, bu bolalarning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolalar o‘zlarini jamiyat bilan bog‘lash, muloqot qilish va yangi bilimlarni qabul qilishni o‘rganadilar. Ingliz tilini erta yoshdan o‘rgatish bolalarning tafakkurini kengaytiradi, eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantiradi (Urganch, 2019).

Ma’lumki, bolalar tabiatan juda qiziquvchan bo‘lishadi. Shu boisdan kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishda o‘yinlar, rasmlar, qo‘shiqlar, she’rlar hamda multfilmlardan foydalanish eng samarali usullardan biridir. Chunki bolalar atrofdagi tushunchalarni, odatda, rasmi tasvirlar orqali idrok etishadi. Shuning

uchun o'qituvchi har bir o'rgatiladigan narsani iloji boricha ko'rgazmali tarzda, ya'ni tasviriy shaklda taqdim etishi kerak bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari "qiziqish" va "yoqtirish" tamoyillariga asoslanadi. Yosh bolalar yorqin ranglar, chiroyli narsalar va jonli tasvirlarga nisbatan alohida e'tibor bilan qarashadi. Shu sababdan pedagoglar dars jarayonida turli o'yin metodlaridan foydalanish orqali darsni qiziqarli va samarali o'tkazishlari mumkin.

Chet tilini o'rganish uchun eng qulay davr – erta yoshdir. Buning sababi shundaki, yosh bola hali ona tilida cheklangan so'z boyligiga ega bo'ladi, shuningdek, uning muloqot doirasi ham tor bo'ladi. U kattalar kabi murakkab muloqot muammolarini hal etish zaruratiga ega emas. Shu boisdan bola chet tilini o'zlashtirar ekan, ona tili va yangi til o'rtasidagi tafovutni keskin sezmaydi va til o'rganishdagi muvaffaqiyatdan yanada katta zavq oladi.

Bolalarni o'qitish jarayoni kattalar yoki maktab o'quvchilariga dars berishdan butunlay farq qiladi va maxsus metodik yondashuvni talab etadi. Faqat chet tilida so'zlasha olish o'qituvchilik uchun yetarli emas. Agar darslar metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilmasa, bolalarda chet tiliga nisbatan qiziqish so'nadi, hatto undan zerikish hissi ham paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat malakali, tajribali mutaxassislar ishlashi lozim.

Maktabgacha davrda ingliz tilini o'rgatishning asosiy maqsadi – bolalarda kommunikativ kompetensiyaning dastlabki poydevorini shakllantirishdir. Bu esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- inglizcha so'zlarni fonetik jihatdan to'g'ri talaffuz qilishni o'rganish, eshitish orqali nutqni idrok etish va to'g'ri talaffuzni asta-sekin rivojlantirish;
- ingliz tili so'z boyligini o'zlashtirish, uni faol nutqda qo'llash;
- sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirib, izchil nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bir joyda dars standart tizmiga mos ravishda soatlab o'tirolmaydi, shuning uchun ham ularda ingliz tiliga bo'lgan dastlabki

ko'nikmalarni shakllantirish uchun turli o'yinlardan va texnologiyalardan foydalanish kerak.

Ingliz tili bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bir necha xil metodikalardan foydalanish mumkin. Jumladan: (1) so'zlarni yodlatish maqsadida "Pantomima", (2) so'z topish, farq topish, "Kim tezkor?", (3) rasmi o'yin, zanjir o'yinlari uchun esa "Kim chaqqon?", "Bu nima?", kabi topishmoq usullaridan foydalanish mumkin. Bola, asosan, eshitgan narsalarini tez yodlaydi, shu sababli alifbo va boshqa so'zlarni ham qo'shiq orqali o'rgatish tezroq samara beradi. Masalan, Yaponiyalik olimlar tomonidan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kuzatilganda bog'cha tarbiyachisi har kuni, bolalarni inglizcha so'zlar yozilgan eshik oldida kutib olgan, har bir bola kirayotganda o'sha so'zlardan birining ustiga bosadi va ustoz bilan shunday salomlashadi, natijada bola salomlashish turlarini, inglizcha so'zning ma'nosi bilan birgalikda o'rganadi, bundan tashqari, ertalabki kayfiyati ko'tariladi va kun bo'yi yangi beriladigan bilimlarni osonlik va zo'r qiziqish bilan qabul qiladi.

O'yinlar orqali til o'rganish bolaning tabiiy o'rganish ehtiyojiga mos keladi. O'yinchoqlar, rasmi kartochkalar va rolli o'yinlar orqali yangi so'zlar va iboralarni o'rganish samaradorligi ortadi. O'yinlar bolalarning muloqotga kirishish, hamkorlik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi.

Musiqqa bolalarda yangi tilni tabiiy idrok etish jarayonini tezlashtiradi. Inglizcha qo'shiqlar va multfilmlar orqali bolalar nafaqat yangi so'zlarni, balki ularning talaffuzini ham osonlik bilan o'zlashtiradilar. Rasmlar, videolar, interaktiv dasturlar orqali o'qitish bolalarning e'tiborini jalb etadi va o'rganish motivatsiyasini oshiradi. Bu usul kognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'qituvchi – o'quv jarayonining markaziy shaxsidir. U bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olib, o'rganish jarayonini shaxsiylashtiradi va ularni rag'batlantiradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalardga ingliz tilini o'qitish bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini shakllantirish va global dunyoda muvaffaqiyatga erishishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar,

qo'shiqlar, vizual vositalar va o'qituvchining metodik yondashuvi o'quv jarayonini samarali, oson va qiziqarli qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarga chet tili o'yinlar, turli animatsion media materiallar hamda xilma-xil o'qitish metodlari orqali o'rgatilsa, ular tilni o'zlashtirish jarayonida hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydilar va darslarga bo'lgan qiziqishlari so'nmaydi. Eng muhimi, bolalarda chet tiliga nisbatan ichki motivatsiya shakllanadi. Shu sababli, bugungi jamiyat talablariga javob bera oladigan, ikki va undan ortiq chet tilini biladigan, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lish uchun bolani bog'cha davridan boshlab tayyorlab borish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon kelajakda bolalarning yaxshi ish o'rinlarini egallashiga va har tomonlama yetuk soha vakili bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotida ingliz tili dasturlarini kiritish bolalarni tilga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga, maktab tizimidagi darslarni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tizimida ham, maktabda ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanib chet tilini o'qitish, bolalarni nimani o'rganayotganlarini, nimani yodlayotganlarini mazmun-mohiyatini aniqlashtirishda yordam beradi va xotirada uzoq muddat saqlanib qolishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Urganch, N. (2019). Maktabgacha ta'limda yangi yondashuvlar. Tashkent: Ilm Ziyo Nashriyoti.
2. Karimova, D. (2020). Ingliz tilini o'qitish metodikasi. Samarqand: Talqin Press.
3. Odilboeva, U. Z. (2023). Theoretical Problems of Translation of Tourism Terms. International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 56–62. ISSN: 2835-3013.

4. Umarjon o'g'li H. R. et al. Technologies for Improving Composition and Drawing Skills Based on the Rules of Composition //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 765-767.

5. Odilboyeva, U. (2025). Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga integrativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishning nazariy asoslari // Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 320-322.

UMUMIY O'RTA TA'LIM JARAYONIDA TINGLAB TUSHUNISH BILAN BOG'LIQ TALABLAR VA MAVJUD HOLAT TAHLILI

Ziyodaxon Sobirxonova Temurxon qizi
NamDPI o'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti
Chortoq tumani 19-sonli maktab o'qituvchisi
[*sobirxonovaziyoda@gmail.com*](mailto:sobirxonovaziyoda@gmail.com)
+998934488177

Anotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim jarayonida tinglab tushunish kompetensiyasining nazariy va amaliy asoslari keng qamrovda tahlil qilinadi. Milliy o'quv dasturi asosida ona tili darsliklaridagi topshiriqlar ko'rib chiqilib, ularning mazmun-mohiyati, didaktik samaradorligi va o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Metodik so'rovnoma natijalari asosida tinglab tushunish jarayonida uchraydigan muammolar, o'qituvchilarning metodik ehtiyojlari hamda mavjud topshiriqlarning kuchli va zaif jihatlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy elektron resurslar, audiovizual materiallar va innovatsion metodik yondashuvlarning joriy etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'z: tinglab tushunish, nutqiy kompetensiya, audiomatn, topshiriq, metodika, o'quvchi ko'nikmalari, Milliy o'quv dasturi, elektron resurslar.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations of listening comprehension competence in general secondary education. Based on the National Curriculum, listening comprehension tasks in

native language textbooks are examined in terms of their content, didactic effectiveness, and role in developing students' communicative competencies. The results of a methodological survey reveal the main difficulties encountered in listening comprehension, the methodological needs of teachers, and the strengths and weaknesses of the existing tasks. The findings highlight the necessity of integrating modern electronic resources, audiovisual materials, and innovative methodological approaches to enhance students' listening comprehension skills.

Keywords: listening comprehension, communicative competence, audio text, task, methodology, student skills, National Curriculum, electronic resources.

So'ngi 5 yil ichida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ona tili o'qitishda yangicha yondashuvlar olib kirdi va ta'lim mazmuni Milliy o'quv dasturi, darsliklar, metodik qo'llanmalarda o'z ifodasini topdi. Yangicha yondashuvning mohiyati o'quvchilarda faqat lingvistik bilimlarni berishda cheklanib qolmasdan, hayotiy vaziyatlarga bog'liq holda to'rt nutqiy kompetensiya (o'qib tushunish, yozma nutq, og'zaki nutq hamda tinglab tushunish) ni rivojlantirishdan iborat. Til o'rganish jarayonida tinglab tushunish asosiy nutqiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Rankin tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki, inson muloqotining 42% ini tinglash, 32% ini so'zlash, 15% ini o'qish va 11% ini yozish tashkil etadi¹⁰. Bu esa ta'lim jarayonida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish muhimligini anglatadi. Xususan, tinglab tushunish ko'nikmasi inson muloqot jarayonida muhim rol o'ynashi qadimiy kitoblarda ham yozib qoldirilgan. Kaykovusning "*Qobusnoma*" asarining yettinchi bobida insonning og'zaki nutqi ravon bo'lishi va rivojlanishida eshitish qobiliyati asosiy o'rindaligi ta'kidlanadi. Asarda quyidagicha fikr bildiriladi: "Ey farzand, toki qila olsang, so'z eshitmakdin qochmag'ilkim, kishi so'z eshitmak bilan suxango'ylik hosil qilur. Avvalo, buni shundoq dalillash mumkin: agar bir o'g'lon onadan tug'ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o'g'lon hech kishining so'zin eshitmasa, ulug' bo'lg'onda lol

¹⁰ Yusuf Doğan. Dinleme eğitimi. 12. Baskı. Ankara: Pegem Akademi, 2024. – 25 ss.

(soqov) bo‘lur. Ko‘rmasmusankim, barcha lollar kar bo‘lurlar...” – deydi¹¹. Ko‘rinib turibdiki, inson umri davomida eng ko‘p duch keladigan ko‘nikma tinglab tushunish hisoblanadi. Inson tug‘ilganidan buyon eshitish qobiliyati shaklanib boradi va atrof-muhit, olim haqidagi bilimlarni dastlab eshitish orqali o‘rganadi. Ulg‘aygan sari ko‘nikmalar ham yuqorilab boradi. Eshitganlarini takrorlash orqali gapirish ko‘nikmasi, ma’lumotlarni o‘qib o‘rganish orqali o‘qish ko‘nikmasi, egallangan bilimlarni tartiblab qog‘ozga tushurish orqali yozish ko‘nikmasi shakllanib boradi. Bundan bilishimiz mumkinki, to‘rt nutqiy kompetensiyaning rivojlanishida tinglab tushunishning ahamiyati katta. Shu sababli, 2022-2023 o‘quv yili uchun tasdiqlangan Milliy o‘quv dasturida nafaqat lingvistik kompetensiyalarga, balki nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, tadqiqotda tinglab tushunish haqida batafsil yoritildi.

7-sinf ona tili darsligida nutqiy kompetensiyalardan biri bo‘lmish tinglab tushunish topshiriqlariga ham katta o‘rin ajratilgan bo‘lib, 20 ta nutqiy mavzu doirasida 10 ta (“Sun’iy intellekt” 9-bet, “Chumchuqlarga qiron keltirgan Xitoy” 24-bet, “Reytingi eng baland kasblar” 64-bet, “Hisob so‘zlar” 87-bet, “Syurpriz” 115-bet, “Dron nega “dron” deyilgan?” 145-bet, “So‘rovnoma natijasini yozish” 150-bet, “Sharq taronalari” 172-bet, “Sharq taronalari haqida” 173-bet, “Mualliflik huquqi” 191-bet) tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi topshiriq berilgan. Misol uchun, “Ijtimoiy tarmoqlar” nutqiy mavzusida 3-dars mashg‘ulotida “Sun’iy intellekt” audiomaniga quyidagicha topshiriq berilgan:

Audiomatni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Aqlli kompyuter sizni qanday tanib oladi?
2. Sun’iy intellekt odamlardek haqiqiy ongga egami? Javobingizni izohlang.
3. Ayting-chi, hozirgi kunda sun’iy intellekt qaysi qurilmalarda bor?
4. Sun’iy intellekt qaysi kasblarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin ekan? Bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

¹¹ Kaykovus. Qobusnom. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2019. – B. 55.

O‘quvchilarga tinglab tushunish topshirqlaridan oldin “*Youtube haqida nimalarni bilasiz?*” savoli bilan murojaat qilinadi. O‘quvchilarga bunday savol bilan murojaat qilish tinglash jarayoniga tayyorlash, mavzuga olib kirishda juda muhim hisoblanadi. Mavzu haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lish tinlash jarayonini samarali bo‘lishida ahamiyatli.

O‘quvchilarda tinglagan matnlarini baholay olish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun quyidagi topshiriq berilgan.

1. YouTubening bir xodimi doimiy ravishda sizning qiziqishlaringiz bilan band bo‘ladi.

2. “YouTube” sizni qiziqtirgan mavzularga oid videolavhalarni ko‘rsatadi.

3. Ayrim kasblar yo‘qolib ketishi aniq

4. Sun‘iy intellekt internetda izlagan, ko‘rgan narsalaringizga asosan qiziqishlaringizni aniqlab oladi.

5. Avtomobillar haydovchisiz, sun‘iy intellekt orqali boshqarilishi mumkin.

Topshiriqning sharti shundan iboratki, o‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib to‘g‘ri fikrlarni aniqlab, yozishlari kerak bo‘ladi. Bunda matnni o‘quvchiga ikki marta eshittirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki matnni tushunish jarayoni birmuncha murakkab. Olima Iroda Azimova buni 5 ta darajaga bo‘ladi:

1. Assotsiativ daraja.

2. Leksik-morfologik daraja.

3. Kontekstual daraja.

4. Struktural daraja.

5. Matn darajasi.¹²

“Turon yo‘lbarisi” nomli nutqiy mavzuning 1-dars mashg‘ulotidagi “Qushlarga qiron keltirgan Xitoy” audiomatni o‘quvchilarda ham eshitib tushunish ham ko‘rib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Audiomatnni tinglashdan oldin o‘quvchilarga muhokama uchun quyidagi savollar beriladi.

¹² Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi Monografiya. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2020. – B. 81.

1. “Qirilib ketmoq”, “qirib tashlamoq” birikmalari nimani anglatadi? Ularning qanday farqi bor?

2. Hayvonlarni qirish qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

3. Sizingcha, foyda keltirmaydigan hayvonlar bormi? Ularni qirib tashlasa bo‘ladimi?

O‘quvchilar mavzu haqida tushunchaga ega bo‘lganlaridan so‘ng, audiomatni tinlaydilar va unga tegishli uchta topshiriqni bajaradilar.

Birinchi topshiriqda o‘quvchilar audiomatni tinglashadi va savollarga javob berishadi.

1. Chumchuqlarga qarshi kurashishdan maqsad nima edi?

2. Chumchuq va kalamushlarni o‘ldirish qaysi dasturga kiritilgan edi?

3. Chumchuqlarni o‘ldirishni dastlab kimlar boshlab berdi?

Ikkinchi topshiriqda esa matnga aloqador to‘rtta rasm berilgan bo‘lib, o‘quvchilar rasmlarni audiomatning qaysi qismi uchun mos kelishini topishlari kerak bo‘ladi. Bu topshiriqni afzallik tomoni shundaki, o‘quvchida rasmlar, diagrammalar, grafiklar va boshqalar kabi vizual tarzda taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati shakllanadi. Vizual idrok etish qobiliyati yuqori bo‘lgan odamlar vizual elementlarni tanlab olish va tahlil qilish, munosabatlarni aniqlash, shuningdek, taqdim etilgan ma’lumotlar bo‘yicha xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladilar¹³.

Uchunchi topshiriqning afzallik tomoni shundaki, mazmuniy bloklarini bola qanday ajrata olishini baholanadi. Topshiriq sharti shunda iborat:

Chap ustunda sarlavhalar, o‘ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ularni moslashtirib ko‘chiring.

Matni qismlarga ajratishdan oldin uni yaxlit holda tushunib olish kerak bo‘ladi. Belyaninning fikriga ko‘ra qabul qilish ikki darajada amalga oshadi – qabul qilishning o‘zi va tushunish. Matni yaxlit tushunish darajasini professor I. Azimova uch darajada ifodalaydi. Bular: a) boshlang‘ich daraja. Bunda ayrim

¹³ Hamroyev. G‘. Dual ta’limda ko‘rib tushunish malakasini rivojlantirish: muammo va yechimlar. Modern Science and Research. 2024, 1-son. – B. 2.

leksemalar yaxlit tushunilib, yodda qoladi b) o‘rta daraja. Bunda matn bloklarga bo‘lingan holda qabul qilinadi, d) yuqori daraja. Matnga tegishli har bir so‘z alohida holdagi va kontekstual ma’nolar bilan tushuniladi¹⁴.

“Maqsadli xarajatlar” nutqiy mavzusining 2-darsida “Hisob so‘zlar” audiomatni berilgan. Bu topshiriqda o‘quvchilarning lingvistik bilimlari tekshiriladi. Topshiriq sharti quyidagicha:

Quyidagi test savollarini diqqat bilan o‘qing. Keyin sizga audiomatni eshittiriladi. O‘sha matnni eshitish jarayonida testlarning javobini belgilashingiz kerak bo‘ladi. Testni hozir yechib qo‘ymang. Kitobga belgilamang.

O‘quvchilar hisob so‘z nimaga aytilishi, uning turlari, qanday vaziyatlarda ishlatilishi haqida bilimga ega bo‘lganlaridan so‘ng bilimlarini ko‘nikmaga aylantirishga yordam beruvchi audiomatn asosida tuzilgan tests topshirig‘ini ishlaydilar. Test topshiriqlari o‘quvchilarning ma’lumotlarni baholay olish, tanish vaziyatda bilimni qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, Blum taksanomiyasining bilish va qo‘llash darajasiga mos keladi. Testdan namuna:

1. Tog‘ri javobni toping. Numerativlar qaysi atama bilan ma’nodosh emas?

A) hisob so‘z B) o‘lchov so‘z C) son

2. Tog‘ri javobni toping. Hukumning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

Hisob so‘zlari ot so‘z turkumiga mansub.

A) to‘g‘ri B) noto‘g‘ri¹⁵.

Yuqorida bayon etilgan metodik qarashlarning o‘quv jarayonidagi holatiga aniqlik kiritishda amaliy tadqiqotga ehtiyoj tug‘iladi. Shu bois umumiy o‘rta ta’limda tushunish kompetensiyasining shakllanish jarayoni, mazkur jarayonda duch kelinayotgan muammolar hamda zaruriy metodik ehtiyojlarini aniqlash maqsadida maxsus metodik so‘rovnoma o‘tkazildi. Metodik so‘rovnoma onlayn shaklda olingan bo‘lib, o‘quvchilarning tinglab tushunish topshiriqlarini bajarishdagi holati, qanday qiyinchiliklarga duch kelinayotgani, darslikdagi

¹⁴ Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2020. – B. 121.

¹⁵ Mavlonova K.M. va b. Ona tili (7-sinf uchun darslik). – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

topshiriqlarning yutuq va kamchiliklari nimalardan iboratligi, o'qituvchilarga qanday metodik yordam kerakligi kabi dolzarb masalarni qamrab olgan. So'rovnoma natijalari quyidagicha:

1. O'quvchilar ona tili darslarida qaysi uslublardagi audio/videomatnlarni tinlab tushunishga qiynalishayotgani so'ralganda ko'pchilik o'qituvchilar *ilmiy uslubni* belgilashgan.

2. O'quvchilar tinglab tushunish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch kelishmoqda degan qismiga aksariyat o'qituvchilar quyidagicha javob berishgan:

- oxirgacha eshitmaslik;
- raqamli faktlarni eslolmaslik;
- tahlil qilish;
- tinglaganini anglash sus;
- sintaktik birliklarni aniqlash.

3. Ona tili ta'limida tinglab tushunishni o'rgatish qanchalik zarur? savoliga *menimcha o'rgatish kerak* javobni belgilashgan.

4. O'quvchining tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalanasiz? savoliga *so'z o'yinlari, daftarga yozish, muhokama, suhbat, savollarga javob yozish, audimatn bilan ishlash, ko'proq tinglash* kabi javoblarni yozishgan.

5. Mavjud tinglab tushunish topshiriqlari sizni qoniqtiradimi? savoliga *qisman* javobi yuqori foiz to'plagan.

6. O'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini qanday mezonlar asosida baholayapsiz? savoliga *tushunganlilik, mantiqiy tushunish, baholab ko'rmadim, o'yab ko'rmagan ekanman, tinglovchining individual yosh xususiyatilar, yangicha va qiziqarli, mashq ishlatish, rag'batlantirish* kabi javoblar olindi.

7. Sizga tinglab tushunishni o'rgatishga oid qanday metodik yordam kerak? Bir nechta javobni belgilashingiz mumkin qismida *elektron resurslar, tinglab tushunishga doir mashqlar* degan javoblar olindi. So'rovnoma tahlidan ko'rinib turganidek ilmiy ish uchun tanlab olingan mavzu ta'lim sohasidagi dolzarb masallardan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim jarayonida tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. 7-sinf ona tili darsliklarida mavjud topshiriqlar o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, o'qituvchilar amaliyotda qator metodik qiyinchiliklarga duch kelmoqda. So'rovnoma natijalari tinglab tushunishni samarali o'rgatish uchun elektron resurslar, audiovizual mashqlar va metodik qo'llanmalarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi Monografiya. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2020.– 160 b.
2. Hamroyev G'. Dual ta'limda ko'rib tushunish malakasini rivojlantirish: muammo va yechimlar. Modern Science and Research. 2024,1-son. – B. 1-7.
3. Kaykovus. Qobusnom (Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov). – Toshkent: Yangi asar avlodi, 2019. – 224 b.
4. Mavlonova K. M va b. Ona tili (7-sinf uchun darslik). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
5. Yusuf Doğan. Dinleme eğitimi. 12. Baskı. Ankara: Pegem Akademi, 2024. – 113 ss.

TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Yuldashev Salaxiddin Azamovich
Qo'qon universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

Annotatsiya. Tarjimonning professional tayyorgarligi yuksak madaniyat, qomusiy bilim, uni muntazam to'ldirib borish, keng qamrovli qiziqishlar kabi sifatlarni talab etadi. Tarjimonlik vakolatini yaratish bo'lajak tarjimonlar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi: ularda hushyorlik va mas'uliyat hissi, ma'lumotnoma va qo'shimcha axborot manbalaridan foydalanish, tanlash, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, qo'shimcha lingvistik ma'lumotlarni olish va taqqoslash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: ilmiylik, kommunikativlik, texnologiklik, ochiqlik, yaxlitlik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, kasbiy, ijodiy, qobiliyat, lingvistik, kompetentlig, lingvokommunikativ, professional, tarjimon.

Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, xorijiy tillarni lingvomadaniy va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishi nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan iborat chet til o'qitish mazmunini modernizatsiyalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, bo'lajak pedagoglarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Oliy pedagogik ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarning til o'rganishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni chet tillarini o'rganishlari uchun har jihatdan bilimli va mustaqil fikrli kishilar qilib tarbiyalash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. «Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib

borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish lozimligi»¹⁶ kabi vazifalar belgilangan. Ya'ni chet tilini kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish; xorijiy tajribalarni o'rganish; bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari va tarjimonlarni tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjimaga oid amaliyotlar tahlilida tarjima usullarini tarjima

uslublaridan farqlash maqsadga muvofiqdir. Usul – qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy yo'li bo'lib, qilinadigan harakatlarning mavjud qonunlarini aks ettiradi. Bir tildan boshqa tilga o'tishning ikkita usuli bor: birinchisi bir tilga mansub so'z yoki belgidan boshqa tilga mansub so'z yoki belgiga to'g'ridan-to'g'ri o'tish, ikkinchisi esa aylanma yo'l orqali – avval bir tilga mansub belgidan mo'ljaldagi yoki predmetli vaziyatga va faqat shundan keyin o'giriladigan tilga mansub belgiga o'tishdir. Ilmiy manbalarda tarjimaning bu ikki usulidan birinchisi belgili, ikkinchisi esa ma'noli deb nomlanadi.

Metod yoki boshqacha aytganda, tarjima uslubi, odatda, xususiy masalani hal qiladi, ya'ni tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Tarjima uslublari, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

- 1) tarjima mutanosibliklari;
- 2) tarjima tuzilishining o'zgarishi.

Tarjimani asliyat bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'g'irish jarayonida asliyat tilning muayyan birliklari ma'nosi o'girilayotgan tilning bir xil birliklari yordamida uzatiladi (masalan: uy - house, xona-room, tree - daraxt). Til birliklari nisbatan barqaror ma'noga ega. Shuning uchun tillardagi (bizning holatda hind-yevropa til oilasiga mansub tillarda) bir xil predmetli holatlar o'xshash sintaktik konstruksiyalar yordamida tarjima qilinadi.

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2018 йил 5 мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрат номидаги мактаб-интернатига ташрифидаги нутқи. Электрон ресурс: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>. Мурожаат санаси: 26.11.2018 й.

Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda tarjimada tilning «ruhiyati» yo‘qolishi, ko‘pincha, poetik asarlarni tarjima qilishda kuzatiladi. Ularning barchasi metodologik jihatdan noto‘g‘ri, chunki isbotlashni tilga tatbiq etib bo‘lmaydi hamda kirishda berilayotgan va chiqishda olinayotgan axborotlar turli qatlam va ko‘lamga tegishli bo‘lgani uchun xulosalarning to‘g‘riligiga qo‘yiladigan eng oddiy mantiqiy qoidalarga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, nemis tilida artiklning mavjudligi nemislarning narsa-hodisalarni jinsiga aloqador qandaydir belgilariga qarab qabul qiladi, degan xulosani bermaydi. Xuddi shu kabi ergativ qurilishga ega bo‘lgan abxaz tilida so‘zlashuvchilar ish-harakatning sub’ekt va ob’ektini farqlay olishga qodir emas, degan xulosaning kelib chiqishi ham mantiqqa ziddir.

Og‘zaki (sinxron) tarjima qilish uchun tarjimonning professional kompetensiyasi (bilim, malaka va ko‘nikmalar yig‘indisi) quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi lozim¹⁷:

- til kompetensiyasi (asliyat va tarjima tillarini bilish);
- kommunikativ kompetensiya;
- tarjima kompetensiya (tarjima qilish malakasi);
- texnik kompetensiyasi (axborot bilan ishlash malakasi);
- shaxsiy fazilatlar (xotirani rivojlantirish):

O‘qitishning asosiy bosqichida og‘zaki tarjima bilan bog‘liq faol kompleks treningida xotira treningi, tildan tilga o‘tish treningi, sur‘at treningi, leksika ustida ishlash, transformatsiya treninglari amalga oshiriladi. O‘qitishda foydalaniladigan mashqlarni tanlash ko‘nikma va mahorat sirlarini shakllantirish zarurati bilan bog‘liqligini taqozo qiladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

- tinglash ko‘nikmasi;
- mnemotexnika ko‘nikmasi;

¹⁷ Аликина Е. В., Швецова Ю. О.Формирование экстралингвистической компетентности будущих устных переводчиков // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 2. Электронный ресурс: <http://www.scienceeducation.ru/102-6037>. Дата обращения: 5.05.2018.

- transformatsiyalash ko‘nikmasi;
- tildan tilga o‘tish ko‘nikmasi;
- nutqiy mexanizmlarni boshqarish ko‘nikmasi;
- og‘zaki nutq texnikasi ko‘nikmasi;
- tarjima sur‘ati;
- tarjima uchun mo‘ljallangan matnni tinglash ko‘nikmasi.

Kompetensiyalar ilmiy sohadagi nazariy bilimlar, aniq kasbiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tajriba, shaxsning qadriyat bilan bog‘liq jihatlarini o‘z ichiga oladi.

jadval

Tarjimonning professional kompetensiyasining tarkibiy qismlari

| Tarjimonning professional kompetensiyasi | | |
|---|----------------------------|--|
| . | Kommunikativ kompetensiya | Individning umumiy kompetensiyasi unsurlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va individ uchun nutq faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar kompleksi sifatida belgilanishi mumkin |
| . | Lingvomaniy kompetensiyasi | Bu til birliklari funksiyasining tizimli qoidalarini bilishgina emas, balki nutq malakasi darajasida til materialini bilish, ya‘ni muayyan mazmuni ifodalovchi gaplarni to‘g‘ri tuzish |
| . | Tarjimonlik kompetensiyasi | Barcha holatlarda ham emas, balki muayyan mavzudagi, aniq bir stilistik janrdagi matnlarni tarjima qilishdagi bilim, malaka va ko‘nikma, tarjimonga maqbul bo‘lgan tarjima usullarini pragmatik komponenti sifatida tavsiflash mumkin |
| . | Texnik (yoki texnologik) | Tarjima jarayonida uchraydigan tipik «texnik» qiyinchi-liklarni bartaraf etishga hamda turli xil vazifalarni bajarishga ko‘maklashuvchi tarjimaning asosiy |

| | kompetensi ya | malakalari kiradi |
|---|----------------------|--|
| . | Shaxsiy kompetensiya | <ul style="list-style-type: none"> - ixtisoslik bo'yicha matnlar professional tarjimonlar guruhi qadriy orientatsiyasi va mentalitetiga kirib borish; - ixtisoslik bo'yicha matnlar tarjimasida kasbiy sha'n va qadr qoidalariga rioya qilish; - tarjima qilinayotgan axborot/ma'lumotning aniqligi va adekvatligi uchun javobgarlik, mukammallik va mustaqil o'qishga tayyorlik; - nostandart kasbiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati; - fikrlash: amaliy, reproduktiv, produktiv, mantiqiy, tahliliy-mantiqiy, intuitiv; - keng ilmiy va madaniy dunyoqarash; - o'z xotirasi manbalarini safarbar etish qobiliyati; - o'z fikrini to'g'ri taqsimlash qobiliyati; - xushmuomalalik, fikrni bir joyga jamlash, kuzatuvchanlik, shaxsiy tanqid, takt, kamtarinlik va jismoniy bardoshlilik |

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi «(Inter)Cultural Awareness», «Language Awareness» va «Humanity» ta'lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda.

«(Inter)Cultural Awareness» – madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi dastlab Germaniyada shakllantirildi va tez orada g'arb mamlakatlarida ommalashdi. Ushbu konsepsiya asosida chet tillarni muloqot vositasi sifatida o'rgatish emas, balki talabalarni umumiy va nutqiy rivojlantirish, ya'ni uni chet til va o'zga madaniyatga qiziqtirish, unda kundalik hayotda duch kelinishi mumkin bo'lgan tilga e'tiborli munosabatda bo'lish va integratsiyalashayotgan Yevropadagi turmush sharoitlariga moslashish ko'nikmalarini shakllantirish

hamda rivojlantirish maqsadi yotadi. Shu sababdan ham ushbu konsepsiyada chet til ta'limining mamlakatshunoslik jihatiga ustuvor ahamiyat qaratilgan¹⁸.

«Language Awareness» – konsepsiyasi «Holistic approach»¹⁹ nomi bilan ham ataladi va u chet tilni yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida o'zlashtirilishi lozimligini targ'ib etadi. Ya'ni xorijiy til ta'limining maqsadi chet til vositasida hayot haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirishdir. Lekin M.Villiams va R.Bednar Vigotskiyning nutq rivojlanish ontogenezi haqidagi nazariyasini «Holistic approach» deb nomlashni ma'qul ko'rishgan²⁰. Ularning taxminicha, Vigotskiy o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni kichik qismlarga ajratib, malaka va ko'nikmalar sifatida taqdim etish fikrini ma'qullamagan bo'lardi. Sababi, Vigotskiy har qanday o'rganiladigan qismning asosini mazmun tashkil etishi lozimligini uqtiradi. Ushbu xulosa ta'sirida Yevropa mamlakatlari, Qo'shma Shtatlar va boshqa mamlakatlarda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ommalashayotgan-ligini kuzatishimiz mumkin²¹.

«Humanity» (Shaxsga yo'naltirilgan) konsepsiyasi O'zbekistonda ham qabul qilingan va unga muvofiq xorijiy tillarni o'qitishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni va madaniyatlararo kommunikatsiya (muloqot)ning markaziy sub'ekti maqomi beriladi, uning qiziqish va ehtiyojlariga ustuvorahamiyat qaratiladi. Chet tilda nutqiy faoliyat yuritish talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi²².

Chet til o'qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta'limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J.Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafovutlar bo'lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual

¹⁸ Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – P. 33-34.

¹⁹ Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – P. 17-18.

²⁰ Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – P. 40.

²¹ Pavesi M., et.al. Teaching through a foreign language: A guide for teachers and schools to using foreign languages in content teaching (CLIL). – Rome. Ministry of Education of Italy, 2001. – P. 32.

²² Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизимининг Давлат таълим стандартлари. – Халқ таълими. – № 4. – 2013. – Б. 4-32.

yondashish, (bilimlarni) puxta o‘zlashtirish, talaba kuchiga moslik kabilar²³. N.A.Gorlova xorijiy tillarni o‘qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko‘rgazmalilik, o‘rgauvchi kuchiga moslik, individual yondashish, sistemalilik²⁴.

Ilmiy manbalarni o‘rganib chiqib bo‘lajak tarjimonlarda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirdik:

1. Talabalarning chet til o‘rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
3. Darslarda ma’noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
4. Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish.
5. Talabalarning yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish.
6. Nutq namunalari asosida chet til o‘rgatish.
7. Mavzularni obrazlashtirish.

Bo‘lajak tarjimonlarda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning psixolingvistik tamoyillarini ko‘rib chiqish ham dolzarb pedagogik vazifadir. Til o‘rganish aqliy faoliyat bo‘lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan chet til o‘qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug‘iladi. Ilmiy manbalarda chet til o‘qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o‘zga til amalda faqat og‘zaki nutq orqali o‘rganiladi) va «korrelatsiya» (chet til materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo‘ljallangan til birliklari majmui shakllanadi) nomlarini olgan. Chet til o‘qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq

²³ Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – Б. 82-83.

²⁴ Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – С. 182-190.

etilganligiga qaramay, metodika fanida chet til o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan.

Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi:

1. Bo'lajak tarjimonlarning chet til o'rganish, o'zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi)ni oshirish.

2. Mashg'ulotlarda talabalarning faol lingvomadaniy muloqotini rag'batlantirish.

3. Talabalarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish.

4. Talabalarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o'rgatish.

5. Individual yondashish, ya'ni talabalarning xos xususiyatlari (har bir talabaning tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do'stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo'lishi)ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish.

Bo'lajak tarjimonlarda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardan iborat: Chet til o'qitish metodikasining, (a) umumiy (nutqiy yo'nalganlik, chegaralab va yaxlit o'rgatish, mashqlar bajarish, til tajribasini hisobga olish), (b) xususiy (nutq namunasi asosida chet til o'qitish, til mashqi va nutq amaliyoti bog'liqligi, nutq faoliyati turlarining o'zaro bog'liqligi, og'zaki nutqning ilgarilashi, chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish, ibtidoiy bosqichni jadallashtirish), (v) maxsus (grammatikani o'rgatish, leksikani o'rgatish, o'qishni o'rgatish va chettil o'rgatishda nutq yozishni qo'llash) tamoyillari ishlab chiqilgan. Biz pedagogik tamoyillarni umumlashtirishda xorijiy tillarni o'qitishga kommunikativ yondashuvni nazarda tutdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // «Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil, 21 aprel, 79 (6773)-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” asarida. – T.: Sharq, 1997. – 31-61 betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni // Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami. – T.: Adolat, 2008. – 290 b.

4. «O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, Internetda tarqatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2004 y., 19-son, 220-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 4-5-son, 108-modda; 2001 y., 1-2-son, 23-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 1-son, 2-modda; 2015 y., 52-son, 645-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018 y., 06/18/5349/0792-son.

8. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B.400.

9. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.452.

10. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. 4-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B.454.

11. Abdullaev Yu.N. Kommunikativnaya metodika obucheniya inostrannym yazykam i zarubejnyy pedagogicheskiy opyt. - Samarkand, 2001.
12. Alimov Q.A. Informatsiya i iskusstvennyy intellekt// Iqtisodiyot va ta'lim, №4, 2004, -S.106-108.
13. Alimov K., Bahramov A. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. - T., 2001. 147-B.
14. Abdujabborova M. O'smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2007. – 22 b.
15. Abdullaev Yu., Bushuy A. Inostrannyye yazyki v sovremennom mire. Evolyusiya metodiki obucheniya. -T.: Fan, 2000.
16. Azizova F. Ingliz tili frazeologizmlarini o'rgatish metodikasi. -Toshkent, 2011.
17. Gulyamova M Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Ped. fan. bo'yicha falsafa. dokt. (PhD). –T., 2019.
18. Djalilova S.X. Psixologicheskie osobennosti lichnostnoy professionalizatsii studentov pedagogicheskogo vuza: Dis. ... kand. psixol. nauk. – T., 1994. – 134s.
19. Djusupov M. Mej'yazqkovoie i mejkulturnoe kontaktirovanie; ponyatie, slovo, psixooobraz,interferensiya. 2016g
20. Dokolin A.S. Formirovanie gotovnosti studentov vuza k protivodeystviyu vovlecheniyu v kiberekstermistskuyu deyatelnost: Diss. ... kand.ped.nauk. – Magnitogorsk, 2017. – 196 s.
21. Yoqubova M. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati: Falsafa fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2008. – 176 b.
22. Jurin A.A. Integratsiya mediaobrazovaniya s kursom ximii sredney obshchobrazovatelnoy shkoli // Mediaobrazovanie. 2005. № 1. S. 32.

OLMOSH MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Ilmiy rahbar: Usmonov Aslam Karshiboyevich

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti o‘zbek tilini
o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsent v.b.*

aslamusmonov9@gmail.com

Mamasheva Marjona Ulug‘bek qizi

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti Filologiya fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmosh so‘z turkumi, uning turlari va xususiyatlari haqida ma’lumot berildi. Shuningdek kichik sinf o‘quvchilariga Olmosh so‘z turkumi mavzusini interfaol matodlardan foydalangan holda tushuntirish va darsni qiziqarli tarzda tashkil etish usullari haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: olmosh, so‘z turkumlari, “Ertak” metodi, “Zanjir” metodi, “Qarsak” metodi, interfaol usul, diqqat, metodika, til, o‘quvchi, o‘qituvchi.

Til — millatni birlashtiruvchi, o‘zligini anglatib turuvchi va uni dunyoga tanituvchi vosita hisoblanadi. Shu sababdan ham yosh avlod qalbida ona tiliga bo‘lgan muhabbatni oshirish, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlari va nozik jihatlari ular ongiga oson va to‘g‘ri yetkazish yo‘llarini o‘ylab chiqish hamda ularni maktab ta’limida samarali qo‘llash lozim. Ona tili darsliklaridagi har bir mavzu tilimizning bir bo‘lagi hisoblanadi, O‘quvchi ushbu ma’lumotlarni anglab borar ekan tilimiz haqidagi tushuncha va tasavvurlari ortib boraveradi. Mazkur maqolamiz ham ayni shu maqsadda yozilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki maqolada tilimizning bir bo‘lagi bo‘lgan “Olmosh” so‘z turkumi va uni maktab o‘quvchilariga oson va samarali o‘qitish haqida so‘z yuritiladi. So‘z turkumlarini o‘rganish mavzulari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu mavzular orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi.

Boshlang'ich sinfda so'z turkumlaridan ot, sifat, son, fe'l va olmoshlar nazariy va amaliy tarzda o'rgatiladi. Olmosh so'z turkumi ham ona tili nazariyasida alohida ahamiyatga ega mavzulardan biridir. Ona tili ta'limida so'z turkumlari grammatik kategoriya sifatida muhim o'rin tutadi. Ulardan biri — olmosh bo'lib, u mustaqil so'z turkumi sifatida nutqni ixcham, aniqlangan, takrorlardan holi qilishga yordam beradi. Olmosh (ichi bo'sh so'zlar) - Barcha mustaqil so'z turkumlari va hatto yordamchi so'zlar, so'z birikmasi hamda gap o'rnida almashinib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlar olmosh turkumiga xos hisoblanadi. Olmosh faqat ot, sifat, son o'rnida qollanib keladigan so'z turkumi bolgani uchun grammatik kategoriyalarga ham, ayrim shakl hosil qiluvchilarga ham ega emas, ammo otga xos kelishik, egalik va son qo'shimchalari bilan o'zgarib kela oladi. Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotganligi matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi. Olmosh so'z turkumining yozilishi, imlosi qo'shimcha qo'shilishi bilan olmosh so'z turkumida ma'no ko'lami kengayishi, yoki torayishi mumkin. Bu adresatning nutqiy muloqot jarayonida olmosh so'z turkumiga oid so'zlarni ishlatishiga bog'liq. [1:1] Maktab ta'limi jarayonida olmosh mavzusini to'g'ri o'qitish o'quvchilarning grammatik tafakkuri, fikrlash madaniyatini rivojlantiradi. Ushbu maqolada olmosh mavzusini o'qitishning metodik asoslari, o'quvchilar faoliyatini faollashtiruvchi texnologiyalar va samaradorlikka erishish imkoniyatlari yoritiladi. Olmoshlar gapda ot, sifat, son kabi so'zlarning o'rniga qo'llanadi. Ular shaxs, narsa, miqdor, belgi va egalikni ifodalashda muhim vositadir. O'quvchilar olmoshlarni bilishi takroriy ifodalarni kamaytiradi, nutqni ravon qiladi, matnni mantiqan bog'lashga yordam beradi, shaxslararo muloqotda aniqlik yaratadi.

Olmoshlarning turlari (kishilik, ko'rsatish, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik, o'zlik, gumon olmoshlar)ni o'rgatish jarayoni o'quvchilarda kategoriyalarni taqqoslash, umumlashtirish va qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bilamizki, o'rta sinf o'quvchilariga, ayniqsa 6-7-sinf o'quvchilariga ona tili darslarida o'tilayotgan mavzularni tushuntirishda interaktiv metodlardan foydalanish, ma'lumotlarni qiziqarli tarzda tushuntirish zarurati turadi. Chunki bu

sinf o'quvchilari hali kichik yoshda bo'lganliklari uchun faqat ilmiylikka tayangan darslardan zerikishi, mavzularga tushunmay qolishlari mumkin. Shu tufayli ham darslarni yangicha usullarda tashkil etish, ma'lumotlarni o'quvchilarning yoshini inobatga olgan holda yetkazib berish yo'llarini o'ylab chiqish lozim. Quyida ana shunday kichik sinf o'quvchilariga "Olmosh" mavzusini oson tushuntirish va samarali mustahkamlash usullari haqida suhbatlashamiz.

Dastlab o'quvchilarga "Olmosh" so'z turkumi va uning turlari haqida ma'lumot berish uchun "**Ertak**" metodidan foydalanamiz. Bu metod mazmuni shundan iboratki, biz mavzuni ertakka aylantiramiz va o'quvchilarga so'zlab beramiz:

"Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda *So'z turkumlari degan sayyora bo'lgan ekan. Bu sayyorida Olmosh mamlakati joylashgan edi. Olmosh mamlakatining ichida yettita shahri bor ekan va bu shaharlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Chunki bu shaharlar ichida turli shakl va belgiga ega bo'lgan fuqarolar istiqomat qilar ekan.*

1. *Kishilik olmoshlari shahrida—men, sen, u, biz, siz, ular* fuqarolari istiqomat qilar ekan

2. *O'zlik olmoshi shahrida esa bittagina O'z ismli fuqaro yashar ekan.*

3. *Ko'rsatish olmoshlari shahrida — bu, shu, o'sha, ana, mana, ana shu, mana shu...* kabi fuqarolar,

4. *So'roq olmoshlari shahrida — kim?, nima?, qayer?, qanday?, qaysi?, qachon?, qancha?...* fuqarolari istiqomat qilar ekan.

5. *Balgilash olmoshlari shahrida — har bir, har kim, har narsa, har qachon, har nima, har qanday, har qaysi, har qancha...* kabi fuqarolar yashar ekan va bu fuqarolarning So'roq olmoshlari yurtidagi fuqarolar bilan qarindoshligi bor ekan, chunki ular shakllanishida so'roq olmoshlari ham ishtirok etar ekan.

Xuddi shunday,

6. *Bo'lishsizlik olmoshlari shahrida — hech kim, hech narsa, hech qanday, hech bir, hech narsa, hech qayer, hech qaysi...* kabi fuqarolar istiqomat qilar ekan va bu fuqarolarning ham xuddi Belgilash olmoshlari shahridagi fuqarolar kabi So'roq

olmoshlari yurtining fuqarolari bilan qarindoshligi bor ekan, chunki bu olmoshlarning shakllanishida So‘roq olmoshlari ham ishtirok etar ekan.

7. Olmoshlar mamlakatidagi oxirgi yettinchi shahar *Gumon olmoshlari* shahri ekan, bu mamlakatda — *kimdir, nimadir, biroq, allakim, allaqaysi, allanarsa, qaysidir, allaqayer, allanima* kabi fuqarolar istiqomat qilar ekan. “shaklida mavzuni ertakka aylantirib so‘zlab beriladi va so‘zlash jarayonida kerakli jumlar “Olmoshlar mamlakatining xaritasi” sifatida doskaga yozib ham boriladi. Bu jarayonda o‘quvchular darsga yanada qiziqadi va ma’lumotlarni ertak shaklida xotirasiga chuqurroq muhrlaydi.

Mavzuni o‘quvchilarga tushuntirib olganimizdan so‘ng darsning mustahkamlash qismiga o‘tamiz va bu qismda ham “Zanjir”, “Qarsak” kabi interaktiv metodlardan foydalanamiz.

“**Zanjir**” metodining mohiyati shundan iboratki, turli rangli kartochkalarga sinfdagi barcha o‘quvchilarning ismlari va ism ostiga mavzu yuzasidan savol yoziladi hamda bu kartochkalar doskaga yopishtirib qo‘yiladi. Dastlab, ixtiyoriy tarzda birinchi o‘quvchi chiqib o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga javob beradi va doskadagi kartochkalardan birini tanlaydi. Kartochka orqasida qaysi sinfdoshining ismi yozilgan bo‘lsa o‘sha o‘quvchi chiqadi va kartochka orqasidagi savoliga javob beradi hamda boshqa kartochka oladi, bu kartochka orqasida qaysi o‘quvchining ismi chiqsa navbatda shu o‘quvchi doskaga chiqadi... Metod shu tarzda davom etaveradi. Bu metodning afzalligi shundaki, darsda barcha o‘quvchilar ishtirok etadi, kartochkalar tasodifiy tanlanganligi uchun bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni ham darsga jalb qilish imkoniyati tug‘iladi.

Darsning oxirgi qismida esa o‘tilganlarni yana bir bor esga olish uchun “**Qarsak**” metodidan foydalanamiz. Bu metodda o‘qituvchi bir qancha olmoshlarni hamda o‘quvchilar olmosh deb adashtirib qo‘yadigan so‘zlarni birma bir aralashtirib o‘qiydi (*har kim, har qaysi, har mahal, kim, nima, o‘zga, allaqachon, allaqaysi, allamahol, har joy, biz, hech qaysi, hech narsa, hech...kabi*). O‘quvchilar olmosh turkumiga mansub so‘zlar o‘qilganda qarsak chaladi, agar o‘qilgan so‘z olmosh turkumiga emas, ravish, sifat yoki yuklamalarga mansub

bo'lsa qarsak chalmaydi. Bu metod o'quvchilardan ham chaqqonlikni, ham ziyraklikni talab qiladi, diqqati chalg'igan o'quvchilarni yana bir bor darsga chorlaydi. Bundan tashqari olmoshlarni boshqa so'z turkumlari bilan adashtirib qo'yishlarining oldini oladi.

Olmosh mavzusini o'qitish o'quvchilarga grammatik bilim berish bilan birga ularni ravon, mantiqli, ifodali nutq sohibi bo'lishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Metodika didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi. Didaktika tamoyillariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til va materialni o'rgatish va mustahkamlashda ko'rgazmalilik, onglilik, bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik, o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan shu jumladan, ona tilidan ham o'qish jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir. Interfaol metodlar, vizual taqdimotlar, mashqlar va hayotiy misollar orqali mavzuni o'rgatish o'quvchi faolligini oshiradi, o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. Shunday yondashuvlar bilan dars tashkil qilinganda o'quvchilarda olmoshlarni to'g'ri anglash va nutqda samarali qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Tadqiqot jarayonida shunday fikrlar keltirishimiz mumkinki, yuqoridagi kabi mashq turlari o'quvchilarning mavzular yuzasidan egallagan bilimlari mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari o'quvchilarda ziyraklik, topqirlik kabi sifatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Eshaliyeva "O'zbek tilida Olmosh so'z turkumining imlosi" maqola
2. Hamrayev M. "Ona tili" "Sharq" nashriyot-matbaa AK. Toshkent. 2012-yil.
3. G'ulomova X. va boshqalar. "Ona tili" Umumiy o'rta ta'limning 4-sinfi uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2020.
4. Z. Hakimova "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga olmosh so'z turkumini o'qitish texnologiyalari" maqola

5. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” O‘qituvchi nashriyot matbaaijodiy uyi Toshkent - 2006

6. Wikipediya (elektron resurs)

7. tafakkur.net.(elektron resurs)

**O‘ZBEK VA INGLIZ TEZ AYTISHLARIDA TALAFFUZ
MURAKKABLIGINI SUN’IY INTELEKT YORDAMIDA TAHLIL
QILISH**

Og‘abek Yuldashev Komiljon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar kafedrasida katta o‘qituvchisi

Ogabek9297@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tez aytishlarida talaffuz murakkabligini aniqlashda sun‘iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘rganiladi. Tadqiqotda fonetik struktura, artikulyatsiya murakkabligi va tovush takrorlari tahlil qilinib, AI asosidagi dasturlar yordamida talaffuz darajasi baholanadi. Sun‘iy intellekt vositalari orqali nutq tezligi, tovush chastotasi va talaffuz xatoliklari aniqlanadi. Natijada, AI yondashuvi tez aytishlarni fonetik, psixolingvistik va o‘qitish nuqtayi nazaridan tahlil qilishda yangi imkoniyatlar yaratishi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: tez aytish, fonetika, talaffuz, sun‘iy intellekt, nutq tahlili, o‘zbek tili, ingliz tili

Аннотация. В данной статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта для определения сложности произношения в узбекских и английских скороговорках. В исследовании анализируются фонетическая структура, артикуляционная сложность и звуковые повторы, а также оценивается уровень произношения с помощью программ на основе искусственного интеллекта. С использованием инструментов ИИ выявляются скорость речи, частота звука и ошибки произношения. В результате

доказывается, что подход, основанный на ИИ, открывает новые возможности для фонетического, психолингвистического и методического анализа скороговорок.

Ключевые слова: скороговорка, фонетика, произношение, искусственный интеллект, анализ речи, узбекский язык, английский язык.

Abstract. This article explores the use of artificial intelligence technologies in determining pronunciation complexity in Uzbek and English tongue twisters. The study analyzes phonetic structure, articulatory difficulty and sound repetition, assessing pronunciation quality through AI-based software tools. Using AI systems, speech rate, sound frequency and pronunciation errors are detected. As a result, it is proven that the AI-based approach creates new opportunities for phonetic, psycholinguistic and methodological analysis of tongue twisters.

Keywords: tongue twister, phonetics, pronunciation, artificial intelligence, speech analysis, Uzbek language, English language.

Tez aytishlar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos, qadimiy va jonli janrlaridan biri bo‘lib, insonning nutq ravonligini, talaffuz aniqligini hamda tovushlar ustidagi nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu janrning asosiy vazifasi so‘zlovchining talaffuz apparatini mashq qildirish, tovushlar uyg‘unligi va nutq tezligi o‘rtasida muvozanatni shakllantirishdan iborat. Tez aytishlar bolalar nutqini o‘stirish, eslab qolish qobiliyatini mustahkamlash va estetik didni tarbiyalashda ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi tez aytishlar o‘z fonetik tizimi, tovush takrorlari va ritmik qurilishi jihatidan farqli bo‘lsada, ularni birlashtiruvchi jihat tilda mavjud fonetik imkoniyatlarni maksimal darajada namoyon etishidir. O‘zbek tez aytishlarida undosh va unli tovushlarning uyg‘unligi, urg‘u va intonatsiyaning tabiiy ohangda saqlanishi muhim bo‘lsa, ingliz tez aytishlarida alliteratsiya, assonans va ritmik takrorlar orqali talaffuzning murakkabligi yuzaga chiqadi. Bugungi raqamli davrda sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalari tilshunoslik va fonetika sohalarida keng qo‘llanilmoqda. AI asosidagi nutqni tanish tizimlari (speech recognition systems) va tovush tahlili dasturlari inson talaffuzini chuqur tahlil qilish, tovush chastotasini o‘lchash, nutqdagi pauza va ritmik strukturalarni

aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan qaraganda, tez aytishlarni sun'iy intellekt yordamida o'rganish nafaqat fonetik tahlilni avtomatlashtiradi, balki ularning psixolingvistik va akustik tabiati haqida aniqroq tasavvur hosil qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari tez aytishlardagi talaffuz murakkabligini aniqlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Dasturiy vositalar orqali tovush chastotasi (frequency), artikulyatsion yuklama, nutq tezligi va talaffuzdagi xatolik koeffitsientini aniqlash mumkin bo'lib, bu tahlillar natijasida o'zbek va ingliz tez aytishlarining fonetik tizimidagi o'xshash va farqli jihatlar ilmiy asosda ochib beriladi. Shu tariqa, AI til o'rganish, talaffuzni to'g'rilash va fonetik o'rganish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqadigan zamonaviy ilmiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbek tilidagi tez aytishlar fonetik tizimdagi undoshlarning o'zaro uyg'unligi va talaffuzdagi aniqlikka asoslanadi. Ular ko'pincha artikulyatsion jihatdan og'ir tovushlarni ketma-ket qo'llab, so'zlovchining tovush apparatini mashq qildiradi. Masalan: *“Qumrining qo'g'irchog'i qimirlasa qiqirlar.”* Bu misolda [q] va [g'] tovushlarining ketma-ketligi talaffuzdagi chuqur orqa til undoshlari o'rtasidagi farqni aniqlik bilan ifodalashni talab qiladi. Shu sababli, bu turdagi tez aytishlar nutqni aniq talaffuz qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Ingliz tilidagi tez aytishlar esa asosan alliteratsiya (bir xil undosh tovushlarning takrori) va assonans (bir xil unli tovushlarning takrori) asosida tuziladi. Masalan:

“Peter Piper picked a peck of pickled peppers.” Bu tez aytishda [p] tovushi asosiy artikulyatsion markaz sifatida ishlaydi. Uning portlovchi xususiyati lab harakatining aniqligini, nafasni to'g'ri taqsimlashni va tez talaffuzda ritmik muvozanatni ta'minlaydi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari, masalan, speech recognition (nutqni aniqlash) yoki phoneme segmentation (fonema tahlili) algoritmlari yordamida bunday tez aytishlar talaffuz murakkabligi darajasi bo'yicha tahlil qilinishi mumkin. AI tizimi tovush chastotasini, urg'u uzunligini va fonetik o'zgaruvchanlikni o'lchab, har bir tez aytishning fonetik yukini aniqlash imkonini beradi.

AI texnologiyalari, xususan Praat, OpenAI Whisper, Google Speech-to-Text va ELAN dasturlari nutq signalini raqamli shaklda tahlil qilib, tovush chastotasi, pauza davomiyligi, intonatsion o'zgarishlar va talaffuz tezligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu vositalar yordamida tez aytishlardagi fonetik yuk, artikulyatsion murakkablik va ritmik tuzilma aniq raqamli ko'rsatkichlar orqali o'rganiladi. Masalan, Praat dasturi orqali "Silly Sally swiftly shooed seven silly sheep" tez aytishidagi [s] tovushining chastotasi 3000-4000 Hz oralig'ida o'lchanib, artikulyatsion aniqlik darajasi va tovush balandligi son jihatdan ifodalanadi. Xuddi shunday, OpenAI Whisper modeli tovushni matnga aylantirgan holda, talaffuzdagi xatoliklar yoki silliqlik darajasini aniqlashi mumkin.

Sun'iy intellekt yordamida o'tkazilgan fonetik tahlil natijalari nafaqat tez aytishlarning murakkablik darajasini, balki inson nutq apparatining moslashuvchanligi, artikulyatsion aniqligi va tovush ishlab chiqarishdagi muvozanatini baholashda ham ilmiy asos yaratadi. Ushbu yondashuv inson nutq mexanizmining fiziologik imkoniyatlarini o'lchash bilan birga, til o'rganish jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

AI yordamida olingan tahlil natijalari til o'qitish metodikasida yangi bosqichni ifodalaydi. Xususan, sun'iy intellekt vositalari o'quvchilarning talaffuzdagi zaif tomonlarini avtomatik aniqlash, individual mashq tizimini yaratish va fonetik xatolarni real vaqt rejimida tuzatish imkonini beradi. Shu tariqa, tez aytishlardan talaffuzni o'rgatish vositasi sifatida foydalanish, ularni interaktiv fonetik mashqlar shakliga keltirish mumkin bo'ladi. Masalan, AI tizimi orqali o'quvchi "*Peter Piper picked a peck of pickled peppers*" kabi tez aytishni talaffuz qilganda, dastur tovush chastotasini, urg'u uzunligini va unli-undoshlar nisbatini avtomatik o'lchab, talaffuzdagi aniqlik darajasi haqida tahliliy hisobot taqdim etadi. Bu usul o'quvchining talaffuzini yaxshilash uchun data asosidagi (ma'lumotli) yondashuvni joriy etadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi fonetik modellar o'zbek va ingliz tillaridagi tovush tizimini qiyosiy o'rganish imkonini yaratadi. Bunda AI algoritmlari har ikki tildagi fonemalar soni, ularning akustik oralig'i, urg'u tizimi

va prosodik tuzilmasini tahlil qilib, kross-lingvistik fonetik farqlarni aniq raqamli ko'rsatkichlar asosida ifodalashi mumkin. Natijada, o'zbek va ingliz tez aytishlarining fonetik strukturasi o'zaro solishtirish, ularning talaffuzdagi murakkablik darajalarini ilmiy asosda baholash imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda sun'iy intellekt texnologiyalari o'zbek va ingliz tez aytishlarining talaffuz murakkabligini aniqlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday yondashuv fonetik tahlilni avtomatlashtirib, tovush takrorlari, artikulyatsion yuklama, intonatsiya o'zgarishlari va ritmik tuzilmani aniq o'lchash imkonini beradi. AI modellarining nutq tahlili sohasida qo'llanilishi nafaqat tovush tizimini raqamli qayta ishlash, balki fonetik xususiyatlarni matematik aniqlikda ifodalash imkonini ham yaratadi. Filologiya va texnologiya integratsiyasi xalq og'zaki ijodining yangi, raqamli bosqichini shakllantiradi. Bu esa tez aytishlarning fonetik, estetik va madaniy jihatlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib, an'anaviy nutq madaniyatini texnologik tahlil maydoniga olib chiqadi. Shu tariqa, sun'iy intellekt yordamida tez aytishlarni o'rganish xalq og'zaki ijodini o'tmish va kelajak o'rtasidagi ilmiy ko'prikkaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komiljon Y.O.A. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganishdagi yuzaga keladigan qiyinchiliklar. Ustozlar uchun, 74(2), 195-199.
2. Komiljon Y.O.A. (2025). Maktabgacha ta'limda bolalarga chet tilini o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklar. Ustozlar uchun, 74(2), 190-192.
3. Boersma P., & Weenink D. (2023). Praat: Doing phonetics by computer.
4. Crystal D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell.
5. Jurafsky D., & Martin J. Speech and Language Processing. Pearson, 2022.
6. OpenAI Whisper Model Documentation, 2023.
7. O'zbekiston xalq og'zaki ijodi namunalari to'plami.
8. Rahmatullayev Sh. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan.

O'QITUVCHI FAOLIYATINI RIVOJLANGAN XORIJ DAVLATLARI TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Guljahon Dexkonova
Namangan davlat pedagogika institute
Ijtimoiy fanlar fakulteti
Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi
E-mail: guljahondehkonova90@gmail.com
Telefon: +998932514411

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta'lim sifati uchun yaratilgan sharoitlar o'rganiladi. Shu asosda O'zbekiston ta'lim tizimida o'qituvchi faoliyatini takomillashtirishning istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi faoliyati, xorij tajribasi, pedagogik innovatsiya, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, malaka oshirish.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi har bir davlatning taraqqiyot darajasini belgilovchi asosiy omilga aylangan. Shu bois o'qituvchi faoliyatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, ularning kasbiy mahoratini oshirish masalasi dolzarbdir. Rivojlangan xorij mamlakatlarining ta'lim sohasidagi yutuqlari O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu tajribalarni milliy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish zarur

Xorijiy tajribalarda o'qituvchi faoliyatini rivojlantirish yondashuvlari Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda o'qituvchi jamiyatdagi eng nufuzli kasb egalari qatoriga kiradi. Ularning faoliyatini rivojlantirishda quyidagi jihatlar muhim o'rin tutadi:

1. o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish;
2. mustaqil pedagogik qaror qabul qilish huquqini berish;
3. o'qituvchining ijodiy faoliyatini rag'batlantirish;
4. ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.

Masalan, **Finlyandiya**da o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishlari shart va ularning dars jarayonida mustaqil metodika tanlash huquqi mavjud. **Singapur**da

esa “Teacher Growth Model” dasturi orqali har bir pedagogning yillik rivojlanish rejasi tuziladi.

2. O‘zbekiston ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni qo‘llash imkoniyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “**Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish**” konsepsiyasi doirasida xorijiy tajribalardan o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda xorijiy tajribalarni joriy etish maqsadga muvofiq:

1. o‘qituvchilarning kasbiy malakasini uzluksiz oshirish tizimini yaratish;
2. xalqaro pedagogik dasturlar (masalan, “Teach for All”, “Erasmus+”) bilan hamkorlikni kengaytirish;
3. zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalarini o‘qituvchilar faoliyatiga tatbiq etish;
4. o‘qituvchilarning ijodiy ishlari, innovatsion loyihalari va ilmiy izlanishlarini rag‘batlantirish.

3. Pedagogik faoliyatni takomillashtirish yo‘llari

Xorijiy tajribalar tahliliga asoslanib, O‘zbekiston o‘qituvchilari faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish lozim:

1. o‘qituvchining **kasbiy refleksiya** ko‘nikmalarini rivojlantirish;
2. ta’lim jarayonida **kompetensiyaviy yondashuvni** chuqurlashtirish;
3. **ijodkorlik va innovatsion fikrlashni** rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
4. ta’limda **integratsion yondashuvlarni** qo‘llash

Rivojlangan xorij mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati, avvalo, o‘qituvchining bilim va mahoratiga bog‘liq. Shu bois o‘qituvchi faoliyatini tizimli ravishda takomillashtirish, ularni zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarga mos ravishda tayyorlash – O‘zbekiston ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish orqali o‘qituvchilarning

kasbiy salohiyati, ijodkorligi va mas'uliyati yanada ortadi, bu esa ta'lim sifatining yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori.
2. OECD (2023). *Teachers Matter: Attracting, Developing and Retaining Effective Teachers*.
3. Ministry of Education, Singapore (2022). *Teacher Growth Model Overview*.
4. Dehqanova G.A. (2024). Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(3), 81-88.
5. Dehqanova G.A. (2024). The importance and role of lexical competence in teaching foreign languages to students. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(05), 16–23. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451>
6. Dehqanova, A. G., & Azimov, M. S. (2024). Axborot va uning mazmuni, axborotdalashish davrida xorijiy tillar va ularning axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati 214-219 Toshkent gumanitar fanlar universiteti, ". *CURRENT ISSUES OF SCIENCE: PROBLEMS AND SOLUTIONS*.
7. Dehqanova, G. A., & Polvanova, M. F. (2022). National-cultural specificity of phraseological units in english and uzbek languages. *research and education*, 1(4).

O'SMIRLAR VA ZAMONAVIY MUAMMOLAR: XXI ASR INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDAGI DOLZARB YONDASHUVLAR

Kasimova Yulduz Maliokovna
Namangan davlat pedagogika instituti,

Xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: kasimovayulduz1977@gmail.com

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Xakimova Feruza Ixtiyor qizi

E-mail: hakimovaf305@gmail.com

Telefon: +998938475722

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asr ingliz va o‘zbek adabiyotlarida o‘smirlar hayoti hamda ularning zamonaviy davrda duch kelayotgan ijtimoiy va ma‘naviy muammolari tahlil qilinadi. Asarlarda yoshlarning ruhiy izlanishlari, shaxsiy mustaqillik, oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi o‘rni badiiy ifoda orqali ochib beriladi. Ingliz adabiyotida shaxs erkinligi va individual qadriyatlar, o‘zbek adabiyotida esa tarbiya, milliy g‘oya va ma‘naviy kamolot masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada har ikki adabiyotdagi o‘smir obrazlari solishtirma yondashuv asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlar, zamonaviy adabiyot, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, shaxs erkinligi, ma‘naviyat, global davr, badiiy ifoda, tarbiya, tahlil.

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности отражения жизни подростков и их современных проблем в английской и узбекской литературе XXI века. Анализируются психологические переживания молодежи, поиск личной идентичности, влияние семьи и общества, а также воздействие глобализации и цифровой эпохи. В английской литературе акцент сделан на индивидуализме и свободе личности, тогда как в узбекской – на духовных ценностях, воспитании и национальных традициях. Сравнительный анализ позволяет выявить общие и отличительные черты в художественном изображении подростков.

Ключевые слова: подростки, современная литература, английская литература, узбекская литература, индивидуализм, духовность, воспитание, глобализация, художественный анализ.

Annotation. This article explores the portrayal of adolescents and their modern challenges in 21st-century English and Uzbek literature. It analyzes the psychological experiences of youth, their search for identity, and the influence of

family, society, and globalization. In English literature, themes of personal freedom and individualism dominate, while Uzbek literature focuses on moral education, national traditions, and spiritual development. A comparative approach highlights similarities and differences in the literary depiction of teenage characters.

Keywords: adolescents, modern literature, English literature, Uzbek literature, individualism, spirituality, upbringing, globalization, literary analysis.

O‘zbek adabiyoti ko‘p asrlik tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning shakllanishida qadimiy yozma yodgorliklar - “Avesto”, “O‘rxun-Enasoy bitiklari”, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk” kabi asarlar muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu yodgorliklarda inson ruhiyati, axloqiy qadriyatlar va jamiyat hayoti masalalari o‘z ifodasini topgan. Mazkur tarixiy asoslar o‘zbek adabiyotining keyingi bosqichlarida, xususan, zamonaviy yozuvchilar ijodida ham o‘z aksini topadi.

XXI asr o‘zbek va ingliz adabiyotida o‘smirlar hayoti, ularning ma’naviy dunyosi, o‘zligini anglash, zamonaviy axborot oqimi, texnologik taraqqiyot va global muhitda shakllanayotgan yangi dunyoqarashlar masalasi markaziy o‘rinni egallamoqda. O‘smir obrazining badiiy talqini orqali jamiyatdagi o‘zgarishlar, oilaviy qadriyatlarning yangicha ko‘rinishlari va shaxsiy erkinlik bilan ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanat yoritiladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek va ingliz adabiyoti bugungi yoshlar dunyoqarashini anglash va ularni ijtimoiy-madaniy jarayonlarga moslashuvini tasvirlashda muhim badiiy maydonga aylanmoqda.

Zamonaviy ingliz adabiyotida o‘smirlar obrazining tasviri, asosan, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy bosim, o‘zlikni anglash va o‘tish davrida yuzaga keladigan psixologik kechinmalar orqali ochib beriladi. XXI asr adiblarining asarlarida yoshlar o‘z hayot yo‘lini topishga, mustaqil qarashlar shakllantirishga va jamiyat tomonidan qo‘yilgan me‘yorlar bilan o‘z ichki istaklari o‘rtasida muvozanat topishga urinayotgan shaxslar sifatida gavdalanadi.

J.D. Salingerning mashhur “The Catcher in the Rye” romanida bosh qahramon Holden Kolfild o‘smirlik davrining ruhiy iztiroblarini, kattalar dunyosiga nisbatan

norozilikni va o'zligini anglash yo'lidagi ichki kurashni ifodalaydi. Asar o'smir psixologiyasini yoritishdagi yangi yondashuvni boshlab bergan va keyingi yozuvchilar ijodida ham chuqur iz qoldirgan.

Shuningdek, J.K. Rowlingning "Harry Potter" romanlar turkumi o'smirning o'sish bosqichlarini do'stlik, jasorat, vijdon va tanlov erkinligi orqali tasvirlaydi. Fantastik syujet doirasida muallif real hayotga xos ijtimoiy muammolarni – adolatsizlik, yetimlik, mas'uliyat va insoniylikni – badiiy tarzda ifodalaydi. Asarda o'smirlar obrazlari orqali oila, do'stlik va ma'naviy qadriyatlarning hayotdagi o'rni yoritiladi.

Stiven Chboskiyning "The Perks of Being a Wallflower" asari esa o'smir ruhiyatining ichki holatlarini, ijtimoiy cheklanish, yolg'izlik va o'zligini anglash jarayonlarini chuqur psixologik yondashuv bilan ko'rsatadi. Bunda o'quvchi o'smirlik davriga xos ruhiy izlanish va o'zgarishlarni realistik muhitda kuzatadi.

Umuman olganda, XXI asr ingliz adabiyotida o'smirlar obrazining badiiy talqini inson ruhiy olamini chuqur tahlil etish, shaxsning o'sish jarayoniga ijtimoiy va axloqiy omillar ta'sirini ko'rsatish orqali yangicha estetik shaklga ega bo'lmoqda. XXI asr o'zbek adabiyotida o'smir obrazlari yangi ma'no va shakllarda talqin qilinmoqda. Yozuvchilar o'smirlik davriga xos ruhiy izlanishlar, shaxsiy o'sish, ma'naviy tarbiya va jamiyatdagi o'rinni topish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Bu davr adabiyotida o'smir qahramonlar hayotining ichki kechinmalari, orzu-intilishlari, ijtimoiy muhit ta'siri va zamon bilan bog'liq murakkab qarama-qarshiliklar realistik ruhda ifodalanadi.

Zamonaviy adiblar, jumladan, Isajon Sulton, Xurshid Do'stmuhammad, Zulfiya Qurolboy qizi kabi ijodkorlar o'z asarlarida o'smir yoshlarning ruhiy olamini jamiyatdagi o'zgarishlar bilan uyg'un holda tasvirlaydilar. Masalan, Isajon Sulton asarlarida insoniy qadriyatlar, orzular va o'zlikni anglash mavzusi o'smir obrazlari orqali chuqur badiiy tahlil qilinadi. Xurshid Do'stmuhammadning qahramonlari esa ko'pincha ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviy inqiroz va shaxsiy mas'uliyat o'rtasidagi kurash jarayonida o'z yo'lini izlaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalarida esa o‘smirlar hayoti oilaviy munosabatlar, qadriyatlar va jamiyatning axloqiy me‘yorlari nuqtayi nazaridan yoritiladi. Uning asarlarida yosh avlodning o‘z orzulari bilan real hayot o‘rtasidagi tafovut, ota-ona e‘tiborining yetishmasligi, ijtimoiy bosim va axborot texnologiyalarining ruhiyatga ta‘siri kabi dolzarb masalalar aks etadi.

Umuman olganda, zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘smir obrazlari endi shunchaki ikkinchi darajali qahramon sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan, o‘z orzulari va hayotiy pozitsiyasiga ega shaxslar sifatida gavdalanmoqda. Bu holat o‘zbek adabiyotining yangi bosqichini belgilab, yosh avlodning ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘rnini badiiy tahlil orqali chuqur yoritishga xizmat qilmoqda. XXI asr ingliz va o‘zbek adabiyotida o‘smirlar hayotining badiiy ifodasi zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-psixologik muhitini aks ettirish orqali yangi g‘oyaviy mazmun kasb etmoqda. G‘arb adabiyotida bu davr yoshlarining individualistik qarashlari, shaxsiy erkinlik va ichki izlanishlar muammosi yetakchi mavzulardan biriga aylangan bo‘lsa^[25], o‘zbek adabiyotida o‘smirlik davri insonning ma‘naviy barkamollikka erishish bosqichi sifatida talqin qilinadi^[26].

Ingliz yozuvchilari asarlarida qahramonning o‘zligini topish, ijtimoiy bosim va begonalik hissi orqali o‘smir psixologiyasini yoritishga e‘tibor beriladi. Masalan, J.D. Salinger va Stiven Chboski ijodida o‘smir obrazlari jamiyatga moslashishdagi ichki kurashlar, mustaqil fikr shakllanishi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi^[27]. Bu asarlarda texnologiya, madaniy xilma-xillik va globallashuv omillari o‘smir dunyoqarashiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi^[28].

O‘zbek adabiyotida esa o‘smir obrazlari ko‘proq milliy qadriyatlar, tarbiya va oila muhitining ta‘sirida shakllanadi. Isajon Sulton, Xurshid Do‘stmuhammad va Zulfiya Qurolboy qizi kabi yozuvchilarning asarlarida o‘smirlar o‘zligini anglash jarayonida ma‘naviy sinovlardan o‘tadi, ular uchun jamiyat va ota-ona qadriyati asosiy tayanch nuqtasi sifatida gavdalanadi^[29]. Shu bilan birga, yangi davr

²⁵ Rowling, J.K. Harry Potter and the Cursed Child. – London: Little, Brown, 2016.

²⁶ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.

²⁷ Chbosky, S. The Perks of Being a Wallflower. – New York: MTV Books, 1999.

²⁸ Green, J. Looking for Alaska. – New York: Dutton Books, 2005.

²⁹ Do‘stmuhammad, Xurshid. Tun panjaralari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.

yozuvchilari ham axborot asrining yosh ongiga ta'sirini realistik ruhda ifodalashga intilmoqda³⁰].

Har ikki adabiyotda o'smir obrazining badiiy talqini ruhiy va ijtimoiy omillar uyg'unligida shakllanadi. Ingliz yozuvchilari asosan individual ongdagi inqirozni tahlil qilsa, o'zbek adiblari ma'naviy muvozanat va ijtimoiy mas'uliyatni ilgari suradi. Shu bois XXI asrda o'smirlik masalasi milliy, madaniy va global omillar kesishgan nuqtada dolzarb tahliliy yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bugungi zamonaviy adabiy jarayonlarda o'smirlik davriga xos muammolar ijtimoiy va ruhiy hayotning eng nozik qatlamini yorituvchi muhim yo'nalish sifatida ko'rilmoqda. Ingliz adabiyotida bu mavzu asosan yosh avlodning shaxsiy erkinlikka intilishi, mustaqil qarorlar qabul qilish jarayoni va o'z hayot ma'nosini anglash orqali ifodalansa, o'zbek adabiyotida o'smirlik davri ma'naviy qadriyatlar, oilaviy tarbiya va ijtimoiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Ikkala adabiyotda ham o'smir obrazi turlicha badiiy shakllarda tasvirlansa-da, ularning markazida inson qalbi, ichki kechinmalar va jamiyat bilan o'zaro aloqadorlik masalasi yotadi. Ingliz yozuvchilari asarlarida individualizm va shaxs erkinligi ustuvor bo'lsa, o'zbek adabiyotida o'smirlarning ruhiy yetuklikka, milliy qadriyatlarga sodiqlikka va ijtimoiy uyg'unlikka intilishi asosiy o'rinda turadi.

Demak, har ikki adabiy muhitda o'smirlar mavzusi nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki jamiyatning ma'naviy qiyofasini va yoshlar tafakkurini shakllantiruvchi madaniy hodisa sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rowling, J.K. Harry Potter and the Cursed Child. – London: Little, Brown, 2016.
2. Sulton, Isajon. Boqiy darbadar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Chbosky, S. The Perks of Being a Wallflower. – New York: MTV Books, 1999.
4. Green, J. Looking for Alaska. – New York: Dutton Books, 2005.

³⁰ Qurolboy qizi, Zulfiya. Yomg'irli tong. – Toshkent: Sharq, 2021.

5. Do'stmuhammad, Xurshid. Tun panjaralari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2017.

6. Qurolboy qizi, Zulfiya. Yomg'irli tong. – Toshkent: Sharq, 2021.

7. Azimov S. M. O'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Jild 1, № 7. – B. 45-52.

8. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – Vol. 5, Issue 2. – P. 31-35.

9. Azimov S. M. The place and significance of the English language worldwide // International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – Vol. 5, Issue 2. – P. 31-35.

ILM-FANNI METODIKA BILAN O'RGANAMIZ

(Mnemonika asosida)

Xurshidaxon Odilova Komiljon qizi

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti I bosqich magistranti,

Ilmiy rahbar: Usmonov Aslam Qarshiboyevich

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD).

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab darsliklarini o'qitish va o'zlashtirish jarayonida matnlarni turli-xil metodlar orqali o'zlashtirish va o'quvchi xotirasida doimiy, mustahkam ma'lumotlarni shakllantirish vazifalari o'rganilgan. Yangi darsliklardagi matnlar, eski darslikdagi qoidalarni o'rnida qo'llanilib, amaliy ko'nikmani shakllantirishni yuzaga keltirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: darslikdagi matnlar, metodlar, xotira san'ati, ma'no, doimiy xotira.

Mnemonika (yunoncha mnemonika – eslab qolish san’ati) – sun’iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo’li bilan eslab qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Mnemotexnika san’atiga II asrda fransiyalik mashhur fokuschi Pinetti asos solgan. XX asrda mnemotexnikaning rivojlanishiga Arrago, I.Sun va G.Agaronovlar juda katta hissa qo’shganlar. Bugungi kunda Y.Shohqulov, F.Rajabov, Sh.Rajabov, P.Egamberdiyev kabi tadqiqotchilarning mazkur mavzu yuzasidan fikrlari mavjud.[1]

Mnemotexnika miloddan avval paydo bo’lgani bilan keyinchalik yo’qolib bordi va XVII asrga kelib yana rivojlana boshladi. Asosan notiqalar va faylasuflar bu usuldan foydalanishgan bo’lsa, keyinchalik til o’rganishda va so’zlarni yodda saqlashda bu usul qo’llanilgan. XXI asrga kelib mnemotexnika turli fanlar yo’nalishida jadal rivojlana boshladi. Bugungi kunda aqlni rivojlantirish, xotirani mustahkamlash uchun alohida matematik kurslar tashkil etilgan.

Biz metodikadan kundalik hayotimizda, o’qishda, ishda va har sohada foydalanamiz. Shunga qarab fan o’qituvchisining metodik salohiyati belgilanadi. Salohiyat qancha yuqori bo’lsa, ya’ni maqsadni to’g’ri qo’yib, unga mos metodni qo’llay olsa, darsning maqsadi va imkoniyati oshadi. Darsda foydalanilgan metodlar o’quvchi uchun ham samarali va foydali bo’lishi kerak. Ba’zi metodlar borki, ular dars uchun muvofiq kelmasligi mumkin yoki darsdan tashqari masalalarni jamlagan bo’lishi mumkin. Bu o’quvchi uchun foydadan ko’ra zararga ko’proq xizmat qiladi. O’quvchi bunday darsni past o’zlashtirishi mumkin. Yuqoridagilardan xulosa qilshimiz mumkinki, metodika – bu dars jarayonidagi turli maqsadlarga eltuvchi yo’l hisoblanadi. Faqat uning samarasi to’g’ri foydalanilganda ko’rinadi. Metod (yunoncha “metodis” – bilish, tadqiqot yo’li, nazariya, ta’limot) bilim ko’nikmasini amaliy va nazariy jihatdan qo’llay olish, bundan tashqari, o’zlashtirish, o’rganish, bilish uchun usullar jamlanmasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli hisoblanadi. Bu Bugungi kunda ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Avvalgi yillarga qaraganda hozir ta’lim sohasida shart-sharoitlar sifati va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan qulay dars xonalari ko’paymoqda. Elektron doska va elektron darsliklar ta’lim

sifatining keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. Yangi metodlar va qulay sharoitlar tufayli iqtidorli o'quvchilarni xorijiy oliygohlarga o'qishga esa kelajakda yurtimizni yetuk kadrlar bilan ta'minlashga imkon beradi. Xorijiy o'qituvchi va professorlarni yurtimizga jalb qilib, ta'lim sifatini oshirish ham yo'lga qo'yilmoqda. Bu usullar pedagog kadrlar tayyorlash metodlarining yangilanishiga yo'l ochadi. Yangi innovatsion texnologiyalar masofani qisqartiradi, dunyo yangiliklarini axborot uzatish va qabul qilish sifatini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning eslab qolish, axborotni tez va samarali qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda mnemotexnika — ya'ni, yodlashni osonlashtiruvchi maxsus usullar alohida o'rin tutadi. Mnemotexnika o'quvchilar xotirasini faollashtiradi, ularning mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantiradi va bilimlarni uzoq muddatli xotirada saqlashga xizmat qiladi. Bu axborotni eslab qolish, yodda saqlash va qayta tiklashga yordam beradigan turli usul va texnikalarning yig'indisidir. Bu texnikalar asosida assotsiatsiya, tasavvur, qisqartma va rasmiylashtirish usullari yotadi. Xotira inson idrokining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Xotira yangi ma'lumotlarni o'rganish uchun juda muhim va kelajakka rejalashtirish imkonini beradi O'zini his qilish, qisman, o'tmishdagi voqealarni eslab qolish qobiliyati bilan belgilanadi. Xotirani qo'llab-quvvatlaydigan tarmoq strukturasi yaxshiroq tushunish uchun biz bu yerda xotira yo'qolishiga emas, balki xotirani oshirishga e'tibor qaratamiz. Xotira bo'yicha har yili o'tkaziladigan jahon chempionatining eng yaxshi ishtirokchilari bir necha daqiqada yuzlab so'zlarni, raqamlarni yoki boshqa mavhum ma'lumotlar birliklarini yodlash qobiliyatini muntazam ravishda namoyish etadilar. Ajablanarlisi shundaki, bunday xotira qobiliyatlari g'ayrioddiy miya anatomiyasi yoki umumiy kognitiv ustunlik bilan bog'liq emas, lekin mnemonik strategiyalarda ataylab o'qitish orqali erishiladi Eng ko'zga ko'ringan mnemonik texnika - bu lokus usuli, qadimgi usul yunon va rim notiqdari tomonidan keng qo'llaniladi. U vizual-fazoviy marshrutlarning yaxshi o'rnatilgan xotiralaridan foydalanadi: Kodlash paytida eslab qoladigan ma'lumotlar bunday marshrut bo'ylab ko'zga tashlanadigan nuqtalarda ko'rsatiladi, bu esa o'z

navbatida olish paytida aqliy ravishda qayta tiklanadi. Ko'plab xulq-atvor tadqiqotlari lokuslar usuli kabi mnemonik strategiyalarning samaradorligini ko'rsatgan bo'lsa-da, mnemonika asosidagi miya o'zgarishlari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Oldingi tadqiqotlari tajribali va tajribasiz foydalanuvchilarda lokuslar usulini qo'llash paytida miyaning vizual-mexanik mintaqalarining vaqtincha faollashishini ko'rsatdi. Miyaning asosiy funksiyasi yoki anatomiyasida uzoq davom etadigan o'zgarishlar mnemonik mutaxassislarda kuzatilmagan, chunki taqsimlangan effektlar yoki miya tarmog'ining o'ziga xos ulanish shakllarini juda kichik namuna o'lchamlari asosida aniqlash qiyin. Mnemonik strategiyalar bo'yicha keng qamrovli mashg'ulotlar tufayli asosiy miya funksiyasidagi o'zgarishlarni tushuntirish uchun bu yerda biz xotira va vizual-fazoviy ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan miya tarmoqlarini o'rganamiz. Biz yetakchi xotiraga ega insonlarning lokuslar usulida intensiv mashg'ulotlardan oldin va keyin mnemonikadan foydalanmaganlar bilan solishtiramiz. Yoshi, jinsi, aql-zakovati bilan solishtiramiz. Sinfidagi jami o'quvchilar soni 32 nafar va darslikdagi matn taqdim etildi. Oddiy o'quv dasturida 4 ta o'quvchi matnni mazmunini va so'zlarni uslubiy qo'llanishini tushintirib beroldi. Ular nazorat vositalariga nisbatan o'zlarining yuqori xotira qobiliyatlarini namoyish etdilar. Ammo sinfda qolgan 28 nafar o'quvchi nutqini bayon qilishda qiynaldi. 20 minut o'tgach berilgan matndagi qatnashgan so'zlar to'g'ri esga olinganda matndagi mazmun to'liq bo'lmagan holda aytili. Bilamizki, o'quvchilar uchun berilayotgan darsliklardagi matnlarda bir nechta mazmunga ega ibratli bo'lgan namuna beriladi. Puzzle faqat matn tartibi emas, balki mantiqiy zanjir asosida tuziladi. Jumladan Puzzle mnemotexnikasiga yangilik kiritish mumkin. Puzzle dagi matnlarni ranglarga ajratib, terish ham juda foydali. Fikrimga dalil sifatida matnni boshlanmasi sariq rangda, fikrni mazmuni kulrang rangda, fikrning kulminikatsion nuqtasi ko'k rangda va boshqa ranglarga matnni bo'lib, o'quvchiga taqdim etilsa, ranglardan foydalangan holatda puzzle ni ham oson va tez teradi. Ranglar o'quvchining fikrini, o'yinga bo'lgan qiziqishini oshiradi. mnemonikani o'zida sinab ko'rgan insonlar va hozirda bu soha keng

tarqalayotganligi uchun qiziqish bildirayotganlar soni ortib bormoqda. Mnemonik texnikalar:

- a) O'rganishni tezlashtiradi;
- b) Uzoq muddatli xotirani kuchaytiradi;
- c) Yaratuvchanlik va vizual tafakkurni rivojlantiradi

Bugungi kunda ham mnemonika:

- a) Talabalar uchun testlarga tayyorlanishda;
- b) Tillarni yodlashda;
- c) Professional notqlikda;
- d) Esda saqlash chempionatlarida faol qo'llaniladi.

Puzzle mnemotexnikasiga matnlardan tashqari qoidalarni kiritsak ham bo'ladi. Qoidani tergan o'quvchilar yoki bir nafar o'quvchi qoidani ishlatgan holda yangi bir hikoya (she'r) yaratib aytib berishi kerak bo'ladi. Bu g'oya o'quvchilarni obrazli fikrlashga, dars jarayonini esda saqlashga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Y. Shohqulov, F.Rajabov, Sh.Rajabov va P.Egamberdiyev mnemotexnika o'rgangan va fikr, izohlarini qoldirgan ishonchli ma'lumotlardan.

3-SHO‘BA:GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONA TILI VA ADABIYOTNING IJTIMOY AHAMIYATI

TEXNIK TERMINLARNING LINGVISTIK TABIATI VA XUSUSIYATLARI

*Xashimova Xurshida Djuraxanovna,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta’limi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori
xashimovaxurshida1@gmail.com
+99897-2317501*

Annotatsiya: Maqolada texnik terminlarning lingvistik tabiati, shakllanish mexanizmlari, semantik va pragmatik xususiyatlari hamda ularning o‘zbek tilidagi ifodalanishi batafsil o‘rganildi. Tadqiqot nazariy-solishtirma, semantik va derivatsion tahlil, shuningdek, korpus va leksikografik manbalarni tahlil qilish usullariga asoslandi. Natijalar texnik terminlarning asosiy xususiyatlarini – aniqlik, birma-ma’noilik, tizimlilik, neytrallik, qisqalik, derivativ shaffoflik va xalqaro–milliy moslik – tasdiqladi. Maqolada o‘zbek terminologiyasiga xos shakllanish yo‘llari (affiksatsiya, kompozitsiya, kalkalash, o‘zlashma, qisqartma) misollar bilan ko‘rsatildi va yagona elektron terminologik baza yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so‘zlar: texnik termin, lingvistik tabiati, shakllanish mexanizmi, affiksatsiya, kompozitsiya, kalkalash, o‘zlashma, qisqartma, aniqlik, birma’noilik,

tizimlilik, neytrallik, xalqaro–milliy moslik, derivatsion shaffoflik, elektron terminologik baza.

Abstract: The article studies in detail the linguistic nature, formation mechanisms, semantic and pragmatic features of technical terms, and their expression in the Uzbek language. The research was based on the methods of theoretical-comparative, semantic and derivational analysis, as well as the analysis of corpus and lexicographic sources. The results confirmed the main features of technical terms - accuracy, unambiguousness, systematicity, neutrality, brevity, derivational transparency, and international-national compatibility. The article shows the ways of formation (affixation, composition, calculus, assimilation, abbreviation) specific to Uzbek terminology with examples and gives practical recommendations for creating a single electronic terminological database.

Keywords: technical term, linguistic nature, formation mechanism, affixation, composition, calculus, assimilation, abbreviation, accuracy, unambiguousness, systematicity, neutrality, international-national compatibility, derivational transparency, electronic terminological database.

Аннотация: В статье подробно исследуются лингвистическая природа, механизмы образования, семантические и прагматические особенности технических терминов и их выражение в узбекском языке. Исследование проводилось на основе методов теоретико-сопоставительного, семантического и деривационного анализа, а также анализа корпусных и лексикографических источников. Результаты подтвердили основные признаки технических терминов – точность, однозначность, системность, нейтральность, краткость, деривационная прозрачность и международно-национальная сочетаемость. В статье показаны способы образования (аффиксация, словосложение, исчисление, ассимиляция, аббревиация), характерные для узбекской терминологии, с примерами и даны практические рекомендации по созданию единой электронной терминологической базы данных.

Ключевые слова: технический термин, лингвистическая природа, механизм образования, аффиксация, словосложение, исчисление, ассимиляция, аббревиация, точность, однозначность, системность, нейтральность, международно-национальная сочетаемость, деривационная прозрачность, электронная терминологическая база данных.

Texnik terminlar – ilmiy-texnik sohalardagi maxsus tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklardir. Ular umumiy tildagi so‘zlardan farqli ravishda kommunikativ aniqlik va bir ma’noilikni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari keng o‘rganilgan: terminlarning yasalishi, tizimlashuvi, terminografiya hamda elektron lug‘at va korpuslar tuzish muhim vazifa sanaladi. Terminologiya til strukturasi alohida qatlamni tashkil etadi va terminlar shakllanishida morfologik, sintaktik hamda semantik yo‘llar muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy terminologiya nazariyasi bir nechta markaziy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi: substansial (termin – maxsus leksik birlik), funksional (termin – maxsus funksiya egasi), derivatsion (termin – yasalish jarayoniga bog‘liq), sistemaviy (termin – tizim elementi) va pragmatik yondashuvlar. Bu yo‘nalishlarning integratsiyasi o‘zbek terminologiyasini normativlashtirishda asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro standartlar (masalan, ISO 704: *Terminology work – Principles and methods*) terminlarni konseptual tizimga joylashtirish, aniqlash va lug‘atlashtirish bo‘yicha metodologik yo‘riqnomani beradi – bu amaliy standartlashtirish ishlarida muhimdir.

Maqolada quyidagi usullar qo‘llandi:

1. Nazariy-solishtirma tahlil – milliy va xorijiy manbalar (Dadaboyev va boshqalar) taqqoslandi.
2. Semantik-derivatsion tahlil – terminlarning ma’nosiy strukturasi va yasalish usullari o‘rganildi.

3. Korpus/terminografik tahlil (manbalar bo'yicha) – o'zbekcha texnik matnlar va termin-lug'at namunalariidagi atamalar tahlil qilindi (qo'llanma va elektron lug'atlar manbalari).

Quyida o'zbek tilidagi texnik terminlar uchun umumiy va xususiy lingvistik xususiyatlar, ularning nazariy asoslari va misollari berildi.

1. Aniqlik va bir ma'nolilik. Texnik terminning asosiy vazifasi – aniq bitta tushunchani belgilash. Mumtoz misollar: maishiy-texnik, elektromexanika yoki kimyo sohasidagi terminlar ko'pincha birma-ma'noli bo'ladi. Bu talab terminologiya standartlashuvi (kodifikatsiya) uchun asosiy mezon hisoblanadi.

2. Tizimlilik (konseptual bog'liqlik). Terminlar o'zaro ierarxiya va bog'lanishlarda ma'no topadi – genus + differentia prinsipi asosida. Lotte va zamonaviy terminologiya tadqiqotlari bu nuqtani ta'kidlaydi: terminlar tashkiliy tizimning elementlari.

3. Neytrallik (emotsional-stiyl jihatdan). Texnik atamalar ekspressiv yoki badiiy zaryadsiz bo'lib, faqat denotativ ma'no tashiydi. Bu ularning ilmiy-texnik kommunikatsiyadagi samaradorligini oshiradi.

4. Qisqalik va iqtisodiylik. Amaliy muloqotda ixcham formasiga ega terminlar afzal hisoblanadi (masalan, "printer" o'rniga "bosib chiqaruvchi qurilma" kabi uzoq ifoda kamroq ishlatiladi). Bu printsip terminlarning qabul qilinishini va kodlashni yengillashtiradi.

5. Derivatsion shaffoflik (motivatsiya). Terminlarning yasalishi (affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartma, semantik ko'chim) aniq va izchil bo'lishi kerak – foydalanuvchi termini ichki tuzilishidan tushuna olishi lozim. O'zbek tilida affiksatsiya juda samarali: misol uchun «-gich» qo'shimchasi yordamida yangi instrument nomlari hosil qilinadi (bombaqidirgich, betonqorgich, tovushni-tutgich va h.k.).

6. So'z turkumlariga taalluqlilik. O'zbek terminologiyasida otlar poydevor rolini o'ynaydi; sifat-terminlar, fe'l-terminlar ham mavjud, lekin nominal atamalar ko'pligi aniq (ot-terminlar tizimni tashkil etadi).

7. Ko‘p tarkibli terminlar (term-birikmalar). Murakkab tushunchalar ko‘pincha ikki va undan ortiq elementdan iborat termin-birikmalar sifatida ifodalanadi: “global kompyuter tarmog‘i”, “xalqaro soliq konvensiyasi” va boshqalar. Bu turdagi birikmalarning ixcham shakllanishi o‘ziga xos jarayon (elips va affiksatsion ixchamlashuv) orqali sodir bo‘ladi.

8. Kalkalash va o‘zlashma jarayonlari. Globalizatsiya va texnologik integratsiya natijasida ingliz-rus terminlari o‘zbek tiliga o‘zlashadi; ba‘zan semantik kalkalash orqali yangi ma‘no hosil bo‘ladi. Bu jarayon nazoratdan chiqsa, sinonimiya va variantlilik muammosini keltirib chiqaradi.

9. Tamg‘alanganlik (markirovka) – korpus va elektron bazalar. Elektron terminologik bazalarda terminlarni tamg‘alash (konseptID, subjectField, status, approvalMeta) zarur; bu tamg‘alash terminlarni avtomatlashtirilgan qidiruv va integratsiyada samarali qiladi. Elektron lug‘atlar va korpuslar yaratish amaliyoti leksikografik adabiyotlarda muhokama qilingan.

Quyida o‘zbek tilida texnik terminlar qanday yo‘llar bilan hosil bo‘lishi ko‘rsatib o‘tamiz.

1-jadval. Texnik terminlarning shakllanish usullari

| № | Usul | Model | Tavsif | Misollar (o‘zbek tilidan) | Izoh |
|---|---|--|---|---|--|
| 1 | Morfologik yo‘l (affiksatsiya) | asos + qo‘shimcha (-gich, -chi, -uvchi, -lik) | Yangi terminlar so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi; asosan otlardan instrument, kasb nomlari, jarayonlar yasaladi | <i>bombaqidirgich, betonqorgich, hisoblagich, o‘lchagich, sozlovchi, haydovchi, texnologik-lik</i> | Affiksatsiya o‘zbek tilining eng sermahsul termin hosil qilish usuli hisoblanadi |
| 2 | Kompozitsiya (qo‘shma so‘z / term-birikma) | soha + funksiya | Ikki yoki undan ortiq leksemaning qo‘shilishi orqali yangi termin hosil bo‘ladi; ko‘pincha soha nomi va vazifa | <i>global kompyuter tarmog‘i, Internet xizmati turlari, atom elektr stansiyasi, axborot xavfsizligi</i> | Tushunchani aniqlik bilan ifodalash uchun ko‘p tarkibli terminlar ishlatiladi |

| | | | | | |
|---|---|-----------------------------------|---|--|---|
| | | | birlashadi | | |
| 3 | Qisqartma va akronimlar | bosh harflar yoki qisqa shakl | So‘z birikmasining qisqartirilishi yoki bosh harflar yig‘indisi mustaqil termin sifatida ishlatiladi | <i>radar (radio detection and ranging), AI (sun‘iy intellekt), GPS, IT</i> | Qisqartmalar xalqaro miqyosda ham keng qo‘llaniladi va tez tan olinadi |
| 4 | O‘zlashma (borrowing) va fonemik moslashuv | chet til so‘zi → moslashgan shakl | Rus va ingliz tilidan kirib kelgan terminlar o‘zbek fonetikasi va morfologiyasiga moslashtiriladi | <i>kompyuter, printer, server, modem, skaner, protsessor</i> | Ba‘zi hollarda moslashtirilmagan shaklda qo‘llanishi terminologik variantlilik muammosini keltiradi |
| 5 | Semantik ko‘chim (metafora/kalkalash) | mavjud so‘z → yangi termin | Til ichidagi so‘z yangi texnik tushunchaga ko‘chiriladi yoki chet til terminining ma‘nosi kalkalanadi | <i>sichqoncha (mouse), tarmoq (network), bulutli texnologiya (cloud computing)</i> | Kalkalash va metafora terminologiyaning milliylik xususiyatini kuchaytiradi |

Jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkin, demak, affiksatsiya va kompozitsiya – milliy tilning ichki imkoniyatlariga tayanadi, qisqartmalar va o‘zlashmalar – xalqaro tajriba va global ilm-fan rivoji bilan bog‘liq, semantik ko‘chim va kalkalash –milliylikni ta‘minlovchi, ijodiy jarayon hisoblanadi. Chet tildan kirgan atamalar semantik kalkalash orqali yangi ma‘no qabul qilishi mumkin – bu jarayon o‘zbek terminologiyasining boyishiga xizmat qiladi.

2-jadval. Termin-entry sxemasi: tavsiya etilgan model

| No | Maydon nomi | Izoh | Namuna (betonqorgich misolida) |
|----|---------------------------|--|--------------------------------|
| 1 | ConceptID | Har bir termin uchun beriladigan noyob raqam yoki kod. Elektron bazada termini avtomatik ajratish uchun xizmat qiladi. | TERM-000123 |
| 2 | Term (O‘zbekcha) | O‘zbek tilidagi asosiy termin shakli. | betonqorgich |
| 3 | POS (So‘z turkumi) | Termin qaysi so‘z turkumiga oidligini ko‘rsatadi (ot, sifat, fe‘l). | Noun (ot) |

| | | | |
|----|---|---|--|
| 4 | Definition (Ta'rif) | Termin ifodalaydigan tushuncha aniq va qisqa tarzda ta'riflanadi (genus + differentia usulida). | Betonni so'rash/qo'yish yoki teshish uchun mo'ljallangan mexanik qurilma |
| 5 | SubjectField (Soha) | Termin tegishli bo'lgan fan yoki texnika sohasi. | Qurilish texnologiyalari |
| 6 | Equivalent_EN (Inglizcha) | Ingliz tilidagi muqobil termin. | concrete cutter/grinder |
| 7 | Equivalent_RU (Ruscha) | Rus tilidagi muqobil termin. | (kiritilishi mumkin) |
| 8 | Status (Holat) | Termin bazada qanday maqomga ega: yangi taklif etilganmi (proposed), tasdiqlanganmi (approved), yo bekor qilinganmi (deprecated). | proposed |
| 9 | ApprovedBy (Tasdiqlovchi) | Termin kim tomonidan yoki qaysi komissiya tomonidan tasdiqlanganini ko'rsatadi. | Terminologiya komissiyasi |
| 10 | ApprovedDate (Tasdiqlangan sana) | Termin rasmiy ravishda qabul qilingan sana. | (masalan: 2023-04-15) |
| 11 | Sources (Manba) | Termin ta'rifi yoki qo'llanishi asoslangan manba. | Dadaboyev, <i>O'zbek terminologiyasi</i> , 87-bet |
| 12 | Notes (Izohlar) | Termin qo'llanishiga oid qo'shimcha ma'lumotlar (stil, register, qo'llanish konteksti). | Asosan qurilish korxonalar va texnik hujjatlarda qo'llanadi |
| 13 | RelatedTerms (Bog'liq terminlar) | Shu termin bilan semantik yoki tizimiy jihatdan aloqador boshqa terminlar (broader – kengroq tushuncha, narrower – torroq tushuncha, related – aloqador). | kengroq: qurilish jihozlari; aloqador: asbobsozlik |

Bu model terminlarni xalqaro format (TBX/TMF)ga yaqinlashtirib, o'zbek tilida yagona tartibda rasmiylashtirish imkonini beradi.

Afzalliklari: terminlar chalkashligining oldini oladi, sinonimlarni nazorat qiladi, xalqaro ekvivalentlarni bir joyda jamlaydi.

Amaliy qo'llanishi: elektron lug'atlar, ilmiy-texnik matnlarni standartlashtirish, ta'lim tizimi uchun qo'llanmalar yaratishda juda muhim hisoblanadi.

Muhokama:

1. **Normativlashtirish zarurati.** Terminlarning birma-ma'noliligi va tizimlilik uchun milliy kodifikatsiya (normativ lug'at va elektron baza) yaratish

majburiy. Bu jarayonda ISO 704 prinsiplari va TBX/TMF formatlari amaliy qo‘llanma bo‘la oladi.

2. **Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.** Terminlarni ta’lim darsliklariga tatbiq etish, sanoat sohalarida ichki qo‘llanmalarni ishlab chiqish orqali terminning amaliy qabul qilinishi ta’minlanadi (manbaa: elektron lug‘atlar tajribasi va OTM e-lug‘at loyihalari).

3. **Korpus va monitoring.** Danilenko va zamonaviy nazariyotlarning ko‘rsatmasi bo‘yicha terminologiya doimiy yangilanib borishi kerak: yangi texnologiyalar paydo bo‘lganda monitoring mexanizmi ishlashi lozim.

Xulosa: O‘zbek tilidagi texnik terminlarning lingvistik tabiati — kompleks, tizimli va asosan motivlangan bo‘lib, u morfologik, sintaktik va semantik mexanizmlar orqali kengayadi. Aniqlik, tizimlilik, qisqalik, derivatsion shaffoflik va xalqaro–milliy moslik – asosiy prinsiplar hisoblanadi.

1. **Yagona milliy terminologik elektron baza** (TBX/TMF moslashmasi) ishlab chiqilishi kerak.

2. **Termin kodifikatsiyasi bo‘yicha ekspert-komissiya** tashkil qilish lozim (soha ekspertlari, tilshunoslar, ishlab chiqarish vakillari).

3. **Termin yasalishi bo‘yicha qoida-kitob** (affiksatsiya, kompond, kalkalash, o‘zlashuv qoidalari) ishlab chiqilishi – yuqoridagi jarayonlarda cheklovlar va afzalliklar aniq belgilab berilishi darkor.

4. **Korpus va monitoring** (2–3 yillik sikl) asosida terminlarni yangilash jarayoni yo‘lga qo‘yilishi kerak.

5. **Ta’lim va leksikografiya:** o‘quv darsliklari va elektron lug‘atlarda terminlarning aprobatsiyasi o‘tkazilishi; termin-entry strukturalari konseptual (genus + differentia) tamoyiliga moslashtirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dadaboyev, H. O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent.
2. ISO 704. (2009). Terminology work – Principles and methods. Geneva: ISO.
3. Cabré, M. T. (1999). Terminology: Theory, Methods and Applications. Amsterdam: John Benjamins.

4. Sager, J. C. (1990). A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins.

5. Wüster, E. (1979). Einführung in die allgemeine Terminologielehre... Wien: Springer.

O‘LIM TUSHUNCHASINI ANGLATUVCHI EVFEMIK IBORALAR (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLILI)

Po‘latova Irodaxon Ilhomjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida o‘qituvchisi
Irodapulatova71@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘lim – har ikki til va madaniyatda nozik va og‘ir mavzu ekanligi yoritilib, u haqida so‘z borganda ko‘plab evfemik, ya'ni yumshatib ifodalovchi iboralardan foydalanilishi aytib o‘tiladi. Bu iboralar o‘lim so‘zini bevosita ishlatmasdan, uning og‘irligini kamaytirishga, his-tuyg‘ularni muloyimroq ifodalashga xizmat qiladi. Evfemik iboralar tilning ijtimoiy madaniy jihatlarini namoyon etadi. O‘lim kabi mavzular ijtimoiy kontekstdan qat’iy nazar doimiy noziklik va hushyorlik bilan yondoshishni talab qiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida evfemik iboralar nafaqat og‘ir mavzuni yumshatadi, balki odamlar o‘rtasidagi hurmat va samimiylikni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Tilshunos olimlar, xususan Robin Lakoff (1973), evfemik iboralarni ijtimoiy muloqotdagi hurmat va odob-axloqning ifodasi sifatida baholaydi. O‘lim haqida so‘zlayotganda bu jihat ayniqsa muhim: og‘ir xabarni yumshatish orqali insonlar orasidagi hissiy ziddiyatlar kamayadi.

Kalit so‘zlar : evfemizm, semantik yumshatish, til va madaniyat munosabati, qiyosiy tilshunoslik, metaforik ifoda, diskursiv strategiya, pragmatik funksiya, lingvomadaniy komponent, tabu leksikasi, o‘lim semantikasi.

Abstract. This article explores the concept of death as a delicate and sensitive topic in both languages and cultures. It highlights how euphemistic expressions are widely used when speaking about death, serving to soften the harshness of the term and convey emotional nuances in a more gentle manner. Euphemisms reflect the

sociocultural dimensions of language, and topics such as death require consistent subtlety and attentiveness regardless of social context. In both English and Uzbek, euphemistic expressions not only mitigate the emotional weight of the subject but also function as important tools in maintaining respect and sincerity in interpersonal communication. Linguists, particularly Robin Lakoff (1973), view euphemisms as markers of politeness and social decorum in discourse. In discussions about death, this aspect becomes especially crucial, as euphemisms help reduce emotional tension among interlocutors.

Keywords: euphemism, semantic softening, language and culture correlation, contrastive linguistics, metaphorical expression, discursive strategy, pragmatic function, linguocultural component, taboo lexicon, death semantics.

Ingliz tilida o‘lim mavzusida qo‘llanuvchi ko‘plab evfemik iboralar mavjud: *Passed away* “vafot etdi”, eng keng tarqalgan yumshatilgan ibora, *Passed on* “o‘tib ketdi”, hayotdan o‘tish, *Gone to a better place* – “yaxshiroq joyga ketdi”, diniy ifoda, *Departed* – “ketdi”, rasmiy va nozik ifoda, *No longer with us* “biz bilan emas”, bilvosita o‘lim, *Rest in peace* “tinchsizlikda yotsin”, duolik iborasi, *Breathed their last* “oxirgi nafasini berdi”, o‘lim jarayoniga ishora, *Crossed over* “o‘tib ketdi”, hayotdan keyingi hayotga o‘tishni ifodalaydi, *Called home* “uyga chaqirildi”, diniy evfemika, *Sleeping* yoki *eternal sleep* “uyqu”, o‘limni tinchlik va osoyishtalik bilan bog‘lash.

O‘zbek tilidagi o‘lim evfemik birliklariga esa quyidagilar misol bo‘ladi: *Olamdan o‘tmoq, vafot etmoq, dunyo bilan xayrlashmoq, ko‘z yummoq, jannatga yo‘l olmoq, ruhini topshirmoq, olamni tark etmoq, safar qilmoq, yuragi to‘xtamoq, qabrga kirish, oxirgi nafasini berish.*

Qiyosiy tahlilga ko‘ra quyidagi evfemik birliklar quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

1. **Umumiylik va maqsad.** Har ikki tilda evfemik iboralar o‘limni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaslik, noziklik va hurmat bilan ifodalash uchun xizmat qiladi.

2. **Din va madaniyat ta’siri.** Ingliz tilidagi iboralarda ko‘p diniy ifodalar mavjud: “*gone to a better place*”, “*called home*”, “*rest in peace*”. O‘zbek tilida

esa islom dini ta'siri kuchli bo'lib, "jannatga yo'l olmoq" kabi iboralar keng qo'llanadi.

3. **Ramziy va metaforik ifodalar.** Ingliz tilida "sleeping" yoki "crossed over" kabi metaforalar keng tarqalgan. O'zbek tilida ham "safar qilmoq" yoki "ko'z yummoq" kabi ramziy iboralar mavjud.

4. **Rasmiylik darajasi.** Ingliz tilida "departed" kabi rasmiy evfemik birliklar mavjud, o'zbek tilida esa "vafot etdi" ko'proq rasmiy nutqda ishlatiladi.

5. **Emotsional ohang.** O'zbek tilidagi iboralar ko'proq hissiyotga boy va diniy kontekstga ega bo'lsa, ingliz tilidagi iboralar ba'zida neytral va umumiy ifodalar bo'lishi mumkin.

Ingliz tilida o'lim evfemikalari ko'pincha umid, tinchlik va boshqa hayotga ishora qiluvchi metaforalar bilan ifodalanadi: "passed away", "rest in peace", "gone to a better place". Bu iboralar ko'p hollarda diniy yoki falsafiy tasavvurlar bilan chambarchas bog'liq.

O'zbek tilida esa diniy ta'sir ancha kuchli bo'lib, "jannatga yo'l olmoq" va "ruhini topshirmoq" kabi iboralar keng qo'llanadi. Bular o'limni faqat hayotning yakuni emas, balki oxirat hayotining boshlanishi sifatida ko'rsatadi. Bu o'zbek madaniyati va islom an'analari ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, o'zbek tilida "safar qilmoq" kabi o'limni sayohatga o'xshatish ramziy iboralari mavjud bo'lib, ular hayot-mamot aloqasini yanada boyitadi.

O'lim mavzusidagi evfemik birliklar shunchaki til vositasi emas, balki ijtimoiy muvofiqlik va madaniy odobning belgisi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, yaqin kishining vafoti haqida gapirganda nozik va muloyim iboralar qo'llanishi, uni tinglovchi yoki o'quvchining his-tuyg'ularini hurmat qilishni ta'minlaydi. O'lim evfemik iboralari jamiyatda hissiy yordam va qo'llab-quvvatlashning til orqali ifodasidir. Bu iboralar, shuningdek, o'limga nisbatan ijtimoiy tabuni yumshatishda muhim o'rin tutadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi o'lim evfemik birliklari o'xshash maqsadni ko'zlaydi o'lim haqidagi gaplarni yumshatib, muloyimroq ifodalashni anglatib keladi. Har ikkala til va madaniyatda bu so'zlar insonlar orasida hurmat, mehr-

oqibatni saqlashga xizmat qiladi. Ammo, diniy, madaniy va til xususiyatlariga ko'ra, iboralarning shakli va ishlatilishi farq qiladi. Ingliz tilida evfemik iboralar ko'proq umumiy va metaforik, o'zbek tilida esa diniy va an'anaviy ta'sir kuchliroq. O'lim tushunchasini ifodalovchi evfemik iboralar nafaqat til boyligini, balki madaniy qadriyatlarni ham aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillarida bu iboralar o'xshash maqsadga xizmat qilsa-da, ular shakl va mazmun jihatidan madaniyat va din ta'siri ostida farq qiladi. Til va madaniyat o'rtasidagi bu bog'liqlik, o'lim mavzusida evfemik iboralarning yanada chuqurroq o'rganilishi uchun qiziqarli va foydali maydon yaratadi. Ayniqsa, ko'p tilli va madaniyatli muhitlarda o'lim haqidagi evfemik iboralarni tushunish, ularni to'g'ri qo'llash kommunikatsiyani yanada samarali qiladi. Shu bois, tilshunoslar va madaniyatshunoslar uchun o'lim evfemikalari tahlili nafaqat tilning o'ziga xos xususiyatlarini, balki odamlarning hayotga, o'limga va undan keyingi dunyoga bo'lgan munosabatlarini o'rganish uchun muhim ilmiy yo'nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, David. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.
2. Allan, Keith & Burridge, Kate. (2006). Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press.
3. Lakoff, Robin. (1973). The Logic of Politeness; or, Minding Your P's and Q's. Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society.
4. Abdullaev, S. (2008). O'zbek tilida evfemik iboralar. Toshkent: Fan.
5. Toshmuhamedova, D. (2015). Til madaniyati va evfemika. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
6. Jones, Steven. (2014). Death and Dying: A Cultural Encyclopedia. ABC-CLIO.
7. Rahimov, A. (2012). Til va madaniyat: Evfemik iboralarning o'rni. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
8. Crystal, David. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.

9. Zahirov, B. (2009). O‘zbek adabiy tili lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

10. Webster, Richard. (2015). Death and Language: Euphemisms, Taboo and Talking about Death. *Journal of Language and Culture*, 6(2), 45-58.

ONOMASTIKANING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SHAKLLANISHI VA BUGUNGI TARAQQIYOTI

Matluba Olimova

Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada onomastikaning O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekistonda vujudga kelishi hamda uning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Qolaversa, onomastikaga o‘z hissasini qo‘shgan olimlarning faoliyatlari misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, apellyativ, formant, topoformant, etimologiya, o‘zbek tili, turkiy tillar, qadimgi turkiy til.

Аннотация. В данной статье описывается возникновение ономастического в Центральной Азии, особенно в Узбекистане, а также этапы его становления и развития. Кроме того, это раскрывается на примере деятельности узбекских интеллектуалов- националистов, внесших свой вклад в ономастику.

Ключевые слова: топоним, апеллятив, формант, топоформант, этимология, узбекский язык, тюркские языки, древнетюркский язык.

Abstract. This article describes the emergence of onomy in Central Asia, especially in Uzbekistan, as well as the stages of its formation and development. In addition, it is revealed on the example of the activities of Uzbek nationalist intellextuals who contributed to onomym.

Key words: toponym, appellative, formant, topoformant, etymology, Uzbek language, Turkic languages, old Turkic language, cemetery.

Hozirgi kunda o‘zbek nomshunosligi ancha yutuqlarga erishdi. Respublikamiz viloyatlari, alohida olingan hududlarning toponimlari,

gidronimlari lingvistik jihatdan tahlilga tortilgan edi. Albatta, tilshunoslik sohasidagina bu ro'y bermagan, balki tarix, geografiya fanlari sohalarida ham toponim va gidronimlarga tegishli ilmiy tadqiqotlar ma'lum darajada amalga oshirilgan.

Dunyo tilshunosligida onomastika sohasi rivojlanib borayotgan ilmiy yo'nalishlarning biriga aylandi. Xususan, nomlar xalqning ruhiy madaniyati, siyosiy va iqtisodiy holati asosida shakllanishi etnolingvistik, etnomadaniy, sotsiolingvistik talqin etish imkoniyatlarini ochadi. Geografik joylashish o'rni, xalq nomi, ular kundalik faoliyatda ishlatgan narsa-buyum nomlari va ularning etnik

tarkibi haqida boy lingvistik, etnografik, topografik va tarixiy ma'lumotlar beruvchi

barcha birliklarni yangi lingvistik paradigmalar asosida psixolingvistik, semasiologik, onomasiologik, etimologik, kognitiv va konseptual aspektlarda tadqiq

qilishga e'tibor qaratildi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan keyin joy nomlariga e'tibor kuchaydi, yangi geografik obyektlar milliy mafkuramizga mos holda nomlana boshlandi.

“Ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezon”³¹.

O'zbek tilidagi onomastik birliklarning ilmiy asosda o'rganilishi o'tgan asrning 50 - yillaridan boshlangan. O'zbek nomshunoslari olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, L.Karimova, A. Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Xusanov, S Karimov, S.Bo'riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug'atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do'simov, X.Egamov.

³¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи) // «Халқ сўзи» газетаси, 2019 й., 22 октябрь № 218 (7448).

B.Urinboyev, T.Nafasov, B. Nafasova, O.Holiqov) hamda ko'p sonli ilmiy hamda ilmiy ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi³². Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Xusanov, G.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O'rinboyev kabi olimlarning hissasi kattadir³³. Ushbu maqolada tavsifiy, tarixiy-qiyosiy, tasniflash, tahlil metodlaridan foydalanildi.

O'zbek onomastikasi yoki nomshunosligi o'tgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yo'nalish sifatida yuzaga keldi. O'zbek nomshunosligi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Ayniqsa, onomastika sohasining antroponimika, toponimika va etnonimika kabi bir qator sohalarida ishlar amalga oshirilgan. O'zbek nomshunosligi bu ma'lumotlar bilan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan degani emas. Sohaga tamal toshi sifatida qo'yilgan dastlabki ishlar, monografiyalar va ilmiy maqolalar keyingi tadqiqotchilarga zina vazifasini o'taydi. O'zbek nomshunosligida malga oshirilgan izlanishlar dastlab ismlarda boshlandi: E.Begmatov "O'zbek tili antroponimikasi", "Ism chiroyi". Toponimik tadqiqotlar keyin boshlangani bilan qolganlaridan salmoqli ishlar amalga oshirildi: S.Qorayev "Toponimka", T.Nafasov, V.Nafasova "O'zbek tili toponimlarining o'quv-izohli lug'ati", T.Enazarov "Sirdaryo viloyati toponimlari", T.Enazarov "Nomshunoslik masalalari" va boshqa ishlar. Atoqli otlarning o'rganilishi masalalarining dunyodagi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy asoslarda tadqiq etilishi ancha vaqtdan buyon davom etib kelmoqda. Bu haqida turli tillarda bir qancha ilmiy ishlar e'lon qilingan.

Bunda til va tarixga oid manbalar asosiy tayanch manba hisoblanadi. Shu bilan birga olimlarimizning tadqiq etish faoliyatlari ham mazkur sohaning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Atoqli otlarning o'rganilishi qadim zamonlarga,

³² Begmatov Э., Улуков Н.М. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. – 164 б.

³³ Йўлдошев. Б "Ўзбек тили ономастикаси масалалари" танлаима фанндан услубий қўлланма. – Самарканд, 2011.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asariga borib taqalsa hamki, uning ilmiy asoslarda o'rganilishi esa, XX asrning 50-yillaridan boshlangan.

Teonimika, xususan, o'zbek teonimikasi bo'yicha R.Nuriddinova, F.Nurmonov,

S.Senesarov, N.Uluqov kabi olimlarning maqola va tadqiqotlari mavjud bo'lib,

bular sohaning ilmiy – nazariy asoslanishiga xizmat qiladi. Jahon va o'zbek nomshunosligi miqyosida qaraydigan bo'lsak, onomastik birlik bo'lgan teonimlar chegarasida aniq to'xtamga kelinmagan. Bunga olimlarning teonimlar xususida

turlicha qarashlarga ega ekanligi bilan izohlash mumkin.

Teonimika bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda Oллоh, Xudo, Tangri leksemalari, islomgacha bo'lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – ajdar, dev, pari, shayton, jin nomlari, pir va payg'ambarlar nomi va shunga o'xshash birliklar tadqiq obyektiga olingan³⁴.

Tadqiqotda stilistik, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-etimologik metodlaridan foydalanildi.

Tadqiq obyektiga ega barcha sohalarning o'z birliklari mavjud. Xususan, onomastikaning sohaviy birliklari: antroponim (shaxs nomlari), toponim (joy nomlari), Zoonim (hayvon nomlari), fitonim (o'simlik nomlari) va boshqalardir. Keltirilgan birliklar nomlarning turini umumiy nomlaydi. Har bir birlik o'z ichida yana kichik birliklarga ajraladi. Nomshunoslikning o'rganish obyektini sifatida voqelikdagi narsalarni birini boshqasidan ajratib, umumiydan xususiylik tomonga olib boriladi. Nomshunoslikka oid asarlarda atoqli otlarnigina ushbu sohaning o'rganish obyektini sifatida keltirilgan. Tilshunoslikda atoqli otlar doimo gap yoki

matnning qaysi o'rnida kelishidan qattiq nazar bosh harfda bitilishi o'zgarmas qoida sifatida o'rin olgan. Lekin shu yerda bir savol tug'iladi. Shunday otlar borki,

³⁴ Til tizimi sathlari: semantic – funksional va struktur asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – 2009. – B. 55-57.

turdosh ot tarkibida bo‘lib, atoqli otlarga xos xususiyatlarga ham javob bera oladi. Ya’ni narsalarning umumiy nomlanishidan yakka-likka qarab o‘sgan otlardir. Til bir joyda

o‘zgarmay muqim turadigan bir predmet emaski, zamon-makon va insonlar ta’siri bo‘lmasa. Til shu darajaga yetib kelguncha anchagina taraqqiyotni bosib o‘tgan va u bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi. Bir vaqtlar alohida so‘z shakllari

bo‘lgan so‘zlar hozirda istemolda emas. Ma’nosi o‘zgargan yoxud boshqa bir so‘z shakli bilan birlashib yangi ma’no va xususiyat kasb etgan. Shundan xulosa chiqarish mumkinki, atoqli otlar tarkibiga kirmagan so‘zlar vaqt va faollik nuqtai nazar bo‘yicha o‘z xususiyatini atoqli otlar tomonga o‘zgartirishi mumkin.

O‘zbek tilshunosligi sohasida nomshunoslik alohida bir sohasi bo‘lish bilan birga hozirgi zamon ilm-fanining talablaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Zero, barcha xalqlarda nomga, nomlanishga

munosabat e’tiborda bo‘lgani uchun amalda qo‘llanilayotgan nomlarni to‘g‘ri, aniq va xatosiz yozish bu sohadagi ham savodxonlikni ham madaniylikni, ma’rifiylikni ifodalovchi me’yoriy holatlardan biri sanaladi. Bu sohadagi ilmiy izlanishlar o‘zbek tilshunosligining markazida turuvchi leksikografiyaning boyishiga xizmat qiladi.

FOYADALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. 2017. 23-декабрь.

2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.

3. Йўлдошев Б. Узбек тили ономастикаси масалалари танлаима фандан услубий қўлланма. – Самарканд, 2011.

4. Til tizimi sathlari: semantik – funksional va struktur asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2009.

6. Бегматов Э. Улуқов Н.М. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич.

– Наманган, 2008. – 166 б.

7. Эназаров Т. Номшунослик масалалари. Услубий кўлланма. Тошкент: Университет, 2010. – В. 112.

IDIOSIL VA IDIOLEKT TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK TAHLILI

Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna
NamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallifning o‘ziga xosligini ifodalovchi idiostil hamda idiolekt tushunchalariga doir qarashlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: idiostil, idiolekt, sotsiolingvistika, psixolingvistika.

Аннотация. В данной статье представлены взгляды на понятия идиостиль и идиолект, выражающие своеобразие автора.

Ключевые слова: идиостиль, идиолект, социолингвистика, психолингвистика.

Abstract. This article presents views on the concepts of idiostyle and idiolect, which express the originality of the author.

Key words: idiostyle, idiolect, sociolinguistics, psycholinguistics.

Tilshunoslik va stilistika sohalarida individual nutqiy xususiyatlarni o‘rganish ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Shu ma’noda idiolekt va idiostil tushunchalari alohida ilmiy kategoriyalar sifatida shakllangan bo‘lib, ular shaxsning nutqiy odatlari hamda muallifning badiiy uslubiy tizimini ifodalaydi. Har ikki tushuncha ko‘pincha bir-biriga yaqin qo‘llaniladi, ammo ilmiy mazmuni, qo‘llanish sohasi va tadqiqot metodlari jihatidan farqlanadi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “Idiolekt - bu bir kishining nutqida namoyon bo‘ladigan tilning individual variantidir.” [3], holbuki idiostil “ bitta muallifning ishini tavsiflovchi barqaror texnikalar to‘plami” [1,57] sifatida talqin etiladi.

Idiolekt shaxsning tilni qo‘llash jarayonidagi o‘ziga xos belgilarini qamrab oladi. Bu belgilar fonetik, leksik, grammatik va pragmatik ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, ayrim shaxslarning talaffuzidagi o‘ziga xos urg‘u,

sevimli soʻzlardan muntazam foydalanish, murakkab yoki qisqa jummalarni afzal koʻrish kabi odatlar idiolektni shakllantiradi. N.E.Petrovaning fikricha: “Idiolekt nafaqat leksik afzalliklarni, balki nutq individualligini shakllantiradigan barqaror sintaktik naqshlarni ham aks ettiradi” [7,105]. Demak, idiolekt faqat soʻz boyligidagi oʻziga xoslik bilan emas, balki sintaktik tuzilishdagi doimiy belgilar orqali ham aniqlanadi.

Idiolektni tadqiq etishda bir necha metodlardan foydalaniladi:

-fonetik tahlil: talaffuz, urgʻu, intonatsion oʻziga xosliklarni aniqlash.

-leksik-semantik tahlil: soʻz tanlashdagi individual odatlar, neologizmlardan foydalanish, sinonimlarga murojaat qilish.

-sintaktik kuzatuv: gap tuzilishi, qoʻshma gaplardan foydalanish, bogʻlovchilar tizimi.

-pragmatik kuzatuv: murojaat formullari, diskurs markerlari, javob berish uslublari.

Idiolekt sotsiolingvistika va psixolingvistika doiralarida ham muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxsning nutqi oʻziga xos “lingvistik barmoq izi” sifatida baholanadi. Shu bois, lingvistika amaliyotida matn muallifligini aniqlashda idiolekt belgilari diagnostik vosita sifatida keng qoʻllaniladi [4,48].

Idiostil muallifning badiiy ijodida doimiy tarzda namoyon boʻladigan stilistik tizimni anglatadi. V.V. Vinogradov bu tushunchani ilmiy muomalaga olib kirgan va “Yozuvchining idiotili – bu uning barcha asarlarida takrorlanadigan leksik, grammatik va kompozitsion xususiyatlar toʻplamidir.” deya taʼkidlagan [1,57].

Idiostil muallifning poetik tafakkurini, obraz yaratishdagi oʻziga xosligini, janr arxitekturasidagi barqaror belgilarni qamrab oladi. Asosiy komponentlari quyidagilar: a) poetik vositalar tizimi: metafora, metonimiya, epitet, ironik ifodalar; b) kompozitsion qurilish: syujetda takroriy motivlar, leitmotiv, ritmik ohang; d) janr va nutq rejimlari: muallif nutqi va qahramon nutqi nisbatlari, polifoniya, intertekstuallik; e) leksik qatlam: soʻz boyligi, funksional-uslubiy qatlamlarning nisbatlari.

Idiostilni tadqiq etishda poetik-semantik yondashuv, stilistik tahlil hamda kompyuter-stilometriya usullari qo'llaniladi. Tadqiqotchi S.V. Chertusovanning qayd etishicha, "Tarjimada idiosotil nafaqat mazmunni, balki muallifning o'ziga xosligini tashkil etuvchi badiiy vositalar tizimini ham saqlashni talab qiladi." [6,112].

Har ikkala tushuncha o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular turli ilmiy kategoriyalarni anglatadi. Idiolekt shaxsiy nutqiy xususiyatlarga, idiostil esa muallifning badiiy ijodidagi uslubiy belgilariga qaratilgan. S.Medvedkova bu borada shunday yozadi: "Idiostil idiolektga qaraganda kengroqdir, chunki u nafaqat nutq odatlarini, balki muallifning ijodida mustahkamlangan badiiy uslublarni ham o'z ichiga oladi." [4,49]. Demak, idiolekt mikro darajadagi nutqiy odatlar majmuyi bo'lsa, idiostil makro darajadagi badiiy-uslubiy tizimdir.

Idiolekt va idiostilni tadqiq qilish bir qator sohalarda amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, tilshunoslikda shaxsiy nutqiy belgilarni aniqlash va tavsiflashda, adabiyotshunoslikda muallifning ijodiy uslubini o'rganish, ijodiy bosqichlarni taqqoslashda, tarjima nazariyasida muallifning idiostilini saqlash, qahramon idiolektini adekvat aks ettirishda, matn muallifligini ekspertiza qilishda hamda til madaniyatida nutqiy me'yori va shaxsiy odatlarni farqlashda muhimdir.

P.S.Panchenkoning yozishicha: "tarjimada muallif uslubi tarjimon uchun sinovdir, chunki u matn mazmunini saqlab qolgan holda idiostilni uzatishni talab qiladi." [7,27]. Shu jihatdan, idiostil va idiolektni chuqur o'rganish tarjimashunoslik va lingvopoetik tahlilda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, idiolekt va idiostil tushunchalari o'zaro yaqin, ammo turlicha darajadagi lingvistik hodisalarni ifodalaydi. Idiolekt shaxsning kundalik nutqiy individualligini belgilasa, idiostil muallifning badiiy uslubiy tizimini tashkil etadi. Ularni birgalikda o'rganish lingvopoetik tahlilning samaradorligini oshiradi, tarjima nazariyasida mualliflik uslubini saqlash imkonini beradi va lingvistika amaliyotida mualliflikni aniqlash uchun zarur manba sifatida xizmat qiladi. Demak, ushbu ikki tushuncha tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada joylashib, ilmiy tadqiqotlarda metodologik asos sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В.В.Виноградов. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980. – 360 с.
2. М.М.Бахтин. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986. – 445 с.
3. Большая российская энциклопедия. Ст. «Идиолект»: <https://bigenc.ru>.
4. Е.С.Медведкова. Идиостиль и идиолект автора исторического романа (на примере произведений В. И. Костылева) // Вестник научных публикаций. – 2016. – № 4. – С. 45-52.
5. Н.Е.Петрова. К уточнению понятий «идиолект» и «идиостиль» // Филологические науки. – 2022. – № 3. – С. 101-109.
6. С.В.Чертусова. Эраттологический аспект передачи идиолекта в художественном переводе // КиберЛенинка: <https://cyberleninka.ru>
7. P.S.Panchenko. Авторский стиль в переводе// Modern Science. – 2023. – № 5. – С. 23-29.

TARIXIY SIYOSIY MATNLARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Roʻziyev Elbek Oʻrol oʻgʻli
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
elbek_ruziyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oʻzbek tili tarixidagi siyosiy nutqqa oid boʻlgan matnlarning kommunikativ-paragmativ xususiyatlari tahliliga ahamiyat qaratilgan. Tarixiy siyosiy matnlarda ham barcha siyosiy matnlar kabi kommunikativ vositalar hamda maqsadlar ifodalangan holatda boʻladi. Matn yaratilar ekan albatta, uning taʼsir obyekti, maqsadi hamda kimga yoki nimaga qaratilganligi ochiqlanishi muhimdir. Shu asosda, maqolada qadimgi turkiy tildagi matnlar, temuriy hukmdorlar yorliqlari hamda farmonlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ochiqlangan.


Kalit soʻzlar: kommunikativ pragmatik xususiyatlar, siyosiy matn, turkiy matnlar, yorliqlar

Annotation. This article focuses on the analysis of the communicative-pragmatic features of texts related to political discourse in the history of the Uzbek language. Historical political texts, like all political texts, contain communicative means and goals. When creating a text, it is important to clarify its object of influence, purpose, and to whom or what it is addressed. Based on this, the article reveals the communicative-pragmatic features of texts in the ancient Turkic language, labels and decrees of the Timurid rulers.

Key words: communicative pragmatic features, political text, Turkish texts, yarlik.

Kommunikativ-pragmatik yondashuvning ham maqsadi aynan shunda ochiqlanadi. Bu boradagi tadqiqotlar ham tilshunosligimizda talaygina. Shunday tadqiqotlardan biri S.Barliboyevning “Oʻzbek tilidagi siyosiy matnlarda kommunikativ strategiya va taktika: lingvopragmatik yondashuv” nomli tadqiqotidir. Mazkur tadqiqotda oʻzbek tilidagi siyosiy matnlar misolida siyosiy muloqot jarayonida qoʻllaniladigan strategiya turlari, xususan, “oʻzini namayon qilish”, “obroʻsizlantirish”, “obroʻsizlantirishdan himoyalaniish” “ishontirish” orqali adresatlarga verbal, noverbal, media vositalar bilan maqsadli nutqiy taʼsir koʻrsatish xususiyatlari ochib berilgan³⁵. Biz ham tadqiqotimizning mazkur faslida tarixiy matnlar tarkibida uchrovchi siyosiy nutq shakllarining kommunikativ vazivalari hamda pragmatik yoʻnaltirganlik masalalarini ochiqlashni maqsad qildik.

Nutqiy kommunikatsiyalarning asosiy elementlarini tasvirlovchi model-R.Yakobson modeli³⁶ orqali ham ifodalash mumkin.



³⁵ Barliboyeva S. Oʻzbek tilidagi siyosiy matnlarda kommunikativ strategiya va taktika: lingvopragmatik yondashuv. Filol. f.f.d. (PhD) diss. – Toshkent, 2024.

³⁶ Batafsil bu yerda: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Функции_языка_\(Якобсон\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Функции_языка_(Якобсон))

1-rasm. Nutqiy kommunikatsiyaning Jakobson modeli

Ushbu model nutqiy kommunikatsiyaning tarkibiy qismlarini ko'rsatib berdi va keyingi filologik tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajardi hamda modelning qisqacha izohi quyidagicha hisoblanadi:

Adresant (addresser) – subyekt, ma'lumotni yuboruvchi,

Adresant (addressee) – subyekt, ma'lumotni qabul qiluvchi;

Xabar – qabul qiluvchiga yuborilgan ma'lumot;

Ko'rib chiqilayotgan kontekst – adresant kontekstni aniq idrok eta olishi lozim;

Kod – har ikkala tomon uchun tushunarli bo'lishi lozim, u ikki tomon uchun umumiy yoki qisman umumiy bo'lishi lozim;

Aloqa – ikki tomon qabul qiluvchi va yuboruvchi o'rtasida psixologik aloqa yoki jismoniy aloqaning mavjud shakli³⁷.

Tilning ijtimoiy hayot bilan munosabati masalasini o'rganuvchi sotsiolingvistika faniga oid adabiyotlarda adresant va adresat tushunchasi alohida, bir-birini bog'lovchi birliklar sifatida qaraladi. Mavjud adabiyotlarda ushbu tushunchalarga turlicha izohlar keltirilganini kuzatishimiz mumkin. "Sotsiolingvistik terminlar lug'ati"da bu tushunchalarga kommunikativ vaziyat jarayonlarida "adresat"–"tinglovchi", "adresant" – "so'zlovchi" sifatida izoh berilgan³⁸. Shu asosda, kommunikativ vaziyat tushunchasi psixolingvistika sohasidan o'zlashtirilgan bo'lib, u ikki yoki undan ortiq kishilar nutqiy

³⁷ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Функции языка \(Якобсон\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Функции_языка_(Якобсон))

³⁸ Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006. – 19 с.

muloqotidagi vaziyatni ifodalalar ekan³⁹, siyosiy nutq vaziyatida ham barcha kommunikativ qismlari muhim o‘ringa ega hisoblanadi. Chunchi, bu jarayonda muloqot faqat rasmiy yoki do‘stona yo aksincha, neytral bo‘lib qolmasdan o‘zgaruvchilik xususiyati bilan farqlanadi.

Siyosiy lingvistika nuqtai nazaridan siyosiy matn uning so‘zlovchisi va tinglovchi maqomi ham e‘tibor qaratishga arzigulik holatdir.

Tarixiy – siyosiy nutqda kommunikativ – pragmatik jarayonlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Adresatga yo‘naltirilganlik – nutq kimga yo‘naltirilayotganligi ya‘ni xalqqami, amaldorlargami, o‘zga davlat hukmdorlarigami (?) jihatlari muhimdir;

2. Nutqning qay maqsadda ifodalanayotganligi – bunda nutq nima maqsadda ifodalanmoqda, undan ko‘zlangan maqsad nimada ekanligi ochiqlanadi;

3. Uslub nuqtayi nazarlari – g‘oyaviy maqsadni ifodalashda qaysi uslub vositalaridan faol foydalanayotganligi.

Shu jihatdan qadimgi turkiy bitiktoshlar yoki Oltin O‘rda hamda Temuriy sultonlar yorliqlaridagi siyosiy nutq shakllarini kommunikati-pragmatik tahlilga tortish muhimdir.

Avvalo, adresatga yo‘naltirilganlik holati bo‘yicha bu nutqlar o‘zida ma‘lum aktlarni ifodalaydi. “Kul tigin” bitiktoshida ilk satrlari Bilga xoqonning quyidagi nutqi bilan boshlanadi: Täñri – tæg tññridä bulmuş türük Bilgä qağan bu ödkä olurtum. Sabimïn tükäti äsidgil: ulayu in[i] yägünüm, oğlanim, biriki, oğuşum, bodunum, biryä şadapit bäglär, yïrya tarqat, buyruq bäglär, otuz ... toquz oğuz bägläri, bodunï, bu sabimïn ädgüti äsid, qatïğdï tiñlä⁴⁰. Dastlabki jumlada Ko‘kday tangiridan inoyat topib bu taxtga o‘tirdim degan mazmun ochiqlanadi. Bu jumla xoqonning el-yurtga qarata aytilgan chaqrig‘i, murojaaaatining boshlanma qismidir. Ma‘lumki, “Kul tigin” bitiktoshidan o‘rin olgan so‘zlar uning akasi, yurtning xoqoni Bilga xoqon nomidan yangraydi. Yuqoridagi matnning adresati ya‘ni ma‘lumot yo‘nalturuvchisi “Sabimïn tükäti äsidgil” – so‘zimni tugal eshitgin

³⁹ Usmonova Sh., Bekmuxammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Universitet. – B. 35.

⁴⁰ Qadimgi toshbitiklar transkripsiyasi Q.Sodiqovning “Turkiy til tarixi” o‘quv qo‘llanmasidan olindi. – Toshkent: 2009.

tarzida ini, jiyanlariga (ulayu in[i] yägünüm), o‘g‘loniga (oğlanim), ittifoq, urug‘iga (oğuşum), xalqiga (bodunum), o‘ngidagi shadapit beklarga (biryä şadapit bäglär), chapdagi tarxanlarga (yïrya tarqat), to‘qqiz o‘g‘uz beklariga (toquz oğuz bägläri) murojaat yo‘llamoqda. Ilokutiv akt shakli qo‘llanilmoqda.

“Kul tigin” bitiktoshida Bilga xoqonning yana bir xalqqa chaqirig‘ini uchratamiz: Türük bäglär, bodun, bunï äsidiñ! Türük [bodunuğ ti]rip äl tutsuqïñin bunta urtum, yañilip üläsikiñin yämä bunta urtum [K 11] Näj näñ sabim ärsär, bängü taşqa urtum. Anjar körö biliñ, türük amtï bodun, bäglär, äb ödkä körügmä bäglär, güyañiltaçisiz [K]. Mazkur parchada so‘zlovchining g‘oyaviy maqsadlari, g‘oyaviy yuki ochiqlangan deyishimiz mumkin. Nutqda Bilga xoqon o‘z harakatlarining natijasini turk xalqini yagona xalq sifatida biruvlari maqsadlarni ifodalagan. Pragmatik ma‘no jihatidan xalqning shunday kunlarga kelishida u va inisi sarkarda Kul tiginning mehnatlarni qadrlamoq lozimligi ochiqlanmoqda. Bunday deyishimizga sabab – yodgorlikning keyingi qatorlarida Bilga xoqon va Kul tiginning harbiy yurishlari, yurt tuzganligi bayoni mufassal qayd qilingan.

Yodgorlikda Bilga xoqonning yana quyidagi jumlar bilan boshlanuvchi siyosiy nutqini uchratimiz: Türük bäglär, bodun, bunï äsidiñ! Üzä täñri basmasar, asra yär tilinmäsär, türük bodun, äliñin törüñin kim artatï ? (Turk o‘g‘uz beklari, xalqi eshiting! Yuqoridan osmon bosmasa, pastda yer yorilmasa, turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi?) [K 23]. Mazkur parchada xoqon ritorik savol vositasida xalqqa yuzlanmoqda. Bu jarayon zamonaviy siyosiy diskursiy nazariyalarda ommani jalb qilishning muhim shakli sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, N.Zamanov fikricha, ritorik savollar tinglovchining nutqqa bo‘lgan ta‘sirini kuchaytiradi, katta ma‘no va hissiy yuk yuklaydi⁴¹. Umuman olganda, Bilga xoqon nutqlarida el-yurtga murojaat shakllari ustuvor bo‘lib, bu nutqlarda vatanparvarlik, yurtparvarlik motivlari ustuvor hisoblanadi.

Adresant hamda adresat munosabati masalalari ya‘ni nutqiy kommunikatsiyaning shakliy ko‘rinishlari ayniqsa turkiy rasmiy yorliqlar matnida o‘ziga xos tarzda berilganining guvohi bo‘lamiz.

⁴¹ Заманов Н. Риторические вопросы в политической речи. Траекториâ Nauki = Path of Science. 2022. Vol. 8, N8

Dastlaki imtiyoz huquqini beruvchi Temuriy Shohruh mirzoning Talxan ota mozori mo'jovuriga bergan 1422-yildagi yorlig'i.

Temuriy hukmdorlarda Shohruh mirzoning turkiy tildagi yorliqlaridan faqatgina bittasi bizgacha yetib kelgan. Yorliq turkiy-uyg'ur xatida bitilgan. U Afg'onistonning Maymana degan joyidan topilgan. Uni professor E.Benvenist suratga tushirib qo'ygan hamda surat bo'yicha J. Deny matn transkripsiyasi hamda tarjimasini amalga oshirgan. Ushbu yorliq bo'yicha professor Qosimjon Sodiqovning maqolasida ham ancha mufassal ma'lumotlar berib o'tilgan.⁴² Bu maqolada yorliqning traskripsiyasi hozirgi o'zbek tilidagi tarjimasi hamda yorliq tarkibidagi lug'atlar izohlab chiqilgan.

Yorliqning matni: (1) Šähruh bahadur sözü (2) dīvānlarğa. Cečäktöbädä Tarnaq arıǵı(3) da Talxan atanıñ mujāvurıǵä bir (4) qoşluq altmıš kivi yer suyurǵal berildi. Luy yıldın başlap (5) ne kim häsilini Ut böri xanaqaǵa xarj qilsun. Kim ersä (6) mal tilämäsün, yasaǵ alpaǵ salmasun, küč-uǵa tegürmäsün, tep (7) beg niš(ā)n bermiš erdük. Burunǵı niš(ā)n yosuni bilä ud yıldın (8) başlap Ut böri, altmıš kivi yerni suyurǵal yosuni (9) birlä alıp (?) xanaqaǵa xarj qilsun-kim, kım ersä (10) mal tilämäsün, yasaǵ alpaǵ salmasun, küč-uǵa tegürmäsün. Basa (11) İsmāyil mujāvurnıñ ewi barını tartıp tonup almasun, (12) tep niš(ā)n berildi. Tarix sekiz yüz y(i)g(i)rmi beşidä ud yıl muharram (13) aynıñ y(i)g(i)rmi ikisidä Baǵı şaharda bitildi⁴³.

Yorliq matnining hozirgi o'zbek tiliga tarjimasi: Shahruh bahodur so'zim devonlarg'a Chechakto'bada, Tarnaq arig'ida Talxon ota mozorining mujovuliga bir qo'shluq oltmish kivi yer suyurg'ol berildi, luy (ajdar) yilidan boshlab nainki hosilni qaytarmaslik sharti bilan Ut bo'ri xanoqoga harj qilsin. Kimsa undan mol tilamasin, soliq solmasin, zo'ravonlik qilmasin deb beg-nishon bermish erdik. Bugungi nishonning yo'sini bilan sigir yildan boshlab (qaytarmaslik sharti bilan) Ut bo'ri olmish kivi yerni suyurg'ol yusuni birla, olib xonoqoga harj qilsinkim, kimsa undan mol tilamasin, soliq solmasin, zo'ravonlik qilmasin. Yana Ismoil

⁴² Sodiqov Q. Temuriylar davrida yaratilgan uyg'ur yozuvli yorliqlar. Sharq mash'ali jurnali 1/2014 son.

⁴³ Sodiqov Q. Ilk va o'rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar. – Toshkent: 2016 –B.

mujovurning uy-joyini mol-mulkini tortib olmasun deb nishon berildi. Tarix: sakkiz yuz yigirma beshida, sigir yili muharram oyining yigirma ikkisida (1422 yilning 16-yanvarida) Bog‘i shaharda bitildi.

O‘rta asrlarga, xususan temuriylar davriga kelib turkiy sab~saw o‘rnini söz kalimasi oladi va u ham istilohga aylanib hukmdorning so‘zi, farmoni, qarori ma’nolarini ifoda etadi. Yuqoridagi matndagi Šähruh bahadur sözüm jumlası ham aynan Shohruh mirzoga tegishli farmon ekanligini ifoda etadi. Bu o‘rında sözüm “mening so‘zim; yorlig‘im; farmonim; buyrug‘im” ma’nolarida keladi hamda u yoki bu yorliqning yurt egasiga tegishli ekani, unga qarashliligi, uning o‘z tilidan bitilayotgani, ya’ni uning nutqi ekanligini dalillaydi. Šähruh bahadur sözüm jumlası uchta komponentdan tuzilgan: xonning oti (Šähruh), unvoni (bahadur), farmonning unga tegishliligini anglatuvchi yorliq (sözüm). Bu atama, o‘z navbatida, sultonning siyosiy, rasmiy-diplomatik nutqini anglatadi. Ushbu yorliqdagi dīvānlarğa so‘zi yorliqning ijrosini ta’minlayotgan tashkilotlarga qarata yo‘naltirilmoqda. Buni quyidagicha shaklda berishimiz mumkin:

Šähruh bahadur sözüm (adresant) → dīvānlarğa (adresat)

Mazmun: umrbod foydalanish uchun yer berish haqida buyruq (illokutiv akt)

Adresat hamda adresant munosabati yuzaga chiqish asnosida matnda u jo‘nalish kelishligi shaklida ifodalangan. Bitikning asosiy qismni tashkil etgan ma’lum komponentga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Bundan avval berilgan suyurg‘olning imtiyoz va shart-sharoitlari. Bunga ko‘ra, Talxan ota mazoringa bir qo‘shluq oltmish kivi yer suyurg‘al berilib, luy (ajdar) yildan boshlab naikim hosilini qaytarmaslik sharti bilan xonoqoga harj qilishi, hech kimsa undan mol-mulk qistamasligi, soliq solmasligi, zo‘ravonlik qilmasligi beklik nishonida qayd etilgan. Matnda ushbu jumlanı ifodalovchi jumlaning kesimi o‘tgan zamonda (bermiş erdük).

Yorliqdagi ayrim so‘zlarning izohli lug‘atini ham keltirib o‘tsak. Bu lug‘atlar yorliq matnini yanada yaxshi o‘rganishimiz uchun muhimdir:

| | | | |
|---------------------------|------------------------------|---------------------------|------------------------------|
| Yorliq matnida | Hozirgi tilimizda | Yorliq matnida | Hozirgi tilimizda |
|---------------------------|------------------------------|---------------------------|------------------------------|

| | | | |
|-------------|--------------------------------------|------------|---------------------|
| Müjavur | Maqbaraga qarab turuvchi kimsa | Ud yil | Sigir yili |
| Luy yil | Turk muchal yili bo'yicha ajdar yili | Yosun | Qonun qoida, yo'sun |
| Yasağ alpağ | Soliq turi | Küç-uğa | Zulm, zo'raonlik |
| Beg nişan | Beklik yorlig'i | Ewi barini | Uy-joyi |

Ushbu so'zlarning ko'pchiligi bugungi kunimizda faol muloqotimizda saqlanib qolmagan shuning uchun ularni alohida lug'at shaklida o'rganish muhimdir.

Shuningdek, bu kabi kommunikativ munosabatlarning ifodasini Oltin O'rd a hukmdorlarining turkiy yorliqlarida ham uchratishimiz mumkin. Ularda ifodalangan siyosiy nutqlari turkiy hukmdorlarning siyosiy yetakchilik xususiyatlari hamda rasmiy hujjatchilik uslubining nechog'lik mukammal ekanligini ko'rsatadi. Quyida ayrim yorliqlar matning kommunikativ-pragmatik jihatlarini qisqacha jadval tarzida ko'rsatib o'tmoqchimiz.

| Yorliq nomi | Adresatga yo'naltirilganligi | Qanday maqsadga yo'naltirilganligi | Nuqtaiy akti | Diskursiy strategiyasi | Uslub |
|----------------------------------|---|------------------------------------|-----------------------|---|--------------|
| Sulton Umarshayx yorlig'i | dīvānlarğa, barča tüşämäl amaldār, sāhib čamlariğa (Devonlarga, barcha soliq idorasi boshliqlariga) | Soliqlardan ozod qilish | Bu yruq dir ektiv akt | Alohida hurmatga ega qatlamga imtiyoz berish orqali hokimiyatni mustahkamlash | Rasmiy uslub |
| To'xtamis hxon | Yağayla Yag'ayla | Xirojlarni undirish, savdo | dir ektiv | O'z pozitsiyasini | |

| yorlig'i | (Polyak qiroli) | munosabatlarini mustahkamlash | akt | haqqoniy ko'rsatish |
|-------------------------------|--|---|---------------------|--|
| Temur Qutlug' yorlig'i | O'ng qo'l, so'l qo'l, o'g'lonlariga Tuman, yuz, o'ng ming beklariga, muftilar, mashoyix, so'fiy, devon kotiblari, tamg'achi, soliq yig'uvchi, ish yurituvchi, yo'l soqchilari, bakovul, tutqavullarga, xat tashuvchi, bekat nozirlari, qushchi, barschi, ko'prikchi, bozor boshliqlariga | Tarxonlik ma'lum imtiyozga egalik yorlig'ini berish | dir ektiv akt | Tarxonlik berish orqali yaxshi insonlarni ulug'lash, yaxshiliklarni munosib rag'batlantirish |

2-rasm


Rasmiy davlatlar o'rtasidagi salām bitiklarda ham nutqiy kommunikatsiya munosabatini uchratishimiz mumkin. Bu hujjatlarda ham hukmdorlar nutqi ikki jihat bilan farqlanadi ya'ni:

- 1) qaram yurt egalariga yo'llagan nomalari;
- 2) o'zaro teng munosabatdagi hukmdorlarga yo'llangan nomalar.

Diplomatik nutqda adresatga nisbatan turli stereotip birliklar, o'rni bilan badiiy nutq elementlaridan ham foydalaniladi. Jumladan o'rta asrlarning diplomatik

hujjatlarida o‘ziga qaram kishilarga, qaram yurt egalariga nisbatan *ini-oyulluq, xidmatkārliq*, yaqinlik ma’nosida *dostluq, qarindašliq* birikmalari ishlatilgan⁴⁴.

O‘zaro teng munosabatdagi hukmdorlarga yo‘llagan maktublarga Oltin O‘rda xonlaridan Ulug‘ Muhammad xonning usmonli II Murodga yo‘llagan xatini misol qilib keltirishimiz mumkin. Uni kommunikativ-pragmatik jihatdan quyidagi sxema orqali ifodalasak:



Maktubning to‘liq holatini bermadik, yuqoridagi chizmaga sharh berib ketsak, salām bitik yo‘llayotgan hukmdorning nutqida pragmatik maqsadlar ifodalangan va bu maqsadlarni amalga oshirishda nutqiy kommunikatsiyadan munosib foydalangan: ğazi Murādqa, biz, sizniĝ kabi so‘zlar muloqotning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan hamda mavjud rasmiy-diplomatik tamoyilarga amal qilingan.

Fikrimizni muxtasar qilgan holda shuni aytish o‘rinliki, tarixiy matnlardagi siyosiy nutqlarda ham kommunikativ-pragmatik munosabatlar o‘ziga xos tarzda shakllangan hamda pragmatik maqsad ustuvorligi, hukmdorning xalqni, amaldorlarni boshqarish strategiyalari o‘z nutqlarida doimo yorqin aks etib turgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barliboyeva S. O‘zbek tilidagi siyosiy matnlarda kommunikativ strategiya va taktika: lingvopragmatik yondashuv. Filol. f.f.d. (PhD) diss. – Toshkent, 2024.

⁴⁴ Sodiqov Q. Eski o‘zbek yozma adabiy tili. –Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 536.

2. Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006. 19 с.
3. Usmonova Sh., Bekmuhammedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Universitet. – B. 35
4. Заманов Н. Риторические вопросы в политической речи. Траекториâ Nauki = Path of Science. 2022. Vol. 8, N8
5. Sodiqov Q. Temuriylar davrida yaratilgan uyg‘ur yozuvli yorliqlar. Sharq mash‘ali jurnali 1/2014 son.
6. Sodiqov Q. Ilk va o‘rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar. – Toshkent: 2016
7. Sodiqov Q. Eski o‘zbek yozma adabiy tili. –Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 536.
8. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Функции языка \(Якобсон\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Функции_языка_(Якобсон))

O‘ZBEK TILI FONOLOGIYASIDA URG‘UNI MODELLASHTIRISH

*Maxmudjonova Gulshaxnoz Ulug‘bek qizi,
gulshaxnozmahmudjonova@gmail.com
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilining urg‘u tizimi fonologik va prosodik birlik sifatida tahlil qilinadi. Urg‘uning fonetik mohiyati, uning so‘z va gap darajasida bajaradigan vazifalari, shuningdek, dinamik va statik urg‘u tizimlari o‘rtasidagi farqlar yoritiladi. Urg‘uning nutq madaniyati, lug‘atchilik va o‘zlashma so‘zlar talaffuzidagi o‘rni ko‘rsatilib, mavjud muammolar ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, maqolada urg‘uni kompyuter lingvistikasida, xususan, G2P (Grapheme-to-Phoneme) modellarida modellashtirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: orfoepiya, urg‘u, avtomatlashtirish, nutq sintezi, grafema fonema, korpuslar.

Abstract. The article analyzes the stress system of the Uzbek language as a phonological and prosodic unit. The phonetic nature of stress, its functions at the word and sentence levels, as well as the differences between dynamic and static stress systems are examined. The role of stress in speech culture, lexicography, and the pronunciation of loanwords is highlighted, and existing problems are scientifically substantiated. In addition, the article discusses the issues of modeling stress in computational linguistics, particularly in Grapheme-to-Phoneme (G2P) models.

Keywords: orthoepy, stress, automation, speech synthesis, grapheme-to-phoneme, corpora

Til birliklarining shakli – nutq tovushlaridan iborat bo‘lib, yozuv ularga nisbatan ikkilamchi, **qayd etuvchi** tabiatga ega. Shu sababli urg‘u kabi prosodik hodisalar faqat **talaffuz jarayonida** voqelanadi va segmentlardan (unli-undosh) yuqori darajadagi supersegment qatlamda idrok qilinadi [1]. Urg‘u (aksent) – bu so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan ajralib, zarb bilan talaffuz qilinishi. Tilshunoslikda urg‘u muayyan tilning fonetik-fonologik tizimidagi supersegment birlik deb qaraladi, ya’ni urg‘u segment (fonema)lardan katta birlik – bo‘g‘in yoki so‘z darajasida namoyon bo‘ladi. Prosodik birlik sifatida urg‘u nafaqat so‘z ichida, balki gap yoki sintagma doirasida ham ahamiyat kasb etadi: so‘z urg‘usi alohida leksik birlikning urg‘u olishini anglatsa, gap (mantiqiy) urg‘usi gap tarkibidagi muhim bo‘lakning intonatsion ta’kidlanishini bildiradi. Urg‘uning quyidagi vazifalari bor [2]:

**Urgʻu
vazifalari**

Konstitutiv – fonema birikuvini taminlaydi

Distinktiv – soʻz va morfemalarning maʼnosini farqlaydi

Delimitativ – soʻzlar, sintagma va frazalarning chegarasini belgilaydi

Rekognitiv – urgʻu oʻrniga qarab birlikni tanib oladi

Urgʻu – fizik-akustik nuqtai nazardan turli parametrlar orqali ifodalanadigan hodisa. Asosiy akustik koʻrsatkichlar quyidagilar: ovoz chastotasi (toni yoki pitch), davomiylik (unli tovushning choʻzilishi) va intensivlik (kuch, yaʼni ovoz balandligi) Bu omillar kombinatsiyasi urgʻu tushgan boʻgʻinni boshqa boʻgʻinlardan farqlash imkonini beradi. Har bir til va hatto ayrim hollarda har bir urgʻu turi uchun bu parametrlarning roli turlicha boʻlishi mumkin [3]. Urgʻu tushgan boʻgʻinda intensivlik oshgan, unli tovush biroz uzunroq davom etgan, va baʼzi hollarda ohang koʻtarilishi yoki tushishi kuzatilgan (lekin bu intonatsion kontekstga bogʻliq). Shu uch omil kombinatsiyasi orqali eshituvchi urgʻuli boʻgʻinni sezadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, oʻzbek tilida urgʻu nisbatan “yumshoq” boʻlgani sababli, uning akustik farqlari boshqa urgʻuli tillarga qaraganda kamroq boʻladi. Ingliz yoki rus tilida bir xil soʻzni notoʻgʻri urgʻu bilan aytish tushunarsiz tuyulishi mumkin boʻlsa, oʻzbek tilida urgʻu xatoligi unchalik keskin qabul qilinmasligi mumkin – negaki urgʻu semantik farqlash hollari oz va akustik farq kamroq. Shunga qaramay, nutq tabiiyligi va ravonligi uchun toʻgʻri urgʻu muhim rol oʻynaydi. Urgʻuning soʻz oxiriga tushishi qoidasi aksariyat oʻzbekcha soʻzlar (tub soʻzlar) uchun toʻgʻri keladi. Lekin oʻzbek tilida baʼzi istisno holatlar ham mavjud boʻlib, bu lugʻaviy yoki grammatik sabablar bilan bogʻliq. Urgʻu nafaqat prosodik birlik, balki ayrim hollarda fonologik birlik – aksentema sifatida ham izohlanadi. Bu xususiyat, asosan, dinamik urgʻu tizimiga ega tillarga xos boʻlib, unda urgʻu joylashuvi soʻz maʼnosini farqlashda faol

ishtirok etadi. Statik urg‘u tizimiga ega tillarda esa, jumladan, o‘zbek tilida, urg‘u odatda so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi va muntazam semantik farqlash belgisi sifatida qaralishi qiyin. Biroq, ayrim istisno holatlarda urg‘u ham ma’no farqlash funksiyasini bajarishi mumkin. O‘zbek tilida rus tilidan kirib kelgan átlas (mato) va atlás (xaritalar to‘plami), shuningdek, sifatlarning ravishga ko‘chishi jarayonida yángi (sifat) va yangí (ravish) misollari dalil bo‘la oladi [4].

O‘zlashma so‘zlar, xususan, rus va boshqa Yevropa tillaridan kirib kelgan birliklar, o‘zbek urg‘u tizimiga to‘liq moslashib ketmagan. Rus tili erkin urg‘uli til bo‘lib, so‘z urg‘usi har qanday bo‘g‘inga tushishi mumkin va grammatik shakllar orasida ko‘chishi mumkin. O‘zbek tiliga o‘zlashgan ba’zi ruscha so‘zlar asl urg‘usini saqlagan holda ishlatiladi, natijada bu so‘zlarda urg‘u oxirgi bo‘g‘inda emas. Masalan, rúchka (ruscha rúchka “ruchka” – qalam) so‘zi ko‘pincha birinchi bo‘g‘inda urg‘u bilan talaffuz qilinadi, gazéta (ruscha gazéta – gazeta) so‘zida urg‘u o‘rtadagi -ze- bo‘g‘inida eshitiladi. Shuningdek, káfe (kafe) kabi bir necha bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarda ham asl tildagi urg‘u saqlanishi mumkin.

Grafema-fonema (G2P) modeli grafema (yozma belgilar) va fonema (talaffuz birliklari) o‘rtasidagi moslikni aniqlashga asoslanadi. O‘zbek tilining morfofonologik xususiyatlari, urg‘u tizimi, fonetik o‘zgarishlar modelining asosiy elementlari hisoblanadi. G2P modeli ishlab chiqish tilshunoslikning amaliy masalalaridan biri bo‘lib, yozma matnni og‘zaki nutqqa aylantirish jarayonida ishlatiladi [5]. O‘zbek tilida G2P masalasiga kelsak, har bir so‘zning fonematik transkripsiyasini tuzishda urg‘u o‘rnini ham aniqlash talab etiladi. Chunki fonetik transkripsiyada urg‘uli bo‘g‘in belgilanishi lozim. Bu esa modelini yanada murakkablashtiradi: nafaqat har bir harfga mos tovush topish, balki qaysi bo‘g‘in urg‘uli ekanini ham hal qilish kerak. Urg‘u aniqlash muammolari quyidagilarda ko‘rinadi: Orfografiyada urg‘uning belgilanmasligi: o‘zbek yozuvida urg‘u belgilari yoki diakritikasi yo‘q. Ya’ni, so‘z ichida qaysi bo‘g‘in urg‘uli ekanini imlo darajasida ko‘rib bo‘lmaydi (rus tilidagi lug‘atlardagi kabi maxsus belgi qo‘yilmaydi). Demak, G2P algoritmi so‘z tarkibiga qarab o‘zi urg‘u o‘rnini “tushunishi” kerak. Istisno holatlar va erkin urg‘u unsurlari: Yuqorida aytilganidek,

o‘zbek tilida urg‘u asosan oxirgi bo‘g‘inda, lekin bundan chetga chiqadigan so‘zlar yoki affikslar mavjud. Masalan, hamma so‘zini odatdagi qoidaga binoan transkripsiya qilsak [hammá] bo‘lib noto‘g‘ri bo‘ladi, to‘g‘risi [hámma]. Yoki ruchka so‘zini [ruchká] deb emas, [rúchka] deb talaffuz qilinadi. Demak, modelga istisno so‘zlar ro‘yxati yoki ularni aniqlash qoidalari kerak bo‘ladi. Urg‘usiz affikslar masalasi: -mi, -chi, -ku kabi yuklamalar va ba‘zi qo‘shimchalar so‘z oxirida kelsa ham urg‘u tushmaydi. Model matndagi so‘z chegaralarini va qo‘shimchalarni to‘g‘ri ajratmasa, u har bir yozuvni bir butun so‘z deb qabul qilib, oxirgi bo‘g‘inga urg‘u qo‘yishi mumkin. Masalan, “ketdingmi” so‘zini model [ketdingmí] kabi noto‘g‘ri natija berishi ehtimoli bor. To‘g‘ri talaffuz esa [ketdínɡmi] – ya‘ni urg‘u fe‘lning o‘zida qoladi, -mi esa urg‘usiz. Demak, model yordamchi affikslarni taniy olishi kerak. Ma‘lumot (dataset) cheklovlari: o‘zbek tilida keng ommada foydalanish uchun ochiq fonetik lug‘atlar va transkripsiyalangan korpuslar yo‘q, lekin lug‘atlar bor. G2P modellarni o‘rgatish uchun ko‘p miqdorda so‘z → talaffuz juftliklari kerak bo‘ladi. Bunday resurslar cheklangani tufayli, model urg‘u qoidasini o‘zi aniqlay olmaydi.

O‘zbek tilidagi urg‘u tizimini ilmiy asosda modellashtirish turli amaliy sohalarida qo‘l keladi. Quyida shunday qo‘llanilishlardan muhim uch tasiga to‘xtalamiz:

Matnni ovozga aylantirish (TTS – Text-To-Speech): TTS texnologiyasida matndagi har bir so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish va tabiiy ohangda o‘qish uchun urg‘u juda muhim. Agar TTS sistemasida urg‘u noto‘g‘ri qo‘yilsa, hosil bo‘lgan nutq g‘aliz va notabiiy eshitiladi. Masalan, “men kitóbní o‘qidim” o‘rniga “men kítoɓni o‘qidím” tarzida urg‘u chalkash berilsa, gap tushunarli bo‘lsa-da, tabiiy jaranglamaydi. O‘zbek tilida so‘z urg‘usi, ayniqsa intonatsiya va ritmga ta‘sir qiladi – TTS tizimi to‘g‘ri urg‘u qo‘yilsa, so‘z ohangi tabiiy chiqadi.

So‘z yasalishi modeli va morfologik tahlil: urg‘u, garchi ma‘no o‘zgartirishda ko‘p ishtirok etmasa-da, morfologik tuzilmani aks ettirishda ahamiyatli. Qo‘shimchalar qo‘shilganda urg‘uning ko‘chishi – bu morfologik jarayonning fonologik ko‘rinishidir. Morfologik analizatorlar va generativ modellar (masalan,

soʻz turini va grammatik formasini aniqlovchi dasturlar) urgʻudan ham foydalansa boʻladi. Misol uchun, murakkab soʻzdagi yordamchi urgʻularni aniqlab, uni ikki komponentga ajratish mumkin. Yoki aksincha, morfologik tuzilmani bilgan holda TTSDa urgʻuni toʻgʻri taqsimlash mumkin. Soʻz yasalishi modeli deganda generativ grammatika yoki kompyuterda soʻz shakllantirish jarayonini tushunadigan tizimni nazarda tutish mumkin – bunday tizimlarga urgʻu qoidalari ham qoʻshilsa, yanada toʻliq boʻladi.

Taʼlim ilovalari va nutqni oʻrgatish: ona tilida ravon va meʼyoriy nutqni oʻrgatishda urgʻuni toʻgʻri qoʻyish alohida ahamiyatga ega. Maxsus taʼlim ilovalari (mobil dasturlar) orqali foydalanuvchi soʻzlarning talaffuzini mashq qilishi mumkin, bunda dastur foydalanuvchi talaffuzidagi urgʻuni tekshiradi va tahlil qiladi. Buning uchun, albatta, dastur ichida maqsad (toʻgʻri) urgʻu modeli boʻlishi kerak. Masalan, talaffuzni baholovchi AI dasturlarida (Duolingo kabi ilovalarning tarkibiy qismi sifatida) foydalanuvchi “олма” soʻzini toʻgʻri urgʻu bilan talaffuz qilish imkoniyatiga ega boʻladi. Bundan tashqari, xorijliklar uchun oʻzbek tilini oʻrgatishda urgʻu qoidalarini interaktiv oʻrgatish lozim boʻladi – bu ham aynan modellashtirilgan qoidalar bazasiga tayanadi. Nutqni aniqlash (ASR) sohasida ham urgʻu modellaridan foydalanish ehtimoli bor: masalan, gapni matnga aylantirishda, agar model prosodiyani ham inobatga olsa, tinish belgilari yoki ayrim noaniq qismlarni yechishda yordam beradi (garchi ASRda urgʻu kamroq rol oʻynasa-da, gap ohangini tushunishda muhim).

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, oʻzbek tilidagi urgʻu tizimi albatta fonologik jihatdan soddagina tuyulsa-da, uni chuqur tadqiq etish va formal modellashtirish nafaqat lingvistika nazariyasi balki amaliy axborot texnologiyalari uchun ham muhimdir. Bugungi kunda til texnologiyalari jadal rivojlanar ekan, har bir tilning oʻz nozik jihatlari – urgʻu kabi xususiyatlarini – eʼtibordan chetda qoldirmaslik kerak. Oʻzbek tilining urgʻu qoidalarini kompyuter modelida toʻgʻri aks ettirish orqali sifatli ovoz sintezi, aniq talaffuzga oid dasturlar va boy lingvistik manbalar yaratilishiga erishamiz. Bu esa oʻz navbatida, oʻzbek tilini raqamlashtirishda va tilimizning zamonaviy axborot asrida toʻlaqonli ishtirokini taʼminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013.
2. Nabiyeva, D. A., & Zokirova, H. R. O‘zbek tili fonetikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Andijon, 2016.
3. Abdullayeva D. T. Peculiarities of English, Uzbek and Russian Languages Phonological Systems. Web of Semantic: Universal Journal of Education 2(3), 2023
4. Jamolxonov, H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.
5. Maxmudjonova, G. U. O‘zbek tilida grafema-fonema (G2P) modeli yaratishning amaliy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani “Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi”. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179399>

O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

Usmonova Umidaxon Hamzaxon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
Usmonovaumida95@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning nazariy asoslari, shakllanish omillari, semantik xususiyatlari hamda lingvomadaniy mazmuni qiyosiy tahlil etilgan. Frazeologizmlarning xalq tafakkuridagi o‘rni, milliy qadriyatlarni ifodalashdagi ahamiyati, umumiy va farqli jihatlari misollar yordamida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada uch tildagi frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan hamda ularning millatlararo muloqot va madaniy tafovutlarni ochib berishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, idiom, semantika, lingvomadaniyat, o‘zbek tili, rus tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil.

Annotation. This article provides a comparative analysis of phraseological units in Uzbek, Russian, and English. It examines their theoretical foundations,

formation factors, semantic features, and linguocultural significance. The role of phraseological expressions in reflecting national mentality, cultural values, and worldview is highlighted through examples. Furthermore, the paper analyzes the similarities and differences among the three languages and emphasizes the importance of phraseology in intercultural communication and in revealing cultural distinctions.

Keywords: phraseology, phraseological unit, idiom, semantics, linguoculture, Uzbek language, Russian language, English language, comparative analysis.

Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, u xalqning milliy dunyoqarashi, madaniyati va tarixiy tajribasini o'zida mujassamlashtiradi. Frazeologik birliklar tilning badiiy-estetik boyligini namoyon etish bilan birga, xalq ruhiyatini, milliy tafakkurni va madaniy qadriyatlarni ham ifodalaydi. Bugungi kunda o'zbek, rus va ingliz tillarida frazeologik birliklarning shakllanishi, semantik xususiyatlari hamda lingvomadaniy mazmunini qiyosiy tahlil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada uch tilda frazeologik birliklarning nazariy asoslari, shakllanish omillari, semantik talqini va lingvomadaniy ahamiyati tahlil qilinadi.

Frazeologik birlik – semantik jihatdan yaxlit, grammatik jihatdan barqaror bo'lgan, tarkibiy qismlari ko'pincha o'z mustaqil ma'nosini yo'qotgan til birligidir. Ular milliy-madaniy konnotatsiyani o'zida mujassamlashtiradi va xalq tafakkurining ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda frazeologiya masalalari V. V. Vinogradov, A. V. Kunin, Sh. Rahmatullayev, M. Jo'rayev, N. Amosova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda frazeologik birliklar odatda quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Frazeologik chatishmalar (idiomalar) – tarkibiy qismlari o'z mustaqil ma'nosini butunlay yo'qotgan barqaror iboralar.
2. Frazeologik birikmalar – semantik jihatdan qisman bog'langan, lekin tarkibiy qismlari mustaqil ma'noni ham saqlab qolgan iboralar.
3. Frazeologik iboralar – tilda keng qo'llanadigan, obrazli ma'no ifodalovchi so'z birikmalari.

O‘zbek tilidagi frazeologizmlar xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, milliy madaniyat, qadriyat va urf-odatlarini aks ettiradi. Masalan: “*Ko‘ngli tog‘dek*” – saxiy, bag‘rikeng; “*Qora kun*” – og‘ir ahvol; “*Oq yo‘l tilamoq*” – ezgu niyat bildirish. Bunday frazeologizmlar xalqning ma‘naviy hayoti, diniy qarashlari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas aloqador. Sh. Rahmatullayev, A. Madvaliyev va boshqa olimlarning izlanishlarida o‘zbek frazeologiyasining leksik-semantik xususiyatlari, barqarorlik darajasi hamda uslubiy imkoniyatlari chuqur tadqiq etilgan.

Rus tilida frazeologizmlar ko‘pincha xalq maqollari, bibliik matnlar va tarixiy manbalar asosida shakllangan. Masalan: “*Сесть в лужу*” – noqulay ahvolga tushmoq; “*Душа нараспаику*” – ochiqko‘ngil; “*Как две капли воды*” – bir xil, juda o‘xshash.

Rus frazeologiyasining ilmiy asoslarini V. V. Vinogradov ishlab chiqqan bo‘lib, uning tasnifi frazeologizmlarni nazariy jihatdan o‘rganishda asosiy metodologiya sifatida tan olingan. Rus tilidagi frazeologik birliklar obrazlilik va metaforiklikka boy bo‘lib, xalq psixologiyasi va dunyoqarashini yorqin ifodalaydi.

Ingliz tili frazeologik boylikka ega bo‘lib, undagi iboralar asosan kundalik turmush, diniy an‘analar va tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq holda shakllangan. Masalan: “*Kick the bucket*” – vafot etmoq; “*Break the ice*” – muloqotni boshlamoq; “*Under the weather*” – o‘zini yomon his qilmoq.

Ingliz tilidagi frazeologizmlar ko‘pincha idiom sifatida qaraladi va ular turli o‘quv qo‘llanmalar hamda lug‘atlarda keng tahlil qilingan (masalan, A. V. Kunin, Longman Idioms Dictionary). Ingliz frazeologiyasi xalqning amaliy hayot tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va pragmatik tafakkurini yoritib beradi.

Frazeologik birliklar uch tilda ham xalq dunyoqarashini ifoda etuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular orqali millatlarning ijtimoiy hayoti, ma‘naviy qadriyatlari, urf-odatlari va tarixiy tajribasi aks etadi. Umuman olganda, o‘zbek, rus va ingliz tillari frazeologiyasining bir qancha **umumiyliklari** mavjud. Avvalo, frazeologik birliklarning aksariyati metaforik xarakterga ega. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Yuragi tog‘dek*” iborasi jasorat va kuch-qudratni ifodalasa, rus tilida

“Сердце камень” (yuragi tosh) iborasi shafqatsizlikni anglatadi, ingliz tilidagi “Heart of gold” esa mehribon, saxovatli odamni ta’riflashda ishlatiladi. Ko‘rinib turibdiki, har uch tilda ham insonning ichki dunyosini tasvirlashda yurak obrazidan foydalaniladi, biroq ma’no nuanslari turlicha talqin qilinadi. Yana bir umumiylik shundaki, frazeologizmlar shakllanishida inson faoliyati, tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot bevosita manba bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Oq yo‘l” iborasi yaxshi tilakni anglatadi, rus tilida “Светлое будущее” (yorug‘ kelajak) kelajak haqidagi ezgu orzularni ifodalaydi, ingliz tilida esa “Bright future” xuddi shunday ma’noni bildiradi. Ushbu o‘xshashliklar millatlarning bir-biridan uzoqda rivojlangan bo‘lsa-da, umumiy insoniy qadriyatlarga asoslanishini ko‘rsatadi.

Biroq, uch tildagi frazeologik birliklar o‘ziga xos **farqlarga** ham ega. O‘zbek tilidagi iboralar ko‘pincha milliy qadriyatlar, urf-odatlar va diniy tushunchalar bilan bog‘liq. Masalan, “Ko‘ngli oq” iborasi halollik va poklikni ifodalaydi, bu esa islomiy qarashlar bilan hamohangdir. Rus tilida esa tarixiy voqealar va xristianlik an’analari frazeologiyaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “He мытьём, так катаньем” (bir yo‘l bo‘lmasa, boshqa yo‘l bilan) iborasi xalqning tarixiy sabr-toqatini va qat’iyatini ifodalaydi. Ingliz tilidagi frazeologizmlar esa ko‘proq kundalik turmushga, amaliy faoliyatga va pragmatik tafakkurga tayanadi. Masalan, “Time is money” iborasi ingliz xalqining hayotiy tajribasida vaqtning qadrlanishi va uni iqtisodiy resurs sifatida ko‘rishga asoslangan. Shu tariqa, uchala tilda ham frazeologizmlar xalq tafakkuri va madaniyatini ifodalashda o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning milliy, diniy va tarixiy manbalarga asoslanishi har bir tilning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Demak, frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinganda, ular bir tomondan umumiy insoniy qadriyatlarni, ikkinchi tomondan esa milliy madaniy rang-baranglikni ochib beradi.

| Til | Frazeologizm | So‘zma-so‘z tarjimasi | Ma’nosi / Izohi |
|---------------|-----------------------|------------------------------|------------------------|
| O‘zbek | <i>Yuragi tog‘dek</i> | Yuragi tog‘dek | Jasur, qo‘rqmas |
| Rus | <i>Сердце камень</i> | Yuragi tosh | Shafqatsiz, |

| | | | |
|---------------|----------------------------|------------------|-------------------------------|
| | | | rahmsiz |
| Ingliz | <i>Heart of gold</i> | Oltin yurak | Mehribon, saxiy |
| O‘zbek | <i>Oq yo‘l</i> | Oq yo‘l | Ezgu tilak, yaxshi niyat |
| Rus | <i>Светлое будущее</i> | Yorug‘ kelajak | Ezgu orzular, umid |
| Ingliz | <i>Bright future</i> | Yorqin kelajak | Ezgu orzular, umid |
| O‘zbek | <i>Ko‘ngli oq</i> | Oq ko‘ngil | Halol, pokiza inson |
| Rus | <i>Чистая совесть</i> | Toza vijdon | Vijdonli, halol |
| Ingliz | <i>Clear conscience</i> | Toza vijdon | Vijdoni pok bo‘lish |
| O‘zbek | <i>Tilini tishlamoq</i> | Tilini tishlamoq | O‘zini tiyish, gapirmaslik |
| Rus | <i>Прикусить язык</i> | Tilini tishlash | Gapirmaslik, jim bo‘lish |
| Ingliz | <i>Bite one’s tongue</i> | Tilini tishlash | Gapirmaslik, jim turish |
| O‘zbek | <i>Qora kun</i> | Qora kun | Og‘ir ahvol, musibat |
| Rus | <i>Тёмные времена</i> | Qorong‘u zamon | Musibatli davr |
| Ingliz | <i>Dark days</i> | Qorong‘u kunlar | Qiyin, musibatli davr |
| O‘zbek | <i>Qo‘li ochiq</i> | Qo‘li ochiq | Saxiy, mehmondo‘st |
| Rus | <i>Щедрая душа</i> | Saxiy qalb | Ochiq qo‘l, saxiy |

| | | | |
|---------------|--------------------|-------------|-----------------|
| Ingliz | <i>Open-handed</i> | Qo‘li ochiq | Saxiy, ehsonkor |
|---------------|--------------------|-------------|-----------------|

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar bir qator jihatlardan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning semantik talqinida milliy-madaniy xususiyatlar yaqqol seziladi. Masalan, *“Tilini tishlamoq”* (o‘zbekcha), *“Прикусить язык”* (ruscha) va *“Bite one’s tongue”* (inglizcha) iboralari bir xil metafora asosida shakllanib, “jim bo‘lish” ma’nosini bildiradi. Bu holat uch tilda ham ayrim frazeologizmlar xalq tafakkuridagi umumiy mantiqiy asosga tayanib yaratilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ayrim iboralarning ma’nosi tubdan farqlanishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida *“Yuragi tog‘dek”* jasorat va qat’iyatni ifodalasa, rus tilidagi *“Сердце камень”* iborasi rahmsizlik va shafqatsizlikni anglatadi. Ingliz tilidagi *“Heart of gold”* esa butunlay boshqa semantik mazmun kasb etib, mehribonlik va saxiylikni ifodalaydi. Bu misol shuni ko‘rsatadiki, bir xil obraz – “yurak” uch tilda turli xil emotsional va semantik ranglarda qo‘llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, *“Qora kun”* (o‘zbek), *“Тёмные времена”* (rus), *“Dark days”* (ingliz) kabi iboralar xalqning og‘ir ahvol yoki musibatli davrni ifodalash uchun ishlatadigan umumiy metaforasiga asoslanadi. Ularning deyarli bir xil shaklda mavjudligi xalqaro muloqotda tushunishni osonlashtiradi. Ammo *“Time is money”* kabi inglizcha iboralar pragmatik tafakkur va iqtisodiy qadriyatlarga asoslanganligi bois o‘zbek va rus tillarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti yo‘q. Demak, frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular bir tomondan insoniyatga xos umumiy dunyoqarash va qadriyatlarni ifodalasa, ikkinchi tomondan milliy mentalitet, tarixiy taraqqiyot va madaniy o‘ziga xosliklarni ham yoritadi.

Frazeologik birliklar nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Ular orqali millatlarning qadriyatlari, mentaliteti va dunyoqarashi ifodalanadi. Masalan:

- O‘zbek tilidagi *“Qizil yuzli”* iborasi oriyat va nomus tushunchalarini ifodalaydi.

- Rus tilidagi “*Терпи, казак, атаманом будешь*” iborasi sabr-toqat va iroda qadriyatini aks ettiradi.
- Ingliz tilidagi “*Time is money*” iborasi esa G‘arb jamiyatining pragmatik va iqtisodiy tafakkurini ifodalaydi.

Shu tariqa, frazeologizmlar millatlararo madaniy tafovutlarni ochib beruvchi muhim manba hisoblanadi.

O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar tilda milliy tafakkur, madaniy qadriyat va tarixiy tajribani mujassamlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularni solishtirib o‘rganish uch millat madaniy olamining umumiy va o‘ziga xos tomonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В. В. Виноградов. Основные типы фразеологических единиц русского языка. – Москва, 1947.
2. А. В. Кунин. Английская фразеология. – М.: Высшая школа, 1970.
3. Amosova N. N. English Phraseology. – Leningrad, 1963.
4. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilida frazeologiya masalalari. – Toshkent, 1978.
5. A. Madvaliyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.
6. Cowie A. P. English Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
7. Longman Idioms Dictionary. – Longman, 2002.

COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK FOLK LEGENDS AND TRANSLATION ISSUES

Shahnoza Isaqova

Folk legends are an inseparable part of every nation's cultural memory and spiritual life. They reflect not only artistic values but also people's worldview, moral standards, and social life. Through legends, nations have preserved their history, identity, and values across generations. A comparative study of English and Uzbek folk legends helps us better understand the similarities and differences between the two cultures, their historical roots, and the mentality of the people. English folk legends are closely tied to heroic figures, historical events, and mythical elements. Stories such as Robin Hood emphasize freedom, justice, and resistance to tyranny, while the legends of King Arthur and his knights highlight chivalry, loyalty, and self-sacrifice. These tales reflect not only the customs of medieval England but also the ethical and social values of the people. English legends often include fantastical elements such as dragons, magical powers, and supernatural events, which add to their mythical character. Uzbek legends are mainly associated with historical figures, saints, scholars, and national heroes. The heroic tales of Gorogly embody bravery, justice, and the struggle for freedom. Legends about scholars such as Ahmad Yassavi and Bahauddin Naqshband reflect the nation's deep spiritual values, religious beliefs, and pride. Unlike English tales, Uzbek legends are often tied more directly to real historical figures and events, especially those connected to the Islamic and cultural revival of the 9th-12th centuries. Both English and Uzbek legends share common themes such as justice, courage, loyalty, and devotion to the people. However, they also differ in emphasis. English legends highlight chivalry, heroism, and mythical adventures, while Uzbek legends focus more on spirituality, patience, wisdom, and historical memory. These differences reflect the cultural and social environment in which each tradition developed. From a theoretical perspective, legends are studied in folklore, literary criticism, and history. Scholars analyze their genre features, symbolism, and artistic structure, as well as their role in shaping people's worldview. Lexically, both traditions include terms that are deeply rooted in their culture: English legends frequently use words like knight, squire, and sheriff, while Uzbek legends use terms such as avliyo (saint), sufi, pir, and khalifa (caliph).

These culturally specific words are often difficult to translate accurately. One of the main challenges in translating legends is preserving their cultural “color.” Direct translations often fail to capture the deeper meaning behind religious, spiritual, or historical terms. For example, rendering Uzbek words like *avliyo* or *mashayikh* into English is as difficult as translating English words like *knight* or *sheriff* into Uzbek. Effective translation requires not only linguistic accuracy but also cultural interpretation to ensure the original spirit of the legend is preserved. Legends are also closely tied to geography and time. Uzbek legends are especially widespread in regions such as Bukhara, Samarkand, Khorezm, and Fergana, while English legends are strongly associated with Nottingham, Cornwall, and Wales. Historically, most Uzbek legends date back to the 9th–12th centuries during the Islamic revival, whereas English legends were largely shaped between the 11th–14th centuries.

Both traditions can be grouped into thematic categories:

- Heroic legends (Gorogly, Robin Hood)
- Religious-spiritual legends (Ahmad Yassavi, stories of saints)
- Historical legends (King Arthur, Amir Temur in oral tradition)
- Supernatural legends (mystical events, dragons, magical powers)

Collecting and classifying legends into such groups not only helps preserve them but also makes comparative research more systematic. The comparative study of English and Uzbek folk legends shows that while both traditions share universal values such as courage, justice, and loyalty, they differ in their focus and cultural background. English legends lean toward mythical and fantastical storytelling, while Uzbek legends highlight historical and spiritual depth. Translation of these stories is not just about words – it requires careful attention to cultural and historical context. Ultimately, studying and comparing legends is valuable not only for academic purposes but also for strengthening cultural understanding and connections between nations.

ONE OF THE MOST FAMOUS BOOKS IN ENGLISH LEGENDS & FOLKLORE

1. “La Morte d’Artur” by Sir Thomas Malory (1485)
2. “The Merry Adventures of Robin Hood” by Howard Pyle (1883)

ONE OF THE MOST WELL-KNOWN BOOKS IN UZBEK LEGENDS & FOLKLORE

3. “Alpomish” by the Uzbek Nation, based on an Oral epic (19th-20th century)
4. “Devoni Hikmat” by Ahmad Yassavi (12th century)

ILHOM G‘ANIYEVNING “HAYRAT VA HIJRON” ROMANI EPISTOLYAR SHAKLNING YORQIN NAMUNASI

DUSMURATOV QAHRMON MAMADIYEVICH

Termiz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi Mustaqil tadqiqotchisi

qaxramondusmuratov123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ilhom G‘aniyevning “Hayrat va Hijron” romani zamonaviy o‘zbek nasrining yorqin namunasi sifatida adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda muallifning o‘ziga xos badiiy uslubi, psixologik chuqurligi, tabiat va inson ruhiyatining bog‘liqligi, shuningdek, o‘zbek madaniyati va an‘analarining aks etishi kabi jihatlarga e’tibor qaratiladi. Maqolada romanning tematik boyligi, syujet tuzilishi va qahramonlarining ichki olami tahlil etilib, asarning XXI asr o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi. Ushbu tadqiqot adabiyotshunoslar, talabalar va Ilhom G‘aniyev ijodiga qiziquvchi kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: nafrat, havas, ichki kurash, qarama-qarshilik, iztirob, sog‘inch, yashirin munosabat, maktublar, ta’sir, rashk

Abstract. This article analyzes Ilhom Ganiev’s novel “Hayrat va Hijron” from the point of view of literary criticism as a bright example of modern Uzbek prose.

The work focuses on such aspects as the author's unique artistic style, psychological depth, the connection between nature and the human psyche, as well as the reflection of Uzbek culture and traditions. The article analyzes the thematic richness of the novel, the plot structure and the inner world of its characters, revealing the place and significance of the work in 21st century Uzbek literature. This study is intended for literary critics, students and readers interested in Ilhom Ganiev's work.

Keywords: hatred, lust, internal struggle, contradiction, suffering, longing, secret relationship, letters, influence, jealousy.

Ilhom G'aniyevning "Hayrat va Hijron" romani XXI asr o'zbek nasrining muhim namunalari sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarlarda muallif o'zining o'ziga xos uslubi va chuqur psixologik tahlil orqali qahramonlarining ichki olamiga kirib boradi. "Hayrat va Hijron" romanida Ilhom G'aniyev tabiat va inson ruhiyatini bir-biri bilan bog'laydi. Asarda kuz fasli va uning melankolik kayfiyatlari, tabiiy muhitning o'zgarishi orqali insonning ichki kechinmalari aks ettiriladi. Roman matnida keltirilgan tasvirlar bog'lar, mevalar, yomg'ir va qahraton – barchasi qahramonlarning ruhiy holatini aks ettiradi.

Asarda ikki qahramon Hayrat va Hijronning sog'inchi bir-biriga bo'lgan ishonchi aks ettirilgan Hijronning quyidagi izohi ham juda ta'sirli bayon etilgan. "Men Sizni yigirma besh yil tun-u kun o'yladim va mudhish 1655 kunni (2014-yil 1-apreldan buyon) ichim yonib, o'rtanib yashayman. Men hamon hayronman: nega shuncha aql-idrok bilan Siz iblislar makriga tushdingiz? Balki, qismatda bordur-a? Juda katta shov-shuv bo'ldi... Sizni pora bilan qo'lga olisholmagach, xonangizni to'rt soat tintuv qilibdilar. Siz dadil, bosh egmay turibsiz, qo'lingizga kishan urganni bir tortib, siltab yiqitibsiz ham, ammo o'ng qo'l bilagingiz qonabdi. Ko'ylagingiz ham qon bo'lganmish... Siz uchinchi bino foyesida hammaga eshittirib, dodlabsiz: "Bular shayton malaylari, hammasi uyushtirilgan..."⁴⁵. Romanda Hayratning nohaq qamalishi va bu holatga chidolmagan Hijronning o'z yoriga bo'lgan muhabbati, ruhiy daldasi aks ettirilgan.

⁴⁵ Ганиев И. Хайрат ва Хижрон. Бухоро «Дурдона», 2024. – 264 б.

Hijron Hayratga 77 ta maktub yo‘llaydi. Roman retrospektiv syujet va badiiy psixologizmga boy holda yaratilgan. Hayrat hibsdaligidaligida yozuvchi tomonidan ichki monologlar orqali kitobxonni o‘ziga maftun aylaydi. Quyida iqrorlar... “Tavba, 9130 kunda 77 ta xat – dardnoma yozibdi-ya? Ichida hisobladi: necha oy, necha kunga bitta to‘g‘ri keladi? Miyasida qog‘ozsiz hisoblay boshladi. Hibsdan o‘tkazgan azobli kunni 77 ga bo‘lamiz... agar 4 yil-u, 4 oy o‘tirgan bo‘lsam, bu bo‘ladi 56 oy, 77 ni 56 ga ko‘paytirsak, taxminan qirq kunda bitta xat yozibdi, hisobi, e, qoyil, rahmat, shukr, ha, men yomon odam emasman, hukmda yozilganidek, qop-qora bo‘lsam, shuncha odam oilamni, bolalarimni e‘zozlarmidi, ortimdan izlab kelarmidi? Agar his, aqlim aldama, bu qiz samimiy, ehtirosli, ichi to‘la dard, olov. Men bundaylarga e‘tiborsiz emasdim-ku, nega uni aynan eslolmadim-a? U shoira ham emas, garchand fikri shoirona bo‘lsa-da, eh, jild-jild, yaltiroq kitob chiqarayotganlardan shu xat ichidagi falsafiy fikrni piyoda, ming yil izlab ham topolmaymiz-ku, axir?!.

Shukur, shukur, xayriyat, bu dunyoda fikrdosh, darddoshlar ham bor. Mening sehrli va sirli raqam – “7” ni yaxshi ko‘rishimni ham bilarkan. Balo, ancha chaqqon, ziyrakka o‘xshaydi”⁴⁶. Muallif tabiatni nafaqat tashqi muhit sifatida, balki insonning ichki kechinmalarini ifodalovchi vosita sifatida ham ko‘radi. Psixologizm romanda qahramonlarning ichki kurashlari, hissiyotlari va hayotiy tajribalari orqali namoyon bo‘ladi. Ilhom G‘aniyev qahramonlarining har birini alohida o‘rganib, ularning his-tuy g‘ularini, fikrlarini va qarorlarini chuqur tahlil qiladi. Bu esa o‘quvchilarga qahramonlar bilan birga hissiyotlarni boshdan kechirish imkonini beradi. G‘aniyevning asarlarida retrospektiv syujet ham muhim rol o‘ynaydi. Har bir qahramonning nuqtai nazari orqali voqealar turlicha yoritiladi, bu esa o‘quvchini voqealarga yanada chuqurroq kirish imkonini beradi. Asarlarning badiiy tili va uslubi esa o‘ziga xos go‘zallikka ega bo‘lib, o‘quvchini jalb qiladi. Umuman olganda, Ilhom G‘aniyevning “Hayrat va Hijron” romanlari XXI asr o‘zbek nasrining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning

⁴⁶ Ганиев И. Хайрат ва Хижрон. Бухоро «Дурдона», 2024. – 264 б.

badiiy qadriyatlari va psixologik chuqurligi o'quvchilarni o'ziga tortadi. Ilhom G'aniyevning "Hayrat va Hijron" romanlarini adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishda bir qancha muhim jihatlarni ko'rib chiqish mumkin.

Ilhom G'aniyevning asarlarida badiiy uslub va tilning o'ziga xosligi alohida e'tiborga loyiq. Muallif o'z asarlarida chuqur tasvirlar, metaforalar va simvollar orqali tabiat va inson ruhiyatini bog'laydi. G'aniyevning "Hayrat va Hijron" romani birinchi maktubi "**SIZGA TALPINAMAN, TUSHUNING**" nomli maktub bilan boshlanadi, bu, o'z navbatida, o'quvchiga qahramonlarning ichki kechinmalarini his qilish imkonini beradi. Tabiat tasvirlari (masalan, kuz fasli, yom g'ir, mevalar) qahramonlarning ruhiy holatini aks ettiradi va muallifning tabiatga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Ilhom G'aniyevning asarlarida psixologizm muhim rol o'ynaydi. Qahramonlar ichki kurashlari, hissiyotlari va hayotiy tajribalari orqali o'zlarini namoyon etadilar. Psixologik tahlil orqali muallif qahramonlarning ichki olamiga chuqur kirib boradi, bu esa o'quvchini qahramonlar bilan birga hissiyotlarni boshdan kechirish imkonini beradi. Har bir qahramonning ruhiy holati va qarorlari asarlarning rivojlanishiga ta'sir qiladi. G'aniyev asarlarida perspektiv syujetni qo'llaydi, ya'ni voqealar har bir qahramonning nuqtai nazaridan yoritiladi. Bu usul o'quvchiga voqealarni turlicha ko'rish imkonini beradi va har bir qahramonning ichki dunyosini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Asardagi har bir personajning fikrlari va hissiyotlari orqali voqealar murakkabligi oshadi. "Hayrat va Hijron" romanlarida inson hayoti, sevgi, yo'qotish va iztirob kabi universal temalar ko'tariladi. Ushbu temalar orqali G'aniyev insonning ichki dunyosini, uning murakkabligini va hayotdagi turli sinovlarga qanday javob berishini ko'rsatadi. Bu esa o'quvchilarni qahramonlar bilan identifikatsiya qilishga undaydi. G'aniyevning asarlari o'zbek madaniyati va an'analariga chuqur bo'g'langan. U asarlarida o'zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlari va psixologik xususiyatlarini aks ettiradi. Bu jihat asarlarning milliy rang-barangligini oshiradi va o'zbek adabiyotidagi o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Ilhom G'aniyevning "Hayrat va Hijron" romanlari XXI asr o'zbek nasrida muhim o'rin egallaydi. Ularning badiiy uslubi, psixologik chuqurligi,

tematik boyligi va madaniy konteksti adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Ushbu asarlar o'zbek adabiyotining zamonaviy rivojlanishini, shuningdek, inson ruhiyatining murakkabligini ochib beruvchi muhim namunalardir.

Romanda muhabbat, ishonch, insoniy munosabatlar, xiyonat, yol g'on, umidsizlik va o'zini anglash kabi mavzular ko'tarilgan. Matn qahramonining ichki kechinmalari, o'tmish xotiralari orqali insonning murakkab tabiati ochib berilgan. Chinakam baxtga erishish qiyinligi, ishonchning xavfli ekanligi, insonning yol g'on va xiyonatga moyilligi, tabiat bilan inson o'rtasidagi farq, o'tmish xotiralaridan qochib qutula olmaslik kabi g'oyalar ilgari surilgan. Shuningdek, "boshqalar-chi" degan savolning inson hayotidagi ahamiyati va salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi. Matnda monolog, dialog, xotiralar, tasvirlar va falsafiy mulohazalar uy g'unlashgan. Muallif o'z fikrlarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Matnda tasviriy vositalar (metafora, o'xshatish, jonlantirish) ko'p qo'llanilgan. Matn qahramoni o'tmishi bilan yuzma-yuz kelishga harakat qilayotgan, yol g'izlik va umidsizlik hissini tuyayotgan, inson tabiatidan norozi bo'lgan murakkab shaxs. U o'z xatolarini anglaydi, lekin ulardan qutulish yo'lini topa olmaydi. Matn badiiy tilda yozilgan, unda murakkab sintaktik konstruksiyalar, arabcha-forscha so'zlar va iboralar ko'p uchraydi. Bu matnga o'ziga xos ohang va joziba beradi. Romanda Hazrati Bahouddin ziyoratgohi, G'ijduvon, Hazrati Qutbi Jahon qadamjolari, Kulollar qishlo g'i, Muborak shahri, "Mehtar anbar" madrasasi, Navoiyxonlik kabi joylar va voqealarning tilga olinishi matnning O'zbekiston madaniyati va tarixi bilan bo g'liqligini ko'rsatadi. Umuman olganda, roman chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, o'quvchini inson hayoti, muhabbat, ishonch va o'zlik haqida o'ylashga undaydi. Roman juda boy va chuqur ma'noga ega. Unda hayotiy kuzatishlar, falsafiy mulohazalar va ijtimoiy tanqid uy g'unlashgan. Matnning asosiy g'oyasi - inson munosabatlarning manfaatga asoslanganligi, jamiyatdagi adolatsizliklar, halollik va haromxo'rlik o'rtasidagi kurash, hamda haqiqatni anglashning qiyinligi haqida. Muallif, pulga qullikning ayanchli oqibatlarini ko'rsatib, odamlarni ma'naviy qadriyatlarga e'tibor berishga chaqiradi.

Insonlar halollikni foydadan ustun qo'yuvchilar va haromxo'rlikni kasb qilganlar o'rtasida kurashadi. Har ikki tomon ham o'zini haqli deb biladi, bu esa jamiyatdagi axloqiy mojarolarni aks ettiradi. Puldan boshqa hech narsasi yo'q odamlarning ayanchli holati, boylikka intilishning jamiyatni tanazzulga olib kelishi tanqid qilinadi. Pulga qullik odamlarni laganbardorlik, xushomadgo'ylik va hukmfarolik qilishga undaydi. "Tushunmoq – tushmoqning o'zlik shaklidir" degan fikr orqali hodisaning tubiga yetish, haqiqatni anglash zarurligi ta'kidlanadi. Tushunmaslik ummon va osmon tubining sirlaridan mahrum qiladi. Soxta tadbirkor, amaldor, dindor va olimlarning ko'payishi jamiyatdagi adolatsizlikni ko'rsatadi. Ularning o'zini hojatbaror hisoblashi esa, vaziyatning yanada achinarli ekanligini namoyon etadi.

Xulosa. "Otashnafas" taxallusi ostida yozilgan ushbu matn, inson hayotining murakkab tomonlarini ochib beruvchi, chuqur falsafiy mulohazalarga boy asar. Unda jamiyatdagi illatlar tanqid qilinib, insonlarni halollik, adolat va ma'naviyatga intilishga chaqiriladi. Matnni o'qigan har bir inson o'z hayoti va jamiyatdagi o'rni haqida o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu asarlar zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namunalarini bo'lib, inson ruhiyatining murakkab tomonlarini, jamiyatdagi illatlarni, ma'naviy qadriyatlarning ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Mualliflar, o'zlarining badiiy mahoratlari orqali o'quvchini hayot haqida o'ylashga, o'z-o'zini anglashga va ma'naviy kamolotga intilishga undaydi. Asarlarda ko'tarilgan mavzular va g'oyalar bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib, ularni o'qish har bir inson uchun foydali va zarurdir. Ilhom G'aniyevning "Hayrat va Hijron" romani haqidagi maqolasi asarning adabiyotshunoslik tahliliga ba g'ishlangan bo'lib, unda roman badiiy uslubi, psixologizmi, syujet tuzilishi, tematikasi va madaniy konteksti kabi muhim jihatlarga e'tibor qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fаниев И. Хайрат ва Хижрон. – Бухоро: Дурдона, 2024. – 264 б.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.

HAYRATIY POETIKASIDA AN'ANA VA YANGILANISHNING POETIK TALQINI

Abdullayeva Manzura Nasibullo qizi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Namangan pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada shoir Umrzoq Hayratiy poetikasida an'ana va yangilanishning o'zaro uyg'unligi poetik jihatdan tahlil qilinadi. Shoir ijodida presedent nomlar, metafora, ramz, takror va qofiyalarning qo'llanishi orqali milliy adabiyot an'analari davom ettirilishi hamda yangi badiiy izlanishlar amalga oshirilgani yoritilgan. Tadqiqotda Hayratiy she'riyatida milliylik va umuminsoniylikning o'zaro aloqasi hamda poetik birliklarning badiiy-estetik vazifasi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Hayratiy, poetika, an'ana, yangilanish, lingvopoetika, presedent nomlar, metafora, ramz, qofiya, takror, milliylik, umuminsoniylik.

Abstract. The article examines the interaction of tradition and innovation in the poetics of Umrzoq Hayratiy from a linguopoetic perspective. It highlights the use of precedent names, metaphors, symbols, repetitions, and rhymes, showing how the poet continues the traditions of national literature while introducing new artistic explorations. The study scientifically substantiates the relationship between national and universal values in Hayratiy's poetry, as well as the aesthetic function of linguocultural units.

Keywords: Hayratiy, poetics, tradition, innovation, linguopoetics, precedent names, metaphor, symbol, rhyme, repetition, national identity, universality.

Аннотация. В статье рассматривается взаимодействие традиции и новаторства в поэтике Умрзака Хайратия с лингвопоэтической точки зрения. Анализируются прецедентные имена, метафоры, символы, повторы и рифмы, показывающие, как поэт продолжает традиции национальной литературы и

одновременно реализует новые художественные поиски. В исследовании научно обоснована взаимосвязь национального и общечеловеческого в поэзии Хайратия, а также эстетическая функция лингвокультурологических единиц.

Ключевые слова: Хайратия, поэтика, традиция, новаторство, лингвопоэтика, прецедентные имена, метафора, символ, рифма, повтор, национальное, общечеловеческое. Ushbu tadqiqot ishida shoir Hayratiy she'riyatida qo'llangan leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari tahlil va talqin qilingan.

Kirish. Avvaldan ma'lumki, badiiy matnda muallifning asosiy gapi yashirin, turli ishoralar orqali, ramzlar, obrazlar, ko'chimlar, tagma'nolar kabi lingvopoetik vositalar bilan beriladi. Gap va so'zdagi ma'no mag'zini chaqish o'ziga xos jarayon. Pedagogika fanlari doktori Qozoqboy Yo'ldoshev talqinicha: "O'quvchining matnni idrok etishi, undagi yashirin jihatlarni topa olishi matnga ko'rsatilgan ijodiy ta'sirning namoyon bo'lishidir"⁴⁷. Ammo badiiy asar mutolaasidan ta'sirlanish, taassurot olish barchada ham birday kechavermaydi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik tahlillari kitobxonga zarur ma'lumotlar beradi hamda estetik didi va saviyasining o'sishiga ko'maklashadi.

U o'z asarlarida o'zbek tili imkoniyatlaridan keng va samarali foydalangan. Shoir she'rlari lug'at boyligining rang-barangligi bu borada bizga qulaylik va yengillik tug'diradi. Ana shu leksik boylikning funksional-semantik xususiyatlarini ko'rsatar ekanmiz, ijodkorning adabiy-estetik qarashlari uning badiiy vositalarga nechog'liq katta e'tibor berganligini anglatadi.

USUL VA METODOLOGIYA. Shoir g'azallarida anaforik usullardan lingvopoetik fikru ifodani kuchaytirishga astoydil intilgan. Bilamizki, anafora yunoncha anaphora, ya'ni oldinga, yuqoriga chiqarish demakdir. So'z yoki so'zlar guruhining misra yoki band va bayt boshida takrorlanishi, so'z takrorining xususiy ko'rinishi. Anafora ma'lum fikr, his-tuyg'u, holatni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qiladi, tabiiy ravishda she'rning xushohangligini ham oshiradi.

⁴⁷ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2006, 455-bet.

Ijodkorning badiiy mahorati zamirda uning voqelikni, inson hayoti va ichki kechinmalarini o'ziga xoslikda ifodalash salohiyati yotadi. Mavjud holat qandayligicha bo'lsa, shunday yozish emas, balki qalbiy, ruhiy kechinmalar, ichki tasavvurlarga uyg'unlashtirib, aytilmoqchi ma'no-mazmunga mutanosib badiiy tafakkur topimlarini ifoda libosiga o'rab berish muvaffaqiyat mezoniga aylanadi. Bularning barchasi – tilda, so'zda aks etadi. Umrzoq Hayratiy asarlarining mag'zini chaqish esa bevosita lingvopoetik jihatlarini idroklash jarayonisiz to'laligicha amalga oshmaydi. Buning boisi xoh g'azal, xoh muxammas, xoh ruboiy bo'lsin, albatta, mumtoz adabiyotning an'anaviy o'zlashma iborayu tasvir doirasida qolib ketmagan.

TADQIQOT NATIJALARI. Shoir o'ziga xos so'zamollik kamolotiga erishgan. Aytar so'ziga, aytar fikriga ko'pincha uqtirgi qadagan:

Eshitg'on, o'qug'onga Hayratiydin armug'ondur bu,
Dilidin rozi ifshodin bayon ham tarjumondur bu,
Yozilgan safhai ko'nghimda ilhomi ilohiydin,
*Ki bir nozik ado dildor vasfidin nishondur bu*⁴⁸.

Avvalo, ruboiydagi *bu* – takror so'z hisoblanadi. U o'zining “Tuhfai Hayratiy” devoniga ixcham sharh, izoh berish asnosida ta'kidiy takrorlari bilan go'yoki mazmuniy mundarijadan voqiflaydi. Eshitganga, o'qiganga sovg'a sifatida ekanidan darak beradi. Ijodiy armug'onini samimiy qabul qilinishini istaydi. An'anaviy radiflash usulidan foydalanadi. Devon so'zi o'rnidagi *bu* ta'kidi - ko'rsatish olmoshidir.

Sovg'ani “*armug'ondur*” deya ta'kidlashida, yanayam chiroyli badiiy sinonim – ma'nodosh so'zni tanlanishida o'zgacha ma'no mavjud. Demak, muxlis shoir g'azallari qo'shiqqa aylanib kuylanganini eshitgan, tinglangan. Qo'lma-qo'l o'qib mutolaa qilgan. Endi *o'qig'on* kitob holida ham tanish. Asarlari shunchaki o'y-fikrlar hosilasidan yiroq. Aksincha, “*dilidin*” chiqqan izhorlaru oshiqona tuyg'ularining “*tarjimondur*”. Sahifalarga bitilganlar ko'ngliga “*ilhom ilohiydin*” “*nozik ado*” dildor vasfidin “*nishondur*”. Har bir so'z o'rni o'rniga tushgan. “*Bu*”

⁴⁸ Sodiq Sayhunda saqlanayotgan qo'lyozma devondan. To'raqo'rg'on. 1914. 100-bet.

radifining alohida urgʻulanishi ham qofiya soʻzlarning ohangi jarangiga jalb qiladi. “*Tarjimondur*” lingvopoetika sifatida sheʼriy matnning noyob xususiyatiga uqtirma tarzida yangragan. Yaʼni shoir koʻnglidagini sheʼrga koʻchirishigina tuygʻularini boshqalarga tushunimli qila olishiga ishoradir. Nazmning qalb tarjimoni ekanini hozirgi avlod ham his qilishi zarur.

Sabo, yetkur salomimni nigora gulʻuzorimgʻa,

Tahiyoti kalomimni paripaykar nigoringʻa.

Sabo, arzim bayon aylab, necha eldin nihon aylab

Ravon ashkimni qon aylab, firoqi yori gʻorimga.

Sabo, subhi malohatdin, ketur boʻyi latofatdin,

Yuqoridagi gʻazalda *sabo* soʻziga urgʻu berilyapti. Ayni paytda har bayt boshida takrorlanib anafora vositasida undalma sifatida funksiya bajaryapti. Yaʼni shoir saboga alohida vazifalar yuklayapti. Salomini, qofiyadosh kalomini yorga yetkazishni soʻrayapti. Muhimi, qofiyadosh soʻzlar, undan soʻng takrorlanuvchi *aylab* soʻzi bilan taʼsirchanlikni taʼminlayapti. Radifli gʻazallari-ku oʻz yoʻliga monand, biroq radifsiz gʻazallarigacha poetik bezaklarga boy. Hech bir soʻzning odatiy oʻrni bejiz almashtirilmagan yoki bemaqsad tanlanmagan. Radif yoʻqligini bilintirmay, ichki qofiyalar tizimga solingan. Shuningdek, murojaatli undalma soʻz satr boshiga oʻtkazilgan, bu ham yetmagandek har bayt oldida qayta-qayta qoʻllangan, tagmaʼnoni chuqurlashtirish talabiga boʻysundirilgan.

Shoir sheʼrlarida ichki qofiya tizimidagi hayratomuz *qoʻshqofiya* (taʼkid – bizniki)ga duch kelamiz. Gʻazal oʻzi oʻn baytli boʻlsa, satrma-satr qofiyalar ketma-ketlanib, xuddi qoʻshiqday avj pardalarga koʻtarilib-koʻtarilib choʻqqisiga chiqqan: “*zora*”, “*dildora*” va nihoyat “*bora tobora*”. Ohangdorlik taʼsirchanlikka uygʻunlashib ketgan. Bu shoirning oʻziga xos his-hayajonli ifoda yaratolganidan dalolatdir. Baytlarda sintaktik gradatsiya holati vujudga keltirilgan.

Alixon Xalilbekov eʼtiroficha: “Gʻazal shoir maqtaʼda eslatganidek, oshiqning maʼshuqaga sabo orqali yoʻllagan izhori dili, maktubi tarzida bitilgan. U yoriga oʻz iltijolarini, ahvoli ruhiyasini, sogʻinchini, dilrozlarini yetkazishni umidvorlik va mahzunlik bilan iltimos qiladi. Gʻazalning har bayti boshlanishida “sabo” soʻzi

takrorlanishi va unga murojaat qilinishi orqali mazmun va muaddo yaxlitligi ta'minlangan⁴⁹.

*Qilur devona Hayrat bu tariqa
Nasihat shahdu shakar bola birga.*

Biz bu holatda badiiy matnning ikki xilligini ularning semantikasi obektiv mazmun (mazmuniy konseptual informatsiya) hamda badiiy, majoziy mazmun tarzida tushunamiz. Inchunin, Hayratiy oddiy takror so'zgacha kutilmaganda qo'shimcha va yakuniy tagma'no yuklab ketgan. Ya'ni g'azal matla' baytining birinchi satridagi *bola* so'zi o'zak so'z va yigit ma'nosida berilgan. G'azalning so'nggi maqta' baytining ikkinchi misrasidagi *bola* so'zi shakldosh bir xil yozilsada, oldidagi shahdi shakar so'zlariga daxldor, badiiy jihatdan ikkinchi ma'nosi yanada kuchli, butunlay yasama so'z, ya'ni *bol* (asal) + *a* bilan, ya'ni *bol* bilan birga deganidir. Buni teran anglamagan o'quvchi ham *boldek shirin* yigit sifatida tushunishi tabiiy. Takrorda ham takror bor, albatta. She'r jozibasini kuchaytirishga, badiiy ifodani oshirishga xizmat qiladigan takrorgina qimmatli ahamiyatga ega bo'ladi. Aksincha, zo'rma-zo'rakilik bilan misrama-misra qo'llangan so'z siyqalanadi, fikrni tiniqlashtirish o'rniga go'yoki loyqalantiradi, xira torttiradi. Boqijon To'xliyev aytganiday: "O'rni bilan takrorlangan so'zlar ko'pincha badiiy ta'sirchanlikning, g'oyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti bo'la oladi"⁵⁰.

*Kel, ey dil o'zni doim moyil etma mehri dunyoga,
Abas o'tkazma umringni tutib oluda roh banda.
O'zingni saqlag'il behuda ishlardin nihoyatda,
O'zingdin o'zga yo'q hargiz o'ziga xayrixoh banda*⁵¹.

Matndagi *o'z* o'zagidan yasalib, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan ma'no ko'rsatkichlari ko'paytirilgan holatdagi bir so'zning to'rt bora "tovlanishi" o'quvchiga yoqimli tuyuladi. So'zlar grammatik bog'lanishining mukammalligi ta'minlagan. She'rdagi yashash, yashaganda ham insondek yashash kerak degan

⁴⁹ Halilbekov A. Namangan adabiy gulshani. – Namangan: 2007, 147-bet.

⁵⁰ To'xliyev B. O'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi. 2000. 268-bet.

⁵¹ "Mehnat va turmush" jurnali, Hayratiy she'riyati. Toshkent. 1975. №3– 30-bet.

falsafiy fikrga mazmun g'oyat mutanosib ifodalangan. Iymon-e'tiqod urg'ulangan, bandalikning sharti muxtasar sharhlangan.

Muhokama. Tilshunos R.Qo'ng'urovning "Shoir va yozuvchilar tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttiribroq ko'rsatish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish niyatida ko'proq she'riy asarlarda... ayrim tovush yoki tovushlar birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg'u beradi, takrorlaydi"⁵² degan ta'kidini tasdiqlovchi misollar Umrzoq Hayratiy adabiy merosida keragicha uchraydi. Uning "Ey parirux" g'azalida *xush* so'zi bir baytda besh bor qayta qo'llangan. Tobora ma'noga ma'no qo'shilib, ma'nodan ma'no yangilanib, o'ynoqi ohang ta'sirchan tusga kiradi:

Xushdur jahonda xushlig' husni hamida birla,

Xushro'g'a xush tabiat xushtor, ey parirux.

Shoirning "Uyqusi" radifli g'azalida esa *noz* so'zi uch o'rinda matn mazmuniga monand ravishda go'zal badiiy poetik ifoda kashf etgan. Undan burun tonggi tabiiy manzara bayti qator va bir-biriga mutanosib tashbehlardan tartiblangan:

Subhi vaqti g'unchalar xandon, gulshan jonfizo,

Bargi gulda donai shabnamnidur oz uyqusi.

Ahli noz ochmas ko'zini, noz ila boqmas qiyo,

To ko'zidin ketmaguncha surmai noz uyqusi.

Shoirning xuddi yuqoridagi singari o'ta zukkoligu zehni o'tkirligi bois poetik kashfiyotga tenglashga arziydigan yaratishlari "O'lmasun" g'azalini yuksak baholashga munosib darajaga ko'targan. Chunki u tilshunoslik atamasiga ko'ra tovushdoshlik – tavzi', o'zakdoshlik – ishtiyoqni qo'llagan:

Noz etib nozik adoyi nozaninlar noziki,

Oqibat hajrida onlarcha pushaymon o'lmasun.

Ko'rib turganingizdek *noz* so'zi satr boshida ravish, o'rtasida sifat va ot, oxirida yana sifat tarzida bir-biriga bog'lab yuborilgan. Shakldoshlik va

⁵² Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 127-bet.

ma'nodoshlikdan mohirona foydalanilgan. "Ma'noga singdirib, muvofiqlashtirib berilgan bu san'atlar mazmundorlikni kuchaytirishdan tashqari ohangdorlikni yuzaga keltiradi, bu ohangdorlik kishiga ajib bir maroq, nash'a bag'ishlaydi⁵³.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2006, 455-bet.
2. Sodiq Sayhunda saqlanayotgan qo'lyozma devondan. To'raqo'rg'on. 1914. 100-bet.
3. Halilbekov A. Namangan adabiy gulshani. – Namangan, 2007, 147-bet.
4. To'xliyev B. O'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi. 2000. 268-bet.
5. Hayratiy she'riyati. "Mehnat va turmush" jurnali, Toshkent. 1975. – №3. – B. 30.
6. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent: Fan, 1977. – 127-bet.
7. Halilbekov A. Hayrat. – Namangan haqiqati. 2004. – №8. – B. 6.

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA GENDER STEREOTIPLARINING O'RNI

Shamshiyeva Diyora Isroilovna
Namangan davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada olamning lisoniy manzarasida gender stereotiplarining ifoda etilishi va ularning o'rni yoritilgan bo'lib, mavzuning mohiyati, uning dolzarbligi, gender stereotiplarining tadqiqi va ularning tilda aks etishi tahlil qilingan. Shuningdek, gender lingvistikasi tadqiqining sotsiologik, psixologik tadqiqotlardan farqli jihatlari umumiy tarzda yoritib berilgan. Gender stereotiplarining tilda aks etishini alohida tadqiq etish zarurati "Gender tilshunosligi" fanining yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

⁵³ Halilbekov A. Hayrat. – Namangan haqiqati. 2004. - №8, 6-6er.

Kalit soʻzlar: olamning lisoniy manzarasi, stereotip, gender stereotiplari, “ayollarga xos” va “erkaklarga xos” xulq-atvor, gender lingvistikasi, genderologiya, feminizm, ichki va tashqi stereotiplar.

Abstract. This article contains gender stereotypes in the lianonic lands of the universe, which is analyzed that the essence of the topic, its relevance, gender stereotypes and their language is reflected in language. The study of gender linguistics is also widely covered by aspects of sociological, psychological research. The need for the display of gender stereotypes in the language was the basis for the “Gender linguistism”.

Key words: the liaison view of the universe, stereotype, gender stereotypes, “women’s women” and “men order” behavior, gender linguistics, genderology, feminism, internal and outer stereotypes.

Аннотация. Ее актуальность, гендерные стереотипы и их язык отражены на языке. Изучение гендерной лингвистики также широко освещается аспектами социологических, психологических исследований. Необходимость изучения проявления гендерных стереотипов на языке была основой для «Гендерного лингвизма».

Ключевые слово: связанный вид вселенной, стереотип, гендерные стереотипы, поведение «мужчин» и «женского», гендерная лингвистика, гендерология, феминизм, внутренние и внешние стереотипы.

Gender stereotiplari har bir jamiyatda oʻziga xos tarzda shakllanib boradi. Bunday qarashlar bir necha yillar, hatto asrlar davomida shakllanib kelgani bois bu holatni jamiyat aʼzolari tabiiy jarayondek qabul qiladilar va bu qarashlar turgʻunlashib boraveradi. Shu oʻrinda “Gender stereotiplari oʻzi nima?” degan haqli savol tugʻilishi tabiiy.

Gender stereotiplari – “erkaklarga xos” va “ayollarga xos” tushunchalarga mos keluvchi xulq-atvor modellari va xarakter xususiyatlari toʻgʻrisidagi andozalashtirilgan tasavvurlar[1]. Garchi bu mavzu oʻzbek tadqiqotchiligida XX asr boshlaridan oʻrganila boshlangan boʻlsa-da, bu jarayonning shakllanishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Barcha xalqlar qatori oʻzbek madaniyatida ham gender

stereotiplari manzarasini o'ziga xos tarzda shakllangan deb ayta olamiz. Xususan, bunday stereotiplar hayotimizning har bir jabhasi(oila, ish faoliyati, OAV, media, jamoat maskanlari va h.k.)da o'zini yaqqol namoyon etib turadi. Gender stereotiplari barcha makonda yuz berganidek barcha zamonda ham bo'y ko'rsatib kelgan. Masalan, hali bola dunyoga kelmasidanoq unga gender chegaralarni qo'ya boshlaymiz. O'g'il bola uchun faqat ko'k, yashil, jigarrang, qora ranglardagi kiyim va buyumlarni tanlaymiz. Qizlar uchun esa pushti, binafsharang, qizil va sariq ranglargina mos deb hisoblaymiz.

Bola dunyoga keldi... Endi biz bolalarning kundalik faoliyatida o'z qiziqishlaridan ko'ra o'zimizda yoshligimizdan singdirilgan stereotiplarni ularga ham singdira boshlaymiz: O'g'il bola yiqilsa ham, joni og'risa ham yig'lamasligi, chidashi kerak, o'g'il bola, albatta, mashina, poyezd, samolyot kabi o'yinchoqlar o'ynasa, qizlar faqat qo'g'irchoq yoki uy-ro'zg'or buyumlarini o'ynashi lozim.

Bolalar o'yinlari davomida ham kundalik hayotimizdagi doimiy gender stereotiplarini aks ettiradi. Qizlar kelin, ona yoki qaynona rolini ijro etsa, o'g'il bolalar farzandi bilan xayrlashib ishga yo'l olgan, mashina haydayotgan yoki oilasiga ro'zg'orlik qilayotgan ota, bobo rollarini aks ettirishadi. Ularning aynan shunday ssenariylar asosida o'yin tashkil etishlari tasodifiy holat emas, balki ularning kundalik hayotimizga qilayotgan taqlidi natijasidir.

Bolalarning ulg'ayishi davomida ham ularga bir qancha gender stereotiplarini singdirib boramiz:

- O'g'il bola kuchli bo'lishi kerak;
- O'g'il bola mustaqil bo'lishi kerak;
- Qiz bolaga o'xshab yig'lama;
- O'g'il bola oila boquvchisi, ammo uy yumushlarini bajarmaydi;
- O'g'il bola uyalishi kerak emas;
- O'g'il bola she'riyat va badiiy asar o'qishga emas, sport, texnika sohalariga qiziqishi lozim va boshqalar.

Qiz bolalar tarbiyasida ham bunday chegaralar juda ko'plab uchraydi:

- Qiz bola qo'pol bo'lmasligi, aksincha muloyim, odobli bo'lishi kerak;

- Qiz bola turmushda barcha yumushlarni bilishi lozim;
- Qizlar doim erkaklar himoyasida bo'lishi lozim;
- Haq bo'lsa ham xo'p deyishi kerak;
- Qorong'ida ko'chada yurma;
- Eng ko'p uchraydigani esa qiz bola kelajagi, asosan, uy bekasi va onalik maqomida ko'rilishidir.

Rivojlanish amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto ishtirok etgan taqdirda ham rivojlanish loyihalari natijalari erkaklar va xotin-qizlarga turlicha ta'sir ko'rsatgan[2]. Bunday stereotiplar natijasida yoshlar orasida o'z qobiliyatini ko'rsata olmaslik, o'zi qiziqqan sohani egallashga kurashmaslik, jamiyat tanqididan qo'rqish va natijada yo o'zi qiziqmagan sohani egallash yo hech bir sohani egallamay jamiyatda ishsizlar qatorini to'ldirishni afzal ko'rish holatlari yuzaga kelmoqda. Zero, gender stereotiplari o'z mohiyatiga ko'ra shaxsning jamiyatdagi xatti-harakatlari va bu xatti-harakatlar qanday idrok etilishini belgilaydigan ijtimoiy jinsga aloqador tushunchalarni o'zida qamrab oladigan ijtimoiy jarayondir[3].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda biz "tarbiya" deb atayotgan bu jarayonning, albatta, foydali jihatlari ham mavjud. Ya'ni shu orqali jamiyatda haqiqiy mard va jasur erkaklar, odobli qizlar-u, mehribon onalar shakllanyapti. Ammo "Bunday cheklovlar ta'sirida xato qilib qo'yishdan qo'rqib, hech qanday faoliyat bilan shug'ullanmaslikni afzal ko'rayotgan yoki o'zi qiziqmagan sohani egallab, bu soha rivoji uchun foydadan ko'ra ziyon keltirayotganlar soni ko'payib bormayaptimi?" degan savolni o'z oldimizga qo'ysak, yurt ravnaqi va farovonligiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xakimov O., Jabborova G. Jamiyatda gender stereotiplari. Science technology& Digital finance. November, 2023. Volume 1, Issue 4.
2. Mo'ydinova M. Gender tarbiya o'quv-slubiy majmua. – Namangan, 2023. – B. 6.

3. Kazimovna M.Y. Ikki tillilik sharoitida gender konseptlari tilida olam lisoniy manzarasining aks etishi. – Namangan, 2024. – B. 15.

INTERCULTURAL COMPETENCE IN GERMAN AS A FOREIGN LANGUAGE TEACHING: FOREIGN LANGUAGE TEACHING AS AN INTERCULTURAL EDUCATION

Dr.Prof. Ubaydullayev Shukhrat
Namangan State Pedagogical Institute, Uzbekistan
Shuhrat_namspi@mail.ru

Abstract: The article is devoted to the problem of formation of intercultural communicative skills in the process of learning foreign languages. Efficient intercultural communication implies awareness of the native culture and other cultures, the ability to analyze behavior, lexical and grammatical norms of different cultures. The techniques described in the article allow revealing the creative potential for learning the country of the language that is studied, mentality of people, art, history, culture.

Keywords: intercultural communication, foreign language, intercultural dialogue, intercultural communication barriers.

INTRODUCTION

Intercultural competence is becoming increasingly important due to ongoing migration and globalization. Especially in business, intercultural skills are missing, which can and always is a hindrance to successful cooperation. But knowledge of and understanding of cultural differences is not only of great importance within economic processes. In schools and authorities, it is now assumed that employees have an understanding of foreign cultures, foreign thoughts and actions [1].

Our contribution is therefore divided into two parts: In a first step, we show how intercultural communication in the classroom can be conceptualized and made

analytically tangible. In a second step, we describe a specific university didactic approach, namely casuistry in teacher training, and show a practical example.

Procedure for Paper Submission

Communication is a basic need of human life. As Paul Watzlawick wrote in his book “Human Communication”, it is impossible not to communicate [2]. “When people come into contact with one another, worlds collide.”

Language presents culture; Communication takes place through language. Learning a foreign language means coming into contact with a foreign world, recognizing other rules and traditions and understanding other values and mentalities.

The principle of interpersonal communication is characterized by a sender wanting to communicate something to a receiver. This message must in turn be deciphered by the recipient - i.e. understood as the sender intended it. If the message sent is not interpreted correctly, no communication has taken place. However, if the message is decrypted correctly, there is communication and the receiver in turn informs the sender of information that must now be correctly understood by the sender.

The teacher should use a contrastive approach in foreign language teaching, i.e. draw attention to the similarities and differences between the two cultures. Intercultural competence in foreign language teaching enables students to accept differences but also to recognize fundamental similarities between people [3].

The intercultural approach developed from the second half of the 1980s. It represents a further development of the pragmatic-functional concept, the audio-visual and the communicative methods. Didactics and methodology place more emphasis on the target groups and their cultural and linguistic origins. The intercultural approach should be integrated into language teaching, either consciously and organized or unconsciously, but always subliminally. It requires the use of media such as images, videos, audio samples, art, music, etc. [4].

Intercultural competence and the resulting ability for intercultural communication are intended to prepare people for a longer stay abroad, i.e. for

foreign cultural communication situations, with the help of role plays, presented intercultural misunderstandings, films and social background information. The learners should be able to recognize foreign cultural ways of thinking, behaving and speaking and relate them to their own. Ultimately, they are able to react adequately to strangers and act adequately themselves.

Intercultural learning arises in a situational learning process between people from different cultures and is based on interactions between them. There are three reasons for intercultural learning. Against the background of a multicultural society, you can deal with racism, reduce prejudices and achieve a development towards tolerance. In order to establish and maintain international business contacts, intercultural learning was used in the training of managers. As far as pure language contact is concerned, this type of learning is aimed at the cultural nature of one's own linguistic actions and, against the background of foreign language teaching, at the peculiarities of everyday life, the habits and ways of thinking of the foreign society.

We use the definition of the content of intercultural learning according to GEHRING (2002, 69), since intercultural learning is clearly aimed at IC and is tailored to the needs of teaching in schools. Intercultural learning (IL) consists of three components:

- The affective component of IL influences attitudes towards the strange and unfamiliar.
- The cognitive component of IL is based on knowledge about factual and value-related aspects of foreign cultural perceptions.

The interactional component of IL is realized as the ability to establish and maintain contact [...] within a social framework that is accepted for speakers and listeners, whereby mutual acceptance and recognition are reflected in appropriate sociolinguistic signals (GEHRING: 2002, 69, emphasis I.H.).

Die affektive Komponente von IL beeinflusst Haltungen gegenüber dem Fremden und

Intraculturality can be described as the different understanding of the same culture that results from different education, social status and/or professional affiliation [5].

In didactics, we largely understand intercultural competence to be the ability to perceive foreign cultural circumstances from multiple perspectives, to have empathy and critical tolerance towards the foreign culture and its people, and thus the ability to understand the foreign culture, the role expectations of its members and their actions, to have strategies to deal with phenomena of one's own and foreign culture and thus to interpret the foreign world against the background of one's own - and vice versa [6].

One method is the representation of intercultural communication situations between Germans and foreigners, whereby typically intercultural communication topics and rituals are made the subject of reflection. Another possibility is to present meaning as a culture-shaped unit, whereby learners are made aware of external perspectives and diversity of perspectives. Another possibility is to present intercultural communicative misunderstandings. In this way, misunderstandings that arise in conversation due to culture-related ideas are discussed; stereotypical ideas, associations, different scopes of terms and relationships between expressions and speaking intentions are also discussed [7].

One of the methodological means in foreign language teaching is games. Playful activities enable dynamic learning and help students master the content more easily. Playing is one of the innovative learning models and involves linking educational content and promoting motivation and thus the effectiveness of learning. Different types of games can positively influence the development of intercultural competence in foreign language teaching [6].

Play is one of a child's most important activities that develops numerous skills, abilities and attitudes. It is an important factor in the development and maturation of the child and a means by which students absorb reality and develop in cognitive, motor-sensory, psychomotor and socio-affective senses [7]. For a seven-year-old child, playing is a way of learning. The teacher must turn most activities in foreign

language lessons into a kind of game in which the child will participate with movements and speech expression. The ideal activities for students of this age are activities that have the appearance of play and fun and are quick and lively with lots of movement [1].

Conclusion

Intercultural competence has already established itself as an important component of foreign language teaching, mostly in the form of intercultural regional studies, which, however, only deals with the culture of the target language. Since all languages are linked to the culture of the respective language community, teaching German as a foreign language is also very suitable for teaching IK. This article suggested that Daf lessons be used more in the future to impart such IK, which is not only limited to the cultures of German-speaking countries. The proposal is based on the observation that the German language is gradually losing its importance as a world language and that a new goal of the German language as a foreign language is necessary.

REFERENCES:

1. Bergmann, Alexander (1993): »Interkulturelle Managemententwicklung« In: Matthias Haller (Hg.): Globalisierung der Wirtschaft. Bern: Haupt, 193–216.
2. Библер В. С. Диалог культур и школа XXI века // Школа диалога культур: идеи, опыт, проблемы. М., 1993. С. 31-42.
3. GEHRING (2002): Gehring, Wolfgang. Kulturelle Kontexte in Sprachlehrgängen an Haupt-und Realschule, in: Volkmann, Laurenz/Stierstorfer, Klaus/Gehring, Wolfgang (Hg.): Interkulturelle Kompetenz. Konzepte und Praxis des Unterrichts. Tübingen: Gunter Narr Verlag, 2002, 69–97.
4. Knapp, Karlfried/Knapp-Potthoff, Annelie (1990): »Interkulturelle Kommunikation«. In: Zeitschrift für Fremdsprachenforschung 1, 62–93.
5. Krumm, Hans-Jürgen (2010): Deutsch als Fremdsprache (DaF). In: Barkowski, Hans und Jürgen Krumm (Hrsg.): Fachlexikon Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Tübingen: A. Francke Verlag Tübingen und Basel: 47.

6. Сысоев П. В. Язык и культура: в поисках нового направления в преподавании культуры страны изучаемого языка // ИЯШ. М., 2001. С. 16-18.

7. Winter, Gerhard (1988): »Konzepte und Studien interkulturellen Lernens«, In: Alexander Thomas (Hg.): Interkulturelles Lernen im Schüleraustausch. Saarbrücken: Breitenbach, 151–178.

BADIIY USLUBNING LISONIY XUSUSIYATLARI

*Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich,
University of Business and Science oliy ta’lim muassasi,
Til va adabiyot ta’limi kafedrası dotsent v.b.
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Til vositalarining qo‘llanishida ana shunday keng planlilik bo‘lishi bilan birga, badiiy nutq uslubi doirasida ularni qo‘llashning ma’lum qoida-qonunlari ham amal qilinadiki, ana shu qoida-qonunlar uni boshqa uslublardan chegaralashga, farqlashga, imkon beradi. Bu, eng avvalo, badiiy nutq uslubining fonetik lug‘aviy va grammatik xususiyatlarida ko‘zga tashlanadi.

Kalit so‘zlar: Uslub, nutq uslublari, lison, til va ong, eskirgan so‘zlar, dialekt, jargon, varvarizm.

Vazifaviy uslublar tizimida qaraladigan badiiy nutq uslubi¹⁷ ham yuqorida ko‘rib o‘tganimiz uslublarda bo‘lgani kabi o‘zining alohida lisoniy belgilariga egadir. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lug‘aviy birliklarning hamda boshqa vazifaviy uslub unsurlarining ishtirok etaverishi va ularning muhim bir vazifaga - estetik vazifani bajarishga xizmat qilishini badiiy nutq

¹⁷ Ilmiy adabiyotlarda «badiiy adabiyot tili», «adabiy-badiiy stil», «adabiy-belletristik stil», «badiiy nutq» kabi terminlar uchraydi. Bu terminlarning barchasi badiiy nutqla til vositalaridan u yoki bu darajada, ma’lum masalalar ko‘zda tutib foydalanish maqsadga muvofiqligi uchun ular sinonim sifatida qaraladi. Biz ko‘pchilik olimlar tomonidan ma’qullangan va asosiy lingvistik adabiyotlarda ishlatilib kelinayotgan termin — «badiiy nutq uslubi» terminidan foydalanishni ma’qul deb hisoblaymiz.

uslubining o'ziga xos xususiyati deb qarash kerak bo'ladi. Chunki ana shunday imkoniyat boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangandir.

Badiiy adabiyot tili adabiy til bilan birga umumxalq tili boyliklarini ham qamrab oladi. Ya'ni, asarning janr va mavzu talabi bilan, yozuvchining individual uslubiga bog'liq holda badiiy nutqda umumxalq tilidagi barcha lug'aviy qatlamlar ishtirok etaveradi. Xuddi shu ma'noda, boshqacha aytganda, til materialini qamrab olish imkoniyatiga ko'ra badiiy adabiyot tili adabiy til doirasidan chiqib ketadi va umumxalq tili boyligining deyarli barcha xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan, adabiy tilda dialektizmlar, jargonlardan, varvarizmlardan, dag'al so'zlardan, eskirgan so'zlardan, oddiy so'zlashuv tili elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmagani holda ularni badiiy nutqda o'rni bilan qo'llash mumkin. Masalan, eskirgan so'zlar: *Haqorat, g'azab, alam bilan aytilgan uzuq-yuluq gaplardan bu g'alayonning asl sababini uqib ola bildi: podshoh va bir ko'p vazirlar Hirotni tark etishi bilan, zakot ishlarini idora qiluvchi Xo'ja Abdullo, Xo'ja Qutbiddin, Nizomiddin Baxtiyor va hokazo ma'murlar o'z bilganlaricha xalqqa yana soliq soldilar.* (Oybek.)

Badiiy adabiyot tilining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, so'z san'atkorlari faqatgina umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'z va iboralaridagina foydalanib qolmasdan, ularni qayta ishlab, yangi-yangi ma'nolarda qo'llaydilar, ma'nolarni kengaytiradilar, boyitadilar. Tilimizning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi so'z va iboralar yaratadilar. Demak, badiiy nutq uslubi qonuniyatlari tilimizning taraqqiyot qonunlari bilan hamohangdir.

Adabiy tilning nutqiy imkoniyatlari to'laligicha badiiy nutq uslubida namoyon bo'ladi deyish mumkin. Vazifaviy uslublarning hech birida, badiiy nutq uslubidagichalik til o'zining tuzilish jihatlari, lug'at tarkibi, ya'ni so'zning ma'no boyligi va rang-barangligini, to'g'ri va ko'chma ma'nolarini namoyish qila olmaydi, grammatik qurilishi, ya'ni gaplarning barcha tiplari bilan ishtirok etolmaydi. Til vositalarining qo'llanishida ana shunday keng

planlilik bo'lishi bilan birga, badiiy nutq uslubi doirasida ularni qo'llashning ma'lum qoida-qonunlari ham amal qilinadiki, ana shu qoida-qonunlar uni boshqa uslublardan chegaralashga, farqlashga, imkon beradi. Bu, eng avvalo, badiiy nutq uslubining fonetik lug'aviy va grammatik xususiyatlarida ko'zga tashlanadi.

Badiiy nutq uslubining lug'aviy o'ziga xosligi uni ilmiy uslub bilan taqqoslab o'rganganda yaqqol namoyon bo'ladi. Ilmiy uslubda lug'aviy birliklarning qo'llanishi birmuncha chegaralangan bo'lib, so'zlar asosan bir ma'noda ishlatiladi, matnda tez-tez takrorlanadi. Matndagi asosiy so'zlarni atamalar va turg'un birikmalar tashkil qiladi. Badiiy nutq uslubida esa umumiste'molda bo'lgan barcha lug'aviy birliklar erkin ishlatilaveradi va ularni o'z va ko'chma ma'nolarda bemalol qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, *non, suv, o't, er, osmon, quyosh, oy, yuldo'z, o'rmon, dala, ishlamoq, yurmoq, turmoq, o'tirmoq* kabi «nol» bo'yoqqa ega bo'lgan neytral leksikaning ilmiy uslubda qo'llanilishni birmuncha tor doirada bo'lsa, badiiy nutq uslubida o'zining lug'aviy ma'nosini anglatganidan tashqari o'rni bilan ham badiiy-estetik funksiyani bajaradi, ham ko'chma ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan: *Yulduelarga kecha-kunduzlar*, Raketalar uchdi basma-bas. *Ey odamlar -yuksak yulduzlar*, Sizga uchib etsam, menga bas. (R. Hamzatov.) Umuman, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash badiiy nutq uslubining o'ziga xos xususiyatidir. Badiiy matnda, so'z ma'nosining o'zgarishi, kengaynishi, ko'n ko'rinishli bo'lishi va hatto lug'atlarda qayd etilmagan ma'nolar kasb etishi mazkur nutq uslubi uchun qonuniyat sanaladi.

Badiiy nutq uslubi leksikasidagi o'ziga xosliklar sinonim so'zlarga bo'lgan munosabatda yanada ochiq ko'zga tashlanadi. Ilmiy uslubda sinonimik qatordagi so'zlarning nisbatan neytral bo'yoqqa va aniq bir ma'noga ega bo'lgan varianti ishlatiladi. Badiiy nutq uslubida esa o'rni bilan ularning hammasi, asosan hissiy-ekspressiv bo'yog'i bo'lgan shakli ko'p ishlatiladi. Demak, bu uslubda sinonimlarni tanlab ishlatish imkoniyati

birmuncha keng bo‘ladi. Bu fikrning qanchalik to‘g‘riligini aniqlash uchun hisob-kitobga murojaat qilamiz. Zulfiya ijodidagi bir necha sinonimik qatorlarni qiyos qilganda ularning qo‘llanish darajasi quyidagicha bo‘ladi: a) nur-186, *shu’la-24*, *ziyo-11*, *yogdu-3*; b) *qaynoq-19*, *jo’shqin-14*, *qizg’in-18* v) *faqat-57*, *tanho-25*, *yolg‘iz-22*, *xolos -6*; g) *ko’krak-22*, *ko’ks-62*, *bag‘ir*, *siyna-7*, *to’sh-2*, *o’mrov-1*; d) *kulgi-22*, *tabassum-24*, Misollardagi birinchn so‘zlar uslubiy jihatdan neytral so‘zlar bo‘lib, ikkinchilari hissiyot ekspressiv ma’noga ega, qolganlarida ham u yoki bu darajada uslubiy bo‘yoq sezilib turadi.

Sinonim so‘zlarning bunday uslubiy xususiyatlaridan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin bo‘ladi: badiiy nutq uslubida neytral leksikaning ishlatilishi faoldir. Bu narsa tilning, qaysi o‘rinda bo‘lmasin, eng avvalo, xabar berishlik xarakterda ekanligini tasdiqlaydi. Hissiy ekspressiv bo‘yog‘i ko‘proq bo‘lgan so‘zlar-kitobiy leksikaning mahsuldor ishlatilishi esa badiiy nutq uslubining o‘ziga xos xususiyatidir.

Lug‘aviy birliklardan tashqari frazeologik birliklarning faol va keng ravishda ishlatilishi ham badiiy nutq uslubining asosiy belgilaridan sanaladi. Ilmiy uslub va rasmiy hujjatlar uslubi uchun frazeologik birliklarning ishlatilishi xos emas. So‘zlashuv uslubida ko‘pincha tildagi tayyor birliklardan foydalanilsa, badiiy ijodda shoir va yozuvchilar ulardan foydalanibgina qolmasdan, ijodiy o‘zlashtiradilar, o‘rni bilan yangilarini yaratadilar. Masalan, *Zulfiya igna bilan quduq qazimoq* iborasi zamirida *xotira qudug‘ini qazimoq* frazeologizmini yaratadi: *Sen o‘zing jim yotma, bu keng dunyoda*. Hali ko‘rar shodlik, qilar ishing ko‘p. *Qit‘adan-qit‘aga kezding piyoda*, *Xotirang qudug‘in qazish kerak xo‘p*.

O‘zbek tilidagi har bir vazifaviy uslub o‘zining grammatik belgilariga ega bo‘lib, bu, eng avvalo, grammatik shakllarni, so‘z turkumlarinn qo‘llashda, gap qurilishining o‘ziga xosligida ko‘rinadi. Kichik grammatik birlik - qo‘shimchalarni ko‘zdan kechiraylik. By erda ham badiiy nutq uslubining lug‘aviy xususiyatlarida ko‘rganimiz kabi grammatik shakllarni

kengroq qo‘llashda ko‘zga tashlanadi. Masalan, otlarning ko‘plik shakli *lar* badiiy nutq uslubida ko‘plik ma’nosipi anglatishdan tashqari, unga bog‘liq ravishda yana bir necha ma’nolarni ifodalaydi. Bu kabi xususiyatlar ilmiy va rasmiy uslublarga xos emasdir.

Badiiy nutq uslubida ma’lum grammatik shaklning barcha ko‘rinishlari-sheva va tarixny variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo‘llanaveradi. Ya’ni badiiy nutq uslubida grammatik sinonimlardan ham ganlab olib ishlatish imkoniyati mavjud. Masalan, qaratqich kelishigining adabiy shakli *-ning* bilan parallel holda badiiy nutqda *-in* va *-im* shakllari ham ishlatilaveradi. *Dunyo bo‘ldi chamanim manim, O‘zbekiston Vatanim manim* (A. Oripov).

Bundan tashqari o‘zbek tilidagi bir qator affikslar faqatgina badiiy nutq uslubi uchun xosdir¹⁹. Masalan: *-ajak* (borajak), *-gusi*, *-gusi* (bo‘lg‘usi), *-gali* (tergali), *-gay* (yurgay, kuygay), *-kin* (bormikin), *-mish* (qolmish), *-n* (gunohin yuvmoq), *-na* (ustina), *-on* (qo‘yibon), *-qali* (taqqali), *-gil* (qo‘ygil), *-qil* (boqqil) va hokazo.

Badiiy nutq uslubida barcha so‘z turkumlarining ishtirok etishi bu uslub uchun normal xususiyatdir. Ammo ularning badiiy nutqda qaysi biri faol yoki nofaol ekanligini anik-lash maxsus statistik ko‘zlashni taqozo qiladi²⁰. Shuning uchun so‘z turkumlarini qo‘llashda bo‘rtib turgan ayrim xususiyatlar-nigina sanab o‘tamiz²¹.

Vazifaviy uslublar faqatgina leksik va morfologik jihatdangina emas, sintaktik jihatdan ham bir-birlaridan farq qiladi. AMMO badiiy nutq uslubining sintaktik xususiyatlari haqida bu uslubda yozilgan asarlarning janr bo‘li-pishlarini e’tiborga olmasdan turib gapirish qiyin. Chunki, har bir janrning sintaktik tuzilishi o‘ziga xosdir.

¹⁹ Ғуломов А., Тихонов А., Қўнгуоров Р. Ўзбек тилнинг морфем луғати.- Тошкент: Ўқитувчи, 1977, 399-447-бетлар.

²⁰ Головин Б.А. Язык и статистика- М., Просвещение, 1971, с, 63-91.

²¹ Қўнгуоров Р., Каримов С. А., Қурборов Т. И. Узбек тилининг функционал стиллари. Ўқув қўлланмаси.- Самарқанд; СамДУ нашри, 1984, 54-59-бетлар.

Adabiyot nazariyasiga oid asarlarda²² adabiy tur va janrlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ammo bu ishlardagi tur va janrlar tasnifi lingvistik tahlil uchun qulay emas. Masalan, epik tur doirasida qaraladigan asarlarning ayrimlari (aytaylik dostonlar) ham prozaik, ham she'riy yo'l bilan yozilgan. Bu narsa lingvistik jihatdan qiyinchilik tug'dirishi mumkin. «Adabiyot nazariyasi» asarining mualliflari badiiy asar tilini tuzilishiga ko'ra farqlaydi va uni ikkiga - prozaik va she'riy asarlar tiliga bo'ladi⁵⁴. Badiiy nutq uslubi sintaksisini o'rganishda ham ana shu tasnifga tayanish birmuncha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilganimizda, til vositalarining vazifaviy chegaralanishi ularni nutq jarayonida ham farqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Demak, nutqda - yozish va so'zlash jarayonida masalaga nutq mavzusi va xususiyati nuqtai nazaridai yondoshilib, vazifaviy uslublarning amal qilish qonuniyatlari va talablarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilmiy adabiyotlarda «badiiy adabiyot tili», «adabiy-badiiy stil», «adabiy-belletristik stil», «badiiy nutq» kabi terminlar uchraydi. Bu terminlarning barchasi badiiy nutqla til vositalaridan u yoki bu darajada, ma'lum masalalar ko'zda tutib foydalanish maqsadga muvofiqligi uchun ular sinonim sifatida qaraladi. Biz ko'pchilik olimlar tomonidan ma'qullangan va asosiy lingvistik adabiyotlarda ishlatilib kelinayotgan termin – «badiiy nutq uslubi» termindan fondalanishni ma'qul deb hisoblaymiz.

2. Ғуломов А., Тихонов А., Қўнгуоров Р. Ўзбек тилнинг морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977, 399-447-бетлар.

3. Головин Б.А. Язык и статистика- М., Просвещение, 1971, с, 63-91.

²² Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 392-бет; Адабиёт назарияси, ИИ том,- Тошкент: Фан, 1977. 184-304- бетлар; Шукров Н. ва бошқ. Адабиётшуносликка кўриш.- Тошкент: Ўқитувчи, 1984,

194-240- бетлар. Адабиёт назарияси, 2 том. – Тошкент: Фан, 1977. – 357 бет.

4. Қўнғуров Р., Каримов С. А., Қурборов Т. И. Узбек тилининг функционал стиллари. Ўқув қўлланмаси.- Самарқанд; СамДУ нашри, 1984, 54-59-бетлар.

5. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент. Ўқитувчи, 1980. 392-бет; Адабиёт назарияси, III том. – Тошкент: Фан, 1977. 184-304- бетлар: Ш у к у р о в Н. ва бошқ. Адабиётшуносликка кнриш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 194-240- бетлар. Адабиёт назарияси, 2 том. – Тошкент: Фан, 1977. 357 бет.

O‘ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Tursunov Akmal Raxmatullayevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

O‘zbek va chet tillar kafedrasida F.f.f.d (PhD) dotsenti

gmail:akmal_tursunov_1971@mail.ru

Talaba: Jamolov Nurbek Nabijon o‘g‘li

18-25 APP guruhi.

Komilov Rustamjon O‘ktam o‘g‘li

5-25 SI guruh talabasi.

Annotatsiya. O‘zbek adabiy tili davlat tili sifatida jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanilishi, uning meyorlari va sifatini ta‘minlash zarurati kundand-kunga ortib bormoqda. Davlat tili -davlat hokimiyati organlari, ma‘muriy idoralar, qonunchilik va sud tizimi hamda ta‘lim muassasalarida rasmiy ravishda qo‘llaniladigan tildir. Bu qaror mamlakatning global maydonda integratsiyasini kuchaytirish, texnologik taraqqiyot va yosh avlodni zamonaviy dunyo bilan yaqinlashtirish maqsadida qabul qilindi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, O‘zbek, Davlat tili, adabiy, tendensiy, qonunlar, rivojlanish, chora-tadbirlar, lotin yozuvi, zamonaviy, ta‘lim, til, mobil.

Аннотация. Необходимость активного использования узбекского литературного языка в качестве государственного во всех сферах жизни общества, обеспечение его уровня и качества возрастает с каждым днём. Государственный язык – это язык, официально используемый в органах

государственной власти, управления, законодательной и судебной системе, в образовательных учреждениях. Это решение принято в целях укрепления интеграции страны в мировое сообщество, содействия технологическому прогрессу, приближения молодого поколения к современному миру.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, узбекский, государственный язык, литературный, трендовый, законы, развитие, меры, латинская графика, современный, образование, язык, мобильный.

Abstract. The need for the active use of the Uzbek literary language as a servant in all spheres of society, ensuring its level and quality every day. The state language is the language officially used in government bodies, administration, the legislative and judicial systems, and educational institutions. This decision was made to strengthen the country's integration into the global community, promote technological progress, and bring the younger generation closer to the modern world.

Keywords: New Uzbekistan, Uzbek, state language, literary, trending, laws, development, measures, Latin script, modern, education, language, mobile.

Ma'lumki, har bir xalq va millatning mavjudligi uning tili bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dunyodagi aksariyat xalqlar o'z tili bilan tanilib, ajralib turadi. O'zbek tili turkiy tillar oilasidagi eng qadimiy tillardan biri sifatida o'zining taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi va bugungi kungacha yetib keldi. Tilshunoslik manbalarida o'zbek tili tarixi jamiyatning siyosiy voqeliklari va ijtimoiy hayotiga qarab uch davrga bo'linadi:

1. Turk adabiy tilining qadimgi davri (VII-XIII asrlar);
2. O'zbek tilining oldingi davri (XIII-XIV asrlardan to XX asr boshlarigacha);
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili (XX asr boshidan hozirgi kungacha).

Yusuf Xos Hojibning "Qudatg'u bilig'" (XI asr), Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" (XI asr), Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" (XII asr), Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" (XII asr) asari va boshqa bir qancha yozma yodgorliklar o'zbek tilining uzoq o'tmishidan dalolat beradi. O'zbek adabiy tilining shakllanishida mumtoz o'zbek adabiyotining asoschisi Mir Alisher

Navoiyning o‘rni beqiyos. Navoiy o‘zining rang-barang she‘rlari va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bilan turkiy tilning fors tilidan kam emasligini isbotlay oldi

Yangi O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘lida til milliy identitetning ajralmas qismi sifatida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek adabiy tili davlat tili sifatida jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanilishi, uning meyorlari va sifatini ta‘minlash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilinadi.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida Konstitutsiyada mustahkamlangan bo‘lib, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Davlat tili sifatida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi kengayib, ta‘lim, huquq, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida faol ishlatilmoqda.

Davlat tili – davlat hokimiyati organlari, ma‘muriy idoralar, qonunchilik va sud tizimi hamda ta‘lim muassasalarida rasmiy ravishda qo‘llaniladigan tildir. Davlat tilining mavqei va o‘rni har bir mustaqil davlatning milliy o‘zlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va davlat boshqaruvini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Davlat tilining asosiy vazifalaridan biri - davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi samarali muloqotni ta‘minlashdir. Shu bilan birga, u millatning madaniy merosi va ma‘naviy boyligini ifodalaydi, milliy xududiylikni belgilaydi. Davlat tilining rasmiy maqomi mamlakatning huquqiy bazasida aks ettirilib, qonunchilikda belgilanadi, bu esa uning ishlash doirasi va himoyasini ta‘minlaydi.

Tillar rivojlanar ekan, albatta, o‘zaro bir-biriga ta‘sir o‘tkazadi. Natijada, tillarning lug‘at tarkibi ham boyib boradi. “Xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan, lug‘aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o‘tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi” .Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining ko‘p vaqtlar mobaynida arab, fors-tojik tillari, rus tili orqali Yevropa tillaridan so‘z o‘zlashtirib, rivojlangani bunga misol bo‘la oladi. Lekin shunday so‘zlar borki, ular asli turkiy bo‘lib, boshqa tillarga o‘zlashgan va keyinchalik ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan

yana tilimizga qaytgan. Ilmiy jihatdan, davlat tilining mavqei milliy til siyosati va lingvistik muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Davlat tilini rivojlantirish va mustahkamlash uchun davlat tomonidan turli chora-tadbirlar amalga oshiriladi, jumladan ta’limda davlat tilidan keng foydalanish, ommaviy axborot vositalarida uni targ‘ib qilish va qonunlar orqali himoya qilish kabi.

Shuningdek, globallashuv davrida davlat tilining himoyasi va rivojlantirilishi yangi chaqiriqlarga duch kelmoqda. Xalqaro aloqalarda tillar o‘rtasidagi tenglik va milliy tilning jahon maydonidagi o‘rni masalalari davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylanmoqda.

Davlat tilining mavqei – davlat suvereniteti, milliy identifikatsiya va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omildir. Davlat tilini mustahkamlash va rivojlantirish davlat tomonidan amalga oshiriladigan til siyosati, qonunchilik va madaniy strategiyalar orqali ta’minlanadi.

O‘zbekistonning lotin yozuviga o‘tish jarayoni o‘zbek tilining rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etadi. Bu jarayon xalqaro aloqalarni mustahkamlash, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi rasmiy ravishda kirill yozuvidan lotin yozuviga o‘tish jarayonini boshladi. Bu o‘zbek tilining yozma nutqini takomillashtirish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish va texnologik yangilanishlarga moslashish maqsadida amalga oshirilayotgan muhim siyosiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlardan biridir.

O‘zbek tilining yozuvi tarixan turli shakllarda mavjud bo‘lgan. 1920-yillarga qadar arab yozuvi asosida yozilgan o‘zbek tili, so‘ngra sovetlar davrida kirill yozuviga o‘tkazildi.

1993-yilda mustaqillikdan so‘ng, davlat rahbariyati tomonidan o‘zbek tilining lotin yozuviga o‘tishi haqida qaror qabul qilindi. Bu qaror mamlakatning global maydonda integratsiyasini kuchaytirish, texnologik taraqqiyot va yosh avlodni zamonaviy dunyo bilan yaqinlashtirish maqsadida qabul qilindi.

Lotin yozuviga o‘tishning asosiy sabablari:

1.Global integratsiya: Lotin yozuvi dunyoda eng keng tarqalgan yozuv tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu yozuvga o'tish O'zbekistonga xalqaro ilm-fan, texnologiya va savdo sohaslarida yanada faol qatnashish imkonini beradi.

2.Texnologik moslashuv: Kompyuter texnologiyalari, internet va mobil qurilmalarda lotin yozuvi samaraliroq ishlaydi. Lotin yozuviga o'tish axborot texnologiyalari sohasida rivojlanishni tezlashtiradi.

3.Madaniy yangilanish: Yozuvni soddalashtirish va zamonaviylashtirish orqali yosh avlodning tilga qiziqishini oshirish, xalqaro hamkorlik va madaniyatlararo aloqalarni kengaytirish mumkin.Lotin yozuviga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Dastlabki bosqichlarda harflar tizimi, imlo qoidalari va uslubiy jihatlar ishlab chiqildi. O'quv darsliklari, matbuot va rasmiy hujjatlar yangi yozuvda chop etilmoqda. Ammo, bu jarayon o'ziga xos qiyinchiliklar bilan ham kechmoqda. Eski yozuvdan yangi yozuvga o'tishda aholining, ayniqsa katta yoshdagi insonlarning moslashuvi sust kechishi mumkin. Shuningdek, ayrim texnik va didaktik masalalar hali to'liq hal qilinmagan.Lotin yozuviga o'tish jarayoni O'zbekistonda til, madaniyat va texnologiya sohaslarida muhim yangilanish sifatida qaraladi.

Bu jarayon mamlakatning global maydonda o'z o'rmini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida lotin yozuvi asosida o'zbek tilining yanada rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun tizimli ishlar davom ettirilishi zarur. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o'zbek tilining yangi sohalarda qo'llanilishini ta'minlaydi. O'zbek tilida dasturlar, mobil ilovalar, veb-saytlar va boshqa raqamli mahsulotlarning yaratilishi tilning zamonaviy talablarga javob berishini ko'rsatadi.

Hozirgi zamon jamiyatlari tez sur'atlarda texnologik taraqqiy etmoqda. Bu taraqqiyot nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga, balki madaniyat va til sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Texnologik rivojlanish tilimizning shakllanishi va rivojlanishiga yangi imkoniyatlar va muammolarni taqdim etmoqda.

Avvalo, texnologiyalar tilning tarqalishini sezilarli darajada osonlashtirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil aloqa vositalari orqali til juda tez va keng

miqyosda tarqalmoqda. Bu esa tilning yangi leksika va ifodalar bilan boyishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, kompyuter va internet texnologiyalari bilan bog'liq yangi so'zlar, jumladan *“server”*, *“fayl”*, *“skayp”*, *“messenjer”* kabi terminlar kundalik suhbatlarda keng tarqalmoqda.

Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot tilning yo'qolishi yoki zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, kichik millatlar va kam so'zlanadigan tillar internet va global kommunikatsiyalarda ozchilikda qolib, ularning sog'lom rivojlanishi va saqlanishi xavf ostiga tushadi. Bu borada texnologiyalarning yordamida tillarni saqlash va tiklashga qaratilgan loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Misol uchun, sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalari yordamida kam so'zlanadigan tillarning lugatlari tuzilmoqda va ularni o'rganish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shuningdek, texnologiyalar tilning funksional jihatdan rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda. Misol uchun, audio va video texnologiyalari orqali til o'rganish jarayonlari samaradorligi oshmoqda. Hozirgi kunda til o'rganishda onlayn kurslar, interaktiv dasturlar va mobil ilovalar keng qo'llanilmoqda. Bu esa tilga nisbatan qiziqishni oshiradi va uning yangi avlodlar orasida saqlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, texnologik rivojlanish tilga jamiyat hayotida yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda, bir vaqtning o'zida esa uning yo'qolish xavfini ham yaratadi. Shu sababdan, texnologik yutuqlardan unumli foydalanish, tilni asrash va rivojlantirish borasida maqsadli strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir.

O'zbek adabiy tili – milliy madaniyat va ma'naviyatning muhim qismi bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. So'nggi yillarda o'zbek adabiy tilining rivojlanishi sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgan bo'lsa-da, bir qator muammolar hamon mavjud bo'lib, ularni hal etish tilning yanada mustahkamlanishi va takomillashuvi uchun zarurdir.

1. Tilning normativ asoslarining noaniqligi.

O‘zbek adabiy tilining normativ asoslari, ya’ni imlo, uslub va lug‘at normalari haqida yagona, aniq va keng qabul qilingan qoidalar hali to‘liq shakllanmagan. Bu esa, ayniqsa, yozma til va rasmiy hujjatlarda bir xillikni buzadi. Shu sababli, tilshunoslar va mutaxassislar o‘rtasida bir xil me’yoriy hujjatlarni yaratish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

2. Tilning leksik boyligi va terminologiya muammolari

O‘zbek tili tez rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlariga mos kelishi uchun yangi atamalar va terminlarni izchil yaratish va qabul qilish talab etiladi. Ammo bu jarayon hali to‘liq tizimlashtirilmagan. Ko‘plab sohalarda xorijiy so‘zlar kirib kelib, o‘zbek tilining o‘ziga xosligini susaytiradi. Shu bois, milliy terminologiyani shakllantirish, yangi lug‘atlarni yaratish va ularni targ‘ib etish ustuvor vazifadir.

3. Tilning standartlashtirilishi va hududiy dialektlarning ta’siri .

O‘zbek tili turli hududlarda turlicha talaffuz va lug‘at boyligiga ega bo‘lib, bu ba’zan adabiy til va xalq tilining farqlanishiga sabab bo‘ladi. Standart tilni shakllantirish jarayonida hududiy dialektlarning ta’siri va ularning bir-biriga moslashuvi dolzarb masala hisoblanadi.

4. Ta’lim tizimidagi muammolar.

O‘zbek tilining rivojlanishi ta’lim tizimiga ham bog‘liqdir. Ba’zi maktablarda va oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tilining zamonaviy normativlarini yetarlicha o‘rgatish va targ‘ib qilishga e’tibor kam qaratilmoqda. Bu holat yosh avlodda tilga bo‘lgan qiziqish va malakani pasaytiradi.

5. Zamonaviy kommunikatsiya vositalaridagi o‘zbek tilining o‘rni.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar kabi zamonaviy kommunikatsiya vositalarida o‘zbek tilining to‘liq va to‘g‘ri qo‘llanilishi hali yetarli emas. Ko‘p hollarda so‘zlashuv tili yoki aralash tillar ishlatiladi, bu esa tilning izchilligi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishidagi muammolarni hal etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, normativ hujjatlarni takomillashtirish, ta’lim jarayonida tilni chuqur o‘rgatish va zamonaviy texnologiyalar orqali tilni

rivojlantirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shunda milliy tilimiz yanada boyib, mustahkamlanib boradi va global dunyoda o‘z o‘rnini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 160 b.
2. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – 85 b
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati . I-IV. – Toshkent: FAN, 1983-1985.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1- kitob. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – B. 115.
5. Rahmonov M. So‘zlar olamiga sayohat. – Toshkent: Fan, 2011. – B. 42.

“YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA TEMURIY MALIKALAR TASVIRI

Sharipova Mahfuza
Namangan davlat pedagogika instituti
2-kurs magistranti
[*mahfuzxon.sharipova@gmail.com*](mailto:mahfuzxon.sharipova@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqola mashhur adib Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida temuriy malikalar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lib, asarda tarixiy ayollar siymosining badiiy yoritilishi ilmiy-nazariy tahlil etiladi. Unda, xususan, temuriylar sulolasi sharafini yuksaltirgan ikki yorqin obraz – Qutlug‘ Nigorxonim va Xonzodabegim siymolari alohida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy roman, “Yulduzli tunlar”, Qutlug‘ Nigor xonim. Xonzoda begim, malika, “Boburnoma”.

Annotation. This article is devoted to the depiction of the Timurid princesses in the famous writer Pirimqul Qodirov’s novel “Yulduzli tunlar” (Starry Nights), providing a scholarly and theoretical analysis of the artistic portrayal of historical

female figures in the work. In particular, it focuses on two vivid characters who enhanced the glory of the Timurid dynasty – Qutlug‘ Nigorxonim and Khonzoda Begim.

Keywords: Historical novel, Yulduzli tunlar (Starry Nights), Qutlug‘ Nigorxonim, Khonzoda Begim, princess, Baburnama.

Ayollar orasidan ham qudratli hukmdorlar, aqli maslahatchilar, yetuk donishmandlar, mashhur olimalar, ma‘rifatli shoiralalar va zukko san‘at ahli yetishib chiqqan. Masalan, massagetlar malikasi To‘maris, qadimgi Palmiraning hukmdori Zinoviya, Ispaniya qirolichasi Izabella va Armaniston malikasi Tamara o‘z davrining yetuk siyosiy arboblari sifatida tarixda qolgan. Garchi bunday hukmdor, olim, shoir va donishmand ayollar G‘arbda sanoqli bo‘lsa-da, Sharq mamlakatlarida ularning salmog‘i sezilarli darajada. Birgina Amir Temur va temuriylar sulolasiga mansub xotin-qizlar ham buning yorqin misolidir.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Temuriy malikalar obrazi yuksak badiiylik bilan talqin etilgan. Bu asar nafaqat tarixiy voqealar xronologiyasini, balki o‘sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy hayotini, ayollar jasorati va ularning davlat ishlaridagi o‘rnini yoritadi. Ularning ma‘naviy qudrati, vatanparvarligi, fidoyiligi Boburning haqiqiy davlat rahbari darajasiga yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada, asosan, Qutlug‘ Nigorxonim va Xonzoda begim siymolari, ularning “Yulduzli tunlar” dagi tasviri tahlil qilinadi.

O‘zining oqilligi, donoligi va sadoqati bilan tarix sahifalarida o‘ziga munosib o‘rin egallagan, “Boburnoma”da eng ko‘p tilga olingan xotin-qizlardan biri – Qutlug‘ Nigorxonimdir. Bobur memuarida bu siymo badiiy dalillar bilan boyitilgan, falsafiy teranlikda tasvir etilgan. Umarshayx Mirzoning umr yo‘ldoshi bo‘lgan bu chingiziy aslzoda nihoyatda nazokatli, zukko, qat‘iyatli va tadbirkor ayol sifatida Bobur Mirzo hayoti bilan uzviy bog‘liq holda tarixiy voqealar tasvirida yaqqol namoyon bo‘ladi. “Boburnoma” sahifalarida ona va o‘g‘il taqdiri, ularning qadam-bosdi yo‘li bir-biridan uzilmagan, aksincha, bir-biri bilan chambarchas chirmashib ketgani ko‘rinadi. “Vaqoe” muallifi o‘z umr kitobining “Sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi” (milodiy 1494) yil voqealariga bag‘ishlangan ilk

qismida onasini kitobxonga quyidagicha tanishtiradi: "...uch o'g'ul, besh qiz Mirzodin (Umarshayx Mirzo) qolib edi. Bori o'g'lonlaridan uluq, men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim, mening onam Qutluq'nigor Xonim edi". [1, 11] Shuningdek, "Boburnoma" muallifi onasining yuksak xonadon vakili ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi: "Qutlug'nigor Xonim Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi edi. Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy. Yunusxon ibn Uvaysxon ibn Sherali o'g'lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon ibn Tug'luq Temurxon ibn Esan Bo'g'axon ibn Do'vaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mo'tog'on ibn Chig'atoyxon ibn Chingizxon". [1, 12] Mazkur iqtibosdan ko'rinadiki, Qutlug' Nigorxonimning otasi Yunusxon nasab jihatidan o'n ikkinchi avlod orqali Chingizxon sulolasiga bog'lanadi.

"Yulduzli tunlar" romanida Umarshayx Mirzoning birinchi uylangan ayoli sifatida Fotima sulton nomini keltirgan, lekin "Dasturxon atrofida eng mo'tabar hisoblangan, Umarshayx Mirzoning o'ng tomonga esa ,Qutlug' Nigorxonimni taklif qildi. Xonim – taxt vorisi Zahiriddin Muhammad Boburning onasi edi, uning o'ng tomonida o'tirishi adolatdan ekanini kichik xotinlar tan olar edilar. Ammo Fotima Sulton o'zining hurmati Qutlug' Nigor xonimnikidan past ekanini yana bir marta his qilib, ko'zlari alam bilan qisildi"[2, 45]deya tasvirlangan. Haqli ravishda Qutlug' Nigorxonim bo'lg'usi podshohning onasi sifatida bunday ehtiromga loyiq edi. Boshqa temuriy malikalardan farqli o'laroq "Boburnoma"ning biror yerida Qutlug'nigor Xonimning turmush ortogi Umarshayx Mirzo hukmronligi davrida saltanat ishlariga aralashganligi haqida malumot uchramaydi, Qutlug' Nigor Xonimning mamlakat birligi va daxlsizligi uchun faol harakati hijriy sakkiz yuz to'qson to'qqizinchi yili, ramazon oyining beshinchisida, seshanba kunidan (milodiy 1494-yil 10-iyunda) 12 yashar o'g'li Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona viloyati podshohligi taxtiga o'tirishi bilan boshlanadi. Chunki shu voqeadan bir kun oldin, 38 yoshni qarshilagan, uning turmush o'rtog'i Umarshayx Mirzo qal'a ustida joylashgan kabutarxonadan jarga qulab, vafot etadi. Shu damda turli tahlikalar ostida qolgan mamlakat ikki o't orasida qolgan bir vaziyat edi.

Umarshay Mirzo vafotini eshitgandan so'ng Qutlug' Nigor xonim ruhan tushkunlikka tushsa-da, ona sifatida o'z o'g'lining kelgusi taqdirini o'ylaydi. Yoridan ayrilgan, yolg'iz o'gli taqdiri haqida tashvishga tushgan onani va unga qarshi turgan kundoshining holatini yozuvchi Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" romanida shunday tasvirlaydi: "Qutlug' Nigorxonim ko'z yoshlarini artib, o'z xonasiga chiqdi va eng ishongan amirlaridan Qosimbekni chaqirtirdi. Uni topib kelgunlaricha Andijon, chorbog'ida Bobur bilan birga turgan onasi Eson Davlat begimning nomiga maktub yozdi. Bu paytda uning kundoshi Fotima Sulton begimning topshirig'i bilan Andijonga yashirincha jo'nagan Ahmad Tanbal bu orada Sirdaryo ko'prigidan o'tib, Bandi Solor yo'li bilan ancha joyga borib qolgan edi. Ko'zga tashlanmaslik uchun bittagina navkar ergashtirib ketayotgan Ahmad Tanbal kecha Andijondan kelgan kelgan edi. Bugun Fotima Sulton unga kata vadalar berdi. Agar Ahmad Tanbal sodiq beklarining boshini qovushtirib, Boburni chetlatsa-yu taxtga Jahongir Mirzoni o'tqazsa, marra uniki". [2, 13]

Romandagi eng ta'sirchan va murakkab obrazlardan biri Xonzoda begimdir. Uning siymosi orqali muallif Temuriy ayollarining jasorati, vatanparvarligi, oila sha'ni yo'lida fidoyiligi kabi xususiyatlarni ochib beradi. Bobur Samarqandni qo'lga kiritishga intilgan, ammo ichki ziddiyatlar kuchaygan davrda Xonzoda begimning jasorati alohida namoyon bo'ladi. U erkakcha to'n kiyib, beliga kamar bog'lab, qal'a himoyachilari safiga qo'shilib, shaharni dushmanlardan himoya qiladi. [3]. Bu epizod romanda shunday yoritiladi: "Xonzoda begim erkakcha to'n va bo'rk kiyib, beliga kamar bog'lab, xanjar osib, hayot-mamot qil ustida turgan qal'a himoyachilariga ko'makka bordi" [2.114]. Bu voqea uning mardligi, qo'rquv bilmasligi, Vatanga muhabbati naqadar ulkan ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Xonzoda begim o'z oilasini, inisi Boburni asrab qolish uchun shaxsiy orzularini qurbon qiladi: u siyosiy kelishuv yo'lida Shayboniyxonga turmushga chiqishga majbur bo'ladi [5]. Bu orqali muallif ayolning fidoyiligi, oila sha'ni yo'lida qilgan qurbonligini ko'rsatadi. Xonzoda begimni ko'plab tadqiqotchilar To'marisga qiyoslaydi – u ham o'z xalqini himoya qilish uchun hayotini xavf ostiga qo'ygan

[6]. Bobur uchun singlisining bu fidoyiligi beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, uning siyosiy faoliyatida mustahkam poydevor yaratgan.

Qutlug' Nigorxonim va Xonzoda begim siymolari orqali Pirimqul Qodirov Temuriylar davridagi ayollarning siyosiy va ma'naviy qudratini ochib beradi. Boburning keyingi faoliyatida ularning ta'siri sezilarli: Qutlug' Nigorxonimning oqilona maslahatlari Boburga mustaqil qarorlar qabul qilishni o'rgatgan bo'lsa, Xonzoda begimning jasorati unga kurashdan to'xtamaslik, adolat yo'lida oxirigacha borish saboqlarini berdi. Shuningdek, bu asarlar o'sha davr ayollari faqatgina xonadon ichidagi ishlarda emas, balki davlat boshqaruvida ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Bu jihat o'zbek adabiyoti va tarixida ayolning yuksak maqomini ifodalashga xizmat qiladi.

“Yulduzli tunlar” va “Boburnoma” asarlarida Temuriy malikalar nafaqat tarixiy shaxslar, balki xalq ruhiyatini ifodalovchi badiiy timsollar sifatida gavdalanadi. Qutlug' Nigorxonimning sabr-toqati, davlat ishlaridagi donoligi va Xonzoda begimning yurt ozodligi yo'lidagi jasorati o'zbek ayolining ulug' fazilatlarini namoyon etadi. Pirimqul Qodirov bu siymalar orqali milliy tariximizda ayolning nafaqat oilaviy, balki siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'rnini badiiy talqin etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
2. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. Sultonova O'g'ilshod. Ilm sarchashmalari. Urganch DU ilmiy-metodik jurnali, 2020.
4. Nizomiddinov N.G'. Boburiylar davri Hindiston turkiy tili va adabiyoti. – Toshkent, 2010.
5. Turg'un Fayziyev. Temuriy malikalar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1994.
6. 11-sinf Adabiyot darsligi, 1-qism.
7. www.ziyouz.com elektron kutubxonasi.

O‘ZBEK XALQ QAHRAMONLIK DOSTONLARIDA SINONIMLARNING IFODALANISHI

Usmonova Gulbahor Rahmatillo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Filologiya kafedrası

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998 77 296 01 29

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq qahramonlik dostonlarida sinonimlarning o‘rni, ularning nutqiy va badiiy vazifalari yoritiladi. Qahramonlik dostonlari tilida sinonimlarning qo‘llanishi epik asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiruvchi asosiy unsurlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sinonimlar qahramon xarakterini ochishda, voqea-hodisalarni tasvirlashda va xalq tilining boyligini namoyon etishda alohida ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: sinonim, qahramonlik dostoni, badiiy tasvir, xalq og‘zaki ijodi, epik til.

Аннотация: В статье рассматривается роль синонимов в узбекском народном героическом эпосе, их риторические и художественные функции. Использование синонимов в языке героического эпоса показано как один из основных элементов, усиливающих художественную эффективность эпического произведения. Результаты исследования показывают, что синонимы имеют особое значение в раскрытии характера героя, описании событий и демонстрации богатства народного языка.

Ключевые слова: синоним, героический эпос, художественный образ, народное устное творчество, эпический язык.

Abstract: This article examines the role of synonyms in Uzbek folk heroic epics, their rhetorical and artistic functions. The use of synonyms in the language of heroic epics is shown as one of the main elements that enhance the artistic effectiveness of the epic work. The results of the study show that synonyms are of particular importance in revealing the character of the hero, describing events, and demonstrating the richness of the folk language.

Keywords: synonym, heroic epic, artistic image, folk oral art, epic language.

Risolada dostonning yaratilish ildizlari haqida aytilib, dostonning qadim zamonlardayoq mif, afsona, ertak sifatida aytib kelingani, keyinchalik baxshilar tomonidan doston tarzida kuylanib bugungi holatga kelgani hamda olimlar tomonidan to'rtta yirik: qo'ng'iroq, o'g'iz, qipchoq, oltoy versiyalari mavjudligi, bular orasida qo'ng'iroq versiyasi boshqalariga qaraganda hajm va badiiyat jihatdan mukammal ekani ta'kidlangan..

Davlatni boshqarish tadbirlari hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Xalqning tinch, farovon, osoyishta yashashi yoki urush-janjallar, adolatsizliklar girdobida qolib qiynalishi davlat boshqaruvchisining adolatli, yurtparvar ekanligiga yoinki qonxo'r zolimligiga bog'liqligi hech kimga sir emas. Shu sababdan qadim-qadim zamonlardayoq ota-bobolarimiz odil podshoni orzu qilib yashashgan, orzularidagi ulug' shaxslar haqida afsonalar, ertaklar, rivoyatlar-u dostonlar yaratishgan, onalarimiz, buvilarimiz esa farzandlarining komil inson bo'lib ulg'ayishini, jamiyatning adolat qaror topishini istab ijtimoiy allalarni yaratishgan. Xalqning ana shunday orzu-istaklari "Alpomish" dostonida ham o'z ifodasini topgan. Ushbu risolada xalqimiz tarixida davlatchilikning vujudga kelishi, uni boshqarish yo'l-yo'riqlari, davlatni boshqaruvchi podshohning xislatlari, uning vazifalari, rahbarlik qobiliyati, podsho ega bo'lishi lozim bo'lgan xarakter, xislat va qobiliyat haqida so'z boradi. Folklorshunos olim Jabbor Eshonqul "Alpomish" dostoni bosh qahramon Alpomishni mastlik va ruhiy behushlik(ramziy o'liklik) tufayli yetti yil zindonda o'tirishi ham bejiz emas, balki bu yillardan keyin ozod bo'lishi bir maqom yuqoriga ko'tarilganligiga ishora qiladi deb ta'kidlaydi, bu maqom esa yurtga bosh bo'lish, saltanatga egalik qilish qudratini ifoda etadi [3-81]. Qahramonning zindonda bandi bo'lib, so'ng qiyofa o'zgartirib qaytishi, bu uning narigi dunyoga safar qilganidan, qayta tug'ilib yuksak maqomga erishganidan dalolat beradi [3-82].

Yer yuzidagi jamiki yaratilgan jonzotning bari erkinlik istab yashaydi. Ozodlik barcha yaratiq uchun eng oliy ne'mat hisoblanadi. Insoniyat uchun muhim bo'lgan yana bir erkinlik borki, bu – so'z erkinligidir. Bu borada ham "Alpomish" dostonida bir qancha fikrlar berilganligi ushbu risolada o'z ifodasini topgan.

Inson erki, xususan, dostondagi so‘z erkinligi va buning hozirgi rivojlangan davlatlardagi demokratiya bilan muqoyasasi, dostondagi so‘z erkinligiga misollar (chapanitob boyvachchaning sunnat to‘yda aka-ukalarning farzandsizligini ro‘y-rost yuziga aytishi, “Piyoladan choy, bo‘sag‘adan joy tegmaydigan” Yortiboy oqsoqolning boyga maslahat berishga haddi sig‘ishi, Barchinoyning qalmoq safari oldidan enasiga aytgan gaplari) bilan berilgan. “Shaxs erkinligi faqat o‘z fikrlarini bayon etish bilan cheklanmaydi. Shaxs erki insonning istagiga ko‘ra o‘z taqdirini o‘zi belgilashini, o‘z xohishiga ko‘ra harakat qilishini ham taqozo etadi. Bu jihatdan “Alpomish” dostonida juda ko‘p ibratli lavhalar mavjuddir. Inson o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, ayniqsa, Barchinoyning turmushga chiqish lavhasida aniq seziladi”[2-30]. Dostonda xatti-harakatlar erkinligi Boysarining qalmoqqa ko‘chishida, Alpomishning Barchinni himoya qilish uchun qalmoq safariga o‘tlanishida ko‘zga tashlanadi. “Alpomish” dostonida shaxs erki, so‘z erki, xatti-harakat erkinligi bugungi kun mezoni bilan o‘lchanganda ham eng odilona hal etilgan. Xalq tasavvurida yillar va asrlar davomida shakllangan inson qiymati, har bir shaxsning o‘z taqdirini, o‘zi belgilash huquqi “Alpomish” dostonida ham mukammal va demokratik yechimini topgan”[12-34]. Omonilla Madayev dostonni xalq ruhiyatining timsoli, tarixiy xotira va axloqiy qadriyatlar manbai sifatida tahlil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ислом Каримов. Юксак – маънавият енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – В. 32-33.
2. Мадаев О. “Алпомиш” билан суҳбат. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 4.
3. Eshonqul Jabbor. Mifologik tafakkur talqini. – Toshkent: Akademnashr, 2025. – В. 81.

MILLIY G‘OYA VA TARIXIY XOTIRA: “SOHIBQIRON” DRAMASINING ASOSIY G‘OYALARI

*Usmonjonova Sevinch Akramjon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistri
usmonjonovasevinch02@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy g'oya va tarixiy xotira: "Sohibqiron" dramasi asosiy g'oyalari, xususan Temur siymosi orqali milliy g'oya aks ettirilishi va bugungi avlod uchun saboqlar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Milliy tarix, vatanparvarlik, Sohibqiron, Amir Temur, sarkarda, G'arb, Sharq, poetik ruh.

Annotation. This article explores the national idea and historical memory through the main ideas of the drama Sohibqiron, particularly how the image of Temur reflects the national idea and its lessons for today's generation.

Keywords: National history, patriotism, Sohibqiron, Amir Temur, commander, West, East, poetic spirit.

Аннотация. В данной статье рассматриваются национальная идея и историческая память через основные идеи драмы СохибкIRON, в частности, как образ Темура отражает национальную идею и какие уроки он преподносит современному поколению.

Ключевые слова: Национальная история, патриотизм, СохибкIRON, Амир Темур, полководец, Запад, Восток, поэтический дух.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi milliy tarix, vatanparvarlik va davlatchilik g'oyalari bilan yo'g'rilgan asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu drama orqali shoir buyuk sarkarda Amir Temurning hayoti va faoliyatini yoritib, uning millat oldidagi buyuk xizmatlarini ta'kidlaydi. Asarning asosiy g'oyalaridan biri milliy xotira va buyuk ajdodlar merosini asrab-avaylashdir.

Asarda Amir Temur o'z qarorlarida qat'iyatli, shijoatli va uzoqni ko'ra oladigan davlat arbobi sifatida gavdalantiriladi. Masalan, uning "Kuch – adolatda" degan shiori dramada ham aks etib, u har qanday qaror qabul qilishda adolat tamoyillariga sodiq qolishi bilan tasvirlanadi. Dramadan olingan sahnalardan birida Amir Temur davlatining mustahkamligi uchun harbiy intizom va adolatning muhimligini ta'kidlaydi. U o'z sarkardalariga: "Davlatni boshqarish uchun faqat

qilich emas, aqil ham kerak. Adolat yo'q joyda kuch ham befoyda!" – deydi. Bu uning davlat siyosatiga bo'lgan yondashuvini ochib beradi. Dramaturg Amir Temurning qahramonligi orqali xalqni tarixiy merosga sodiq bo'lishga undaydi. Masalan, Temur shaxsiyati dramada nafaqat buyuk sarkarda, balki o'z yurtini mustahkamlashga harakat qilgan hukmdor sifatida ham talqin qilinadi. Dramada uning askarlarga bergan nutqida quyidagi gaplar bor: *"Men yurtdoshlarim uchun yovga bosh egmagan bo'lsam, siz ham hech qachon qullik zulmini tan olmang!"* Bu fikr orqali shoir vatanparvarlikni eng ulug' fazilat sifatida ko'rsatadi.

Amir Temurning tarixiy shaxsiyatiga dramatik ruh bag'ishlash uchun Abdulla Oripov uning shaxsiy hayotidan ham lavhalar beradi. Masalan, u askarlari bilan muloqot qilganida, oddiy odamlar bilan maslahat qilganida yoki yaqinlariga mehribonlik ko'rsatganida ham tasvirlanadi. Asarda Amir Temur o'z oilasi va yaqinlariga nisbatan ham g'amxo'r inson sifatida namoyon bo'ladi. U bir sahnada o'g'liga: *"Siz mening vorisim bo'lishingiz mumkin, lekin avvalo xalqimning xizmatkori bo'lishni o'rganing!"* – deb, davlatni boshqarish uchun xalq xizmatida bo'lish muhimligini uqtiradi.

"Sohibqiron" dramasi asosiy g'oyalaridan biri vatanparvarlikdir. Asarda Amir Temur vatanni himoya qilish yo'lida hech qanday kuchdan qo'rqmaydigan jasur sarkarda sifatida tasvirlanadi. Shuningdek, uning yurishlari, davlatni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlari milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladi. Asarda Amir Temurning butun faoliyati mustaqillik va milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq. U o'z xalqini birlashtirishga intilib, mustahkam davlat barpo etishga harakat qiladi. Dramada Amir Temur o'z lashkarlariga quyidagi gaplarni aytadi: *"Agar xalq birlashsa, hech qachon yengilmaydi. Dushmanni emas, avval o'zimizdagi nifoqni yengishimiz lozim."* Bu orqali shoir millat birligi va mustaqillikning muhimligini ta'kidlaydi. Asarda Temurning G'arb va Sharq davlatlariga qilgan yurishlari ham mustaqillik g'oyasi bilan chambarchas bog'langan. Uning maqsadi – yagona, kuchli va mustaqil davlat barpo etish bo'lib, bu hozirgi davr uchun ham dolzarb masala sifatida ko'riladi. Dramaning bir sahnasida Temur o'z sarkardalariga shunday deydi: *"Agar biz mustahkam davlat*

barpo etmasak, kelajak avlod bizni kechirmaydi.” Bu nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lgan fikrdir.

Abdulla Oripov ushbu asarda o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalanadi. She’riy dialoglar, obrazlarning yorqin tasvirlanishi va tarixiy faktlarning dramatik tarzda yoritilishi asarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Bu jihatlar dramani faqat tarixiy asar emas, balki milliy g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi kuchli badiiy asarga aylantiradi. Dramada personajlarning nutqlari nafaqat tarixiy haqiqatni yoritadi, balki ulkan poetik ruh bilan sug‘orilgan. Masalan, Amir Temurning monologlari va askarlari bilan qilgan suhbatlari she’riy shaklda berilgan bo‘lib, bu uslub obrazlarning qudratini oshiradi. *“Osmon qanchalar ulug‘, ammo men yer bolasiman, Yurtimda adolat bo‘lsa, yuragim tinch oladi.”* Bu satrlar Amir Temurning adolatparvar hukmdor sifatidagi ruhiy holatini aks ettiradi.

Dramaturg Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda, balki dono davlat arbobi sifatida ham tasvirlaydi. Uning siymosi kuchli metaforalar va ta’sirchan tasvirlar orqali ochib berilgan. Dramada Temur shunday ta’riflanadi: **“Uning nigohi yulduzdek o‘tkir, so‘zlari tig‘day keskin edi.”** Bu ifoda Amir Temurning qat’iyatli va har qanday qiyinchilikka bardosh bera oladigan shaxs ekanligini ochib beradi. Asarda tarixiy voqealar jonli va dramatik sahnalar orqali aks ettiriladi. Temurning jang maydonlaridagi jasorati, uning muloqotlaridagi hikmat va sadoqat bilan aytilgan so‘zlari tarixiy haqiqatni jonlantiradi. Amir Temurning jang oldidan askarlariga aytgan so‘zlari: *“Men jang maydonida doim oldinda bo‘laman, Kimdir ortimdan yurmoqchi bo‘lsa, unga yo‘l ochiq!”* Bu sahna Temurning qo‘rqmas va mardona fe‘l-atvorini yaqqol namoyon qiladi. Abdulla Oripov Temur siymosi orqali xalqni birdamlikka, o‘z tarixiga hurmat bilan qarashga undaydi.

Asarda hukmdorning jasorati va dono qarorlari bugungi yosh avlod uchun ham o‘rnak sifatida ko‘rsatiladi. Amir Temur shaxsiyati orqali shoir bugungi kun rahbarlari va xalqi uchun saboq beradi. Dramada Amir Temurning xalqini birlashtirishga bo‘lgan harakati yetakchi g‘oyalardan biri sifatida ko‘rsatilib, bu bugungi kunga ham dolzarb saboq bo‘lib xizmat qiladi. Dramada Temur o‘z lashkarlariga shunday deydi: *“Bir tan, bir jon bo‘lgan xalq hech qachon*

yengilmaydi. Agar biz o'z oramizdagi nizo va adovatni yenga olsak, dushman oldida ham mag'lub bo'lmaymiz." Bu fikr xalq birligi va birdamligining qanchalik muhim ekanini anglatadi. Amir Temur obrazining adolatli va dono hukmdor sifatida tasvirlanishi bugungi rahbarlar uchun muhim saboq bo'lib xizmat qiladi. U davlatni boshqarishda qonun va tartibga qat'iy amal qilish zarurligini ta'kidlaydi. Dramaning bir sahnasida Amir Temur shunday deydi: *"Hukmdor har bir qarorini xalq manfaatini o'ylab chiqarishi lozim. Adolat bo'lmasa, davlat yemirilib, kuchsizlanadi."* Bu fikr hozirgi davr rahbarlari uchun ham dolzarb bo'lib, davlat boshqaruvida adolat muhim tamoyil ekanligini ko'rsatadi. Asarda Amir Temur o'z yurtini himoya qilishda hech narsadan tap tortmaydigan jasur sarkarda sifatida tasvirlanadi. Uning fidoyiligi bugungi yosh avlod uchun ham ibrat bo'lib xizmat qiladi. Dramada Temur jang oldidan lashkarlariga shunday deydi: *"Men doimo oldinda yuraman, chunki bu yurtda birinchi bo'lib jangga kirish, oxirgacha kurashish mening burchimdir!"* Bu uning fidoyiligi va vatan uchun jonini fido qilishga tayyorligini namoyon etadi.

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi buyuk sarkarda Amir Temur siymosi orqali milliy g'oya, tarixiy xotira va vatanparvarlik g'oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan targ'ib etgan asardir. Asarda Temurning jasorati, adolati va davlat boshqaruvidagi donoligi tasvirlanib, bugungi avlod uchun saboqli xulosa chiqarishga yo'l ochiladi. Dramada Amir Temurning xalqini birlashtirish, adolatli davlat barpo etish va millatning ravnaqini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlari yorqin ifoda etilgan. Bu jihatlar nafaqat tarixiy haqiqatni yoritadi, balki bugungi yoshlar va rahbarlar uchun ham muhim saboq bo'lib xizmat qiladi. Asardagi poetik ruh, she'riy dialoglar va dramatik voqealar Temur siymosining yanada ta'sirchan ochilishiga xizmat qiladi. U o'z xalqiga xizmat qilish, mustaqillikni himoya qilish va adolatni qaror toptirish g'oyalari bilan asarni zamonaviy o'quvchi uchun ham dolzarb asarga aylantirgan. Umuman olganda, "Sohibqiron" dramasi faqat tarixiy asar emas, balki milliy g'ururni oshirish, o'zligini anglash va ajdodlar merosiga hurmat bilan qarashga undovchi kuchli badiiy asardir. Ushbu drama o'zining teran

ma'nosi, o'lmas g'oyalari va tarixiy haqiqat bilan uyg'unlashgan badiiy yondashuvi bilan o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. Sohibqiron. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
2. 9-sinf adabiyot darslik, "Sohibqiron" dramasi 211-bet, "O'zbekiston" NMIU, Toshkent, 2019. – B. 211.
3. www.ziyo.uz

COMMON ISSUES THAT LANGUAGE LEARNERS HAVE WHILE TRANSLATING READING MATERIALS REASONS AND SOLUTIONS

Muhammadjonov Oybek Sobirjon o'g'li
NamDPI stajyor-o'qituvchisi

Abstract. Notwithstanding the availability of translation assistance tools, there are several translation issues these days. The aim of this article was to identify the different kinds of translation errors and the challenges faced by students while translating reading materials. This article comes up with some recommendations, as well so that learners can utilize to solve the issues.

Key words: assistance tools, translation issues, reading materials, solutions.

Introduction. Translation is the process of transmitting a notion from one language to another. Pinchuck (1977), Wilss (1982), and Newmark (1991) define it as the process of translating written source language text into target language. It also serves as a bridge for understanding knowledge, science, literary content, and other concepts. Many students need translation to comprehend content. Although cutting-edge translation tools are available, they encounter difficulties translating between English and Uzbek since they will present general meaning of a particular word or word by word meaning of idioms and phrases instead of context meaning. When ESL readers encounter slang, they become frustrated with how to appropriately interpret slang in informal reading passages. According to G.A.

Zavari, H.Mashhady, and M.Pourgilavi (2013), translating slang is one of the most contentious areas of language, and translators employ a variety of ways to address translation issues. According to T. A. Andriani (2014), an idiom is formed by combining two or more words with diverse meanings, resulting in a new and often confusing meaning. He believes that learning and mastering idioms helps pupils improve their reading comprehension. Furthermore, as stated by Al-Darawish (1983), one of the basic issues in translating is that no two languages are identical in terms of phonological, morphological, lexical, syntactic, and semantic aspects. They differ in terms of sentence structure or syntax. This is why students struggle with translating English into the target language.

Body: As I have been gaining experience in this sphere for many years I have taught hundreds of students and analyzed main problems that influence students' error in doing translation. Below its reasons and solutions are given:

Difficulty understanding idiomatic expressions or cultural references: Language learners may struggle to accurately translate phrases or expressions that have a specific meaning in the original language but do not have a direct equivalent in their own language.

Lack of vocabulary: Learners may encounter unfamiliar words or terms in the reading text that they do not know how to translate. This can make it challenging to accurately convey the meaning of the text.

Grammar errors: Language learners may make mistakes in translating the grammar of the text, such as incorrect verb tense, word order, or agreement. This can result in a translation that is not grammatically correct or does not accurately convey the intended meaning.

Misinterpretation of context: Language learners may misinterpret the context of the reading text, which can result in a translation that does not accurately reflect the original meaning. This can be particularly challenging when translating texts that contain cultural references or nuances.

Lack of fluency: Language learners may struggle to translate reading texts quickly and accurately due to a lack of fluency in the target language. This can result in translations that are slow, awkward, or inaccurate.

Difficulty with text structure: Language learners may have difficulty understanding the structure of the reading text, such as paragraphs, headings, or formatting. This can make it challenging to accurately translate the text and convey the intended meaning.

Body 2: Through teaching I have come up with effective and practical solutions, here they are:

Provide ample opportunities for practice: Language learners need plenty of opportunities to practice their translation skills in order to improve. Encourage them to translate texts, have conversations in both languages, and engage in activities that require translation.

Offer feedback and corrections: Correcting language learners' mistakes and providing feedback on their translations is essential for improvement. Encourage them to ask questions and seek clarification on any areas they are unsure about.

Encourage the use of resources: Language learners should be encouraged to use dictionaries, online translation tools, and other resources to help them with their translations. However, it is important to remind them that these tools are not always accurate and should be used as a supplement to their own knowledge and skills.

Focus on vocabulary and grammar: Translation problems often stem from a lack of understanding of vocabulary and grammar rules. Start to give learners topic based words, for examples if it is topic of crime, hand out readings related to the topic.

Encourage critical thinking: Translation requires more than just a literal translation of words – it also requires critical thinking and an understanding of cultural nuances. Encourage language learners to think critically about the meaning and context of the text they are translating to produce accurate and natural-sounding translations.

Research

To test afore-mentioned ways of solving the translation issue I picked one intermediate group that consists of 10 people whose reading comprehension was too poor and I commenced making use of above-mentioned methods on these students. After around 4 months, there was surprising result. Participants of the research kicked off translating reading materials without difficulty and their reading scores in level exam were high in comparison to other group students' who studied at the same level and time. Moreover, In fact if language learners once master the reading well, consciously their speaking writing skills increases, as well. Hence, people that studied in my group noticed that they only enhanced their reading skills but also other sections too.

In conclusion, language learners face various challenges while translating reading materials. Common issues include difficulty understanding idiomatic expressions or cultural references, lack of vocabulary, grammar errors, misinterpretation of context, lack of fluency, and difficulty with text structure. However, these challenges can be alleviated through ample practice, feedback and corrections, the use of resources, focusing on vocabulary and grammar, and encouraging critical thinking. A research study showed that implementing these solutions resulted in improved reading comprehension and overall language skills for the participants. Therefore, effective strategies and techniques can help language learners overcome translation issues and enhance their language proficiency in multiple areas.

REFERENCES:

1. Al-Darawish, H. (1983). Arabizing university education in Arabic, Jerusalem, Arab studies society. Cited in Hamdallah, R., Problems and approaches to translation with reference to Arabic. Language and translation. J. King Saud University, 10. 23-38
2. T.A. Andriani. (2014). The relationship between idiom mastery and reading comprehension. // <https://repository.uinjkt.ac.id>. pp.14,24.

3. Jumaniyozova Shakhodat.(2022) Dilemmatic problems of translation during reading comprehension. Pages 2-3.

4. Newmark, P. (1991). About translation. Australia: Multilingual Ltd

5. Wilss, W. (1982). The science of translation: Problems and method. Tubingen, Germany: Gunter Narr Verlag.

6. B. F. Jamshedovich.(2021) The main features of the translation of literary text. Samarkand International Multidisciplinary Scientific Journal

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA DRAMALARINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA

*Muhtaram Ikramova,
NamDPI Filologiya kafedراسي
o‘qituvchisi, PhD*

Annotatsiya. Maqolada Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi, shuningdek, “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining xorijda va o‘zbek adabiyoti, tilshunosligida o‘rganilishiga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *drama, tragediya , fojia, lisoniy, nutq.*

O‘zbek badiiy adabiyoti va adabiy tilimiz rivojida Maqsud Shayxzodaning shayxona ijod yo‘li alohida o‘ringa ega. Adib Shayxzodaning turli mavzularda yaratilgan she‘rlari va dramalarida o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik ma’nolar ifodalashda lingvopoetik xususiyatlari, jozibas, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli til vositalari yordamida namoyon bo‘ladi. Ijodida betakror tasvirlarni yuzaga keltiruvchi hamda asarlari tilining badiiyatini ta’minlovchi lingvopoetik vositalardan o‘rinli va unumli foydalanganligi uning so‘z qo‘llashda yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Ozarbayjon va o‘zbek adibi Maqsud Shayxzoda dramaturgiya maktabi asoschilaridan biridir. N.Karimov adib haqida shunday yozadi: “Maqsud Shayxzoda nomi yodga olinganda tasavvurimizda ulug‘vor, olijanob, ayni paytda, samimiy, mehnatsevar, har qanday sharoitda ham xushchaqchaq insonning nuroniy

siy mosi paydo bo‘ladi. Shoiridan bizga lirik poemalar, falsafiy mushohadaga boy manzumalar, ruboiylar, ballada, dostonlar, yetuk dramatik asarlar, publitsistik maqolalar meros bo‘lib qoldi” [1].

Shayxzodaning so‘zga muhabbati va ehtiromi o‘zgacha. Bu ehtiromni tasvirlamoq uchun so‘zlarga shayxona yo‘l ko‘rsatadi, ularning chinakam mo‘jiza ko‘rsatishlari uchun imkon yaratadi, ma‘nan va mantiqan “ko‘zi ochilgan” so‘zlar, g‘aroyib mo‘jizalar yaratadi [2].

N.Karimov adib hayot va ijodiy faoliyatining qizg‘in, maroqli, ziddiyatlarga boy achinarli, ammo sharafli damlarini mashhur adabiyot darg‘alari hikoyalari orqali yuksak ehtirom bilan “Maqsud Shayxzoda” nomli ma‘naviy-ma‘rifiy biografik romanida aks ettiradi.

Adib Shayxzodaning ijodiy jarayonlarini I.G‘afurov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, A.Kattabekov, S.Mirvaliyev, S.Mirzayev, S.Shermuhammedov kabi yirik o‘zbek adabiyotshunoslari ham o‘rganishdi. So‘ng Ozarbayjonda X.Rizo “Maqsud Shayxzodaning badiiy mahorati” (1980-yil) nomli kitobini chop ettiradi. Adib ijodi 2000-yildan qardosh turk xalqi darg‘alari H.Bargan, Yo.Okpinarlar e‘tiborini ham ohangraboy o‘ziga tortdi. E‘tiborlisi, turk olimi Shuayib Qoraqoshning dramaturg hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqoti jahonda o‘rganilgan so‘nggi ishlardandir [3]. Bunda adibning bolalik, o‘spirinlik yillari, Ozarbayjon va Toshkent manzaralari, ijodidagi “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining o‘ziga xos xususiyatlari monografik planda tadqiq etilgan.

Babahan Muhammad Sharif “Maqsud Shayxzoda shoir, dramaturg, tadqiqotchi” nomli maqolasida adibning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi drama, sahna tojiga aylangani, voqealar rivoji, kompozitsiyalardagi hayajon va g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan olovli misralar, tilining o‘ziga xos va ravonligi iste‘dodli dramaturg ekanligini ta‘kidlaydi. Adib mard inson sifatida “Jaloliddin Manguberdi” dramasini yaratdi va bu fojialar orqali keng ma‘noda “o‘zbek Shekspiri” unvoniga sazovor bo‘ldi [4].

Adib tavalludining 112 yilligiga bag'ishlangan Toshkent davlat transport universitetida o'tkazilgan "Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman [5] ijodkorning adabiy merosini o'rganishdagi ishlarning nufuzini yanada oshirdi.

J.Jovliyev matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishidagi "Maqsud Shayxzoda asarlari qo'lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida ijodiy faoliyati nashrlari, xususan, "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalarining variantlari bilan nashr nusxalari materiallarining mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash, dramalardagi mafkuraviy talab bilan tushirib qoldirilgan o'rinlar fojia matnlarida qayta tiklanganligi, birgina "Jaloliddin Manguberdi" dramasi 6 nusxasi mavjudligi, adibning fanga ma'lum bo'lmagan "Navoiy" opera-librettosi topilgani, Maqsud Shayxzodaning Toshkentga kelgunga qadar Ozarbayjonda 1920-yilda yozilgan "Istiqlol" poemasi topilgani va bu adib ijodining ilk davridagi qimmatli ilmiy ma'lumotlar ekanligi tadqiqot ishida alohida yoritilgan [6].

Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yozish uchun 20 yildan ortiq izlanadi. XV asrda yaratilgan temuriylar, Ulug'bek davri aks ettirilgan manbalar, Sharafiddin Ali Yazdiy, A.Samarqandiy, M.Isfizoriy, Mirxond, Xondamir, Bobur, Z.Vosifiy asarlari, shuningdek, V.V.Bartold, E.Bertels, Yu.Yakubovskiy, o'zbek olimi Qori Niyoziy, eron, turk tarixchilarining asarlarini sinchiklab o'rganadi, Ulug'bek haqida maqolalar yozadi [7]. Ehtimol, Navoiy ijodini tadqiq etish jarayonida (1939-1967) "Farhod va Shirin" xamsasidan o'rin olgan Ulug'bek madh etilgan baytlar tahlilidan so'ng, adibda shoh, olimga nisbatan ijodiy muhabbat shu davrlarda uyg'ongandir.

Adib Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" va "Jaloliddin Manguberdi" dramalarining janr va g'oyaviy xususiyatlari adabiy jarayonlarda H.Abdusamatov [8], M.Mamatvaliyev [9], B.Imomov [10], R.Tursunovlar [11] munosib tahlil etishgan.

"Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Ulug'bekning teran fikrli, mulohazali, siyosat va falakkiyot bilimdoni ekanligi fojiani 1-pardasi 2-ko'rinishida timsolning

monologida, shuningdek, shu pardaning 3-ko‘rinishida Abdurazzoq nutqidagi satrlarida chuqur anglaymiz va dramaturg mahoratiga tan beramiz.

Dramaturg “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida 2 davr XV asar feodalizmi va sovet davri tarixi ziddiyatli jihatlarini, “Jaloliddin Manguberdi” dramasida esa XII asr va 1939-1945 yillar boshboshdoqliklari, asl vatanparvar timsollar obrazini bir nuqtada badiiy mahorat bilan tasvirlay olgan. Shu jihatdan ham fojining tili g‘oyat mazmundor va shiralidir. Asarning mazmunli va jarangdor ekanligi adib falsafasi bilan bog‘liq holda quyma satrlarning milliy xalqona ruhda bitilgan timsollar nutqidagi (monolog, dialog,) paremlar, individual okkazonal so‘zlar, fonopoetik birliklar, stilistik figuralar, folklor namunalari o‘z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов Н. Фидойилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.43.
2. Махмудов Н. Сўз шайхининг мўжизалари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2009. – № 7. – Б.10.
3. Şuayip Karakaş. Maksud Şeyxzase ve Mirza Uluğbek piyesi. Türkiyat türklük bilimi araştırmaları dergisi, Güz, 2010 sayı. 7. – S. 13-64.
4. Babahan Muhammed Şerif. Maksut Şeyhzade Şair, Dramaturg ve Araştırmacı. Kardeş Kalemler, 2019 sayı. 149.
5. Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik // Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman maqolalari to‘plami. – Toshkent, 2020. – 173 b.
6. Жовлиев Ж. Мақсуд Шайхзода асарлари қўлёзмаларининг матний қиёсий татқиқи Фил. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.11-12.
7. Зокиров М. Мақсуд Шайхзода. – Тошкент, 1969. – Б.139.
8. Абдусаматов Ҳ. Драматургия ва ҳаёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
9. Маматвалиев М. “Жалолиддин Мангуберди” фожиаси тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. – №6. – Б. 8-12.
10. Имомов Б. Трагедия ва характер. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 176 б.

11. Турсунов Р. Мактабларнинг ихтисослаштирилган XI синфларида фожиа жанрини ўрганиш” (Мақсуд Шайхзоданинг “Мирзо Улуғбек” асари мисолида). Педагогика фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 130.

O‘ZBEK XALQ ISMLARIDA APOTROPEIK KOMPONENTLAR

Allamuratova Xosiyat,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: allamuratovax@tersu.uz
+998 919034992

O‘zbek xalqining antroponimik tizimi ko‘p qirrali bo‘lib, unda tarixiy, diniy, etnik, madaniy va ma‘naviy qadriyatlar o‘z aksini topadi. Ismlar tarkibida uchraydigan apotropeik (yunoncha apotropein – “yovuzlikni qaytarish”) komponentlar xalqning farzandlari sog‘-u salomat, uzoq umrli bo‘lsin, balo-qazolardan asralib o‘ssin degan ezgu niyatidan dalolat beradi. Apotropeik komponentlar o‘zbek antroponimikasida juda ko‘p uchrab, ular semantik jihatdan turlicha qatlamlarni tashkil etadi. Bu komponentlar asosan qo‘shma kontaminatsion ismlar tarkibida kelib, ismlarga apotropeik (himoya) ma‘nosini beradi

-Alloh, ulla, illa, Aliy, Ali, Ahmad, Ayub, Ahad – ism tarkibida, boshida va oxirida kelib, o‘z hifzu himoyasida asrasin, madadkor bo‘lsin, ruhi qo‘llasin, bandasi kabi ma‘nolarni ifoda qiladi;

-boqi – uzoq umr ko‘rsin deya qo‘shiladigan komponent;

-berdi, bergan – ismning old va keying qismidan qo‘shiladi va asosda anglashilgan zot berdi, uning himoyasida kabi ma‘nolarni anglatadi;

-baxsh – asos qismda ifoda etilgan zot tomonidan baxsh etildi, tuhfa qilindi, hadya ma‘nolarini anglatadi;

-bolta – qo‘shma ismlar tarkibida kelib, mustahkamlikni, joni qattqlikni ifoda etadi;

-bolg‘a – qo‘shma ism tarkibida mahkam, mustahkam, chidamlilikni ifoda qiladi;

-bori – qo‘shma ismlar tarkibida kelib, bor bo‘luvchi, yashaydigan kabi ma’nolarni tashiydi;

-bo‘l – komponenti qo‘shma ism tarkibida kelib, bo‘lsin, yashab qolsin, o‘lmasin kabi ma’nolarni qo‘shadi;

-eson – qo‘shma ism tarkibida kelib, bola eson-omon ulg‘aysin, sog‘lom bo‘lsin ma’nolarini ifodalaydi;

-yor – ism tarkibida Alloh, payg‘ambarlar, avliyolar Bolani qo‘llasin, asrasin, unga hamdam, yor bo‘lsin ma’nolarini anglatadi;

-jon – ruh, tiriklik, hayot ma’nolarini ifoda etadi;

-mahkam – qo‘shma ism tarkibida kelib bu bolaning joni mahkam, turadigan bola ma’nolarini ifodalaydi;

-momo – qizlar ismi tarkibida kelib, buvisidek uzoq umr ko‘rib, kampirdek uzoq yashasin, ma’nosida ishlatiladi;

-nazar – ko‘z, qarash, nigoh. Bazi ismlarda sovg‘a, ehson ma’nolarini ham ifodalaydi va bu hollarda Allohning, payg‘ambarlarning, aziz avliyolarning g‘amxo‘rligi ko‘zda tutiladi;

-niyoz – qo‘shma ismlar tarkibida to‘rt xil ma’no anglatib keladi: iltijo qilib erishilgan bola; xohlangan, kutilgan bola; tuhfa, in‘om, ehson; nazar qilingan, baxshida qilingan ma’nolarida;

-omon – bolani sog‘-omon, kasal bo‘lmasdan o‘ssin ma’nosida ishlatiladi;

-po‘lat – himoya ma’nosida po‘latdek qattiq, chidamli, makam bo‘lib o‘ssin deya qo‘yiladi;

-qilich – har xil balo-qazolarga qarshi qilichdek keskir, o‘tkir bola ma’nosini beradi;

-qol – bu bola qolsin, o‘lmasin, yashasin ma’nolarini ifoda etadi;

-temir – chaqaloq temirdek mustahkam, chidanli, qattiq bo‘lsin ma’nosida ismlar tarkibida keladi;

-tosh – qo‘shma ismlar tarkibida mahkam, mustahkam, joni qattiq bo‘lsin, ya’ni yashasin, ma’nolarini anglatadi;

-to‘ra – ismlar tarkibida besh xil ma’no ifodalab keladi. Himoya manosida odam bo‘yi keladigan qalqonning nomi, muhofaza qilingan, himoyalangan ma’nolarini beradi;

-tur – qo‘shma ism tarkibida chaqaloq tursin, o‘lmasin, yashab kestin istaklarini ifoda qiladi;

-turdi – qo‘shma ismlarning boshida va oxirida keladi, hamda bu bola turadi, ya’ni yashaydi, o‘lmaydi ma’nolarini ifodalaydi;

-turg‘un, turg‘on – qo‘shma ismlar tarkibida kelib, turadigan, yashaydigan, o‘lmaydigan, umri uzoq qilib berilgan bola ma’nolarini ifodalab keladi;

-tursin – ismlar tarkibida tursin, o‘lmasin, yashab qolsin kabi ma’nolarni beradi

Yuqoridagi ro‘yxat apotropeik (himoya, balo-qazolardan asrash ma’nosini anglatuvchi) komponentlarning juda boy va tizimli ko‘rinishi. Har bir komponent o‘ziga xos semantik yuklamaga ega bo‘lib, asosan bola tirik, sog‘-omon, baxtli, himoyalangan bo‘lsin degan xalqona niyatni bildiradi. Uni umumlashtirib, quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Diniy-ruhiy himoya bildiruvchi komponentlar: Alloh, Ulla, Illa, Aliy, Ali, Ahmad, Ayub, Ahad, Yor, Nazar, Niyoz;

2. Kuch-qudrat va mustahkamlik ifodalovchi komponentlar: Bek (berk) Bolta, Bolg‘a, Qilich, Temir, Tosh, Po‘lat, Mahkam;

3. Umr va barqarorlik tilagini bildiruvchi komponentlar: Boqi, Momo, Tur, Turdi, Turg‘un, Turg‘on, Tursin, Qol;

4. Sog‘-u salomatlik, esonlikni bildiruvchi komponentlar: Eson, Omon, Jon;

5. Taqdir va tuhfa ma’nosidagi komponentlar: Berdi, Bergan, Baxsh, To‘ra.

Demak, apotropeik komponentlarning asosiy funksiyasi:

- Ilgari bolalar o‘limi yuqori bo‘lgan davrlarda ularning yashab ketishini tilash;
- Balo-qazo, yovuz kuchlardan himoya qilish;
- Sog‘lik, uzoq umr va mustahkamlik ramzi sifatida ishlatilish;
- Diniy va ruhiy madadga ishonchni ifodalash.

Sodda va qo‘shma ismlarning solishtirma tahlili:

| Turi | Misol | Ifodalangan apotropeik ma’no |
|-------------|-------------------|--|
| Sodda ism | <i>Eson</i> | Bola eson-omon ulg‘aysin |
| Sodda ism | <i>Temir</i> | Temirdek qattiq, bardoshli bo‘lsin |
| Qo‘shma ism | <i>Esonboy</i> | Bola eson-omon ulg‘aysin + farovonlik tilagi |
| Qo‘shma ism | <i>Temurbek</i> | Temirdek mustahkam + qudratli, himoyalangan |
| Qo‘shma ism | <i>Alloberdiy</i> | Alloh tuhfa qildi + himoyasida bo‘lsin |
| Qo‘shma ism | <i>Tursunoy</i> | Bola yashab qolsin + qiz bola umrli bo‘lsin |

Shu tariqa sodda ismlar xalqning asosiy orzu-umidlarini bevosita bildirsa, qo‘shma ismlar ularni kengaytirib, diniy-ruhiy himoya, kuch-qudrat, barqarorlik, sog‘-salomatlik va tuhfa ma’nolarini birlashtiradi.

Apotropeik ismlar o‘zbek xalqining qadimiy dunyoqarashi, diniy e’tiqodi va hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan. Sodda ismlar apotropeik ma’noni ixcham ifodalagan bo‘lsa, qo‘shma ismlar uni boyitib, ko‘p qirrali talqinlarda namoyon qiladi. Demak, qo‘shma apotropeik ismlar xalqimizning farzand haqidagi orzu-intilishlarini yanada mukammal aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 1998.
3. Kenjayeva S.E. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi. Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2019.
4. Allamuratova X. Linguistic features of conterminational and apotropeic names in the system of anthroponyms of Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 141-145.
5. Allamuratova X. Apotropeya – etnolingvistikaning tadqiq obyekti sifatida // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarлари, № 1/2/1 - son, 2021. – B.202-206.
6. Allamuratova X. O‘zbek antroponimikasida madaniy konnotatsiyali nomlar // Tamaddun nuri, № 4 (67) - son, 2025. – B.111-113.

SIFATLI TA'LIMNING SHAXS KAMOLOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Usmonova Malohat Nodirxon qizi
Namangan davlat chet tillari instituti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada sifatli ta'limning shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyati haqida fikr molahazalar ilgari surilgan. Muallif tomonidan shaxsning rivojlanish jarayoni, uning filogenetik va ontogenetik xususiyatlari, ta'lim muhiti, tarbiya, irsiyat hamda o'smirlik davridagi psixologik omillar o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimining ayrim kamchiliklari Buyuk Britaniya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada komil insonni shakllantirish uchun ta'limda aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik rivojlanishning uyg'unligi zarurligi ta'kidlangan. Natijada, ta'lim tizimiga oid islohotlarni milliy mentalitet va qadriyatlarga moslashtirish kerakligi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: komillik, rivojlanish, filogenez, ontogenez, shaxs, individ, ideal, estetik rivojlanish, ruhiy komillik, irsiyat, muhit, tarbiya, o'smirlik davri, geografik muhit, maktab muhiti.

Kirish. Axborot texnologiyalariga asoslangan globallashuv jarayonida mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti, eng avvalo, sifatli ta'lim tizimiga bog'liq. Sifatli ta'lim shaxsni barkamol inson sifatida shakllantirish, uni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashning eng muhim omilidir. Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasida ta'lim tizimi jamiyat rivojining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston ta'lim tizimida ham komil insonni tarbiyalash, yoshlarning shaxsiy qobiliyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – shaxs rivojlanishiga oid falsafiy va pedagogik qarashlar tahlil qilindi;

Qiyosiy tahlil – O‘zbekiston va Buyuk Britaniya ta’lim tizimlari o‘rtasida farqlar va o‘xshashliklar o‘rganildi;

Tahlil va umumlashtirish – ta’lim sifati, muhit va tarbiya omillarining shaxs kamolotiga ta’siri tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar va tahlil

1. Shaxs rivojlanishining nazariy asoslari

Rivojlanish – tabiat, jamiyat va inson faoliyatining umumiy qonuniyatidir. Inson rivojlanishi filogenez (insoniyatning tarixiy rivojlanishi) va ontogenez (individning hayot davomida rivojlanishi) shaklida kechadi.

Odam individ sifatida tug‘ilib, shaxs sifatida shakllanadi va individuallik xususiyatlarini namoyon etadi. V.V. Krayevskiy ta’rifiga ko‘ra, yetuk shaxs – bu aqliy, jismoniy, axloqiy, ruhiy va estetik jihatdan barkamol, mehnatga layoqatli insondir.

2. Muhit, tarbiya va irsiyatning ta’siri

D. Didro “Rivojlanish irsiyat, muhit va tarbiyaning uyg‘un ta’siri orqali belgilanadi”, – deya qayd etgan. Demak, insonni shakllantirishda genetik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya va maktab muhiti ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘smirlik davri shaxs shakllanishining eng nozik bosqichi bo‘lib, bu davrda ruhiy va jismoniy o‘zgarishlar kuchayadi. O‘. O‘tanov ta’kidlashicha, “o‘smirning bu davrda o‘zini yolg‘iz his qilmasligi uchun pedagog uni qiziqishlari asosida qo‘llab-quvvatlashi zarur”.

3. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi muammolar

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida o‘quvchidan barcha fanlarni teng darajada o‘zlashtirishi talab qilinmoqda. Bu esa shaxsning tabiiy qobiliyatlarini to‘laqonli namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. 2020-yilgacha amal qilgan Davlat ta’lim standartlari o‘quvchini faqat aqliy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan edi. Natijada

o‘quvchilarning ijodiy, sport yoki san‘at sohalaridagi qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati cheklangan.

4. Buyuk Britaniya ta‘lim tizimi tajribasi

Buyuk Britaniya ta‘lim tizimi shaxsga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. 7-sinfga teng bosqichda o‘quvchilar 5 ta asosiy fan (ona tili, matematika, tabiiy fanlar, insoniylik, zamonaviy tillar)ni o‘rganadilar. Qolgan fanlar tanlov asosida belgilanadi. O‘quvchi va ota-onasi pedagog va psixolog bilan maslahatlashgan holda fanlarni tanlaydi.

Bu tizim o‘quvchining mustaqil fikrlashini, o‘zini shaxs sifatida anglashini va tanlagan yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishishini ta‘minlaydi.

5. Pedagog va maktab muhitining o‘rni

O‘quvchi shaxsining shakllanishida pedagoglarning roli beqiyos. Pedagog o‘quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini hisobga olib, uni qiziqqan sohasiga yo‘naltirishi zarur. Aks holda, o‘smirlik davrida kuzatiladigan norozilik, o‘qishga befarqlik “tarbiyasizlik” sifatida talqin qilinadi. Bu esa shaxsning fikr erkinligini cheklab, tanqidiy tafakkurini so‘ndiradi.

Xulosa. Sifatli ta‘lim – bu insonni faqat bilim bilan emas, balki hayotiy kompetensiyalar, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy kamolot bilan ta‘minlaydigan tizimdir.

Komil insonni shakllantirishda aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik rivojlanish uyg‘un holda olib borilishi lozim. O‘zbekiston ta‘lim tizimi xorijiy tajribalarni o‘rganar ekan, ularni milliy qadriyatlar, mentalitet va tarixiy an‘analar bilan uyg‘unlashtirishi zarur.

Faqat shunda ta‘lim islohotlari natijasida yetuk, vatanparvar va kasbiy jihatdan tayyor mutaxassislar kamol topadi.

Takliflar

8-9-sinflardan boshlab tanlov fanlarini joriy etish orqali o‘quvchining qiziqishiga mos ta‘lim tizimini shakllantirish.

Maktablarda psixologik maslahat markazlarini kuchaytirish va kasbiy yo‘naltirish tizimini rivojlantirish.

Darsliklarni tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy topshiriqlar bilan boyitish.

Pedagoglarni o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodlar asosida qayta tayyorlash.

Chet el tajribasini joriy etishda milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlikni ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Krayevskiy, V.V. Pedagogika nazariyasi asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1991.

2. Didro D. Inson tabiati va tarbiya haqida falsafiy mulohazalar. – Parij, 1970.

3. O‘tanov, O‘. Shaxs psixologiyasi va o‘smirlik davri xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2018.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. Umumiy o‘rta ta’lim davlat standarti (2020-yilgacha amal qilgan nashr).

5. British Department for Education. National Curriculum in England: Framework Document. – London, 2014.

6. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

7. UNESCO. Quality Education and Human Development Report. – Paris, 2022.

ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdulazizov Faxriddin Muxitdin o‘g‘li
University of Business and Science
Ijtimoiy va gumanitar fanlar fakulteti
Lingvistika yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanida qo‘llangan frazemalar lingvokulturologik jihatdan tahlil etilgan. Asarda

uchraydigan frazeologik birliklarning ma'no, shakl va funksional xususiyatlari ko'rib chiqilib, ularning milliy-madaniy mazmuni ochib berilgan. Tadqiqot davomida frazemalarning xalq tafakkuri, urf-odatlar va qadriyatlarini ifodalashdagi o'rni yoritilgan. Maqola o'zbek tilida frazeologizmlarning lingvokulturologik talqinini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazema, lingvokulturologiya, milliy tafakkur, "Ota" romani, madaniy ma'no.

Аннотация: В данной статье рассматриваются фразеологизмы, употребленные в романе Улугбека Хамдама «Ота», с точки зрения лингвокультурологии. Анализируются смысловые, структурные и функциональные особенности фразем, раскрывается их национально-культурное содержание. Особое внимание уделено роли фразеологических единиц в отражении народного менталитета, традиций и духовных ценностей. Исследование способствует более глубокому пониманию лингвокультурологических особенностей узбекского языка.

Ключевые слова: фразеология, фразема, лингвокультурология, национальное мышление, роман «Ота», культурное значение.

Abstract: This article analyzes the phraseological units used in Ulugbek Hamdam's novel "Ota" from a linguoculturological perspective. The study focuses on the semantic, structural, and functional features of idioms, revealing their national and cultural meanings. Special attention is given to the role of phraseological expressions in reflecting the Uzbek worldview, traditions, and moral values. The research contributes to a deeper understanding of the linguocultural aspects of the Uzbek language.

Keywords: phraseology, idiom, linguoculturology, national mentality, *Ota* novel, cultural meaning.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida tilshunoslikda inson omili, milliy tafakkur va madaniyat bilan bog'liq masalalarga bo'lgan e'tibor keskin ortib bormoqda. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning madaniy xotirasi, tarixiy tafakkuri va ruhiy dunyosini ifodalovchi hodisa sifatida o'rganilmoqda. Shu bois

lingvokulturologiya til va madaniyat o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi yangi yo‘nalish sifatida zamonaviy filologiyaning eng dolzarb sohalaridan biriga aylandi. Tilning madaniy qatlami, ayniqsa, frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Frazemalar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, urf-odatlarini, milliy xarakteri va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan barqaror nutqiy birliklardir. Ular xalqning tafakkur tarzi, hissiy holati, ijtimoiy qadriyatlari va axloqiy mezonlarini ifoda etishning o‘ziga xos shaklidir. Shu bois frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlil etish nafaqat tilning ichki tizimini, balki milliy ruhni ham anglashga yordam beradi.

O‘zbek tili frazeologiyasi xalqning ma’naviy hayotini, turmush tarzini, orzu-umidlarini, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi boy qatlamdir. O‘zbek adabiyotida frazemalarning badiiy vazifasi⁵⁵ alohida ahamiyat kasb etadi ular obrazlarni jonlantiradi, nutqqa milliy ohang bag‘ishlaydi, matnga hissiy ta’sir kuchi qo‘shadi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Ulug‘bek Hamdam o‘z asarlarida xalqona so‘z boyligini, xususan, frazeologik birliklarni keng qo‘llab, o‘zbek ruhiyatini badiiy ifodalashda katta yutuqlarga erishgan. Uning “Ota” romani insoniylik, or-nomus, ota-bola munosabatlari, vijdon va ma’naviyat masalalarini yoritishda frazemalardan faol foydalanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Mazkur romanda ishlatilgan frazemalar oddiy nutq bezagi emas, balki qahramonlarning psixologik holatini ochuvchi, ularning milliy xarakterini yorituvchi, xalqning madaniy tafakkurini aks ettiruvchi vositalardir. Shu sababli “Ota” romanidagi frazemalarni lingvokulturologik tahlil qilish⁵⁶ nafaqat badiiy asarning ichki mohiyatini, balki o‘zbek xalqining madaniy-milliy qadriyatlarini til orqali anglashga imkon beradi.

ASOSIY QISM. Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romani o‘zbek xalqining ma’naviy olami, insoniy qadriyatlar, or-nomus, ota-bola munosabatlari, sadoqat va vijdon masalalarini badiiy yoritgan asarlardan biridir. Muallif roman tilini xalqona

⁵⁵ O‘zbek tilida frazeologiya masalalarining tadqiqiga doir. Turaboyeva Lobar Quramboyevna. B-15-18 // <https://doi.org/10.5281/zenodo.7722812>

⁵⁶ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1993.

ruhda qurib, milliy mentalitetni ifodalovchi frazeologik birliklardan keng foydalangan. Asarda frazemalar nafaqat nutq bezagi, balki obrazlar xarakterini ochuvchi, ularning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi va o‘zbek xalqining dunyoqarashi hamda madaniy qadriyatlarini til orqali aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

“Ota”⁵⁷ romanidagi frazemalar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, ular xalq tafakkurining madaniy kodlari sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “ko‘ngli g‘ash bo‘ldi” frazemasi o‘zbek xalq tafakkurida insonning nozik hissiy holatini, ranjish yoki ichki ezilishni ifodalaydi. **“Ko‘ngil”** tushunchasi o‘zbek madaniyatida inson ruhiy dunyosining markazi, samimiyat va mehr-oqibat ramzi sifatida qaraladi. Shu bois bu ibora xalqning ruhiy kechinmalarini madaniy jihatdan ifodalovchi til birligidir. Shunga o‘xshash **“yuragi orqaga tortdi”** frazemasi ham o‘zbek xalqining his-tuyg‘ularni tana a‘zolari orqali ifodalash an‘anasiga asoslanadi. Yurak bu yerda jasorat va tuyg‘u markazi sifatida talqin etilib, ibora qo‘rquv, xavotir va hayajonni bildiradi.

Shuningdek, romanda “ko‘zini olib qochdi” iborasi obrazlarning uyat, noqulaylik yoki aybdorlik hissini ifodalash uchun ishlatiladi. O‘zbek madaniyatida “ko‘z” — or-nomus, vijdon va to‘g‘rilik timsolidir. Demak, bu frazema xalqning axloqiy qadriyatlari hayo, vijdon va e‘tiqod bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan madaniy ramzdir. Xuddi shu qatorda “yuzi yerga qaradi” frazemasi ham or-nomus va izzat tushunchalari bilan bog‘lanadi. **“Yuz”**⁵⁸ o‘zbek xalqining axloqiy va ijtimoiy madaniyatida shaxsning qadr-qimmatini, obro‘si bilan bevosita aloqador tushuncha bo‘lib, yuzni yerga qaratish sharmandalik, izza bo‘lish yoki or-nomusdan ayrilish belgisi sifatida qabul qilinadi.

Muallif roman matnida ijobiy ruhiy holatlarni ifodalashda ham xalqona frazeologizmlardan samarali foydalangan. Masalan, *“ko‘ngli yorishdi” frazemasi o‘zbek madaniyatida inson ruhiyatidagi umid, quvonch va ezgulik kayfiyatini*

⁵⁷ Ulug‘bek Hamdam. Ota. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 208 b. // www.ziyo.com kutubxonasi.

⁵⁸ I. Bahriddinova, D. . (2025). “OTA” ROMANIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING IFODASI. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(5), 5–11. Извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/canrms/article/view/78513>

bildiradi. “Yorug‘lik” obrazi⁵⁹ xalq ongida ezgulik, poklik va baxt timsoli bo‘lgani uchun bu ibora quvonchni ifodalash bilan bir qatorda madaniy ramziy ma’noga ham ega. Shu tarzda “boshi osmonga yetdi” iborasi ham insonning g‘urur, faxr yoki baxt tuyg‘usini ifodalovchi frazema bo‘lib, xalq dunyoqarashida “osmon” yuksaklik, orzu va saodat belgisi hisoblanadi. Demak, bu ibora xalqning *ijobiy emotsiyalarni ifodalashdagi milliy timsoliy tafakkurini ko‘rsatadi*.

Bundan tashqari, “og‘zidan gullar to‘kiladi” iborasi ham xalqning so‘z san’atiga, so‘z madaniyatiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. O‘zbek xalqida “gul” go‘zallik, samimiyat va iliqlik ramzidir. Shu sababli kimnidir “og‘zidan gullar to‘kiladi” deb ta’riflash – uning nutqi yoqimli, so‘zlari shirali, yurakdan chiqayotganini bildirish bilan birga xalqning estetik qadriyatlarini ham ifodalaydi. “Ko‘nglini ovladi” frazemasi esa o‘zbek xalqining mehr-muruvvat, samimiyat va insoniy munosabatlarga asoslangan madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. “Ko‘ngil ovlash” iborasi xalq hayotida insoniy munosabatlarning muhim ko‘rinishi sifatida, ya’ni mehr bilan muomala qilish, dilni yumshatish, samimiyat orqali yaqinlik hosil qilish ma’nolarida qo‘llanadi.

Shu tarzda “Ota” romanidagi frazeologik birliklar nafaqat muallif uslubining ifodaviy kuchini oshiradi, balki o‘zbek xalqining milliy ruhiyati, madaniy qadriyatlari va axloqiy ideallarini badiiy shaklda yoritadi. Frazemalar orqali xalqning ichki dunyosi, orzu-umidlari, dard va quvonchlari, hissiy olami o‘z ifodasini topgan. Demak, Ulug‘bek Hamdam o‘z romanida frazeologik birliklarni badiiy-estetik maqsad⁶⁰ bilangina emas, balki lingvokulturologik mazmuni yetkazuvchi vosita sifatida ham qo‘llaydi. Natijada “Ota” romanidagi frazemalar o‘zbek xalqining milliy tafakkuri va madaniyatini til orqali yorituvchi, ma’naviy merosni saqlovchi unsurlar sifatida qadriyat kasb etadi.

| № | Frazema | So‘zma-so‘z ma’nosi | Ko‘chma ma’nosi | Lingvokulturologik izoh |
|----------|----------------|----------------------------|------------------------|--------------------------------|
| | | | | |

⁵⁹ Lingvokulturologiya va frazeologiya masalasi (o‘zbek va nemis tillari misolida) – 2023 yil, Vol 1 – Iss 2 (JUNE 2023), sah. 170-174.

⁶⁰ Frazeologiya va paremiologiya birliklari va ularning yondosh hodisalarga munosabati” – 2023 yil, sah. 134-136.

| | | | | |
|---|----------------------|--------------------------------|-------------------------------|---|
| 1 | Yuragi orqaga tortdi | Yurak orqaga harakat qilgandek | Qo‘rqdi, xavotirlandi | “Yurak” o‘zbek madaniyatida jasorat va his-tuyg‘u markazi. Qo‘rquvni ifodalovchi xalqona timsol |
| 2 | Ko‘ngli g‘ash bo‘ldi | Ko‘ngli bezovta bo‘ldi | Xafa bo‘ldi, ranjidi | “Ko‘ngil”– samimiyat, noziklik timsoli. Ruhiiy holatni madaniy ifoda etadi. |
| 3 | Yuzini yerga qaradi | Yuz pastga solindi | Uyaldi, izza bo‘ldi | “Yuz” – or, izzat, nomus belgisi. Axloqiy qadriyat bilan bog‘liq. |
| 4 | Ko‘zini olib qochdi | Qarashni chetga burdi | Uyaldi, aybdorlikni his qildi | “Ko‘z” vijdon va halollik ramzi. Uyat hissini bildiruvchi madaniy kod. |
| 5 | Ko‘ngli yorishdi | Ichida yorug‘lik paydo bo‘ldi | Quvondi, umidlandi | Yorug‘lik” ezgulik va poklik ramzi. Ruhiiy yengillik ifodasi. |

XULOSA. Tahlil natijalariga ko‘ra, romandagi frazemalar bir necha asosiy funksiyani bajaradi: birinchidan, ular qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalash orqali psixologik funksiyani; ikkinchidan, xalqona ifodalar orqali asarga milliy ruh va madaniy rang bag‘ishlash orqali estetik funksiyani; uchinchidan, xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini badiiy shaklda tiklash orqali kulturologik funksiyani bajaradi.

Shuningdek, “Ota” romanida frazemalarning qo‘llanishi yozuvchining o‘zbek xalqining ruhiyati, dunyoqarashi va til madaniyatiga chuqur hurmat bilan yondashganini ko‘rsatadi. Har bir ibora muayyan madaniy ma’noga ega bo‘lib, ular orqali xalqning orzu-umidlari, his-tuyg‘ulari, axloqiy qadriyatlari va hayotiy falsafasi badiiy shaklda ifoda etilgan. Shu asosda aytish mumkinki, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi frazemalar o‘zbek tilining boy madaniy qatlamini ochuvchi, xalq tafakkuri va badiiy tafsir o‘rtasida mustahkam ko‘prik vazifasini bajaruvchi hodisadir. Ularning lingvokulturologik tahlili nafaqat adabiy asarning ichki mohiyatini chuqurroq anglashga, balki o‘zbek tilining milliy-madaniy xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganishga ham imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turaboyeva Lobar Quramboyevna. O‘zbek tilida frazeologiya masalalarining tadqiqiga doir. B. 15-18.
2. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1993.

Nutqiy muloqot jarayonida komik effektlarning lingvopragmatik xususiyatlari

Usmonov Aslam Qarshiboyevich

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, f.f.f.d.(PhD).

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nutqiy muloqot jarayonida hajviy matnning pragmatik ma’nosi hamda nutqiy muloqotda jarayonida komik effektlarning pragmatik vazifalari o‘rganilgan. Til birliklarning hajviy nutq vaziyatida lokutiv, illokutiv, perllokutiv aktlarni yuzaga keltirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: hajviy matn, til birliklari, pragmatika, uslub, bo‘lak, ma’no, munosabat, nutq, vergul.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется прагматическое значение комического текста в процессе речевой коммуникации и прагматические функции комических эффектов в процессе речевой коммуникации. Установлено, что в комических речевых ситуациях языковые единицы создают локативные, иллокутивные и перлокутивные акты.

Ключевые слова: комический текст, языковые единицы, прагматика, стиль, часть, значение, отношение, речь, запятая.

RESUMES

This article studies the pragmatic meaning of comic text in the process of speech communication and the pragmatic functions of comic effects in the process of speech communication. It is found that linguistic units create locative, illocutionary, and perlocutionary acts in comic speech situations.

Key words: comic text, language units, pragmatics, style, part, meaning, attitude, speech, comma.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir. Antropotsentrik paradigmaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri muloqot jarayonidir. Muloqot jarayonini nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya fani ham o'rganadi. [1.B-63.] Unga ko'ra, aytilganidek, muloqot – bu kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashiniladi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki tuzatiladi. [2. – B. 4]

Muloqot tizimida uning o'zaro bir-biriga bog'liq jihatlari ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va perseptiv. Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumot va hokazolarni bir-biriga yetkazadi. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda turli xil birliklardan foydalanamiz. Ehtiyojga ko'ra lisoniy va nolisoniy omillardan foydalanamiz.

Baʼzan boshimizdan oʻtgan yoki oʻzimiz guvoh boʻlgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish boʻlgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Baʼzan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz baʼzan qandaydir informatsiyani tinglovchiga yetkazishga qaratilgan boʻladi.

Adabiyotshunos Matyoqub Qoʻshjonov bir maqolasida hajviy, komik-yumoristik yoʻnalish haqida gapirar ekan, jumladan, shunday deydi: —Yozuvchi hajvda har xil uslublardan foydalanishi mumkin. Shu asosda nuqson va kamchiliklarni, hayotda uchrab turadigan illatlarni qavartirib, ayrim joylarda oshirib tasvirlashi, zarur paytlarda noreal situatsiyalardan real xulosalar chiqarib, kamchiliklarni sogʻlom nuqtadan turib fosh qila bilishda, hayot bir daryo ekanligini, unga tushib qolgan baʼzi bir xas-choʻplar, shox-shabbalar, shiddatli oqim natijasida paydo boʻlgan yengil koʻpiklar uning tagli oqimiga putur yetkazishini anglagan holda ish tutishidadir [3].

Shunday ish tuta olgan ijodkorlar sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziy Erkin Vohidov, Said Ahmadlarni koʻrsatish mumkin. Masalan: Erkin Vohidov oʻzining “Donishqishloq latifalari”, “Hajv daftari”, “Tabassum” rukni ostidagi ijod namunalarida komik-satirik detallar, belgi-chiziqlar hamda beixtiyor kulgi uygʻotadigan birliklarni topib ishlatganki, hayotning salbiy tomonlarini inkor etishda yumoristik muloqot yarata olgan.

Latifalar nihoyatda kulgu qoʻzgʻatuvchi kitobxonning ichki dunyosi va tuygʻusini uygʻotish jihatidan ahamiyatlidir. Eʼtibor qaratilsa, kitobxonning qah-qahasini jumbushga keltiradigan latifalardir. Lekin har bir latifaning zamirida davrning ijtimoiy yutuq, kamchiliklari yumorga oʻrab beriladi.[10.B-44] Shoirning oʻzi latifalar haqida shunday degan edi: —Donish qishloq latifalarini oʻqib hamma kuladi. Vaholanki men ularni alam bilan yozganman, — deydi shoir. — Aql idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirib yotgani sir emas-ku.

[11]

Shoir birgina Matmusa obrazi orqali o'zining yumaristik salohiyatini isbotlay olgan. Erkin Vohidov **“Zo‘ravon”** nomli qisqa she'rida ham yumaristik muloqot namunasini ko'rishimiz mumkin.

Qoch, chetga o't, yo'l ber yigitga! –

Deya tog'ni tepidi chigirtka

Erkin Vohidov “Zoravon” she'rining ushbu qatorida kichik bir chigirtkaning harakati orqali insonning hayotdagi o'rni, jamiyatga bo'lgan munosabati va uning ulkan qudrati haqida chuqur falsafiy fikrni yashirgan. Ikkinchi tomondan, o'z kuchini chamalay olmagan kishining noo'rin chiranishi ifada etilgan. Buni she'r nomidan ham bilish qiyin emas. She'rning nomi hamda yuqorida keltirilgan parcha mazmuni birlashtirilganda har qanday o'quvchida beixtiyor kulgi uyg'onadi. “Zo‘ravon” hamda “qoch deya tog'ni tepgan chigirtka”. Bunday aktik pragmatik ma'nolar muloqot jarayonida yuzaga keladi.

Biz muloqot jarayonida biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitoblaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi ta'sirlantirishni istaydi [4. – B. 99].

Muloqot jarayonida, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, inson, shaxslararo munosabatni ta'minlash vazifasidan tashqari, matn yaratish va fikrni uzviy ifodalash vazifalari ro'yobga chiqadi [5. – B. 184]. Nutqiy muloqotda avvalo so'z, so'z birikmasi, fraza, gap, matn muhim rol o'ynaydi. Bularning ma'nolari va ifoda vositalari ijtimoiy holatlarga ko'ra aniqlanadi. Ana shunday hollarda ba'zan bog'lovchilardan foydalanamiz. Bog'lovchilar nutqiy voqelanishi, ifoda imkoniyatlari namoyon qilishi uchun ma'lum bir til birliklarining ta'sirini hamda nutqiy muloqot, nutqiy vaziyatni taqozo qiladi. Negaki, nutqiy muloqot (diskurs [6. – B. 9.]) til birliklarining har qanday ko'zga ko'rinmas, nutqiy aktik ma'nolarni ham yuzaga chiqaruvchi murakkab bir tizimdir.

Nutqiy muloqot – so‘zlovchi va tinglovchilarning axborotlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma, malakalari lisoniy va nolisoniy vositalar bilan birga ko‘p tarkibli, rang-barang pragmatik qiymatga ega ta’sir jarayoni.[7. – B. 30.]

2-sentyabr.

O‘qituvchi: – Bolalar, kelinglar, tekshirib ko‘ramiz – yozda hech narsani unutmadingizmi?

O‘quvchilar: – *Xolajon, siz kimsiz?!*

2-sentyabr.

O‘qituvchi: – Darslar haqida fikrlaringiz qanday?

O‘quvchilar: – *Yoz boshlanishiga 273 kun qoldi!*

Bu muloqot jarayonidan sezish mumkinki o‘quvchilar yozgi tatil davomida hattoki USTOZini ham unitib yuborishibdi va dars davomida faqat yozgi tatil haqida uylagan.

Bizning nutqimizda shunday so‘z va brikmalar borki, biz ularni deyarli har kuni nutqimizda, kitoblarda, filmlarda va boshqa adabiyotlarda qo‘llaymiz, eshitamiz, va o‘qiymiz. Lekin har doim ham ularning ma’nolarini bilvosita tushuntirib bera olmaymiz. Shunday tushunchalardan biri bu “Komizm”dir. Komizm konseptiga odamlarda tabassum, kulgi va quvonch uyg‘otuvchi xatti-harakatlar, so‘zlar va iboralar, turli xil so‘z o‘yinlari va rasmlar kabi vositalar kiradi.

Komizm “Homo ridens - kuluvchi odam” deb ham ta’riflanadi. Tezkorlik, hozir javoblik, hazil tariqasidagi javoblar berish xalq orasida eramizdan oldingi paytlarda ham mavjud bo‘lganligi haqidagi taxminlar ham mavjud. Komizm tuyg‘usi insonga berilgan eng oliy inoyatlardan biri bo‘lib, aynan shu xususiyat uni hayvonot olamidan ajratib turadi. Kulgi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan tartibsiz his tuyg‘u boshqaradigan xatti-harakat sifatida ifodalanuvchi holatdir. Bu tashqi ogohlantirishlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobni ifodalovchi bog‘lanishga, jarayonga o‘xshaydi. Lekin avvaliga sodda, keyin esa tobora nozik va ziddiyatli, turli ma’no va vazifalarga ega turlari jamiyatda tarqala boshlandi. Komediya filmlar yoki pyesalarda tomoshabinlar kulgi va yaxshi kayfiyat uyg‘otish uchun ishlatiladi.

Ammo jiddiy asarlarda ham komizm keskin vaziyatni yumshatish yoki qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlash uchun ishlatiladi.

Bashqacha aytganda, ijodkorlar asar qahramonlari tilidan ishlatilayotgan til birliklari va birikmalar turli hil pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi?

Muloqotning kommunikatlarning makon va zamonga nisbatan holatiga ko'ra: kontakt va distant muloqotda kulgi uyg'otuvchi birliklarning qo'llanishi hamda pragmatik xususiyatlariga to'xtalamiz.

Kontakt muloqot – muloqotning bu turida hamkor-suhbatdosh yonimizda bo'ladi va u bilan bevosita muloqot o'rnatishimiz, imo-ishoralar va turli xil harakatlar orqali bir-birimizga murojaat qilishimiz mumkin. Masalan, yonimizdagi do'stimizni imlab chaqiramiz, rozi yoki noroziligimiz ifodasini labimizni burib, boshimizni qimirlatib bildiramiz. Masalan: Mahmudiy – Darvoqe ... Tanaffus. (Matmusa boshvog'i yechilgan kuchukday chopib borib stolga o'tiradi). Stop-stop! Boshqatdan. Qani, qanday o'tirish kerak? (Matmusa boshini egib joyiga *qaytadi va asta, gerdayib yurib stolga o'tiradi. Shoshmay atrofga qaraydi.*) (E.Vohidov)

Distant muloqotda vositachilik qiluvchi "apparat"ning mavjudligi va mavjud emasligiga ko'ra: bevosita va bilvosita muloqotga bo'linadi. Bevosita muloqot bu – odatdagi suhbat, so'zlashuv, ma'ruza va h.k. Muloqotning bu ko'rinishlarida o'ziga xos muloqot maydoni yuzaga keladi. Bu muloqot maydonida til birliklarining pragmatik xususiyatlari o'z aksini topmay qolmaydi.

Bilvosita muloqot turlariga telefonda gaplashish, xat orqali murojaat qilish, axborotni radiodan, televideniya dan hamda kitob orqali uzatish kabilar kiradi. Aynan bilvosita muloqot rivoji hayotda juda ko'p o'zgarish va yangiliklarni taqozo qiladi. Bugungi axborot texnologiyalar asrida muloqotning bunday turlari juda ommalashib bir qancha yangi axborot uzatish vositalari bilan boyigan. Bu esa, o'z navbatida, til birliklarini nutqiy muloqot vaqtida so'zlovchi nutqiga xos turli xil oshkora va yashirin ma'nolarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy hayot realiyalari shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi dunyoning barcha jamiyatida muloqot o'ta erkin, kutilmagan hamda til qoidalaridan yiroqligi bilan xarakterlanadi. [9. – B.29.]

Muloqotning til birliklarining shakllanishiga ko‘ra og‘zaki va yozma muloqot turlariga bo‘linadi. Bog‘lovchilarning bu muloqot turlarida ishtiroki bir xilda emas. Chunki yozma muloqotda ishlatilgan til birliklarining barchasi har doim ham og‘zaki muloqotda ishlatilmaydi yoki aksincha. Muloqotning bunday turlarini yuzaga keltirishda, albatta, o‘ziga xos “shart”lar bor.

Masalan: Bizlar arra tortmoqdamiz,

Arramizning tishi yo‘q.

Nega arrang tishi yo‘q, deb

So‘raydigan kishi yo‘q.

Chunki bizlar anoyimas,

Pishib ketgan ko‘zimiz.

Arra tushgan o‘sha shoxda,

O‘ltiribmiz o‘zimiz. (O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov, 1991-yil)

Pragmalingvistik tahlilda *shaxs* masalasi markaziy o‘rinni egallar ekan, nutq jarayonida ishtirok etuvchi so‘zlovchi hamda tinglovchi shaxs pragmatik komponentlar qatoriga kiradi. Haqiqatan ham muloqotning ikki tomonlama ekanligi kamida ikki kommunikantning mavjudligini talab qiladi: adresant, adresat va ba’zi hollarda kuzatuvchi.

Ma’lumki, muloqot so‘zlovchi va tinglovchining pozitsiyasiga ko‘ra: dialogik va monologik turlarga bo‘linadi. Keyingi vaqtlarda muloqotning bu singari turlari va unda ishtirok etayotgan til birliklarining stilistik, pragmatik va lingvokulturalogik jihatlarini tadqiq qilishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Dunyo tilshunosligida nutqiy muloqotga harakatdagi jarayon sifatida qarash hamda nutqiy aktlar haqidagi nazariyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi sabab matn va diskurs, dialogik savol-javob mavzusi tilshunoslikda yangicha yondashuvdagi tadqiqotlar zaruriyatini keltirib chiqarmoqdi.

Dialog jarayonidagi verbal va noverbal vositalar o‘rnini tadqiq etishda ijtimoiy va ruhiy muhit ta’sirini ham e’tibordan soqit qilmaslik tadqiq etilayotgan masalani oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dialogik va monologik

muloqot jarayonida kulgu uyg‘otuvchi birliklar ham so‘zlovchining turli mazmundagi ichki niyatlari reallashtirishda hamda turli mazmundagi nutqiy aktlar yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuni inobatga olib, bunday birliklarning muloqotni bu turlarida qanday nutqiy akti yuzaga keltirayotganini tahlilga tortamiz.

Komizmga olimlar tomonidan ko‘plab ta’riflar berilgan. Komizmga eng birinchilardan bo‘lib ta’rif berganlardan biri bu Aristoteldir. Aristotel komizmga “Xato va deformatsiya ammo og‘riqsiz va zararsiz” Teofil Gautier komediyani absurdlik mantig‘i deb atadi. Qadimda ko‘plab nazariyalarda kulgini shunga o‘xshash talqinlar qilishgan. Har bir kulgili talqin qaysidir ma’noda qarama-qarshilik, ko‘chma ma’no, tag ma’no, ma’no torayishi, ma’no kengayish va shu kabi biror omilni o‘z ichiga olib yuzaga keladi. Bizni kuldiradigan narsa bu aniq shaklda mujassamlangan tushunilmagan ma’no – avval tan olingan va keyin anglashigan ma’no hisoblanadi.

Masalan: Ertalab **oshda** ko‘rinmadingiz?

Avval anglashilgan ma’no – *marakada, to‘yda ko‘rinmaganlik ma’nosi.*

Keyin anglashilgan ma’no – *oshning ichida ko‘rinmaganlik ma’nosi.* (keyin anglashilgan ma’no tenglovchining “go’shtmanmi oshda ko‘rinib” gapini aytgandan so‘ng anglashiladi.)

Kulgi qo‘zg‘atuvchi matnlarning o‘rganilishi jahon olimlaridan Zigfrid Krakauer o‘zining “Film nazariyasi: Filmlardagi nutq” ilmiy maqolasida kinoda komediya rolini o‘rganib chiqan, Helmut Schanze esa “Hobbinig komediya shakli: Inson ilmining yagona tarixi” - Schanze komediya va ilmiy kashfiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik borasida tadqiqodtlar olib bordi, yana bir olim Verner Follstix : “Film va komediya: Chaplinning “Adashgan” romanidan “Spagetti hidlovchisigacha”, Follstich Charli Chaplinning “Assob” filmidan ko‘proq zamonaviy komediyalargacha kinoda komediyaning rivojlanishini o‘rgandi. Ammo shuni takidlash lozimki, XIX asr nemis adabiyoti, ayniqsa Geynrix Xayn, Teodor Fontane va Vilgelm Bush kabi mualliflar turli xil hazil asarlar turlarini

shakllantirdilar. Masalan, Bushning “Maks va Morits” asari bolalar adabiyotida rasmi hikoyalar va hazil sohasida kashshof asarga aylandi.

Hozirgi kunda zamonaviy komizm rivojlanishda va turli shakl va ko‘rinishlarda davom etmoqda: sahna komediyasidan tortib, televizion o‘yin-kulgigacha, ijtimoiy tarmoqlardan tortib, onlayn platformalargacha keng tarqalib bormoqda. Hozirgi kunda tilshunoslikning ko‘lab yunalishlarida kulgi uyg‘atuvchi matnlaridan unumli foydalanishmoqda va o‘z navbatida o‘zbek tili matnlarida ham komizmlarning turli ko‘rinishlari qo‘llanilishi masalalarini bir qator adiblarning asarlarida ko‘rishimiz mumkin.

Bu borada yumor boy asarlar bitgan Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad aytish mumkin. Bundan tashqari Erkin Vohidov, Anvar Obidjon kabi shoirlarimiz ham yumoristik she‘rlar bitganlar.

Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zining hajviy dramalari va ijtimoiy-tanqidiy asarlari bilan mashhur. Uning “Maysaraning ishi” dramasi o‘zbek adabiyotida dastlabki hajviy drama hisoblanib, unda ijtimoiy tengsizlik va johillik kulgi ostiga olingan. Yana, Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” hikoyasi, “O‘tmishdan ertaklar” va boshqa asarlari o‘tkir satira va hajv bilan sug‘orilgan. Adib bu asarlarda inson fe‘l-atvorini, jamiyatdagi illatlarni yumor orqali mahorat bilan tasvirlangan. Said Ahmad “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kiyov” komediyalari xalqona yumor bilan yo‘g‘irilgan asarlar sarsifga kiradi.

Zamonaviy tilshunoslikda hajviy asarlar matnida qo‘llangan turli xil so‘z o‘yinlari, kinoya va hazil tushunchalarning stilistik, pragmatik, lingvomadaniy jihatlarini tadqiq qilishga e‘tibor ko‘chaydi. Maqolamizda kulgu uyg‘otuvchi birliklar, ularning nutqiy muloqot jarayiniga ta‘sirini o‘rganish bilan birga hajviy matnlarga asos bo‘ladigan yumoristik asarlar yaratilishi tarixiga murojaat qilishdik. Zero, “Moziyga qaytib ish ko‘rmak xayrlikdir”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов, А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 63.
2. Мулоқот психологияси. – Тошкент, 2003. – Б. 4.

3. Qo‘shjonov M. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2019.
4. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent. 2020. – B. 99.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 184
6. Тоирова Г. Прагмалингвистика. Ўқув луғат. –Тошкент, Академнашр, 2016. – Б. 9.
7. Тоирова Г. Кўрсатилган ўқув луғат. –Тошкент, Академнашр, 2016. – Б. 30.
8. Маткаримова А. “Ўқурат” семантик майдонини ифодаловчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри (PhD)... дис. автореф. – Андижон, 2021. – Б.29.
9. Азнаурова Э. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 52.
10. Mirhaydarov H. Erkin Vohidovning yumoristik ijodiyoti // Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Guliston – 2020-yil.
11. Vohidov E. Publisistik maqolalari: TOSHKENT O‘zbekiston–2006-yil

Ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlarning morfologik aspekti

Usmonova Umida Baxtiyorovna,

Jizzax DPU Filologiya fakulteti,

Ingliz tili kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD).

Annotatsiya: Mazkur maqolada publitsistik matnlarda qo‘llanilidigan morfologik birliklarning uslubiy xususiyatlari haqida so‘z boradi. Bu birliklar publitsistik matnni ekspressivligini va ommaga tushunarli yetib borilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan jurnalist va ijodkorlar biror mavzuni yoritishda ma’lum bir uslubiy maqsadni ko‘zlagan holda ibora tanlaydi hamda matnda qo‘llaydi.

Kalit so‘zlar: matn, publisistik matn, uslub, morfologik xususiyat, stilistika, ton, munosabat, qo‘shimcha.

Annotation: This article discusses the stylistic features of morphological units used in journalistic texts. These units serve to make the journalistic text expressive and understandable to the public. In this regard, journalists and creative people choose expressions and use them in the text with a specific stylistic goal in mind when covering a topic.

Keywords: text, journalistic text, style, morphological feature, stylistics, tone, attitude, addition.

Nutqda morfologik shakllar ham uslubiy ma'nolar ifodalovchi vosita sifatida keng qo'llaniladi. Morfologik ma'nolar grammatik ma'noning tarkibiy qismi sifatida morfologik shakllar orqali ifodalanadi. Grammatik ma'no leksik ma'nodan farqli ravishda borliqdagi narsa va hodisalarning umumlashgan ma'nolarini va ular o'rtasidagi munosabatni bildiradi⁶¹ Ma'lumki, publitsistik matnlar gazeta, jurnal, radio, televideniye va internetda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, ularning mazmuni va shakli auditoriya ehtiyojlari va ommaviy axborot vositalarining o'ziga xosligiga mos ravishda shakllantiriladi va bu turdagi matnlar keng ommaga qaratilgan va malum bir maqsadda yoritib boriladiga matnlar hisoblanadi .

Morfologiya morfologik ma'nolarni o'rganadi. Morfologik ma'no ifodalovchi muayyan shakllar yig'ilib grammatik kategoriyani tashkil etadi. Otlarning grammatik kategoriyalaridan biri egalik kategoriyasidir. Predmet yoki predmetlik tushunchalarining uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ifodalovchi shakllar egalik kategoriyasi deyiladi. Otlardagi egalik uch shaxsni, birlik va ko'plikni ifoda etadi. O'zbek tilida egalik ma'nolari morfologik va sintaktik usullarda ifodalanadi.

Egalik kategoriyasida ham sinonimiya mavjud. Ana shu sinonimlardan nutq vaziyatiga mosini tanlab ishlatish uslubiy imkoniyat yaratadi. Yozuvchilar ana shu

⁶¹ Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskanarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining mazmuniy grammatikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. –B. 15.

uslubiy imkoniyatdan foydalanish jarayonida o‘z mahoratini namoyon etadilar. Publitsistik matnda egalik affikslari hissiy-ta’sirchan bo‘yoq ifodalashi mumkin. Ular quyidagicha ko‘rinishga ega:

1) murojaatda qo‘llanuvchi (jonli va jonsiz narsalarga) bolam, vatandoshlarim, azizim, onam, vatanim, qishlog‘imiz kabi so‘zlar tarkibidagi egalik affikslari so‘zlovchining xususiy munosabatini ifodalab hissiy ta’sirchanlikni oshiradi: Garchi konstitutsiyamizda so‘z bo‘masa-da, bizda hozir ikki tililik mavjud?! (T.Malik. Gazeta.uz 2022.10.)

Mazkur matnda qo‘llangan “konstitutsiyamiz” so‘zi tarkibida birinchi shaxs ko‘plik shakli –miz affiksi qo‘llangan. Bu egalik shaklining ishlatilishi ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan (muallif konstitutsiyada deyishi ham mumkin edi.); Ingliz tilida: This is our moment. This is our country. And it is our responsibility to leave it stronger, fairer, and more united for the generations to come. (The Independent)

2) biror shaxsni o‘ziga tanish yoki yaqin tutishni ifodalaydi. Bu hol ko‘pincha qarindoshlik bildiruvchi so‘zlar tarkibida uchraydi; 1. Biz o‘zimiz ham *farzandimizni qarog‘im* deymiz. (E.Vohidov) 2. Onamiz yangi uchi bilan og‘zini ushlab yog‘ladi. – Seldada aql yo‘q ekan-da, - dedi onamiz. – Bira to‘la ochiq mozorga olib borib tashlamabdi-da!

3) kinoya, kesatiq ifodalaydi: – Ha, menda-da bor! Ayolimiz bilan loyimiz bir yerdan olingan. Bo‘ldimi? Ko‘yning joyiga tushdimi? (T.M.)

4) takidni kuchaytirishga xizmat qiladi: Men baxtli bo‘la olmaydi, deganda muhabbatini pok holda asray olmagan, muhabbat tuyg‘usiga gard tushirgan *yigit-qizlarmizni* nazarda tutyapman. (Toxir Malik “Ishq boshqa, havas boshqa” “Bekajon” gazetasi, 2006).

Matn til vositalarining bor imkoniyatlari namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos maydondir. Publitsistik nutqda ta’sirchanlik, kamtarlik, mag‘rurlanish ma’nolarini ifodalash uchun egalik affikslari qo‘llaniladi. Publitsistik matnda ham egalik qo‘shimchalari turli-tuman ma’nolarini ifodalab kelgan.

Ma'lumki, asarlarda egalik qo'shimchalari shaxslar bo'yicha almashinib qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot obyektimiz bo'lgan publitsistik matnda egalik qo'shimchalari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1) achchiqlanish, nafrat ma'nosi: Mana shu *fikrlashuvimiz, bahslashuvimiz* to'g'ri yo'lni belgilashda qiynalayotgan qaysi bir yosh yigit yoki qizga yordam berib qolar? (Toxir Malik "Ishq boshqa, havas boshqa" "Bekajon" gazetasi, 2006).

2) piching, kinoya ma'nosi : Mazkur bayonda *fikrlarimizni* balki keskinroq *bildirgandirmiz*. (O'sha maqola)

3) ma'noni kuchaytiradi: Onasi hatto "Voy *qizim-yey*, shunaqa darding bor ekan, aytma-sanmi, *suyganingga berardim*", deb o'kindi. (O'sha maqola)

4) ta'kidlash ma'nosi: Haqiqiy er yigit qadimdan ham *o'z or-nomusini*, ham *sevgilisi* sha'nini qadrlab kelgan. Ingliz tilda: I will never, ever put America's interests at risk. I will always put America's interests first. I'm not going to let other countries take advantage of us anymore. I'm going to protect *our borders*, I'm going to protect *our people*, and I'm going to protect *our way* of life. (In a speech from the 2016 Republican National Convention, Donald Trump) Bu yerda Tramp Amerika manfaatlarini himoya qilishga sodiqligini va mamlakat farovonligiga shaxsiy sadoqatini ta'kidlash uchun "bizning" va "Amerikaniki" kabi egalik olmoshlaridan foydalanadi. "Bizning" dan takroran foydalanish umumiy mas'uliyat va jamoaviy o'ziga xoslikni ta'kidlashga xizmat qiladi.

5) masxaralash ma'nosi: Ammo yigitlar orasida *aldamchilari* ko'proq bo'lsa kerak. (O'sha maqola)

6) erkalash ma'nosi: Oppoq soch odam lablarini cho'chchaytirib cho'chchaytirib o'ylab qoladi: – *Bolalarim...* - deydi. Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. (O'sha maqola)

7) xursandchilik ma'nosi: *Qaldirg'ochlarimiz* boshimiz uzra uchdi, charh-charh uchdi (T.M.)

8) norozilik ma'nosi: Ehtimol keksayish yoshiga borayotganim uchun *fikrlarimda* ham eski qarashlar mavjuddir, balki yoshlarning hayotga, muhabbatga *qarashlari* endi bo'lakchadir? (O'sha maqola)

9) ikkilanish, taraddud ma'nosi: *Qarzim* yo'q, *ena*, *qarzim* yo'q. lekin mehmon atoyi Xudo-da! (T.M.)

Ko'rinadiki, morfologik shakllar, xususan, egalik qo'shimchalari ham publitsistik nutqda so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Ular orqali muloqotda turli ijobiy va salbiy ma'nolar anglatish imkoniyati kengdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1 Arnold. I. Семантика, стилистика, интертекстуальность. СПб, СПбГУ, 1999. –444 с.
2. Abdusaidov. A. Язык газеты и литературная норма (на материале местных и республиканских газет 70-80 годов). Автореф. дис. ...канд. филол.наук. – Т.: 1988. – 23 с.
3. Kurbanov. T. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Tashkent, 1987. 130– b.

MUHAMMAD YUSUFNING SHE'RIYATIDA PRAGMATIK ELEMENTLARNING BOYLIGI

Sindarov Kaxramon Tolliboyevich,

JDPU O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusufning ijodi o'zbek she'riyatining haqiqiy namunasini tashkil etishi hamda she'riy tilida pragmatik elementlarning boyligi tahlil qilinadi. Muhammad Yusuf ijodi o'zbek she'riyatining xalqona ildizlari bilan zamonaviy badiiy talqinini birlashtirgan noyob namuna sifatida adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shoirning har bir asari uning shaxsiy badiiy tafakkuri bilan she'riyatning uyg'unligini ifodalaydi va o'quvchiga chuqur estetik ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Tillo sandiq, Odilovning oltini, mustaqillik davri she'riyati, Xo'jand, Temur Malik, Muqanna, milliy identitet, lingvopoetik tadqiq, nomzodlik dissertatsiyasi, lingvistik hamda stilistik nuqtayi nazar.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁶²gi qarorida yozuvchilar uyushmasi uchun yangi bino qurilib, hududlarda ulug‘ adib va shoirlarimiz nomlari bilan atalgan ijod maktablari madaniyat va istirohat bog‘lari bunyod qilinmoqda. Adabiyotimiz atoqli namoyandalarining yubiley sanalari munosib nishonlanmoqda⁶³. Qarorda hududlarda tashkil etilgan Is‘hoqxon Ibrat, Hamid Olimjon va Zulfiya, Ibroyim Yusupov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf nomlari atalgan ijod maktabalarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, Yozuvchilar uyushmasi o‘quv dasturlarini ilmiy va ijodiy jihatdan shakllantirish, mazkur maktablarga iqtidorli o‘quvchilarni tanlab olish, ko‘zga ko‘ringan yozuvchi va shoirlar tomonidan ijodiy seminarlar olib borish kabi bir qator vazifalar belgilangan. Shu qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida 26-aprel kuni yurtboshimiz O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tug‘ilib o‘sgan Vatani Andijon shahriga tashrif buyurdi va shoirning uy muzeyini hamda ijod maktabini tashkil etish haqida o‘zining qator taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdi. Bu ishlarning barchasi shoirga yuksak ehtirom va e‘tibor nishonasi bo‘lib, uning nomini abadiylashtirishga zamin yaratadi.

Muhammad Yusuf o‘z ijodi orqali chinakam xalqona o‘zbek she‘riyatining tamal toshini qo‘ygan, desak, bu sira mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning har bir satrida ko‘nglidan el qalbiga yetgan so‘z karvonida ona Vatan – O‘zbekistonga beqiyos mehr-muhabbat, xalq xizmatiga sadoqat, zahmatkash va ulug‘ o‘zbek xalqiga chin farzandlik ehtiromi, shuningdek, samimiyat va jo‘shqin ehtiros bilan boyitilgan chuqur ma‘no, rang-barang ohang va estetik joziba mujassamlangan. Shu bilan birga, shoirning badiiy ifoda vositalarini mohirona qo‘llashi uning she‘riy matnlarida obrazlilik, ritmik uyg‘unlik va poetik dinamikani oshiradi, bu esa o‘quvchi ongida yanada ta‘sirli va esda qolarli estetik tajriba yaratadi.

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 05.04.2018 yildagi PQ-3652-son

⁶³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori. Xalq so‘zi, 2018-yil 6-aprel, №67 (7075). – B. 4.

TILLO SANDIQ

Baland jordan tashlandi

Tillo *sandiq* daryoga.

Yoringman, deb yuzlandi

Qorabotir Zuhroga.

Tohir emas, bag‘ri xun

Oqib ketdi muhabbat.

Bu dunyoga *etagin*

Qoqib ketdi muhabbat...

Qaysni quvg‘in qilishdi,

Ul oshig‘i shaydoni,

Ermak qilib kulishdi

Qon yig‘lagan Layloni.

Majnun emas, sahroda

Sarson bo‘ldi muhabbat.

Ikki ko‘zi samoda

Hayron bo‘ldi muhabbat.

Afsona bo‘ldi, yohu

Armon bo‘ldi muhabbat.

Odamdan bezgan *ohu*,

Jayron bo‘ldi muhabbat...⁶⁴

Biron-bir she‘rida o‘rinsiz fikrlar, mavhum tuyg‘ular, mantiqsiz iboralar, nursiz kechinmalar uchratmaysiz. Shoirning hamma vaqt fikrlari salmoqli, ifodasi ohorli, tuyg‘ulari esa yorqin. Muhammad Yusuf butun murakkabliklari bilan hayotni idrok etadi, odamlardagi va jamiyatdagi noqisliklarga, illatlarga ham ko‘z yumolmaydi.

ODILOVNING OLTINI

Er boshiga ish tushsa,

Xotin sho‘rlik suv kechar...

⁶⁴ Муҳаммад Юсуф, Назира ас-Салом. Эрка кийик (шеърлар тўплами), Ёзёвон 1992 йил. – Б. 8.

Aybllovchi aybingiz topolmay dog‘da,

Topolmas tillangiz, oltinlaringiz

Bir chimdim o‘tga zor egasiz tog‘da,

Gdlyanni qarg‘aydi qo‘toslaringiz.

Jonzotlar ko‘zida jonivorcha g‘am,

Toshlarga suykalar qurib darmoni.

Zavq olar qiynab shu sho‘rliklarni ham,

O‘zbek noni urgur o‘sha armoni...

Mustaqillik sharofati bilan Muhammad Yusuf ijodida yangi ufqlar ochildi, uning she‘riyati milliy istiqlol va o‘zlikni anglashni aks ettirdi. Mustaqillik, avvalo, xalqning erkinligini va o‘z taqdirini belgilash huquqini qo‘lga kiritishining ramzi bo‘lib, she‘riyatda bu mavzu kuchli ifodalangan. Muhammad Yusufning ijodiy merosi, ayniqsa, istiqlol g‘oyalariga bag‘ishlangan asarlari, uning san‘ati orqali xalqning tarixiy xotirasini, madaniy va ruhiy qadriyatlarini tiklashga qaratilgan. Uning she‘rlari, shuningdek, yurt mustaqilligi sharafiga yozilgan asarlar, butun bir davrning ruhini va xalqning orzu-umidlarini o‘zida mujassam etadi.

Muhammad Yusufning she‘rlari o‘zining samimiyligi va soddaligi bilan ajralib turadi. U har bir qatorida chuqur ma‘no, katta hikmatni yashiradi, biroq ularni oddiy va tushunarli tarzda ifodalaydi. Shuningdek, uning badiiy mukammalligi va tilga boyligi uning she‘riyatini jonli, hayotiy va o‘quvchi qalbiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiradigan darajaga olib chiqdi. Yoshlar va keng omma uchun uning she‘rlari hayotning har bir qismidan o‘rin oladi, shu bilan birga, ularda millatning kelajagi va istiqlolning beqiyos qadri haqida chuqur o‘ylar tug‘iladi. Muhammad Yusufning asarlarida millatning ozodlik va mustaqillik orzulari yuksak madaniyat va adabiyot orqali ifodalangan. Uning ijodida xalqning o‘zini tanish, o‘z ildizlariga qaytish va o‘tmishdagi aziz qadriyatlarni tiklash uchun kuchli chaqiriqlar mavjud. Shu tarzda, uning she‘rlari nafaqat estetik ahamiyatga ega, balki ular tarixiy, siyosiy va ijtimoiy kontekstda ham katta ahamiyatga ega. Masalan:

Men dunyoni nima qildim,

O‘zing yorug‘ jahonim.
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton
Sen taxti Sulaymonim.
Yolg‘izim, Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...

Muhammad Yusufning she‘rlari milliy istiqlolning faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki xalqning ichki dunyosidagi o‘zgarishlarni, ruhiy erkinlikni, hayotga bo‘lgan yangicha yondashuvni ham aks ettiradi. U xalqni haqiqiy mustaqillikni anglashga, o‘z mustaqil fikrini shakllantirishga va o‘z taqdirini o‘zi belgilashga undaydi. Shunday qilib, Yusufning she‘rlari, mustaqillik davrining adabiy merosi sifatida, faqatgina badiiy ifodalanmagan, balki milliy g‘oyaning yuksalishi va millatning erkin va barqaror kelajagini qurishda muhim rol o‘ynaydi.

Ma‘lumki, she‘r – bu shoir olamining asosiy mohiyati hisoblanadi. U ijodkorning muayyan kayfiyati va ruhiy kechinmalari orqali dunyoga keladi. Shoirning kechinmalarini qog‘ozga qanday ko‘chirgani esa uning tafakkur darajasini ochib beradi va she‘rlarida o‘zini namoyon qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Muhammad Yusuf ijodida milliy ruhning xalqona yo‘lda ifodalanishi shoirning fikrlashi, dunyoqarashi va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, u ruhiyatidagi talqinlar va hissiyotlarning mavjlarini boshqa shaklda yetkazolmaydi.

Muhammad Yusuf she‘riyat nazariyasi yoki badiiy san‘at masalalari haqida keng fikr yuritishni odatda ma‘qul ko‘rmasdi; ayniqsa, boshqalarga “bunday yoz, unday yoz” deb ko‘rsatma berishni qat‘iyan yoqtirmas edi. Shu bois uning ijodini shartli tarzda ikki davrga ajratish mumkin:

Ilk davr: Mustaqillikkacha yaratilgan asarlar;

Keyingi davr: Mustaqillik davri she‘riyati.

Har ikkala davr tarixiy va madaniy nuqtayi nazardan o‘zining **o‘chmas izini** qoldirgan. Birinchi davrda shoirning qalamida **ozodlikka intilish**, ichki iztirob va orzular aks etadi; ikkinchi davrda esa mustaqillikdan kelib chiqadigan **baxtiyorlik**, milliy g‘urur va uni ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ulari madh etiladi.

Muhammad Yusuf ijodida **Vatan mavzusi** alohida o‘rin egallaydi. Dastlab yurakdagi tuyg‘ular ona, qardosh uy yoki yor muhabbatiga bog‘liq bo‘lsa, ular asta-sekin ona yurtga, **vatanga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbatga** aylanadi. Shu ona yurt sevgisi kishini shoir qiladi, shoirni esa o‘tdagi olovday kuch bilan harakatlantiradi.

Albatta, Vatan mavzusida qalam tebratmagan shoir deyarli yo‘q; lekin har bir ijodkor bu mavzuni **o‘z tili** va **o‘z badiiy mahorati darajasida** ifodalaydi. Muhammad Yusuf nuqtayi nazarida esa **Vatan** tushunchasi butunlay boshqa ma’noga ega. U kuylagan Vatan har doim **katta harflar bilan yoziladigan**, yaxlit va mukammal tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, Vatan so‘zi uning tilida **mutlaqo yangi, o‘ziga xos ohangda** yangraydi va shoir ijodining markaziy g‘oyalaridan biriga aylanadi.

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Muhammad Yusufning she‘rlari nafaqat milliy istiqlolning tashqi ko‘rinishini aks ettiradi, balki xalqning ichki dunyosidagi ruhiy o‘zgarishlarni, shaxsiy erkinlikni va hayotga bo‘lgan yangicha yondashuvni ham jonli tarzda ifodalaydi. U o‘z asarlarida mustaqillikning faqat tashqi erkinlik bilan bog‘liq bo‘lmagan, balki millatning ichki erkinligini, milliy ongning rivojlanishini, yangi ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni anglashni ko‘zda tutadi. Muhammad Yusuf

she'riyati, shuningdek, millatning o'zligini tiklash, xalqning o'z taqdirini belgilash huquqini qayta kashf qilish kabi yuksak g'oyalar bilan boyitilgan.

Muhammad Yusuf she'rlaridagi pragmatistik xususiyatlar, ya'ni uning tilidagi maqsadli va samimiy murojaatlarni o'rganish, she'rlarning ichki tuzilishi va ijtimoiy, madaniy kontekstda qanday reaksiya uyg'otishini tushunish muhimdir. Uning she'rlari, tilni ishlatishdagi aniq va ravshanlik, shuningdek, milliy identitet⁶⁵ni mustahkamlashga qaratilgan ifodaviy imkoniyatlar orqali, adabiy san'atni o'quvchi bilan bevosita muloqotga kirishish vositasi sifatida ishlatadi.

Muhammad Yusufning she'riy tilida pragmatik elementlarning boyligi, uning she'rlari o'quvchilarini nafaqat estetik tomondan, balki axloqiy va falsafiy nuqtayi nazardan ham o'ziga jalb etadi. She'rlari bir tomondan badiiyatni ko'zlagan bo'lsa, boshqa tarafdin ma'naviy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mazmuni o'ta aniq va samarali tarzda yetkazadi. Uning she'rlari orqali millatning o'zligini tanish, o'tmishdagi aziz qadriyatlarni tiklash, yurtga bo'lgan sadoqatni ifodalash kabi tema va g'oyalar ilgari suriladi. Ijodida tilning pragmatik funksiyasi, ya'ni o'quvchining anglash va idrok qilish darajasini hisobga olib, eng muhim fazilatlarni to'g'ri va samarali tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Uning asarlarida tilning soddaligi kitobxon yoki she'rxon bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishishdagi o'ziga xos yo'nalish va metodlar orqali adabiyotning ijtimoiy-psixologik funksiyasi o'zining yuqori cho'qqisiga chiqadi. Shunday qilib, faqat badiiy-estetik jihatdan emas, balki milliy g'oyaning yuksalishi va xalqning mustaqil fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Muhammad Yusuf ijodi o'zbek she'riyatida xalqona ruh, milliy identitet va zamonaviy badiiy tafakkurning uyg'unlashgan yorqin namunasi. Shoir she'riy tilida pragmatik elementlarning boyligi uning asarlarini o'quvchi bilan bevosita muloqotga kirishadigan, kuchli ta'sir va ijtimoiy-ma'naviy mazmun kasb etadigan san'at darajasiga ko'taradi. Uning she'rlari soddalik va samimiyat orqali chuqur falsafiy, axloqiy hamda milliy

⁶⁵ Identitet - shaxsning o'ziga xosligini, uning doimiy va o'zgaruvchan xususiyatlarini, shuningdek, boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini anglatadi. Bu shaxsning o'zini qanday bilishi, kimligini anglash, masalan, ijtimoiy guruhga mansublik, kasb, diniy e'tiqod kabi omillarga asoslangan bo'lishi mumkin.

g'oyalarni yetkazadi, mustaqillik davrida esa xalqning ruhiy erkinligi, tarixiy xotirasi va Vatanga muhabbat tuyg'ularini yuksak badiiy saviyada ifodalaydi. Shu jihatdan Muhammad Yusuf she'riyati nafaqat estetik qadriyat, balki milliy ongni shakllantirish va mustahkamlashda muhim adabiy-ma'naviy manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Муҳаммад Юсуф, Назира ас-Салом. Эрка кийик (шеърлар тўплами), Ёзёвон 1992 йил. – Б. 8.
2. Nafasova Y. *O'zbek tilshunosligida matn tahlilining metodologiyasi: Semantik, sintaktik, pragmatik va stilistik yondashuvlar*. Semantik, sintaktik, pragmatik va stilistik yondashuvlar orqali matn tahlili. refocus.uz.
3. Akhmadaliev G. *Study of Uzbek Poetry in a Linguopoetic Aspect*. Zamonaviy o'zbek she'riyati tili va uslubini lingvopoetik jihatdan tahlil qiladi. mjstjournal.com.
4. Karimova O. *A Comparative Analysis of Poetic Devices: Alliteration, Assonance, and Enjambment in English and Uzbek Poetry*. She'riy uslubiy vositalarni tahlil qiladi; pragmastilistik va stilistik jihatdan foydali. herald.kokanduni.uz.
5. Rasulova U. *The Poetics Of Imagery In Contemporary Uzbek Poetry*. Zamonaviy o'zbek she'riyatida obrazlar, metaforalar, estetik-emotsional tahlil. eipublication.com.
6. Egamberdiyeva Sh. *Analysis of Pragmatic and Stylistic Features of Archaic Words in English and Uzbek Proverbs*. Arxaik so'zlar va ularning pragmatik/stilistik xususiyatlari. europeanscience.org.
7. Karimova H. *Pragmatic Analysis of Stylistic Devices in English and Uzbek Language Teaching System*. Stilistik vositalarning pragmatik tahlili, til o'rganish va she'riyat tahlili birikmasi. journalss.org.

**4-SHO‘BA:O‘ZBEK ADABIY TILINI RIVOJLANTIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA KOMPYUTER
DASTURLARINING O‘RNI**

TEZAURUS VA ELEKTRON LUG‘ATLAR

Po‘latova Gulxayyo G‘ofurjon qizi,

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

gpulatova2409@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tezaurus va elektron lug‘atlarning zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Elektron lug‘atlarining afzalliklari ochib berilgan. Tezaurus lug‘atlari so‘zlarning antonim va sinonim munosabatlarini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Elektron lug‘atlar asosida shakllantirilgan tezauruslar tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini hal etishda muhim o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: elektron lug‘atlar, tezaurus, lingvistika, sinonim, antonim.

Abstract. This article analyzes the role and significance of thesauri and electronic dictionaries in modern linguistics. The advantages of electronic dictionaries are revealed. Thesaurus dictionaries play an important role in highlighting synonymic and antonymic relations of words. Thesauri developed on the basis of electronic dictionaries occupy a significant place in addressing both theoretical and practical issues of linguistics.

Keywords: electronic dictionaries, thesaurus, linguistics, synonym, antonym.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение тезаурусов и электронных словарей в современной лингвистике. Раскрыты преимущества электронных словарей. Тезаурусные словари имеют особое значение при освещении антонимических и синонимических отношений слов. Тезаурусы, созданные на основе электронных словарей, занимают важное место в решении как теоретических, так и практических задач лингвистики.

Ключевые слова: электронные словари, тезаурус, лингвистика, синоним, антоним.

Kirish. Til – inson tafakkuri, hissiyoti va bilimining aksidir. Bu murakkab tizimni chuqur o‘rganish va izchil tushunish uchun lug‘atlar yaratish har doim tilshunoslikning markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Zamonlar o‘tishi bilan lug‘atlarning shakli, tuzilishi va maqsadi ham yangilanib bordi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida **elektron lug‘atlar** vujudga kelib, foydalanuvchiga til resurslaridan tezkor, qulay va interaktiv foydalanish imkonini yaratdi. Ular so‘zlarning ma’nosi, grammatik shakllari, izohlari va ba’zan sinonim yoki antonimlari haqida foydali ma’lumotlarni taqdim etadi. Biroq so‘zning o‘zi bilan cheklangan yondashuv keng qamrovli semantik tahlilda samarali natija bermadi. Aynan shu jihat, ya’ni **so‘zlar orasidagi semantik bog‘liqlikni to‘liq aks ettira olmaslik** – tezaurus lug‘atlarni yaratish zaruratini yuzaga keltirgan omillardan biridir.

Asosiy qism. Leksik birliklarni tizimlashtirish va semantik tahlil qilish hozirgi tilshunoslikda alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biridir. Shu bois, lug‘at tuzish faoliyati faqatgina so‘zlarning izohini taqdim etish bilangina chegaralanib qolmay, balki ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarni ochib berish, semantik tarmoqlarni shakllantirish kabi yanada murakkabroq masalalarni ham o‘z ichiga olmoqda. Shuning uchun semantik munosabatlarni tizimli tarzda aks ettiruvchi tezaurus lug‘atlar yaratishga ehtiyoj paydo bo‘ldi.

Elektron lug‘atlar foydalanuvchiga so‘z haqida asosiy ma’lumotlarni – ya’ni uning ma’nosi, grammatik shakllari, talaffuzi va ayrim hollarda sinonimi yoki antonimini taqdim etadi. Bunday lug‘atlar interaktiv bo‘lib, qidiruv jarayonini tezlashtiradi va mobil qurilmalarda ham osongina foydalanish imkonini beradi [1]. Shu jihatlari bilan ular zamonaviy ta’lim va tarjima jarayonlarida muhim vositaga aylangan. Ammo elektron lug‘atlar odatda har bir so‘zni **individual birlik sifatida** ko‘rib chiqadi. Bu yondashuv so‘zlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali semantik bog‘liqliklarni tahlil qilish imkonini bermaydi. Tezaurus esa til birliklarini o‘zaro bog‘liq, tarmoq holatidagi tuzilma sifatida ko‘radi. Tezaurusda har bir leksik birlik

boshqa soʻzlar bilan boʻlgan semantik munosabatlari asosida tasniflanadi. Bunday guruhlash jarayonida sinonimiya, antonimiya va daraja munosabatlari kabi semantik aloqalar inobatga olinadi.

Tezaurus nafaqat bir soʻzning maʼnosini, balki uning boshqa soʻzlarga qanday nisbatda turganini, qanday oʻrinda ishlatilishini, qaysi kontekstda qanday ohang bilan mazmun kasb etishini ham koʻrsatib beradi [3]. Bu esa lugʻat resursining chuqurligini oshiradi va uni faqat izohlovchi emas, balki **semantik tahlil vositasi** sifatida ham qabul qilish imkonini yaratadi.

J.Aitchison, A.Gilchrist va D.Bawden kabi olimlar tomonidan tezaurus modellari boʻyicha izlanishlar olib borilgan. Ularning “Thesaurus construction and use: a practical manual” [J.Aitchison, A.Gilchrist va D.Bawden Thesaurus construction and use: a practical manual (4-edition), Taylor & Francis e-Library, 2005. -202 p.] nomli qoʻllanmasida tezaurusga doir ilmiy tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Unga koʻra axborot qidiruv tizimida tezaurus 4 xil imkoniyatga ega boʻlishi mumkin:

- tezaurus qidiruv va indeksatsiya uchun foydalaniladi;
- tezaurus indeksatsiyada foydalaniladi, qidiruvda foydalanilmaydi;
- tezaurus qidiruvda foydalaniladi, indeksatsiyada foydalaniladi;
- tezaurus har ikkisida ham foydalanilmaydi.

Tezaurus yaratishning bir nechta usullari mavjud. Yuqorida tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan tezaurus turlariga qarab ularning qurilish arxitekturasi va kontenti ham talablari koʻp tilli yoki bir tilli tezaurus uchun standartlar yaratiladi [2].

Zamonaviy elektron lugʻatlar tezauruslarni shakllantirish jarayonida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ular leksik birliklarni tizimli ravishda toʻplash va tartibga solish uchun raqamli hamda strukturalangan muhit yaratadi. Bunday lugʻatlar yordamida sinonimlarni avtomatik tarzda aniqlash, mavjud tezauruslarni yangi leksik birliklar va tushunchalar bilan boyitish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, ular katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, to'liq matnli qidiruvni amalga oshirish hamda so'zlar o'rtasidagi semantik aloqalarni gipermurojaatlar orqali ko'rsatib berish imkoniyatini ta'minlaydi. Natijada, keng qamrovli va mukammal tezaurus bazasini yaratish uchun zarur shart-sharoit vujudga keladi [4].

Elektron lug'atlar asosida shakllantirilgan tezauruslar tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini hal etishda muhim o'rin tutadi. Ular zamonaviy lingvistik-texnologik jarayonlarga tayanib, katta hajmdagi leksik ma'lumotlarni samarali qayta ishlash, izlash va tizimlashtirish imkonini beradi.


Birinchidan, elektron tezauruslarning asosiy ustunligi tezlik va hajm ko'rsatkichlarining kengayishi bilan bog'liqdir. Oddiy lug'atlardan farqli o'laroq, ular katta miqdordagi so'z va iboralarni qisqa vaqt ichida izlab topish, ularning semantik aloqalarini aniqlash hamda ma'lumotni ko'p qirrali tarzda ko'rsatish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan, ilg'or izlash funksiyalari foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni aniq va to'liq shaklda olishga yordam beradi.

Ikkinchidan, tezauruslar samaradorlik va ko'lamni oshiradi. Bunda til resurslari o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, gipermurojaatlar orqali bir tushunchadan ikkinchisiga o'tish, sinonim, antonim va boshqa semantik aloqalarni tezkor aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, ko'p lug'atli integratsiya turli tillardagi ma'lumotlarni yagona tizimga keltirish va ularni solishtirishga imkon beradi.

Uchinchidan, ma'lumotlarni ajratish va tartiblash jarayonlari elektron tezauruslarning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu bosqichda sinonimlar va tushunchalarni aniqlash, hamda to'plangan ma'lumotlarning strukturaviy qayta tashkil etilishi amalga oshiriladi. Natijada, ma'lumotlar yanada izchil, tizimli va qulay foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, tezauruslarni boyitish va kengaytirish jarayonlari zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiyalarga tayanadi. Avtomatik boyitish orqali yangi so'zlar, terminlar yoki tushunchalar tizimga qo'shib, mavjud bazaning uzluksiz

yangilanishi ta'minlanadi. Bu esa lingvistik ma'lumotlarning dolzarbligi va zamonaviylikini saqlash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Tezaurus yaratishda elektron lug'atlarning o'rni.

Demak, ma'lumotlarni birlashtirish jarayoni turli manba va resurslarni yagona tizim doirasida integratsiya qilish imkoniyatini beradi. Bu hol tilshunoslikdagi turli yo'nalishlarni birlashtirish, ularni yagona lingvistik makonda qayta ishlash hamda natijalarni yanada keng qamrovli qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tezaurus va elektron lug'atlar zamonaviy lingvistik izlanishlarda ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Elektron lug'atlar asosida yaratilgan tezauruslar so'zlarning semantik tarmoqdagi o'rnini ochib berib, ularni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ularning tezkorligi, katta hajmni qamrab olishi, ilg'or qidiruv funksiyalari va ko'p tilli integratsiya imkoniyatlari tezauruslarni tilshunoslikdagi universal vositaga aylantiradi. Shuningdek, tezauruslarning boyitilib borilishi va avtomatik tarzda yangilanib turishi lingvistik ma'lumotlarning doimiy ravishda zamon talablariga moslashishini ta'minlaydi. Natijada, ular nafaqat tilshunoslik ilmida, balki amaliy sohalarida – ta'lim, tarjima, axborot qidiruv tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarida ham keng qo'llanilmoqda. Demak, elektron lug'atlar va tezauruslar o'zaro uyg'unlashgan

holda til resurslarini yanada mukammallashtiruvchi, kelajakda ham dolzarbligini saqlab qoluvchi samarali vositadir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqova S. Zamonaviy elektron lugʻatlar yaratishning nazariy va amaliy asoslari // Taʼlim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – № 12. – B. 17.
2. Abduraxmonova N., Holiyorova G. Oʻzbek tili tezaurusini yaratishda leksik birliklarning ifodalanish // Raqamlashtirish davrida oʻzbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida oʻqitish masalalari: xorijiy va xalqaro tajriba. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – B. 187.
3. Ступин Л.П. Лексикография английского языка. –М.: Высшая школа, 1985. – С. 2.
4. <https://www.google.com/search?q=The+Role+of+Electronic+Dictionaries+in+the+Formation+of+Thesauri&rlz=>

MUSTAQIL TAʼLIM JARAYONIDA MEDIASAVODXONLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI TAʼLIM TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

*Gʻofurova Maʼmura Rashidovna
Mustaqil izlanuvchi*

Mediasavodxonlik – media muhitda mustaqil pozitsiyani shakllantirish, axborot almashinuvini takomillashtirish, oʻzaro bogʻliq axborot majmuini tahlil qilish, saralash, undan mustahkam yondashuv orqali foydalanish koʻnikmalarini ifodalaydi.[1] Oʻzbekistonda bu tushunchaning rasmiy ilmiy doirada kelib chiqishi nisbatan kechroq davrga toʻgʻri keladi. Biroq bu yerda ham mediasavodxonlikka oid qarashlar ancha avvalroq, teleradiostansiyalarning, matbuot nashrlarining taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllangan deyish mumkin.

Oʻzbekistonda mediasavodxonlik masalalariga qiziqish XX asr oxirlarida rivojlana boshlagan. Xususan, ilk marotaba bu yoʻnalishda ilmiy maqolalar “Jurnalistika” sohasi olimlari tomonidan yozila boshlangan. Masalan,

Z.A.Rasulova “Yosh avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni” nomli maqolasida media axborotlarni qabul qilishda tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarining ahamiyati haqida so‘z yuritadi.[2] Bunda tushuncha mediasavodxonlik deb nomlanmagan bo‘lsa-da, “axborotni tanqidiy qabul qilish” mazmunidagi yondashuv dolzarbligi ta’kidlangan. Tadqiqotchi O‘.Karimov “Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari” nomli asarida mediasavodxonlik tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Muallif mediasavodxonlikni zamonaviy axborot jamiyatida shaxsning axborotni anglash, ishlatish, tahlil qilish va shu asosda qaror qabul qilish qobiliyati sifatida ko‘radi.[3] Ushbu asarda ilmiy adabiyotlar bilan tanishish davomida mediasavodxonlik axborot madaniyati tushunchasining bir yo‘nalishi sifatida ko‘rilayotganini e’tiborga olish mumkin. Xususan, F.Madraximova[4], A.Abduqodirov, A.Pardayev[5], N.Taylakov[6], S.Tursunov[7], U.Begimqulov[8], M.Sobirova[9,10,11,12,13] kabi tadqiqotchi-olimlar mediasavodxonlikni shakllantirishda ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish muhimligi, axborot madaniyatini rivojlantirishda nazariya va amaliyot uyg‘unligi lozimligi, raqamli axborot tizimlarining jamiyatda olib kelayotgan islohotlari va ularni samarali tatbiq etish mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etishgan.

Mustaqil ta’lim jarayonida mediasavodxonlikni shakllantirish va rivojlantirishda axborot manbalarining xilma-xilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot manbalari nafaqat an’anaviy OAV – televizor, radio, gazetalar bilan cheklanib qolmaydi, balki ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar, onlayn nashrlar orqali turli formatda taqdim etilayotgan ma’lumotlarni ham qamrab olgan. Shu sababli, axborotni qabul qilishda odamlar (ayniqsa, yoshlar) har xil ko‘rinishdagi matn, video, audio, grafik ma’lumotlarni saralay bilishlari lozim. Masalan, internet jurnalistikasida veb-saytlar, bloglar yoki onlayn nashrlar orqali tarqatilayotgan ma’lumotlarning ishonchliligi va holisligi ko‘pincha shubha ostida qolishi mumkin. Bunda axborot manbani tekshirish, ko‘rsatilgan faktlarni boshqa manbalar bilan solishtirish kabi ko‘nikmalar ishga tushadi.[15]

Oliy ta’lim tizimida media va axborot kompetensiyasini shakllantirish va

rivojlantirish, eng avvalo, mustaqil ta'lim jarayonini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Talaba nafaqat umumiy axborotni eshitib yoki o'qib, uni passiv ravishda qabul qilishi, balki mazkur axborotni tahlil qilishi, turli manbalar orasida taqqoslash ishlarini amalga oshirishi, erkin fikr bildirishi va munozaralarda qatnasha olishi lozim. Zamonaviy oliy ta'lim dasturlarida ko'proq interaktiv uslublarga e'tibor qaratish, talaba ishtirokiga asoslangan mashg'ulotlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda olib borish, raqamli texnologiyalar orqali bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish o'ta muhimdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat kabi yo'nalishlarda ham bilim hamda ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Bu jarayon orqali u yoki bu masala haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, axborotlarning ishonchli-ishonchsiz tomonlarini bir-biridan ajrata olish ko'nikmalari shakllanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga hamda mustaqil ta'lim masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda 979-son "Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatning istiqbolli yutuqlarini joriy qilishning samarali mexanizmlarini tatbiq etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 27-avgustda 545-son "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'rsatilgan.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Ilm-fanni 2030-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasi”da axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, yoshlarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish, internet makonida tanqidiy fikrlash va ma’lumotlarni baholash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ta’limga e’tiborni kuchaytirish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Shu asosda oliy ta’lim muassasalarida axborot-resurs markazlari modernizatsiya qilinib, professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun media va axborot bilan ishlash bo‘yicha turli seminar, trening va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda. Oliy ta’lim tizimidagi o‘quv jarayonida onlayn platformalar va raqamli kutubxonalar faol qo‘llanilayotgani talabalarni keng axborot oqimlari bilan tanishtiribgina qolmay, ularni tahlil qilish, saralash va tanqidiy baholashga o‘rgatmoqda. IT-parklar va “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida talabalar media resurslardan samarali foydalanish, yangi dasturlar ishlab chiqish va raqamli savodxonlikni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, ayrim oliy ta’lim muassasalarida mediasavodxonlik bo‘yicha maxsus darslar, tajribaviy loyihalar va tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Mustaqil ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim hisoblanadi. Ta’lim jarayonini interfaol, ilg‘or, mustaqil o‘ylashga yo‘naltirilgan shakllar yordamida tashkil etish ushbu jarayon samaradorligini oshiradi. Jumladan, klaster usullari, keys-stadi, auksionlar, loyiha usuli, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi maxsus mashg‘ulotlar, maxsus internet platformalardan foydalanish, elektron kitoblar va interaktiv taqdimotlar tayyorlash singari jarayonlar shular jumlasidandir. Media savodxonlik jarayonida esa mazkur texnologiyalarning maqsadli tanlanishi hamda didaktik vazifaga yo‘naltirilishi muhim. Masalan, keys-stadi usuli mediamahsulotlar bilan ishlashda juda katta foyda keltiradi, chunki unda talabalar oldindan tayyorlab qo‘yilgan keyslar (haqiqiy yoki uydirma voqea, maqola, videorolik va boshqalar) ustida ishlashar ekan, ularni tahlil qiladilar, to‘g‘ri xulosa chiqaradi, fikr yuritadilar, mediamateriallarni tanqidiy nazar bilan ko‘rish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

Mediasavodxonlik jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun maxsus tayyorlangan o‘quv-metodik resurslar o‘qituvchi uchun

ham, talaba uchun ham zarur. Bu resurslar xorijiy tajribalarga asoslanishi, shu bilan birga, mahalliy ta'lim muhitiga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Chunonchi, maxsus onlayn platformalarda mediamanbalar bilan ishlash, ularni saralash, manbalarni turli jihatdan analiz qilish metodlari haqida to'liq o'quv qo'llanmalari yoki kurslar tashkil etilishi mumkin. Bunday resurslar talabalarda axborot xavfsizligi, intellektual mulkka nisbatan munosabat, media etika kabi masalalar borasida ham ma'lumotlar beradi. Zero, mediasavodxonlik faqat axborotni saralash emas, balki axborotdan samarali va axloqiy jihatdan to'g'ri foydalanishni ham nazarda tutadi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarning mustaqil ta'lim soatlarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini tizimli ravishda shakllantirish kelgusida milliy axborot fazosining sifat jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. O'qituvchi va talabalarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olish, imkoniyat va xatarlarni tezda baholash, jamoat fikrini asosli ravishda to'g'ri yo'naltirish malakasi vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni oshirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalanish natijasida talabalar axborotni tanlash, tahlil qilish, u bilan samarali ishlash, axborot xavfsizligi va axborot axloqi qoidalariga amal qilish borasida yetarlicha nazorat hamda mustahkam ko'nikmalarga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Napoli P. Understanding media diversity using media ecosystem analysis //Report. Media Policy Initiative, New America Foundation. https://www.academia.edu/7375012/Understanding_Media_Diversity_Using_Media_Ecosystem_Analysis. – 2012.
2. Rasulova Z.A. Yosh avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining o'rnini //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). 2021. №. 6 (103). – S.11-17.
3. Karimov O'., Karimova G. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendentsiyalari //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 3. – S. 743-

750.

4. Madraximova F.R. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlikni rivojlantirish. Ped.fan.dokt.(DSc) diss. avt. – Chirchiq, 2022. 5-8 b.

5. Abduqodirov A., Pardayev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – B. 145.

6. Taylaqov. N. I. Uzluksiz ta'lim tizimini uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodni yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2005. – B. 160.

7. Tursunov S.K. Ta'limda elektron axborot resurslarni yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Ped. fan.nom.dis. avt. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 26 b.

8. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fan. doktori. ... diss. – T., 2007. – B. 3.

9. Sobirova, M. (2022). In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3880/3718>

10. Sobirova, M. (2021). The use of integrated technology in the teaching of humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp.z o.o."iScience", 2021. Part 3 – 234 p. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634%20-%203%20%28web%29.pdf> str. 98-105

11. Makhbuba Sobirova, Matlubakhon Karieva (2024). The Role of National values in Education. <http://journal.nun.uz> Social sciences. O'zbekiston milliy Universiteti xabarlari, 2024, [1/9] ISSN 2181-7324. B-178-180.

12. Sobirova, M.Y. (2024). Innovation-integration approach to the development of speaking competence of students <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/> ETHIDPIAN INTERNATIONAL JOURNAL OF

MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. Volume: 11, Issue 05, May-2024 SJIF
2019: 4.702 2020: 4.737 2021: 5.071 2022: 4.919 2023: 6.980 2024: 7,662

13. Sobirova, M.Y. (2024). Enhancing the mechanisms and factors of improving the literacy of upper school students based on an innovative approach. .

<https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/810>.

European journal of higher education and academic advancement.
VOL.1NO.8(2024) 3 aug 2024, - B 21-28 ISSN: 3032-1123 (Global Impact factor).

14. Kamolov H. Mediasavodxonlik, uning zamonaviy kasblarni puxta egallashdagi ahamiyati //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 13. – С. 159-161.

THE EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL PLATFORMS IN TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

Ezoza Fayzullayeva

fayzullayevaezoza312@gmail.com

Student, Mathematics Program

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Karimova Iroda

irodakarimova05072006@gmail.com

Student, Mathematics Program

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abduraxmanova Nozima

Student, Mathematics Program

Shahrisabz State Pedagogical Institute

abduraxmonovanozima908@gmail.com

Annotation. This article analyzes the effectiveness of using digital platforms in teaching the Uzbek language. It scientifically substantiates the role of digital technologies in the educational process and their impact on students' academic performance and motivation. The research was conducted using observation and experimental methods, revealing that the group taught with digital tools achieved higher results compared to the group taught through traditional methods. The

findings confirm improvements in students' accuracy in completing grammar exercises, their habit of completing tasks on time, and the development of independent learning skills. The article also examines existing challenges and proposes solutions such as creating national digital platforms, enhancing teachers' professional competencies, and improving internet infrastructure.

Keywords: digital platforms, motivation, observation, experiment, interactive tasks, methodology

Introduction. In the context of globalization, the role of national languages in the education system is steadily increasing. In particular, teaching and developing the Uzbek literary language has become one of the priority areas of state policy. In recent years, extensive work has been carried out in our country to create digital educational resources and to integrate information and communication technologies into the learning process. The Presidential Decree of April 29, 2020, *“On measures to radically enhance the prestige and status of the Uzbek language as the state language”*, laid the legal foundation for reforms in this field.

Digital platforms are a set of specialized software and services that enable the organization of the learning process through modern tools. They provide learners with opportunities not only to access texts, but also audio, video, interactive exercises, tests, and online discussions. International practice demonstrates that the use of digital technologies in mother-tongue instruction improves the quality of students' knowledge, fosters independent learning skills, and most importantly, enhances interest in the language.

At present, both international platforms such as Google Classroom, Moodle, Quizlet, Kahoot, and Duolingo, as well as local resources such as Ziyonet, EduMarket, and Online Maktab are being used for teaching Uzbek. Nevertheless, there are few digital platforms designed specifically for Uzbek language education, and the methodologies of existing ones remain underdeveloped. For this reason, studying this issue and implementing practical solutions is one of the pressing tasks today.

This study analyzes the effectiveness of using digital platforms in teaching Uzbek and, based on existing experience, offers conclusions and recommendations.

Literature Review. The analysis of literature shows that the use of digital technologies in mother-tongue education has been widely studied in international academic and practical contexts. For instance, British scholar Stephen Baxter, in his research on the *blended learning* model, argues that digital platforms serve not merely as supplementary tools but as means of significantly enhancing the effectiveness of traditional instruction. He emphasizes that the use of systems such as Moodle and Blackboard has fostered habits of completing independent assignments among learners.

Spanish researcher Maria González tested the effectiveness of mobile applications and electronic dictionaries in teaching Spanish as a foreign language. Her findings revealed that these tools improved vocabulary acquisition by 1.5 times compared to traditional methods.

Similarly, South Korean scholar Lee Sung-ho demonstrated that the use of artificial intelligence-based platforms in language teaching – particularly their automatic pronunciation assessment and text analysis functions – accelerated the process of language acquisition.

Local scholars have also contributed to this field. Sh. Yuldoshev developed a methodology for using electronic dictionaries and test systems in teaching Uzbek, showing that digital resources not only serve as tools for assessment but also direct learners toward acquiring new knowledge independently.

M. Jurayev studied the psychological effects of digital tools in mother-tongue instruction, scientifically proving that interactive games enhance students' sense of competition, thereby reinforcing knowledge retention[6, 21].

In summary, both international and local research indicates that digital platforms are evolving from auxiliary tools into one of the core methodologies of language education. While artificial intelligence, mobile applications, and interactive programs dominate international practice, local studies have focused

more on the effectiveness of electronic resources. This highlights the need to integrate both experiences to advance Uzbek language education.

Methodology. The research methodology was aimed at determining the effectiveness of digital platforms in teaching the Uzbek language. Two main methods were employed in the course of the study.

The first method was observation, through which the process of using digital platforms in Uzbek language lessons was directly monitored in classroom settings. The active participation of students and teachers during the lessons, their interest in acquiring knowledge through digital tools, as well as the challenges they encountered, were systematically recorded. The results of this method demonstrated an increase in students' motivation and engagement during classes.


The second method was experiment, carried out with two groups of students. The first group was taught using traditional methods, while the second group received instruction through digital platforms. At the end of the lessons, written assignments and test results were compared. It was found that students in the digital platform group performed better in completing grammar exercises and in retaining new vocabulary.

Through these two methods, it was confirmed that the use of digital platforms in teaching Uzbek not only enhances the effectiveness of the learning process but also plays a significant role in strengthening students' interest in the subject.

Results and Discussion. The findings of the study indicated that lessons incorporating digital platforms had a positive impact on students' academic performance and motivation. Analysis based on the observation method revealed that student engagement increased significantly in classes organized with the help of digital tools. In particular, the use of Google Classroom for submitting and evaluating assignments online encouraged students to complete tasks on time, while interactive games conducted through Quizlet made their participation in lessons more active. Students were observed to express their ideas more freely and respond to questions more quickly. This confirms that digital technologies can effectively enhance learners' motivation in the educational process.

The results of the experiment further reinforced these findings. During the trial conducted with two groups, the students who were taught using digital platforms outperformed the traditionally taught group by 22 percent in completing grammar exercises.

Table 1. Comparison of traditional method and digital platforms



As shown in the graph, the group that used digital platforms demonstrated significantly higher levels of student motivation (85%) and task accuracy (88%) compared to the traditional method. These findings clearly confirm the effectiveness of digital tools.

The discussion revealed that digital platforms hold several advantages in organizing the learning process more efficiently. Firstly, they actively engage students in lessons and encourage independent learning. Secondly, the opportunity to complete tasks online and receive immediate feedback increases students' motivation for self-improvement. Thirdly, interactive exercises make the learning process more engaging than traditional methods, which positively influences students' attitudes toward language learning.

At the same time, certain challenges were also noted. Specifically, in areas with low internet speed, interruptions in lessons distracted students' attention. In some cases, teachers' limited experience with digital platforms had a negative impact on effectiveness. However, overall results indicate that with proper guidance and methodological support, digital platforms can serve as an essential factor in improving the quality of Uzbek language education.

Conclusion and Recommendations. In conclusion, it can be stated that the use of digital platforms in teaching Uzbek has proven to be more effective than traditional methods. Data obtained through observation and experimental methods demonstrated that digital tools enhance students' academic performance, increase their interest in lessons, and develop their independent learning skills. Furthermore, interactive tasks and online activities significantly improve both the accuracy and speed with which students complete grammar exercises.

The recommendations are as follows: it is necessary to design and widely implement national digital platforms tailored to the specifics of Uzbek language education. Organizing regular professional development courses for teachers on the effective use of digital technologies is of great importance. Moreover, improving internet infrastructure, particularly in remote areas, is crucial to ensure equal opportunities for all learners. Alongside the use of international platforms, the development of local resources and their integration into the learning process will also enhance effectiveness. In addition, the continuous analysis of students' performance on digital platforms and the adoption of an individualized approach are key factors in language teaching. Expanding the use of interactive tasks and gamified methods will further strengthen learners' interest in studying Uzbek.

Overall, digital platforms are becoming not just an additional tool but one of the primary methods in Uzbek language education. With well-structured methodology, strong infrastructure, and qualified teachers, this process can be organized even more effectively.

REFERENCES:

1. Abdihakimov, Mirjalol. *Information Security in the IT Sector*. Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research 4.5 (2025): 15-17.
2. Amirova, Zilola. *Methodology of Teaching the Section on Working with Text Programs*. Young Scientists 3.6 (2025): 32-34.
3. Arabboyev, O'Imas. *Automation of Engineering Works with the Help of Artificial Intelligence*. Young Scientists 3.6 (2025): 35-38.

4. Baratova, Nafisa. *The Social Principles of Blockchain Technology*. *Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research* 4.5 (2025): 18-20.

5. Bekmurodov, Nodirbek, and Asal Uralova. *Creative Ideas for Teaching Informatics to Middle School Students*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 39-41.

6. Berdimuhammadov, Iskandar. *Development of Mobile Applications*. *Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research* 4.5 (2025): 21-23.

7. Berdishukurova, Munisa. *The Development of Programming Languages*. *Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research* 4.5 (2025): 24-26.

8. Boltayev, Farhod. *Methodology of Teaching the Section on Internet Basics*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 46-49.

9. Boqiyeva, Farida, and Madadjon O'ktamov. *The Functions of Problems in Teaching Mathematics*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 50-52.

10. Boymurodova, Ozoda. *Methodology of Teaching the Information Section*. *Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research* 4.5 (2025): 11-14.

11. Ernazarova, Lola. *Methodology of Teaching the Web Page Section*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 53-55.

12. Eshonqulov, Muhammad. *Modern Technologies in Web Programming*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 56-59.

13. Ibodov, Azizbek. *The History of Informatics Teaching Methodology as a Discipline*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 14-16.

14. Jurayeva, Gulchehra. *Methodology of Teaching the Basics of Programming*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 17-20.

15. Karimova, Iroda. *Methodology of Teaching the Section on Design in Visual Programming Language*. *Young Scientists* 3.6 (2025): 21-24.

16. Madadjon, O'ktamov. *Translation Problems and Literary Translation in Uzbek Literature: Research, Problems and Solutions*. Critical Perspective, Analytical Thinking and Innovative Ideas 1.7 (2025): 326-331.

17. Mahmudova, Shohsanam. *Methodology of Teaching the Section on the Basics of Algorithmization*. Young Scientists 3.6 (2025): 25-28.

18. Toshpo'lotova, Jasmina, and Madadjon O'ktamov. *The Use of Interactive Methods in Teaching Informatics to Primary Education Students*. PEDAGOGS 51 (2024): 115-119.

IJTIMOYIY TARMOQLARDA ADABIY TIL MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Abduraxmanova Nozima

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika yo'nalishi talabasi

abduraxmonovanozima908@gmail.com

Karimova Iroda

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika yo'nalishi talabasi

irodakarimova05072006@gmail.com

Fayzullayeva E'zoza

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika yo'nalishi talabasi

fayzullayevaezoza312@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek adabiy tilining qo'llanilishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari, jumladan imloviy va uslubiy xatolar, chet tillaridan keraksiz so'zlarni qo'llash kabi muammolar ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib, adabiy tilni rivojlantirish yo'llari, samarali taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: adabiy til, til madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar, imlo, uslub, tilni rivojlantirish.

Annotation. This article examines the use of the Uzbek literary language in social networks and the issues of shaping language culture. It highlights key

problems, including orthographic and stylistic errors, as well as the excessive use of foreign borrowings. The study also proposes suggestions and recommendations for promoting and developing the literary language through the opportunities offered by digital technologies.

Keywords: literary language, language culture, social networks, digital technologies, orthography, style, language development.

Bugungi globallashuv davrida internet va raqamli kommunikatsiya vositalari jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy axborot almashinuvi, muloqot va fikr bildirishning asosiy maydoniga aylangani sir emas. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda internet foydalanuvchilarning qariyb 70 foizi kundalik hayotida ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Bunday sharoitda til madaniyati, xususan, o'zbek adabiy tilining qo'llanilishi va rivojlanishi masalasi dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Adabiy til jamiyatning ma'naviy boyligi va madaniy ko'zgusi sifatida xalqning tafakkuri, o'ziga xosligini ifodalaydi. Shuning uchun ham uning to'g'ri qo'llanilishi nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda tezkorlik va qisqa yozuvga moyillik, chet tillaridan, xususan, ingliz tilidan olingan so'z va iboralarni keraksiz darajada qo'llash, imlo va uslubiy xatolarning ko'pligi adabiy til madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa yosh avlodning nutq madaniyatiga ham bevosita ta'sir etib, ularning yozma va og'zaki muloqotida adabiy me'yorlardan chekinish holatlarini kuchaytirmoqda. Mazkur muammolarni hal qilishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish, masalan, imlo tekshiruvchilar, avtomatik tarjimon dasturlari, onlayn lug'atlar, adabiy tilda yozishga o'rgatuvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tilshunos olimlar, pedagoglar va blogerlarning hamkorlikda olib boradigan ma'rifiy ishlari adabiy til madaniyatini ijtimoiy tarmoqlarda mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiya vositasi sifatida keng ommalashib, jamiyatning barcha qatlamiga chuqur kirib bordi. Biroq, ularning til

madaniyatiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, bir tomondan adabiy tilni targ'ib qilish imkoniyatlarini ochsa, boshqa tomondan imloviy, uslubiy va mantiqiy xatolarning ko'payishiga ham sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayonni ilmiy tahlil qilish adabiy tilni asrab-avaylash va rivojlantirish yo'lidagi muhim masalalardan biridir. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda yozuvlarda tezkorlikka intilish va qisqa shaklda fikr bildirish odati keng tarqalgan. Natijada, qisqartmalar, fonetik yozuvlar (masalan, "qale", "bn", "hmm" kabi), imloviy xatolar va rus tilidan hamda ingliz tilidan o'zboshimchalik bilan olingan so'zlarning keraksiz ishlatilishi kuzatiladi. Bu holat yoshlarning ongida adabiy til me'yorlarining susayishiga olib kelmoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan matnlar ko'pincha muharririyatsiz va nazoratsiz bo'lgani uchun ularning uslubiy aniqligi ta'minlanmaydi. Natijada, nutqiy savodsizlikning ommaviylashishi ehtimoli ortib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim blogerlar yoki kontent yaratuvchilar o'z auditoriyasiga kuchli ta'sir ko'rsatgani sababli, ular tomonidan qo'llanilayotgan tildagi nuqsonlar keng miqyosda takrorlanib, yoshlar orasida "odat"ga aylanmoqda.

Shunga qaramay, ijtimoiy tarmoqlar adabiy til madaniyatini targ'ib qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda yozilgan bloglar, ilmiy-ma'rifiy postlar, audiokitoblar va elektron darsliklar yoshlar orasida adabiy tilni ommalashtirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shu sababli, mavjud muammolarni hal etish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Raqamli vositalarni takomillashtirish: imlo va uslubiy xatolarni avtomatik aniqlaydigan dasturlarni o'zbek tiliga moslashtirish va ularni ijtimoiy tarmoqlarda faol integratsiya qilish zarur.

- Adabiy tilni targ'ib qiluvchi kontent yaratish: yozuvchi va shoirlarning asarlarini elektron shaklda targ'ib qilish, mashhur blogerlarni adabiy til me'yorlariga amal qilishga rag'batlantirish foydali bo'ladi.

- Ta'lim va tarbiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish: o'quvchilarga va talabalariga ijtimoiy tarmoqlar orqali adabiy tilda yozish

mashqlarini topshirish, “eng yaxshi adabiy matn” tanlovlarini o‘tkazish samarali natija beradi.

- Til madaniyatiga oid ma’rifiy loyihalar: tilshunos olimlar, pedagoglar va jurnalistlarning hamkorligida adabiy tilni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha onlayn kurslar, vebinarlar va jonli efirlar tashkil etilishi kerak.

- Huquqiy-me’yoriy jihatlarni mustahkamlash: ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari tomonidan adabiy til me’yorlariga rioya qilishni targ‘ib etuvchi tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til madaniyatini shakllantirish masalasi murakkab jarayon bo‘lsa-da, u keng imkoniyatlarga ham ega. Muammolarni ilmiy yondashuv asosida hal qilish, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish va ijtimoiy ongda adabiy tilga hurmatni shakllantirish orqali o‘zbek tilining nufuzi va madaniyati mustahkamlanadi.

Mening fikrimcha, ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til madaniyatini shakllantirish bugungi kunda nafaqat tilshunos olimlar, balki jamiyatning har bir a’zosi uchun ham mas’uliyatli vazifadir. Chunki adabiy til – xalqning madaniy yodgorligi, milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi bebaho boylikdir. Agar biz kundalik muloqotda, xoh real hayotda, xoh virtual makonda adabiy me’yorlarga amal qilsak, tilimizning nufuzi yanada oshadi. Shaxsan men kuzatishimcha, ko‘plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda qisqa va “odatiy” yozuvlarga o‘rganib qolmoqda. Bu esa ularning yozma nutqida beparvolikni shakllantiradi. Menimcha, bu muammoni hal qilish uchun faqatgina ogohlantirish yoki tanqid bilan cheklanib bo‘lmaydi. Aksincha, yoshlarni qiziqтира oladigan ijodiy tanlovlar, adabiy tilda yozilgan qiziqarli kontent va mobil ilovalar orqali ularni til madaniyatiga jalb qilish kerak. Shuningdek, men o‘zim ham ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til me’yorlariga amal qilishga harakat qilaman. Har bir yozgan postim yoki izohimda imloga e’tibor berishga intilaman. Chunki meningcha, bu faqat tilshunoslik masalasi emas, balki shaxsiy madaniyat va o‘zligimizga bo‘lgan hurmatning ko‘rinishidir. Agar har bir foydalanuvchi shunday mas’uliyat bilan yondashsa, ijtimoiy tarmoqlarda adabiy tilning ta’sir doirasi albatta kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatda nafaqat muloqot vositasi, balki adabiy til madaniyatini rivojlantirishda ham muhim maydon bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan, imloviy va uslubiy xatolar, so‘zlashuv tilining ortiqcha qo‘llanishi adabiy me‘yorlarni zaiflashtirsa, boshqa tomondan, adabiy tilni keng ommaga targ‘ib qilish uchun qulay imkoniyatlarni ham ochib bermoqda. Shu bois, ijtimoiy tarmoqlarda adabiy tilni rivojlantirish masalasiga kompleks yondashuv zarur. Raqamli texnologiyalar yordamida xatolarni avtomatik aniqlash, sifatli kontent yaratish, yoshlarni adabiy tilga qiziqtirish uchun ijodiy loyihalarni yo‘lga qo‘yish muhim vazifalardan biridir. Tilshunos olimlar, pedagoglar, ijodkorlar va blogerlarning hamkorlikdagi sa‘y-harakatlari orqali adabiy til madaniyatini ijtimoiy tarmoqlarda mustahkamlash mumkin. Shaxsiy nuqtayi nazarimdan, bu masala har bir foydalanuvchining shaxsiy mas‘uliyatiga ham bog‘liq. Chunki biz yozgan har bir jumla, bildirgan har bir fikr nafaqat o‘zimizning, balki xalqimiz til madaniyatining ham bir bo‘lagidir. Agar har birimiz adabiy tilda yozishga intilsak, ijtimoiy tarmoqlarda tilimizning qadr-qimmati yanada ortadi, yoshlarimiz esa adabiy tilning boy imkoniyatlaridan to‘liq bahramand bo‘lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev, N. (2021). *O‘zbek adabiy tili va til madaniyati*. – Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Abduazizov A. *Tilshunoslikka kirish: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
3. Mahmudov, N. (2020). *O‘zbek tilining nazariy asoslari*. – Toshkent: Ma‘naviyat.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5850-son Farmoni.
5. Xudoyberganova, D. (2022). “Raqamli texnologiyalar va o‘zbek tili: imkoniyatlar va muammolar.” *Filologiya masalalari* jurnali, №3, 45-52-betlar.

6. Karimova, M. (2021). “Ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyati: nazariy yondashuvlar va amaliy kuzatuvlar.” *O‘zbek tilshunosligi axborotnomasi*, – №2. –B. 110-118.

7. Crystal, D. (2011). *Internet Linguistics: A Student’s Guide*. London: Routledge.

8. Androutsopoulos, J. (2014). “Mediatization and sociolinguistic change.” *Key Topics in Sociolinguistics*. Cambridge: Cambridge University Press.

9. UNESCO (2021). *Digital Technologies in Education and Language Preservation*. Paris: UNESCO Publishing.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktabrdagi “O‘zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasi” qarori.

O‘ZBEK ADABIY TILINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA KOMPYUTER DASTURLARINING O‘RNI

Karimova Iroda

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika yo‘nalishi talabasi

irodakarimova05072006@gmail.com

Fayzullayeva E‘zoza

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika yo‘nalishi talabasi

fayzullayevaezoza312@gmail.com

Abduraxmanova Nozima

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika yo‘nalishi talabasi

abduraxmonovanozima908@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy tilining zamonaviy rivojida raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlarining ahamiyati keng yoritiladi. Tilni raqamlashtirish, elektron resurslarni yaratish, sun‘iy intellekt asosida tilni tahlil qilish, ta‘lim jarayonida interaktiv dasturlardan foydalanish, xalq og‘zaki ijodini elektron shaklda saqlash va targ‘ib qilish kabi yo‘nalishlarning afzalliklari va

muammolari ilmiy tahlil qilinadi. Jahon tajribasi va o‘zbek tilshunosligidagi amaliy ishlanmalar qiyoslanib, istiqbol rejalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiy tili, raqamli texnologiyalar, kompyuter dasturlari, elektron manbalar, til korpusi, sun’iy intellekt, til ta’limi.

Annotation. The article extensively covers the importance of digital technologies and computer programs in the modern development of the Uzbek literary language. The advantages and problems of such areas as language digitization, creation of electronic resources, language analysis based on artificial intelligence, use of interactive programs in the educational process, preservation and promotion of folk oral literature in electronic form are scientifically analyzed. World experience and practical developments in Uzbek linguistics are compared, and special attention is paid to future plans.

Keywords: Uzbek literary language, digital technologies, computer programs, electronic resources, language corpus, artificial intelligence, language education.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida barcha milliy tillar o‘zining elektron imkoniyatlarini kengaytirishga intilmoqda. Chunki axborot asrida til faqatgina muloqot vositasi emas, balki ilmiy izlanish, ta’lim-tarbiya, axborot tarqatish va madaniy qadriyatlarni asrash vositasi sifatida ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti ham bu jarayondan chetda qolmasligi, aksincha, zamon bilan hamnafas bo‘lishi zarur. Shu sababli raqamli texnologiyalarni tilni rivojlantirishda keng qo‘llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib keldi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi inson faoliyatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida milliy tillarni saqlash va rivojlantirish uchun elektron korpuslar, avtomatlashtirilgan lug‘atlar, onlayn o‘quv dasturlari, sun’iy intellekt asosidagi tarjima va tahlil tizimlari ishlab chiqildi. Natijada til nafaqat muloqot vositasi, balki raqamli resurs sifatida ham muhim o‘rin egallay boshladi. O‘zbek adabiy tili uchun ham raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarbdir.

Chunki bugungi globalashuv davrida tilning mavqeini nafaqat ijtimoiy hayot, ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda, balki internet makonida ham mustahkamlash zarur. O'zbek tilini elektron shaklda keng tatbiq etish orqali nafaqat milliy madaniyatni targ'ib qilish, balki uni jahon tillari bilan teng darajada rivojlantirish mumkin. Shu bois so'nggi yillarda "O'zbek tilining milliy korpusi"ni yaratish, elektron lug'atlar tayyorlash, orfografik tekshiruv va matn tahrir dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlandi. Biroq mavjud imkoniyatlar hali to'liq raqamli ekotizim darajasiga yetgani yo'q. Shu sababli bugungi kunda tilshunos olimlar, dasturchilar va o'qituvchilar hamkorligida keng ko'lamli loyihalarni amalga oshirish talab qilinmoqda. Aynan shu jarayon o'zbek adabiy tilining raqamli davrdagi istiqbolini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tajribasida ingliz, rus, xitoy tillari uchun keng qamrovli elektron korpuslar, avtomatik tarjima tizimlari, tovushni matnga aylantiruvchi dasturlar va tilni o'rgatish uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqilgan. Masalan, ingliz tilida "British National Corpus", rus tilida "Milliy korpus", xitoy tilida keng elektron bazalar mavjud bo'lib, ular tilshunoslikda ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirmoqda. O'zbek tilshunosligida esa so'nggi yillarda ayrim elektron lug'atlar, onlayn tahlil dasturlari, milliy korpus yaratish bo'yicha tashabbuslar mavjud, biroq ular hali mukammal shakllanmagan. Shuning uchun keng ilmiy izlanish va yangi texnologiyalarni tatbiq qilish zaruriyati mavjud. O'zbek adabiy tilini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish masalasi hozirgi kunda tilshunoslik va ta'lim sohasi olimlari e'tiborida bo'lib turibdi. Jahon miqyosidagi ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, tilni raqamlashtirish va uni kompyuter dasturlari orqali keng ommaga taqdim etish tilning boyligini saqlash, uni rivojlantirish hamda yosh avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, ingliz, rus, xitoy va koreys tillarida yirik elektron lug'atlar, matnlar ombori va maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ilmiy izlanishlar, ta'lim jarayoni va kundalik amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, tilni raqamlashtirish nafaqat ilmiy jihatdan, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham samarali natijalar beradi. O'zbek tiliga oid adabiyotlarda ham so'nggi

yillarda bir qator yangiliklar yuzaga kelgan. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” elektron shaklda keng joriy qilindi, imlo qoidalari asosida ishlab chiqilgan matn tekshiruv dasturlari paydo bo‘ldi, o‘zbek tilini boshqa tillar bilan qiyoslab o‘rganishga xizmat qiladigan elektron lug‘atlar yaratilmoqda. Shuningdek, o‘zbek tilida mobil ilovalar, elektron darsliklar, interaktiv o‘quv qo‘llanmalar tayyorlanmoqda. Ammo mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozircha ularning qamrovi cheklangan, ilmiy izlanishlarda foydalanishga mo‘ljallangan yagona milliy til korpusi to‘liq shakllantirilmagan. Ilmiy manbalarda shuningdek, sun‘iy intellekt dasturlarining tilni rivojlantirishdagi o‘rni haqida ham fikr yuritiladi. Masalan, avtomatik tarjima dasturlari, matnni grammatik va uslubiy jihatdan tahlil qiluvchi vositalar, sheva va dialektlarni adabiy tilga moslashtiruvchi dasturlar jahon tilshunosligida keng qo‘llanilmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida tilni saqlash, uni zamon talablari darajasida rivojlantirish va yoshlar ongida mustahkamlash mumkin.

Metodologiya. O‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlaridan foydalanish metodologiyasi bir necha asosiy yo‘nalishlarga tayanadi. Avvalo, ilmiy metodologiyaning markazida tilni chuqur o‘rganish, uning leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini raqamli muhitga to‘liq ko‘chirish turadi. Bu jarayonda an’anaviy lingvistik yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy texnologik yondashuvlar uyg‘unlashadi. Birinchi bosqichda til materiallari keng qamrovda yig‘iladi. Badiiy asarlar, ilmiy maqolalar, ommaviy axborot vositalari materiallari, og‘zaki nutq namunalari iborat katta hajmdagi matnlar elektron shaklga o‘tkaziladi. Shu orqali tilning barcha qatlamlari raqamli axborot bazasida jamlanadi. Bu ishni amalga oshirishda kompyuter lingvistikasi metodlaridan, matnlarni avtomatik tanib olish texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi bosqichda yig‘ilgan materiallar tahlil qilinadi va tartibga solinadi. Bu bosqichda so‘zlar ma’nosi, qo‘llanish doirasi, grammatik shakllar va uslubiy xususiyatlar alohida belgilanadi. Shu orqali elektron lug‘atlar, imlo tekshiruv dasturlari va tarjima vositalari uchun puxta asos yaratiladi. Uchinchi

bosqichda esa yaratilgan axborot bazasi ta'lim, ilm-fan va kundalik hayotga joriy etiladi. Masalan, maktab va oliy ta'limda raqamli platformalar asosida o'quv dasturlarini yaratish, internet orqali erkin foydalanish imkoniyatini ta'minlash, mobil ilovalar orqali yoshlarning o'zbek adabiy tilidan unumli foydalanishini yo'lga qo'yish metodologiyaning amaliy natijasi bo'lib xizmat qiladi. Metodologiyada shuningdek, xorijiy tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish ham muhim hisoblanadi. Masalan, ingliz va rus tilida yaratilgan yirik korpuslarning tuzilishi, ularning dasturiy ta'minoti, foydalanuvchilarga taqdim etilish shakli alohida o'rganilib, o'zbek tiliga moslashtirilishi lozim. Bu usul yordamida ilmiy asoslangan, foydalanuvchilar uchun qulay va zamonaviy talablar darajasidagi o'zbek tili elektron platformalarini yaratish mumkin. Shu tariqa metodologik yondashuvning asosiy mohiyati shundan iboratki, til materiallarini keng qamrovda yig'ish, ularni ilmiy asosda qayta ishlash va raqamli muhitda samarali qo'llash orqali o'zbek adabiy tilini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo'ladi.

Muhokama va natija. Raqamli texnologiyalar yordamida o'zbek adabiy tili nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki keng jamoatchilik hayotida ham mustahkam o'rin egallashi mumkin. Internet tarmoqlarida o'zbek tilidagi kontentning ortishi milliy qadriyatlarning jahon miqyosida targ'ib qilinishiga xizmat qiladi. Shuningdek, xorijlik o'quvchilar uchun o'zbek tilini o'rganish qulay bo'ladi. Xalq og'zaki ijodini raqamlashtirish orqali esa kelajak avlodlar uchun bebaho manbalar yaratiladi. Bu jarayon adabiy tilning tarixiy ildizlari va zamonaviy taraqqiyotini uyg'un holda o'rganishga imkon beradi. O'zbek adabiy tilini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlaridan foydalanish masalasi ko'p qirrali va keng qamrovli jarayon bo'lib, u nafaqat tilshunoslik, balki ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayot bilan ham bevosita bog'liqdir. Muhokama shuni ko'rsatadiki, tilni raqamli muhitga ko'chirish orqali adabiy tildagi boyliklarni yanada tizimli saqlash, yoshlar orasida keng targ'ib qilish, o'zbek tilini jahon hamjamiyati darajasida tanitish mumkin. Birinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida tilning boy lug'aviy qatlamini ommaga ochiq qilish imkoniyati yuzaga

keladi. Masalan, elektron lug'atlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali o'zbek tilidagi so'zlar, ularning ma'nolari va qo'llanish imkoniyatlari keng foydalanuvchilar ommasiga taqdim etiladi. Bu esa tilning unutilib ketayotgan qatlami, qadimiy so'zlar va iboralarni qayta tiklashga yordam beradi. Ikkinchidan, muhokamalarda shuni alohida ta'kidlash lozimki, kompyuter dasturlari o'zbek tilidagi matnlarni imloviy, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'rilashda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, turli sheva va lahjalarni adabiy tilda standartlashtirish imkoniyati ham yuzaga keladi. Bu esa tilning bir xilligi va ravonligini ta'minlaydi. Uchinchidan, natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish o'zbek adabiy tilini o'rgatishda sezilarli yutuqlarga olib kelmoqda. Elektron darsliklar, interaktiv mashqlar, onlayn test tizimlari va sun'iy intellekt asosida yaratilgan o'quv platformalari talaba va o'quvchilar uchun tilni o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilmoqda. To'rtinchidan, muhokama shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiy tili raqamli muhitda rivojlanishi bilan xalqaro maydonda ham keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Masalan, global ilmiy hamjamiyat bilan hamkorlik qilish, xorijiy tillarga sifatli tarjimalar tayyorlash va o'zbek madaniyatini keng targ'ib qilish uchun zarur vositalar yaratiladi. Natijada shuni aytish mumkinki, o'zbek adabiy tilini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlarining o'rni beqiyosdir. Bu jarayon milliy merosni asrab qolish, yangi avlod ongida adabiy tilni mustahkamlash va uni jahon miqyosida targ'ib qilishda muhim qadam hisoblanadi.

Xulosa. O'zbek adabiy tilini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlari hal qiluvchi omil bo'lib bormoqda. Milliy til korpusini yaratish, sun'iy intellektga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish, interaktiv ta'lim vositalarini keng qo'llash va madaniy merosni elektron shaklda saqlash o'zbek tilining kelajak taraqqiyotini belgilaydi. Bu esa tilni nafaqat mamlakat ichida, balki jahon miqyosida ham keng tanitishga xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlil va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiy tilining zamonaviy bosqichdagi rivoji bevosita raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlariga bog'liqdir. Bugungi globallashuv davrida tilni faqat an'anaviy shaklda asrab qolish kifoya

qilmaydi, balki uni raqamli muhitda keng joriy etish zarur bo'lib bormoqda. Chunki raqamli texnologiyalar tilni nafaqat saqlash, balki uni yanada boyitish, keng ommaga qulay tarzda yetkazish, yosh avlod ongida mustahkamlash imkonini beradi. O'zbek tilida elektron lug'atlar, imlo tekshiruv dasturlari, mobil ilovalar, onlayn o'quv platformalarini yaratish va ularni muntazam takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganib, milliy sharoitga moslashtirilgan yagona o'zbek tili korpusini shakllantirish, sun'iy intellekt asosida ishlovchi tarjima va tahlil dasturlarini ishlab chiqish kelajak uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiy tilini raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish – bu shunchaki texnik jarayon emas, balki milliy ma'naviyat, madaniyat va ma'rifatni asrash hamda rivojlantirishning zamonaviy yo'lidir. Shu bois, ushbu sohada ilmiy izlanishlarni kengaytirish, davlat va jamiyat miqyosida qo'llab-quvvatlash hamda yoshlar orasida raqamli til madaniyatini shakllantirish o'zbek tilining kelajak taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jo'rayev A. O'zbek tili taraqqiyoti va raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Axmedova S., Qurbonov B. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019.
4. Abdullayeva M. O'zbek adabiy tilining zamonaviy jarayonlari. – Samarqand: Zarafshon, 2020.
5. Rasulov R. Raqamli ta'lim va til o'qitish metodlari. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022.
6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
7. Leech G. Corpus Linguistics and the Description of English. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2014.

8. McEnery T., Hardie A. *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
9. Shcherbakova T. *Elektron lingvistik resurslar va ularning ta'limdagi ahamiyati*. – M.: Nauka, 2017.
10. Liu H. *Digital Humanities and Language Technology in East Asia*. – Beijing: Peking University Press, 2018.

SANLI MEDIATIZACIYA HÁM ONIŇ JÁMIETTEGI ROLI

Abdirazzaqova Patma

Doktorant, Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Annotaciya. Bul izertlew cifrlı mediatizaciyanıń zamanagóy jámiyetge roli, onıń sociallıq, siyasiy hám mádeniy strukturalarǵa tásirine itibar qaratıp, úyrenedi. Sanlı texnologiyalardıń jedel rawajlanıwı hám sociallıq media platformalarınıń keńeyiwi menen sanlı mediatizaciya kommunikaciya qalıplerin hám sociallıq ózara qatnasıqlardı qayta qalıplestirdi. Izertlew cifrlı texnologiyalar jámiyetlik ózgeriske qanday tásir etetuǵının úyreniw ushin sorawlar, intervyu hám kontent-analizdi óz ishine alǵan hám muǵdar, hám sapa usıllarınan paydalanadı. Nátiyjeler sonı kórsetedi, cifrlı mediatizaciya siyasiy qararlardıń qalıplesiwi, málimleme almasıwı hám jeke múnásibetlerdiń rawajlanıwı usılın sezilerli dárejede ózgerdedi. Bunnan tısqari, izertlew cifrlı mediatizaciyanıń globallıq kommunikaciyanıń kúsheyiwi hám jalǵan málimlemenin tarqalıwı, sonday-aq, júzbe-júz qatnasıqlardıń qısqarıwı sıyaqlı unamlı hám unamsız tásirlerin kórsetedi. Izertlew, sonday-aq, Ózbekstan hám Oraylıq Aziyada sanlı mediatizaciyanıń ózine tán ózgeshelikleri haqqında túsinikler beredi, sanlı texnologiyalardı sociallıq turaqlılıqtı hám tiykarlanǵan qarar qabıl etiwdi qollap-quwatlaytuǵın tárizde basqarıwdıń áhmietin kórsetedi. Bul izertlew sanlı mediatizaciyanıń zamanagóy jámiyetge qalıplestiriwdegi roli hám onıń keleshekkegi rawajlanıwlar ushin qoyatuǵın qıyınshılıqların tereńirek túsiniwge járdem beredi.

Gilt sózler: sanli mediatizaciya, socialliq tarmaqlar, kommunikaciya, siyasiy tásir, jalgan xabar, Ózbekstan, socialliq ózgeris, sanli texnologiyalar, global kommunikaciya, mádeniy tásir.

Kirisiw (Introduction). Búgingi kúnde sanli texnologiyalar hám internettiń rawajlanıwı jámiyettiń barlıq tarawların, sonıń ishinde, socialliq, siyasiy, ekonomikalıq hám mádeniy strukturalardı sezilerli dárejede ózgertip atır. Sanli mediatizaciya procesi, yaǵnıy málimleme-kommunikaciya texnologiyalarınıń jámiyettegi ornı hám tásiiri, dúnya kóleminde keń dodalanıp atırǵan temalardan biri bolıp esaplanadı. Ásirese, socialliq tarmaqlar hám internet platformaları arqalı maǵlıwmat alıw hám tarqatıw imkaniyatlarınıń artıwı, jámiyettegi siyasiy hám socialliq qatnasıqlardı ózgertip, kommunikaciyanıń jańa túrlerin jaratpaqta. Bwl process, sózsiz, adamlar arasındǵı baylanıslardı, socialliq strukturalardı hám hátte siyasiy qararlardı qalıplestiriwde áhmiyetli rol oynaydı.

Sanli mediatizaciyanıń áhmiyetliliği sonda, ol jámiyettegi jańa kommunikaciyalıq hám socialliq sistemalardı qalıplestirmekte. Jaqında alıp barılǵan izertlewlerde, máselen, Turǵunov (2018) hám Shermatov (2019) dıń jumıslarında, sanli texnologiyalar hám socialliq tarmaqlar jámiyette jańalıqlardı alıw hám tarqatıwda qanday ózgerislerge alıp kelgenligi haqqında sóz etilgen. Búgingi kúnde, socialliq tarmalardıń kúshli tásiiri, mámleketlik siyasat, ekonomika hám jámiyettegi basqa da sistemalarǵa ózgerisler kirgizbekte. Sonıń menen birge, sanli mediatizaciyanıń unamsız tárepleri de bar: máselen, nadurıs málimleme tarqatılıwı, jeke baylanıslardıń azayıwı hám manipulyaciya qáwpi.

Maqsetimiz sanli mediatizaciyanıń jámiyettegi roli, onıń socialliq baylanıslar, siyasiy qararlar hám mádeniy strukturalarǵa tásin talqılaw bolıp tabıladı. Bul izertlewde sanli mediatizaciyanıń jámiyettegi ózgerislerge tásin úyrenip, onıń socialliq, siyasiy hám mádeniy strukturalarǵa tásin tallawǵa háreket etedi.

Usullar (Methods). Bul izertlewde sanli mediatizaciyanıń jámiyettegi roli hám tásin úyreniw ushın kvantitativ hám sıpatlı izertlew metodları birgelikte qollanıldı. Izertlewde paydalanılǵan metodologiya tómendegi tiykarǵı basqıshlardı óz ishine aladı: sorawnama, intervyuler hám kontent tallaw.

Birinshi metod sıpatında, sorawnama qollanıldı. Sorawnama Ózbekstan hám Qaraqalpaqstannıń túrli sociallıq toparlarınıń wákileri arasında ótkerildi. Izertlewde 100 ge shamas qatnasıwshı qatnastı. Olar sanlı texnologiyalar hám sociallıq tarmaqlardı qalay qabıl etetuǵını, bul platformalar arqalı málimleme alıw hám tarqatıwdaǵı ádetleri haqqında maǵlıwmat berdi. Sorawda respondentlerdiń siyasiy qararlar, sociallıq máseleler hám jeke baylanıslar haqqındaǵı pikirleri tallandı. Bul metod arqalı sanlı mediatizaciyanıń jámiyettegi ózgerislerge tásin anıqlawǵa háreket etildi.

Ekinshi metod sıpatında, intervyuler ótkerildi. Izertlewdiń sapa metodologiyası sheńberinde, 50 respondent penen tereń intervyuler ótkerildi. Intervyular arqalı sociallıq tarmaqlar hám sanlı texnologiyalar adamlar arasındaǵı baylanıslar, siyasiy hám sociallıq ózgerisler haqqında qanday pikirlerdi qalıplestiretuǵının tallaw imkaniyatı jaratıldı. Qatnasıwshılar óz tájiriyeberleri, sanlı texnologiyalar hám sociallıq tarmaqlar arqalı islengen ózgerislerdi qalay qabıl etiw haqqında tolıq pikir bildirdi.

Izertlewde kontent analiz usılınan da paydalanıldı. Galaba xabar qurallarında hám sociallıq tarmaqlarda tarqatılǵan informaciyalar, olardıń sociallıq, siyasiy hám ekonomikalıq sistemalarǵa qanday tásir kórsetkeni tallandı. Bul tallaw arqalı sanlı mediatizaciya procesi sociallıq hám siyasiy qararlardıń qalıplesiwine qanday tásir etip atırǵanın anıqlawǵa háreket etildi. Izertlewde Castells (2010) diń "Tarmaq jámiyeti" koncepciyası, Couldry & Hepp (2017) diń "Mediatizaciya" teoriyası hám ózbek ilimpazlarınıń miynetleri tiykarında sanlı mediatizaciyanıń jámiyetke tási tallandı.

Basqasha aytqanda, izertlew metodologiyası sociallıq tarmaqlardıń, sanlı texnologiyalardıń hám málimleme tarqatıw processleriniń jámiyettegi ózgerislerge tásin úyreniw ushın túrli metodlardı birlestiredi. Sorawlar, intervyular hám kontent-analiz arqalı alınǵan maǵlıwmatlar, sanlı mediatizaciyanıń jámiyettegi roli hám onıń túrli sociallıq strukturalarǵa tásin jaqsıraq túsiniwge járdem beredi.

Nátiye (Results). Izertlew nátiyeleri sonı kórsetti, sanlı mediatizaciya jámiyette sezilerli ózgerislerdi júzege keltirgen. Respondentlerdiń 83%i sanlı

texnologiyalardı kúndelikli turmısında belsene qollanıwdı ádet etken. Bul nátiyje Castells (2010) dıń global kommunikaciyanıń rawajlanıwı hám internettiń sociallıq ózgerislerge alıp keliwdegi roli menen sáykes keledi. Respondentleriniń 65 procenti sociallıq tarmaqlar arqalı siyasiy hám sociallıq máseleler boyınsha maǵlıwmat alıwdı abzal kórmekte. Bul, ásirese, jaslar arasında júdá kúshli: olar sociallıq tarmaqlardan tek ǵana jańalıqlar alıw emes, al jámiyettegi ózgerislerge tásir kórsetiw ushın da paydalanbaqta (Shermatov, 2019).

Biraq, sorawnama qatnasıwshılarınıń 52%i sanlı mediataciya sebepli jeke baylanıslarınıń azayǵanın atap ótti. Turkle (2011) dıń pikirinshe, onlayn kommunikaciya real turmıstaǵı baylanıstı qısqartadı hám bul sociallıq baylanıslardıń jamanlasıwına alıp keledi. Sonday-aq, kontent tallaw nátiyjeleri, respublikamız ǵalaba xabar qurallarında tarqatılǵan informaciylar de jámiyettegi siyasiy qararlardı qalıplestiriwde úlken rol atqarǵanın kórsetti.

Sanlı mediatizaciya procesi, global kommunikaciyanı rawajlandırıw menen birge, jámiyettegi siyasiy hám ekonomikalıq sistemalarǵa da tásir kórsetpekte. Castells (2010) dıń aytıwınsha, cifrlı texnologiyalar arqalı tarqatılǵan informaciylar jámiyettegi qararlardı tez qalıplestiredi hám sociallıq ózgerislerge alıp keledi. Turgunov (2018) Ózbekstanda sanlı mediatizaciyanıń jámiyettegi rolin talqılap, sociallıq baylanıslardıń jańa formatların jaratıwǵa imkaniyat beretuǵının atap ótti.

Shermatov (2019) hám Mirzaev (2020) óz miynetlerinde cifrlı mediatizaciyanıń jámiyette sociallıq baylanıslar hám siyasiy strukturalarǵa qanday tásir kórsetetuǵının úyrengen. Olardıń pikirinshe, sanlı texnologiyalar jámiyettegi jańa kommunikaciyalıq strukturanı jaratıwda tiykarǵı qural sıpatında xızmet etedi. Biraq, sociallıq tarmaqlar arqalı tarqatılǵan informaciylar manipulyaciya etiw múmkinshiligin jaratadı hám jeke kommunikaciyanıń jamanlasıwına alıp keledi (Turkle, 2011).

Sanlı mediataciyalaw procesiniń unamsız tárepleri de bar, máselen, málimlemenıń naduris tarqatılıwı hám adamlar arasındǵı manipulyaciya. Bul processtiń global hám óz ara baylanıslı tásiiri, global kommunikaciya hám

mádeniyatlar aralıq almasıw dárejesin asıradı, biraq sonıń menen birge, jeke hám sociallıq baylanıslar, sóylesiwdiń sapasın tómenletiwı múmkin.

Juwmmaq (Conclusion). Izertlew nátiyjelerine tiykarlanıp, sanlı mediatizaciya jámiyette keń kólemlı ózgerislerge alıp keletuǵının kórsetti. Birinshi gezekte, sociallıq tarmaqlar hám sanlı texnologiyalar kommunikaciya hám málimleme almasıw usılların tıp-tiykarınan ózertip jiberdi. Jámiyettegi siyasiy hám sociallıq qararlardı qalıplestiriwde internet hám sociallıq tarmaqlar áhmiyetli rol atqarıp atırǵanın baqlaw múmkin. Respondentlerdiń kópshiligi sanlı texnologiyalardı kúndelikli turmısta jedel qollanıw ádeti bolǵanlıǵın, olardıń siyasiy qararlar hám jámiyettegi áhmiyetli sociallıq máseleler boyınsha pikirlerin qalıplestirgenligin kórsetti.

Biraq, sanlı mediataciyalardıń unamsız tásirleri de ayqın sezildi. Jeke baylanıslar hám sociallıq baylanıstıń azayıwı, onlayn baylanıslardıń real turmıstaǵı baylanıslardıń ornın basıwı mashqalalarǵa alıp kelmekte. Sociallıq tarmaqlarda málimlemenıń tez tarqalıwı, geyde nadurıs yamasa manipulyaciyalıq informaciyalardıń tarqalıwına sebep boladı, bul bolsa jámiyette anıqsızlıq hám qarama-qarsılıqlardı júzege keltiriwi múmkin.

Bul izertlewdiń nátiyjeleri sonı kórsetedi, sanlı mediatizaciyanıń jámiyettegi ózgerislerge tásin jaqsıraq basqarıw hám tártipke salıw zárúr. Málimleme qáwipsizligi hám jeke maǵlıwmatlardı qorgaw, sonday-aq, sociallıq tarmaqlarda málimlemenıń durıslıǵın támiyinlew máseleleri jámiyettiń sociallıq turaqlılıǵın saqlaw ushın áhmiyetli.

Sonıń menen birge, sanlı mediatizaciya tek ǵana unamsız emes, al sociallıq hám siyasiy sistemalardıń nátiyjeli islewine xızmet etetuǵın imkaniyatlar da jaratadı. Bul process, global kommunikaciya hám mádeniyatlararalıq almasıwdı rawajlandırıwǵa, jańa sociallıq birge islesiwlerdi ornalıwǵa xızmet etedi. Izertlewde alınǵan nátiyjeler, sanlı texnologiyalardı jáne de nátiyjeli basqarıw hám olardan jámiyet máplerine xızmet etetuǵın tárizde paydalanıw zárúrligin atap ótedi.

PAYDALANILǵAN ÁDEBIYATLAR:

1. Castells, M. *The rise of the network society*. Wiley-Blackwell, 2010. – B. 87-102.
2. Couldry, N., Hepp, A. *the mediated construction of reality*. Polity Press, 2017. – B. 113-130.
3. Silverstone, R. *Media and morality: on the rise of the mediapolis*. Polity Press, 2005. – B. 45-67.
4. Turkle, S. *Alone Together: Why we expect more from technology and less from each other*. Basic Books, 2011. – B. 99-123.
5. Turg'unov, B. *Raqamli mediatizatsiya va jamiyat: O'zbekistondagi o'zgarishlar*. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 25-40.
6. Shermatov, S. *Raqamli mediatizatsiya va jamiyatdagi o'zgarishlar*. – Nukus: Qoraqalpoq Universiteti, 2019. – B. 55-70.
7. Mirzaev, D. *Ijtimoiy tarmoqlar va ularning jamiyatdagi ta'siri*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2020. – B. 15-30.

XALQ DOSTONLARINI QIYOSLAB O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IMKONIYATLARI

Qosimova Yulduzxon Javlonbek qizi
Yulduzxonqosimova1707@gamil.com
NamDPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq dostonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalarasosida maktab o'quvchilariga samarali o'rgatish imkoniyatlari tahlilqilingan. Dostonlardagi obraz, syujet va badiiy qatlamlar interaktiv metodlar orqalitushuntirilishi, drag-and-drop, multimediali platformalar va mobil ilovalar yordamida talabaning tahliliy fikrlashini rivojlantirishi yoritilgan. Qiyosiy o'qitish yondashuvi orqali turkiy xalq dostonlarining umumiy va milliy jihatlarini aniqlash hamda ta'lim jarayoniga uyg'unlashtirishning afzalliklari ochib berilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarning adabiy ta'limdagi innovatsion roli ilmiy asoslangan holda ko'rsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: xalq dostonlari, raqamli texnologiyalar, drag-and-drop, interaktiv taʼlim, qiyosiy tahlil, mobil ilova.

Аннотация. В данной статье проанализированы возможности эффективного преподавания народных эпосов школьникам на основе современных цифровых технологий. Освещены методы объяснения сюжетов и художественных образов с помощью мультимедийных платформ, методов drag-and-drop и мобильных приложений, способствующих развитию аналитического мышления учащихся. Показаны преимущества сравнительного подхода в обучении для выявления общих и национальных черт тюркских народных эпосов и их интеграции в образовательный процесс. В статье обоснована инновационная роль цифровых технологий в литературном образовании.

Ключевые слова: народные эпосы, цифровые технологии, drag-and-drop, интерактивное обучение, сравнительный анализ, мобильное приложение.

Abstract. This article analyzes the opportunities for effectively teaching folk epics to school students through modern digital technologies. It explores the use of interactive tools such as drag-and-drop activities, multimedia platforms, and mobile applications for explaining narrative structures and literary characters. The benefits of comparative teaching methods for identifying both universal and culturally specific elements of Turkic folk epics are emphasized. The article provides a scientifically grounded view of the innovative role of digital technology in literature education.

Keywords: folk epics, digital technologies, drag-and-drop, interactive learning, comparative analysis, mobile application.

XX asr boshida boshlangan va yangi asrda davom etayotgan elektron taʼlim tizimini yaratish jarayonida adabiyot oʻqitish masalalarini shu nuqtayi nazardan tadqiq qilish va elektron resurslar yaratishda axborot texnologiyalarining oʻrni beqiyosdir. Adabiy taʼlimda badiiy asar tahlilida multimedia dasturlaridan foydalanib, mavzuni qizqarli interaktiv metodlardan foydalanib, dars mashgʻulotlarini tashkil etishda bugungi kunda fan oʻqituvchilari bilan

hamkorlikda ish yurituvchi kompyuter dasturchilari va audio-video muhandislarining sa'y-harakatlari juda muhim hisoblanadi. [66]

Bilamizki, turkiy xalqlar og'zaki ijodiy merosining eng muhim tarmoqlaridan biri – xalq dostonlaridir. Bu dostonlar xalqning tarixi, orzu-umidlari, axloqiy qarashlari va milliy o'zligining yorqin ifodasidir. Xalq dostonlarini qiyosiy o'rganish g'oyasi ilm-fan sohasida XIX–XX asrlarda paydo bo'lib, V.V.Radlov, A. Samoylovich, Ye.E.Bertels, H.T.Zarifov, S. Ayni, O. Sharafiddinov kabi olimlar tomonidan dastlabki qadamlar qo'yilgan. Keyinchalik, M.Mirza, G'.G'ulom, R.Hojiev, M.Yusupov, Sh. Turdimov singari zamonaviy adabiyotshunoslar tomonidan xalq dostonlarini qiyosiy jihatdan o'rganish metodikasi takomillashtirildi.

Maktab o'quvchilari uchun xalq dostonlarini qiyosiy o'rgatish – bu nafaqat badiiy tafakkurni rivojlantirish, balki tarixiy tafakkur, tahlil qilish ko'nikmasi va xalqona qadriyatlarga sadoqatni shakllantirish vositasidir. Ayniqsa, turkiy xalqlarning dostonlari (masalan: Ravshan, Go'ro'g'li, Manas) o'zaro ideya, syujet, obraz, motiv jihatidan qiyoslab o'rganilganda, o'quvchining dunyoqarashi kengayadi. Biroq zamonaviy yoshlar orasida og'zaki adabiyotga nisbatan qiziqish pastligi sababli bu jarayonni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida dostonlarni o'rganish: vizual fikrlashni rivojlantiradi, obrazlar orasidagi o'xshashlik va tafovutlarni tez anglashga yordam beradi, har bir dostonni tahliliy yondashuv asosida o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Masalan, “Ravshan” dostonida keltirilgan har bir obrazni o'quvchi ongiga estetik tarzda singdirish uchun, albatta, axborot resurslaridan foydalanish darkor. Adabiyot o'qituvchisi shunchaki syujetni og'zaki ravishda bayon qilmasdan uni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirishda sun'iy intellektlardan oqilona tarzda qo'llagan holda o'z kompyuter savodxonligini ham ko'rsatishi bugungi zamon talablaridan biri ekanligi sir emas.

⁶⁶ Abdullayeva M. Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv. – Toshkent, 2024. – B. 43.

Buning uchun maxsus mobil ilova yaratish taklif etiladi. Mobil ilovamiz nomi "Dostonlar Qiyosi: Interaktiv Ta'lim" deb atalib, unda asosiy maqsad maktab o'quvchilariga xalq dostonlarining syujeti, qahramonlari, asosiy g'oyalari va badiiy jihatlarini raqamli vositalar orqali qiyosiy tahlil qilish imkonini berishdan iboratdir. Ilovaning asosiy bo'limlari quyidagilardan tashkil topadi:

A) Obrazlarni qiyoslash- bunda o'quvchi kamida uchta doston bilan tanishgan bo'lishi lozim. Masalan, "Ravshan ↔ Manas ↔ Go'ro'g'li" obrazlarini jasorat, axloqiy pozitsiya, oilaviy munosabat, dushman bilan kurashishdagi uslub, nutq uslubi kabi mezonlar bo'yicha taqqoslashni vizual jadval, grafik va infografika orqali ko'rsatish;

B) Syujet bosqichlarini solishtirish- har bir dostonning syujeti 5 bosqichga ajratiladi:

1. Kirish (qahramonning tanishtirilishi) Xususan, "Ravshan" dostonida Burungi o'tgan zamonda el-yurti omonda, o'zi qibla tomonda, Buxorodan to'manda, Taka-Yovmit deganda, Chambilning belida Go'ro'g'libek davrini surib o'tdi.

2. Mojaro. Asarda Go'ro'g'li o'g'li Avazxonnikiga sovcilikka borsa, Avazxon o'zini lochin Hasanxonni esa quzg'un deya ataydi. Umrida suvuq shamol yemagan Ravshan yig'lab qaytib ketadi. Go'ro'g'libekning shomurti shopday, har murti bir kata qopday bo'lib qovog'ini uyib, o'g'lidan ko'ngli qolib, Avazxonning ko'nglini qoldirib bir so'z dedi:

Ne bo'ldi, gapimni qilmading bovar,

Senga qilay ichki so'zlarni izhor,

Tur bor, zotingni aytay, harami,

Sen qayerda lochin eding zanig'ar?!

3. Kulminatsiya. Zulxumor Ravshanga yordam berish maqsadida to'rasiga ushbu xabarni yetkazish uchun zindonga borishi, maynani elchi qilib Chambilga jo'natish tasvirlaridan so'ng Hasanxonning oz qolgan vaqt ichida Qoraxon podshohning yurtiga yetib kelishidan boshlab asar **kulminatsiyasi** boshlanadi. Chunki o'quvchi aynan mana shu yerdan boshlab Ravshanning o'lim yoqasida

turgan taqdiri nima bo‘lishiga qiziqadi, xuddi Ravshanning o‘rnida bo‘lib qolishini tasavvur qiladi.

4.Yechim. Hasanxon va to‘rt kalning Ravshanni o‘limdan qutqarib, murod maqsadlariga yetish voqeasi asar **yechimi** hisoblanadi.

5.Xulosa. Bu bosqichda o‘quvchi dostonidan olgan taassurotlarini yozma ravishda bayon qiladi.

Bundan tashqari xalq dostonlari syujet qismini o‘qitishda O‘quvchi syujet drag-and-drop (moslashtir) usuli orqali to‘g‘ri tartiblab, qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

| Syujet bosqichi | “Go‘ro‘g‘li” dostoni | “Ravshan” dostoni |
|--|----------------------|-------------------|
| Qahramonning tug‘ilishi va tanitilishi | | |
| Dushman bilan qarama-qarshilik | | |
| Hal qiluvchi kurash | | |
| Dostonning yakuni | | |

C) Interaktiv o‘yinlar va testlar

“**Kim aytdi?**” – iqtibosni obrazga bog‘lash orqali ham o‘quvchining intellektual salohiyatini aniqlash mumkin.Elektron doskada tartibsiz joylashtrilgan obrazlar tilidan keltirilgan she’riy parchalar berilgan bo‘ladi. O‘quvchi esa har bir parchani qaysi dostonga tegishli ekanligini moslaganda javobga yashil yulduzchalar porlaydi, xato javob belgilasa, qizil yulduzchalar javobni inkor etadi.

Masalan,

Tanangda sochilgan tillang-qoningdir,

Og‘zingdan uchgan qush joningdir,

Qulagan imorat sening taningdir,

Tushing qursin ta’birlari shu bo‘ldi!...

Yuqoridagi misralar kimning tilidan aytilgan va qaysi doston?

(“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni Yusuf qurandoz tilidan)

Ne bo‘ldi, gapimni qilmading bovar,

Senga qilay ichki so‘zlarni izhor,

Tur bor, zotingni aytay, harami,

Sen qayerda lochin eding zanig‘ar?!

(“Ravshan” dostonida Go‘ro‘g‘lining tilidan aytilgan).

Shuningdek, xalq dostonlarini qiyoslashda **“To‘g‘ri/Notog‘ri”** – dostonlar bo‘yicha faktlar, **“Topshiriq tanlang”** – syujetni davom ettirish, qahramon xarakterini asoslash (AI yordamida tahlil) kabi mobil ilovalarni yaratish ham samaralidir.

D) Audio-video materiallar- har bir doston bo‘yicha qisqacha animatsion sahnalar tayyorlash, ovozli obraz tavsiflari, doston ijrochilarining chiqishlaridan parchalar (multimedia formatda);

E) Mustaqil ijod burchagi- o‘quvchi dostonlar asosida o‘z she‘r, hikoya yoki tahliliy matnini yozadi. Ilova (AI yordamida) yozuvga fikr bildiradi: “Qanday fikr bildirildi?”, “Qiyoslash bo‘yicha qanday mezonlar ishlatilgan?”

Xalq dostonlarini qiyoslashda quyidagi texnologik vositalardan foydalanamiz:

-Frontend: React Native yoki Flutter;

-Backend: Firebase / FastAPI;

-Sun‘iy intellekt: GPT-4.5 (matn tahlili uchun);

-Media qo‘llab-quvvatlash: TTS (text-to-speech), video playerlar;

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlarini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quvchilarda milliy madaniyatga nisbatan qiziqish va hurmat tuyg‘usini oshiradi. Interaktiv vositalar yordamida obraz, syujet va motivlarni qiyosiy tahlil qilish darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli ilovalar orqali taqdim etilgan topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv kompetensiyalarini shakllantiradi. Ushbu yondashuv adabiyot ta‘limini zamonaviylashtirishda samarali innovatsion model sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobirova, M. Y. (2024). Ona tili ta'limi jarayonida didaktik vositalardan foydalanish. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 123-127.
2. Sobirova, M., & Damirova, G. (2024). Ona tilini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-4.
3. Abdullayeva M. Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv. – Toshkent, 2024. – B. 43.
4. Kambarova S. Adabiy ta'limda zamonaviylik tajriba va motivatsiya. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2021.
5. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 22.
6. Mirzayev T. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968. 65-b.
7. Suyarova A. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi (O'quv-uslubiy qo'llanma).
8. Quliyev E. Turkiy xalqlar adabiyoti. – Toshkent, 2022. – B. 18-22.
9. Yusufjonova N. Turkiy xalq dostonlarini qiyosiy-tipologik yondashuv asosida o'qitish texnologiyasi(nom.dis). – Toshkent, 2023.

MUNDARIJA

1-SHO‘BA: FILOLOGIK TA‘LIMDA SUN‘IY INTELLEKT: MUAMMO VA YECHIMLAR

| | |
|--|----|
| 1. <i>Gulnoza Abdurahimova,</i> O‘zbek tilini o‘qitishda sun‘iy intellektning o‘rni..... | 8 |
| 2. <i>Bozorova Sevara Kamol qizi</i> Savdo terminologiyasiga oid ikki tilli lug‘at tuzishda sun‘iy intellekt imkoniyatlari..... | 12 |
| 3. <i>Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi</i> Sun‘iy intellekt va tarjima tizimlarida o‘zbek tilining qo‘llanilishi: imkoniyatlar va istiqbollari..... | 17 |
| 4. <i>Ablaqulov Kamoliddin Bahriddinovich</i> O‘zbekiston ta‘lim tizimida sun‘iy intellektning qo‘llanilishi..... | 22 |

2-SHO‘BA: YANGI O‘ZBEKISTONDA TIL VA ADABIYOT TARAQQIYOTI, YANGI ILMIY TADQIQOTLAR, FILOLOGIK BILIMLARNI O‘QITISHNING SAMARALI YO‘LLARI

| | |
|--|----|
| 5. <i>Safo Matchonov</i> O‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish metodikasi..... | 27 |
| 6. <i>Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna</i> Mediasavodxonlik madaniyatini rivojlantirish..... | 34 |
| 7. <i>Otamirzayeva Gulhayo Baxtiyor qizi</i> Turizm yo‘nalishi talabalarining kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish..... | 44 |
| 8. <i>Abdullayeva Muxlisa Akmaljon qizi</i> Ertaklarni o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish..... | 48 |
| 9. <i>Ismailova Fotima</i> Oliy ta‘limda ingliz tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar..... | 54 |
| 10. <i>Bekmirzayeva Mashhura Shavkatjon qizi</i> | |

| | |
|---|-----|
| Adabiyot darslarini tashkil etishda o‘yin texnologiyasidan foydalanish metodikasi..... | 57 |
| 11. <i>Bibixonim Mamadaminova, Muminjonova Shakhlo</i> | |
| The effectiveness of task-based learning in promoting speaking fluency..... | 60 |
| 12. <i>Turdiqulova Shahsanam, Muminjonova Shakhlo</i> | |
| Using mobile-assisted language learning (mall) for vocabulary retention..... | 65 |
| 13. <i>Azizova Gulmira, Muminjonova Shakhlo</i> | |
| Teachers’ attitudes toward technology integration in language teaching..... | 71 |
| 14. <i>Ergasheva Nafisa, Muminjonova Shakhlo</i> | |
| Gamification in the language classroom: increasing student motivation..... | 76 |
| 15. <i>G‘ulomova X, Bakiyeva H</i> | |
| Ona tili darslarida ta’limiy organayzerlardan foydalanish texnologiyasi..... | 81 |
| 16. <i>Odilboyeva Umida Zafarjon qizi</i> | |
| Teaching english lexicography as a university course at philological faculties..... | 89 |
| 17. <i>Odilboyeva Umida Zafarjon qizi, Mahamadaliyeva MahliyoSohibjon qizi</i> | |
| Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalardga ingliz tilini o‘qitish metodikasi..... | 95 |
| 18. <i>Ziyodaxon Sobirxonova Temurxon qizi</i> | |
| Umumiy o‘rta ta’lim jarayonida tinglab tushunish bilan bog‘liq talablar va mavjud holat tahlili..... | 100 |
| 19. <i>Yuldashev Salaxiddin Azamovich</i> | |
| Tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni..... | 108 |
| 20. <i>Mamasheva Marjona Ulug‘bek qizi</i> | |
| Olmosh mavzusini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish..... | 118 |
| 21. <i>Og‘abek Yuldashev Komiljon o‘g‘li</i> | |

| | |
|---|-----|
| O‘zbek va ingliz tez aytishlarida talaffuz murakkabligini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish..... | 122 |
| <i>22. Guljahon Dexkonova</i> | |
| O‘qituvchi faoliyatini rivojlangan xorij davlatlari tajribasi asosida takomillashtirish..... | 127 |
| <i>23. Kasimova Yulduz Maliokovna, Xakimova Feruza Ixtiyor qizi</i> | |
| O‘smirlar va zamonaviy muammolar: XXI asr ingliz va o‘zbek adabiyotidagi dolzarb yondashuvlar..... | 129 |
| <i>24. Xurshidaxon Odilova Komiljon qizi</i> | |
| Ilm-fanni metodika bilan o‘rganamiz (Mnemonika asosida)..... | 135 |

3-SHO‘BA:GLOBALLASHUV SHAROITIDA ONA TILI VA ADABIYOTNING IJTIMOIIY AHAMIYATI

| | |
|---|-----|
| <i>25. Xashimova Xurshida Djuraxanovna</i> | |
| Texnik terminlarning lingvistik tabiati va xususiyatlari..... | 139 |
| <i>26. Po‘latova Irodaxon Ilhomjon qizi</i> | |
| O‘lim tushunchasini anglatuvchi evfemik iboralar (ingliz va o‘zbek tillari qiyosiy tahlili)..... | 147 |
| <i>27. Matluba Olimova</i> | |
| Onomastikaning o‘zbek tilshunosligida shakllanishi va bugungi taraqqiyoti..... | 151 |
| <i>28. Zulaypoyeva Gulmira Ubaydulloyevna</i> | |
| Idiosil va idiolekt tushunchalarining lingvistik tahlili..... | 155 |
| <i>29. Ro‘ziyev Elbek O‘rol o‘g‘li</i> | |
| Tarixiy siyosiy matnlarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari..... | 159 |
| <i>30. Maxmudjonova Gulshaxnoz Ulug‘bek qizi</i> | |
| O‘zbek tili fonologiyasida urg‘uni modellashtirish..... | 169 |
| <i>31. Usmonova Umidaxon Hamzaxon qizi</i> | |
| O‘zbek, rus va ingliz tillarida frazeologik birliklarning o‘rganilishi..... | 174 |
| <i>32. Shahnoza Isaqova</i> | |

| | |
|---|-----|
| Comparative study of english and uzbek folk legends and translation issues..... | 181 |
| 33. <i>Dusmuratov Qahromon Mamadiyevich</i> | |
| Ilhom gʻaniyevning “hayrat va hijron” romani epistolyar shaklning yorqin namunasi..... | 183 |
| 34. <i>Abdullayeva Manzura Nasibullo qizi</i> | |
| Hayratiy poetikasida anʼana va yangilanishning poetik talqini..... | 189 |
| 35. <i>Shamshiyeva Diyora Isroilovna</i> | |
| Olamning lisoniy manzarasida gender stereotiplarining oʻrni..... | 195 |
| 36. <i>Ubaydullayev Shukhrat</i> | |
| Intercultural competence in german as a foreign language teaching: foreign language teaching as an intercultural education..... | 199 |
| 37. <i>Tojimatov Rasuljon Gʻanijonovich</i> | |
| Badiiy uslubning lisoniy xususiyatlari..... | 204 |
| 38. <i>Tursunov Akmal Raxmatullayevich, Jamolov Nurbek Nabijon oʻgʻli</i> | |
| Oʻzbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari..... | 210 |
| 39. <i>Sharipova Mahfuza</i> | |
| “Yulduzli tunlar” romanida temuriy malikalar tasviri..... | 217 |
| 40. <i>Usmonova Gulbahor Rahmatillo qizi</i> | |
| Oʻzbek xalq qahramonlik dostonlarida sinonimlarning ifodalanishi..... | 221 |
| 41. <i>Умарова Фарангисбону Фуркатжон кизи, Юсупов Муратбек Рахимович,</i> <i>Безличные глаголы в современном русском языке.....</i> | |
| | 226 |
| 42. <i>Muminjonova Shakhlo</i> | |
| Teaching phonetics, phonology, and morphology to L2 learners to develop students’ language level..... | 234 |
| 43. <i>Fakhriddinova Mukhlisa, Shakhlo Moʻminjonova</i> | |
| Developing critical thinking through communicative language teaching (CLT)..... | 238 |

| | |
|---|-----|
| 44. <i>Alisherova Mavluda</i> | |
| Guljamol Asqarova she'riyatida ayol timsoli..... | 244 |
| 45. <i>Mamadaliyeva Mamlakat Qahramon qizi</i> | |
| Omonilla Madayevning "Alpomish" dostoniga oid ilmiy-estetik qarashlari..... | 247 |
| 46. <i>Usmonjonova Sevinch Akramjon qizi</i> | |
| Milliy g'oya va tarixiy xotira: "Sohibqiron" dramasi-ning asosiy g'oyalari..... | 251 |
| 47. <i>Muhammadjonov Oybek Sobirjon o'g'li</i> | |
| Common issues that language learners have while translating reading materials reasons and solutions..... | 255 |
| 48. <i>Muhtaram Ikramova</i> | |
| Maqsud Shayxzoda hayoti va dramalarining o'rganilishi xususida..... | 259 |
| 49. <i>Allamuratova Xosiyat</i> | |
| O'zbek xalq ismlarida apotropeik komponentlar | 263 |
| 50. <i>Usmonova Malohat Nodirxon qizi</i> | |
| Sifatli ta'limning shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyati..... | 267 |
| 51. <i>Abdulazizov Faxriddin Muxitdin o'g'li</i> | |
| Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi frazemalarning lingvokulturologik xususiyatlari..... | 270 |
| 52. <i>Usmonov Aslam Qarshiboyevich</i> | |
| Nutqiy muloqot jarayonida komik effektlarning lingvopragmatik xususiyatlari... | 279 |
| 53. <i>Usmonova Umida Baxtiyorovna</i> | |
| Ingliz va o'zbek tillaridagi publitsistik matnlarning morfologik aspekti..... | 288 |
| 54. <i>Sindarov Kaxramon Tolliboyevich</i> | |
| Muhammad Yusufning she'riyatida pragmatik elementlarning boyligi..... | 292 |

**4-SHO‘BA:O‘ZBEK ADABIY TILINI RIVOJLANTIRISHDA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA KOMPYUTER
DASTURLARINING O‘RNI**

| | |
|--|-----|
| <i>52. Po‘latova Gulxayyo G‘ofurjon qizi</i> Tezaurus va elektron lug‘atlar..... | 276 |
| <i>53. G‘ofurova Ma‘mura Rashidovna</i> Mustaqil ta‘lim jarayonida mediasavodxonlikni oshirishda raqamli ta‘lim texnologiyalarining imkoniyatlari..... | 282 |
| <i>54. E‘zoza Fayzullayeva, Karimova Iroda, Abduraxmanova Nozima</i> The effectiveness of using digital platforms in teaching the uzbek language..... | 288 |
| <i>55. Abduraxmanova Nozima, Karimova Iroda, E‘zoza Fayzullayeva</i> Ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til madaniyatini shakllantirish muammolari va yechimlari..... | 295 |
| <i>56. Karimova Iroda, E‘zoza Fayzullayeva, Abduraxmanova Nozima</i> O‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlarining o‘rni..... | 300 |
| <i>57. Abdirazzaqova Patma</i> Sanli mediatizatsiya hám oniń jámiettegi roli..... | 307 |
| <i>58. Qosimova Yulduzxon Javlonbek qizi</i> Xalq dostonlarini qiyoslab o‘qitishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari..... | 312 |

